DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N03

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatining muhim komponenti sifatida tabiiy obyektlar milliy boylik va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Jizzax viloyati o‘zining noyob landshaftlari, qo‘riqxonalari, tog‘-dasht zonasidagi landshaftlar bilan ajralib turadi. Joriy yilning 2-dekabr kuni, Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida ishtirok etib, viloyatning Baxmal va Zomin tumanlaridagi tog‘li hududlarni yagona turizm halqasiga birlashtirish orqali yuzlab servis obyektlarini ishga tushirish, minglab odamlarni ishli qilish, turizm eksportini karrasiga oshirish imkoniyati ta’kidlandi. Mutasaddilarga kelgusi yilda Zomin — Baxmal — G’allaorol yo‘lining 158 kilometr qismini ta’mirlashni boshlash topshirildi. Baxmal tumanida 39 gektar maydonda 40 million

dollar investitsiya hisobiga turizm klasterini tashkil qilish tashabbusi ma’qullandi. Baxmal ham “turizm tumani” maqomi berish belgilandi. qisqa vaqt ichida Zomin, Forish, Arnasoy tumanlari va Jizzax shahrida 2 milliard dollarlik 500 dan ortiq turizm va servis obyektlari ish boshladi. Arnasoy va Zominda yil davomida faoliyat yuritadigan kurort zonalari va aeroportlar barpo etilgani Jizzaxni yirik turistik yo‘nalishga aylanganligini ta’kidlab o‘tdi [1].

Jizzax viloyatida tabiiy resurslardan foydalanishda barqarorlik tamoyillari joriy etildi. Sug‘orish tizimlari modernizatsiya qilindi, suv resurslarini tejashga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi. Viloyatining tabiiy go‘zalliklari (masalan, Zomin milliy bog‘i, Nurata tog‘lari) ekoturizmni rivojlantirish uchun foydalanilmoqda. Bu esa tabiiy resurslarni saqlash va ularni mantiqiy foydalanishga yordam beradi. Mustaqillik davrida paxtachilikdan tashqari, bog‘dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik kabi sohalarga e’tibor kuchaydi. Bu esa tabiiy resurslardan foydalanishni muvozanatlashga yordam berdi. Jizzax viloyatida ekoturizm tarmog‘ining rivojlanish jarayonlari, uning ilmiy-nazariy asoslari va iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy-geografik jihatlarini ochib berish, to‘plangan tarixiy tajriba asosida vodiy tabiatining ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish, ulardan oqilona foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jizzax viloyatida turizmning rivojlanishida tabiiy resurslar alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari va bu rayonlarning ekoturistik tavsifini A.Nig‘matov va N.Shomuratovalar tomonidan mamlakat hududi o‘n to‘rt ekoturistik rayonga ajratilgan [2]. Jizzax viloyatida tabiat bilan bog‘liq turizm tarmoqlarini rivojlanishi Sirdaryo rayoni, Aydarko‘l rayoni va Turkiston rayonlariga bo‘lingan. A.Toyloqov va D. Berdievalar ekoturizmni rivojida Aydar-Aranasoy ko‘llar tizimi muhim ahamiyatga egaligi o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatib o‘tishgan[3]. T. Ergashev O‘n ikki ming gektarga yaqin maydonni egallagan eng yirik va tabiiy o‘rmonlar Zomin ekoturistik manzilgoh sifatida ichki va tashqi turizmda muhim ahamiyatga ega. Tog‘ yonbag‘irlari go‘zal daralar bilan o‘ralgan. Daryo va soy bo‘ylarida oqteraklar, majnuntollar va jiydalardan iborat to‘qayzorlarga ekoturistik mashrutlar tashkil etilgan haqida ma’lumotlar tadqiqotlarida keltirib o‘tgan [4]. Muxamedov O.I., Jurayeva D.D. Jizzax viloyati ekoturistik imkoniyatlaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumotlar berilgan [5]. Usmanov m. Jizzaxning rekreatsion-sayyohlik imkoniyatlari haqida tadqiqotlar olib borish natijasida Turkiston tog‘ tizmasining shimoliy yonbag‘rida joylashgan Chumqortog‘ turistik-rekreatsiya mintaqasida sport-sog‘lomlashtirish, tabiat yodgorliklari, archazorlar, suv bo‘ylarida ekskursiyalar tashkil etish, Novqin suv ombori hududida suv sportini rivojlantirish, quyosh va havo vannalarini qabul qilish imkoniyati mavjudligi bu hududda turizm hamda rekreatsiyani rivojlantirish imkoniyati yuqori ekanligini ta’kidlab o‘tadi [6].

Natija va muhokama. Jizzax viloyati O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, Shimoli-sharqda Qozog‘iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubiy-g‘arbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh [7]. Jizzax viloyatida ham turizm va ekoturizmni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan. 372 ta madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan. Ulardan 42 ta tarixiy obida va ziyoratgohlar bo‘lsa, 267 ta arxeologiya, 63 ta monument yodgorliklari hisoblanadi. 2019-yilning dekabr oyi yakuniga ko‘ra, 91 ta joylashtirish vositalari mavjud bo‘lib, ular 2500 dan ortiq mehmonga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega [8].

Jizzax viloyatining Zomin tumani purviqor tog‘lari, go‘zal tabiati bilan mashhur. Dengiz sathidan 3000 metr balandlikda joylashgan tog‘lar bag‘rida yam-yashil archazorlar, zilol suvli buloqlar, shifobaxsh giyohlar va o‘simliklar sayyohlar e’tiborini tortmay qolmaydi. Bu yerda umumiy maydoni 26 ming 840 gektarga teng Davlat qo‘riqxonasi, 24 ming 110 gektar maydondagi Xalq bog‘i noyob tog‘ ekotizimlarni saqlash, tiklash va tadqiq etish imkonini berishidan tashqari tabiiy shifoxona sanaladi. Unda ekosayyohlar uchun qulay shart-sharoit yaratilgan. O‘n ikki ming gektarga yaqin maydonni egallagan eng yirik va tabiiy o‘rmonlar Zomin ekoturistik manzilgoh sifatida ichki va tashqi turizmda muhim ahamiyatga ega. Tog‘ yonbag‘irlari go‘zal daralar bilan o‘ralgan. Daryo va soy bo‘ylarida oqteraklar, majnuntollar va jiydalardan iborat to‘qayzorlarga ekoturistik mashrutlar doimiy olib borilmoqda [9]. Ekoturizmni rivojida Aydar-Aranasoy ko‘llar tizimi muhim ahamiyatga ega. Bu ekoturistik obyekt Jizzax - Navoiy avtomobil yo‘li bo‘yida joylashganligini hisobga olsak, kelajakda Nurota tog‘ yong‘oqzor qo‘riqxonasi negizida Milliy bog‘ barpo etilishi ushbu hududning yo‘l va boshqa kommunikatsiya sohalarini yaxshilash, turistik infratuzilmalarni barpo etish orqali hududda tog‘ klasterlarini tashkil etishga ham imkoniyat yaratiladi [10]. Hududga bevosita sayohat Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida ekoturizm maqsadida suv va baliq resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ko‘paytirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlar, ilmiy-amaliy xulosalar ekoturizm sohasidagi bilimlarni boyitadi va bu hududdagi suv va biologik resurslardan samarali va oqilona foydalanishga asos bo‘ladi. Aydarko‘l rayonidagi ko‘llar tizimining paydo bo‘lishi bevosita Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liqdir. Sizot suvlari hamda zovurdrenaj suvlarining Aydarko‘l botig‘i tomon harakatlanishi natijasida botiqdagi Tuzkon ko‘lining kengayishi Arnasoy hamda Aydarko‘l ko‘llarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Botiqdagi keyingi dinamik o‘zgarishlar Chordara suv omboridagi (1969) ortiqcha suvlarning tashlanishi bilan bog‘liq. Bu suvlarning to‘planishi natijasida Arnasoy ko‘llari birlashib yagona Aydarko‘llar tizimining paydo bo‘lishiga va undagi faunani boyitib beruvchi “Arnasoy buyurtmaxonasi”ning tashkil etilishiga olib keldi [11].

Jizzax viloyati Mirzacho‘l turistik rayoniga kiritilgan bo‘lib, o‘zining ekoturistik imkoniyatlariga boy hududlardan biri ekanligi ajralib turadi. Bu yerda bir vaqtning o‘zida bir tomoni qizigan qum cho‘llar va ikkinchi tomoni qor bilan qoplangan viqorli tog‘lar yastanib yotadi. Viloyatning ana shunday o‘ziga xos landshaftlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, xushmanzara archazor tog‘lari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Turkiston rayonida ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarga uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘rida 1959 yilda tashkil etilgan, absolyut balandligi 1760-3500 m. umumiy maydoni 21735 ga bo‘lgan “Zomin davlat qo‘riqxonasi”, maydoni 24110 ga bo‘lgan noyob tog‘-archa ekosistemalarini tiklash, va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978 yilda tashkil etilgan “Zomin milliy bog‘i” mavjud. Zomin Davlat qo‘riqxonasi 1994 yil 7 oktyabrdagi “Zomin davlat qo‘riqxonasi hududiy kengaytirish va uni qo‘riqlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan qo‘riqxona hududining aniq chegaralari belgilab chiqilgan [12]. Qo‘riqxonaning Baxmal bo‘limi o‘ziga xos biologik xilma-xillikka ega bo‘lib, o‘simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish maqsadida bu yerda muntazam ravishda nazorat ishlari olib boriladi.

2020-yil 7-avgust kuni Davlat ekologiya qo‘mitasi raisi Shavkat Abdurazakov Jizzax viloyatidagi xizmat safari doirasida Zomin davlat qo‘riqxonasida bo‘ldi. G‘arbiy Tyan-Shanning tabiiy komplekslarini saqlab qolish, u yerdagi hayvonlar va o‘simliklarning noyob turlarini

qo‘riqlashni kuchaytirish hamda ko‘paytirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilandi [13]. Zomin milliy bog‘i va Zomin davlat qo‘riqxonasi Piyoda yurish (trekking) yo‘nalishlarini, Tog‘ ekotizimlarini kuzatish va tabiatni o‘rganish uchun maxsus ekskursiyalar hamda ekologik toza dam olish maskanlarini barpo etish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Zomin milliy bog‘i va Zomin davlat qo‘riqxonasi noyob flora va fauna turlari bilan mashhur bo‘lib, ekologik sayohatlar va dam olish uchun qulay maskanlardir. Zomin va Baxmal bo‘limlaridagi ekoturistik marshrut “Boyqo‘ng‘ir tabiati” ekoturistik marshrut (Baxmal bo‘limi qo‘riqxona hududida joylashgan), “Qirq qiz” ekoturistik marshrut (Zomin bo‘limi qo‘riqlanma hududida joylashgan), “Chortangi darasi” ekoturistik marshrut (qo‘riqxona hududida joylashgan), “Ko‘lsoy tabiati” ekoturistik marshrut (qo‘riqxona hududida joylashgan) va “Qoshqa suv ko‘zatuv markazi” ekoturistik marshrut (Zomin bo‘limi qo‘riqlanma hududida joylashgan). O‘simliklar va hayvonlar hayotini ko‘zatish hamda qo‘riqxonaning tik jarliklari, tog‘larning pastki qismi, o‘rta va baland qismlarini, qorli tog‘ cho‘qqilari va quyuq archazorlarni ko‘rish mumkin. Qo‘riqxona atrofiga yaqin mehmonxona: “Wyndham garden hotel zaamin” mehmonxonasi hududdan 5 km masofada Zomin tumanida joylashgan.

Viloyatda mavjud turistik salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, xalqaro umummavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish maqsadida 2021-yil 6-aprelda “Zomin” turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini ham farmoni qabul qilindi [14]. Farmonda Turistik zona hududida “Suffa platosi. 2400” xalqaro umummavsumiy kurorti va “O‘riklisoy” turizm majmuasini tashkil etish nazarda tutilgan.

Hukumat qaroriga muvofiq, Jizzax va Navoiy viloyatlarining turistik salohiyatini rivojlantirish maqsadida Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi hamda To‘dako‘l ko‘lida rekreatsion ko‘llar hududi tashkil etiladi [15]. Mazkur rekreatsion ko‘llar hududida 2021–2025-yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Rekreatsion ko‘llar hududiga kiruvchi yer uchastkalarini tadbirkorlarga berish, ularda qurilish va barpo etish loyihalarini amalga oshirish Turizm va sport vazirligi bilan majburiy tartibda kelishiladi.Rekreatsion ko‘llar hududiga kirish nuqtasida axborot markazi va zamonaviy avtoturargoh tashkil etiladi.Tashrif buyuruvchilarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida rekreatsion ko‘llar hududida qutqaruv brigadasi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Baxmal o‘rmon xo‘jaligi hududida joylashgan Baxmal dam olish va sog‘lomlashtirish oromgohida igna bargli daraxtlari, musaffo havosi, bu hududda tog‘ iqlimi profilaktik-sog‘lomlashtirish muolajalarini o‘tkazish uchun zamonaviy tipdagi uy mehmonxonalari, kempinglar xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Bu yer nafas olish yo‘llari va bronxial astma, allergiya, asab tizimi hamda tayanch-harakat a’zolari xastaligiga chalingan kishilarni sog‘lomlashtirish uchun ixtisoslashgan. Bu hududdagi yana bir necha dam olish maskanlariga tashrif buyurgan sayyohlar uchun supalar, soy va tog‘ yon bag‘ridagi kempinglar, o‘tovlar, xushmanzara tabiat, toza havosi, basseyn, qozon patir, milliy taomlardan bahramand bo‘lish, soy bo‘yidagi ayvonchalarda dam olish va milliy o‘tovlarda tunash, toza sut mahsulotlaridan bahramand bo‘lish hamda quyuq archazorlar oralab ekologik so‘qmoqlarda sayr qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Xulosa. Jizzax viloyatining tabiiy obyektlarini samarali turizm manbaiga aylantirish uchun ekologik toza turizmni rivojlantirish, tog‘ va cho‘l sport turlarini ommalashtirish, agro va gastronomik turizmni targ‘ib qilish hamda zamonaviy marketing yondashuvlaridan foydalanish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi, balki viloyatning tabiiy merosini saqlashga ham xizmat qiladi. Jizzax viloyati o‘zining betakror tabiiy obyektlari bilan ekoturizm, tog‘ turizmi, sport va madaniy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Ushbu obyektlardan samarali foydalanish turizm infratuzilmasini yaxshilash, ekoturistik yo‘nalishlarni yaratish va sayyohlik xizmatlarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Jizzax viloyatini har tomonlama rivojlangan hududga aylantirishga qaratilgan sa’y-harakatlar. Xalq so’zi gazetasi. 2025 yil 3-dekabr, № 252 (9147).
2. Nig‘matov A., Shomuratova N. O‘zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi // Ekologiya xabarnomasi, 2-son, – Toshkent, 2007. – B. 45.
3. Toyloqov A., Berdieva D. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi tabiiy resurslarni ekoturizm va baliqchilikni rivojlantirish maqsadida zamonaviy usullar yordamida baholash // Ekologiya axborotnomasi, 6-son, 2019.–B 36.
4. Ergashev T. Zomin ohanrabosi. // Xalq so’zi, 2018 yil 28 iyul, №155 (7113).
5. Muxamedov O.I., Jurayeva D.D. Jizzax viloyati ekoturistik imkoniyatlaridan foydalanishning o’ziga xos jihatlari. “O’ZBEKISTONNI TOP O’N TURISTIK HUDUDLAR QATORIGA KIRITISH ISTIQBOLLARI: BARQAROR RIVOJLANISH IMKONIYATLARI” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy amaliy anjuman materiallari to’plami 2020 yil 11 12 dekabr.
6. Usmanov M. JIZZAXNING REKREATSION-SAYYOHLIK IMKONIYATLARI. // Jizzax haqiqati gazetasi, 2024 yil 18-yanvar.
7. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, J-harfi. 2000-yil 136-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.
8. Rahmonqulova X. Dunyoga yuz ochayotgan yurt. // Jizzax haqiqati, 2020 yil 20 yanvar.
9. Ergashev T. Zomin ohanrabosi. // Xalq so‘zi, 2018 yil 28 iyul, №155 (7113).
10. Mo’minov Azizbek Ziyoviddinovich. “O’zbekistonda ekologik turizmning rivojlanish jarayonlari (1991-2020 yy)”. 07.00.01- O’zbekiston tarixi.Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan. DISSERTASIYA. Toshkent – 2021. 137-bet.
11. Matmurodov M. Ekoturizm. Ma’ruzalar matni. – Nukus, 2008. 81–bet.
12. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 7 oktyabrdagi “Zomin davlat qo‘riqxonasi hududiy kengaytirish va uni qo‘riqlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 498-son qarori.
13. Zomin davlat qo‘riqxonasiga tashrif. Davlat ekologiya qo‘mitasi Matbuot xizmati. https://uznature.uz/uz/site/news?id=925.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Zomin” turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida " dagi . PF-6201-son farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.04.2021-y., 06/21/6201/0302-son
15. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 16 iyundagi “O’zbekiston Respublikasida suvda dam olish va plyaj turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 368-son qarori.
16. Muminov, A. Z. (2018). DEVELOPMENT OF ECOLOGIC TOURISM IN UZBEKISTAN. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, *3*(3), 123-126.

17. Babajanova, D., Isakov, B. N., Tilabaev, S. B., & Muminov, A. Z. (2022). Interaction of Tourism Development in Uzbekistan with Types of Historical and Cultural Monuments. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1730-1739.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

HISTORY OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN SHAHRUKH MIRZO AND THE OTTOMAN EMPIRE

Ne'matov Khumoyun To'lqin oglu
Oriental University Samarkand Campus
1st year master's student in history

Abstract. This article examines the history of diplomatic relations between the ruler of the Timurid state, Shahrukh Mirza, and the Ottoman state. The article analyzes the diplomatic relations, correspondence, and political compromises between the two states. It is illustrated by the fact that Shahrukh Mirza's Western policy was aimed at maintaining peace and stability rather than military expansion, based on scientific literature and scientific articles.

Keywords: Timurids, Ottomans, diplomatic relations, Shahrukh Mirza, Mahmud Chalabi, letter, embassy, Murad II, Black Sheep.

SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O`RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI

Ne’matov Xumoyun To‘lqin o‘g‘li
Oriental Universiteti Samarqand kampusi
tarix 1-kurs magistranti
E-mail: hnematov264@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davlati hukmdori Shohruh Mirzo va Usmoniylar davlati o‘rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi yoritiladi. Maqolada ikki davlat o‘rtasida olib borilgan elchilik munosabatlari, yozishmalar va siyosiy murosasi tahlil qilinadi. Shohrux Mirzoning g‘arbiy siyosati harbiy ekspansiyadan ko‘ra tinchlik va barqarorlikni saqlashga qaratilgani ilmiy adabiyotlar va ilmiy maqolalar asosida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, Usmoniylar, diplomatik aloqalar, Shohrux Mirzo, Mahmud Chalabiy, maktub, elchilik, Murod II, Qora qo‘yunlilar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N04

Kirish. Amir Temur davrida Movarounnahr va Usmoniylar davlati o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda tomonlarning siyosiy yondashuvlarida muayyan farqlar kuzatiladi. Xususan, Amir Temur tashqi siyosatda vazmin va ehtiyotkor diplomatik yo‘l tutgan bo‘lsa, Usmoniylar davlati hukmdori Boyazid Yildirimning siyosiy faoliyatida keskinlik unsurlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Biroq keyingi davrlarda, har ikki davlat hukmdorlari avlodlari zamonida, o‘zaro munosabatlarda harbiy qarama-qarshilikdan ko‘ra diplomatik aloqalarning ustuvor ahamiyat kasb etganini kuzatish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Temuriylar va Usmoniylar davlatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning mazmuni, shakllari va siyosiy ahamiyatini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, Temuriylar va Usmoniylar o‘rtasidagi munosabatlar tarixshunoslikda asosan Amir Temur va Boyazid Yildirim o‘rtasidagi

Anqara jangi doirasida talqin qilinib kelinadi. Shohrux Mirzo hukmronligi davridagi diplomatik aloqalar esa yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirish, XV asrning birinchi yarmida mintaqaviy siyosiy barqarorlikni ta’minlashda diplomatiyaning o‘rnini ochib berish bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar tahlili. Temuriylar va Usmoniylar davlati hukmdorlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi bo‘yicha dunyoda va yurtimizda yetakchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu ilmiy izlanishlarda Shohruh Mirzo va Usmoniylar hukmdorlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, Fransuz turkologi Jan-Pol Ru o‘z asarida, Yangi hukmdor Shohrux Mirzo tinchlikka yo‘naltirilgan siyosat olib boruvchi hukmdor edi, faqat boshqa bir chora qolmaganida chegaralarini himoya qilish va qarindoshlari orasidagi harbiy to‘qnashuvlarga chek qo‘yish uchun urishar edi [1, S. 334]. deb ta’kidlaydi.

Shohrux Mirzoning Oq Qo‘yunlilar va Usmoniylar davlatiga qarshi yurish olib bora olmaganligi, usmoniylarning esa temuriylarni dushman sifatida ko‘rmaganligi sabablarini Turkiyalik Professor Yusuf Çetindağ quyidagicha ifodalaydi. Shohrux Mirzo Temurdan keyin g‘arb tomonga uch marotaba yirik yurishlar uyushtirdi. Bu yurishlar asosan Qora qo‘yunli hukmdorlarining itoatsizligi sababli amalga oshirilgan edi. Ushbu yurishlar davomida Shohrux Mirzo na Oq Qo‘yunlilar, na Usmoniylar bilan urush olib bordi. Chunki har ikkala davlat ham o‘zlarini Shohrux Mirzoning noibi sifatida tan olishgan edi.

Aslida, Usmoniylarning sharqdagi Temuriylar hukmdorligiga dushman bo‘lganini qat’iy tarzda ta’kidlash mushkuldir. Garchi Amir Temur bilan Yildirim Boyazid o‘rtasida bo‘lib o‘tgan yirik jangdan keyin ayrim kichik ziddiyatlar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, Usmoniylarning sharqni zabt etish siyosiy maqsadi mavjud bo‘lmagani sababli, ularning temuriylarni dushman sifatida ko‘rgan deyish mumkin emas. Usmoniylar o‘zlariga aniq va ochiq xavf tug‘ilmagunga qadar, Sharqdagi musulmon turk davlatlari bilan to‘qnashuvlardan qochishga intilganlar. Aksincha, Usmoniy hukmdorlari sharqdagi ushbu davlatlarga nisbatan iliq munosabatda bo‘lganlar [2, S.17-18].

Temuriylar davlatidagi tashqi ishlar bilan shug‘ullanuvchi tizim haqida O‘zbek akademigi Muzaffar Muhitdinovich Xayrullayev o‘z fikrlarini keltiradi. Tarixiy asarlarda uchraydigan temuriy shahzodalar saroyidan xorijiy mamlakatlarga ketgan elchilar, xorijiy elchilarni temuriylar saroyida qabul marosimlari, xorij hukmdorlari bilan yozishmalar, qisqasi, temuriylar xorijiy munosabatlariga doir ko‘plab ma’lumotlar borki, ularni ko‘zdan kechirar ekanmiz, temuriylar saroyida tashqi ishlar bilan shug‘ullanuvchi butun bir tizim ishlab turganini ko‘rish mumkin. Xorijiy davlatga boradigan elchilikni tashkil etish, xorijdan keladigan elchilarni kutib olish, qabul marosimlarini tashkil etish, elchilarga xizmat ko‘rsatish kabi har bir masalaning o‘z mutasaddisi temuriylar saroyida tayin qilingan.

Temuriylar tashqi munosabatlarida ko‘zga tashlanadigan yana bir qirra shuki, ularning xorij hukmdorlari bilan yozishmalarida yoki elchilarning hukmdorlar bilan muloqotlarida, albatta, savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish yoki mustahkamlash va savdogarlar xavfsizligini ta’minlash kabi masalalar ko‘tarilganligini ko‘ramiz. Bu esa temuriy hukmdorlarning savdo-iqtisodiy aloqalarga naqadar jiddiy e’tibor berganligidan dalolat beradi [3, B.103].

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslanildi. Asosiy metodlar sifatida tarixiy-taqqoslash, manbashunoslik tahlili hamda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Shohrux Mirzo va Usmoniylar sultonlari o‘rtasidagi yozishmalar, fathnomalar va elchilik ma’lumotlari birlamchi manbalar sifatida o‘rganildi. Shuningdek,

zamonaviy tarixchilarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, mualliflarning o‘zaro qarashlari solishtirildi.

Tahlil va natijalar. Temur vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Shohrux Mirzo dastlab ichki kurashlar bilan mashg‘ul bo‘lib, bir muddat g‘arb masalalarini e’tibordan chetda qoldirdi. Aynan shu davrda Qora qo‘yunlilar hukmdori Qora Yusuf hamda Usmoniylar davlati boshida turgan Mahmud Chalabiy o‘z davlatlarini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldilar. Shohrux g‘arbda otasi Temur tomonidan o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibni qayta tiklashni istar edi. Shu sababli u Temurning oliy hokimiyatini tan olgan Mahmud Chalabiyning Onadoluda yana siyosiy birlikni ta’minlashini o‘z manfaatlari nuqtai nazaridan ma’qul deb hisoblamadi. Darhaqiqat, 1416-yilda u amirlaridan Burunduq Bahodir orqali yuborgan maktubida usmoniylarning o‘z aka-ukalarini qatl qildirilishini qoralagan edi. Usmoniylar hukmdori esa javob maktubida aytilgan gaplarning to‘g‘riligini tan olib, biroq hokimiyat sheriklikni qabul qilmasligini, sheriklik esa doimo dushmanlarga imkon va jur’at berishini [2, S.16]. Shu sababli ajdodlari tomonidan fath etilgan Salonika viloyati va boshqa bir qancha hududlar qo‘ldan chiqib ketganini ta’kidlagan[4, S.254]. Ushbu jumlalarda Mahmud Chalabiyning keskin so‘zlarsiz Shohrux Mirzoning so‘zlarini to‘g‘riligini ta’kidlagani hamda o‘z aka-ukalarini qatl qildirilish sabablarini tushuntirib o‘tganligi bilan Usmoniylar hukmdorining Shohrux Mirzoga nisbatan ehtiyotkor va itoatkor siyosiy munosabatini o‘zida aks ettiradi.

Temuriy shahzodalarning Usmoniylar, Oq qo‘yunlilar bilan yozishmalarining ko‘pchiligida Qora Yusufning nomi o‘rtaga chiqaveradi. Shohrux Mirzo Usmoniylar sultoni Mahmud Chalabiy (1402-1421)ga noma yo‘llagan. Bu nomada Shohrux, agar Qora Yusuf usmoniylar mamlakatida ko‘ringudek bo‘lsa, uni temuriylar saroyiga jo‘natib yuborishlarini iltimos qiladi. Bu maktubga usmoniylar sultoni mufassal bir javob qaytarar ekan, Qora Yusuf uchun usmoniylar mamlakatiga boradigan yo‘llarni berkitishi yoki uzrxohlik yuzasidan uni (Qora Yusufni) temuriylar saroyiga yuborishga harakat qilajagini ma’lum qiladi[3, B.100].Bu holat Mahmud Chalabiyning otasi Boyazid Yildirim davridagi diplomatik xatolardan saboq olganini ko‘rsatadi.

Bu yillarda Oqqo‘yunlilar hukmdori Qora Yuluk tomonidan Shohrux Mirzoga yuborilgan, biroq manziliga yetmasdan Qora Yusuf qo‘liga tushib qolgan bir maktubda, avvalo Oq qo‘yunlilar, shuningdek Onadolu beklari, Vizantiya va Trabzon takfurlari, gruzin maliklari, Shirvon, Gilon va Luriston beklari Shohrux Mirzoni kutayotganlari bayon etilgan edi. Ushbu maktub sababli xavotirga tushgan Qora Yusuf Usmoniylar sultoni Mahmud Chalabiyga yozgan maktubida Shohrux Mirzo Bo‘g‘ozlargacha bo‘lgan hududlarni istilo etib, Bolqondan Dashti Qipchoqqacha, Darbanddan Ozarbayjongacha yurish qilish niyatida ekanini bildirgan. Mahmud Chalabiy esa bu maktubga nisbatan sukut saqladi va har safar Shohruxga bo‘lgan itoatini takrorlab keldi. Hatto Shohrux Mirzoga yo‘llagan bir maktubida Karaman o‘g‘liga qarshi qilgan yurishini o‘zini himoya qilish sifatida qabul qilish lozimligini ta’kidlagan edi. Mahmud Chalabiydan keyin uning o‘g‘li Murod II ham vafotiga qadar Shohrux Mirzoga bo‘lgan sadoqatidan chekinmadi. O‘sha davr Usmoniylar sultonlari qanday bo‘lmasin, Temur davridagiga o‘xshash ikkinchi bir mag‘lubiyatni boshdan kechirishni istamas edilar[2, S.16].Shu bilan bir qatorda, Qora qo‘yunlilar davlati Temuriylar va Usmoniylar o‘rtasida muayyan darajada siyosiy to‘siq vazifasini bajargani ko‘rsatiladi.

Shu vaziyatda, 1420-yil 25-avgustda Shohrux Qora Yusufga qarshi harakatga o‘tdi. Shohrux Mirzoning qo‘shini sharqiy Onadolugacha yetib keldi. Shohrux Mirzoga Qora

Yusufning vafot etgani haqidagi xabar yetib keldi va qoraqo‘yunlilar tarqalib ketdilar. Shohrux Mirzo bu g‘alabadan g‘oyat mamnun bo‘lib, ko‘plab davlatlar hukmdorlariga fathnomalar yubordi. Bu fathnomalardan biri Usmoniylar hukmdoriga ham yo‘llangan edi. Shohrux Mirzo ushbu fathnomada qoraqo‘yunlilarni mag‘lub etganini hamda Ozarbayjon va Tabrizni o‘z hukmronligi ostiga olganini ma’lum qilgan. E’tiborlisi shundaki, bu yurish davomida Usmonlilar bilan Temuriylar o‘rtasida hech qanday qurolli to‘qnashuv sodir bo‘lmadi[2, S.16].

Shohrux Mirzo Xuroson tomon qaytgach, Iskandar Ozarbayjonni yana qayta egallaydi. Shuningdek, Mamluklar ham Shohrux Mirzoning ittifoqchilaridan bo‘lgan Oq qo‘yunlilarga hujum qildilar. Natijada Shohrux Mirzo 1429-yilda ikkinchi bir harbiy yurish uyushtirishga qaror qildi. Bu yurish amalga oshirilishini eshitgan Usmoniylarning barcha dushmanlari quvonishgan edilar, chunki bu ikki davlat har qanday paytda bir-biri bilan to‘qnash kelishi mumkin edi. Shohrux Mirzo Ozarbayjonga yurishni amalga oshirdi . Iskandar bo‘lib o‘tgan urushda yengildi. Shohrux bu g‘alabasi munosabati bilan yana fathnomalar yozdirib, Usmoniylar hukmdori hamda boshqa ko‘plab hukmdorlarga yubordi. Iskandarning mag‘lubiyatga uchrashi bilan Shohrux Mirzo va Usmoniylar o‘rtasida hech qanday to‘siq qolmagan edi. Hamma Shohrux Mirzo usmoniylar yerlariga ham hujum qiladi, deb kutayotgan bir paytda, uning kutilmaganda chiqargan qarori bilan Qorabog‘dan Xuroson tomonga qaytib ketishi Usmoniylar tomonidan ijobiy qabul qilindi va ikki davlat o‘rtasida yana tinchlik saqlanib qoldi.

Keyingi yili Ozarbayjon yana notinchlik girdobiga tushdi va Shohrux Mirzo g‘arb tomonga yangi bir yurish uyushtirdi. Qora Qo‘yunlilar bilan temuriylar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jangda qora qo‘yunlilar og‘ir mag‘lubiyatga uchradilar va ularning hukmdori Iskandar Onadolu tomonga qochishga majbur bo‘ldi. Shundan so‘ng Shohrux Mirzo Onadolu beklari nomiga maktublar yuborib, Iskandarni o‘z hududlariga qabul qilmaslik haqida ogohlantirdi. Shuningdek, Murad II ga yuborgan elchisi orqali[2, S.17]. Iskandarning ko‘p fitna, fasod va bosqinchilik qilganini, endi esa qochib yurganini ayttirib, agar u tomonlarga o‘tib qolsa, tutulib o‘ziga jo‘natishini istadi[5, B.77]. 1436-yilda Iskandarni qo‘lga kirita olmagan Shohrux Mirzo Xorazmdan kelgan ayrim salbiy xabarlar sababli ortga qaytishga majbur bo‘ldi.

Murad II Shohrux Mirzoni bezovta qiladigan har qanday harakatdan tiyilishga harakat qilgan edi. Hatto Onadoludagi Karaman O‘g‘illari beyligi, Dulkadir o‘g‘illari beyligi va Murad II Shohrux Mirzo tomonidan yuborilgan shohona to‘nlarni kiyish orqali unga bo‘ysunganliklarini namoyon etdilar. Natijada Shohrux Mirzo katta umidlar bilan chiqqan bu yurishlardan hech qanday aniq natija qo‘lga kirita olmay qaytdi. Ozarbayjon, Sharqiy Onadolu va Iroq hududlarida hukmronlik qilgan qora qo‘yunli davlati mavjudligi sababli u na Usmoniylar, na Mamluklar ustiga yurish qila oldi. Usmoniylar hukmdorlari Mahmud Chalabiy va Murad II Shohrux Mirzo bilan to‘qnash kelmaslikka intilgan holda, o‘z hokimiyatlari va qudratlarini mustahkamlab bordilar. Shu tariqa Shohrux Mirzoning “Bo‘g‘ozlargacha bo‘lgan hududlarni zabt etish” g‘oyasining amalga oshishi tobora qiyinlashib borardi[2, S.17].

Ma’aliy tomonidan tayyorlanib, 1474-yilda Sulton Mahmud II Fotihga taqdim etilgan “Hukumdornoma” nomli asarda Murod II ning Shohrux Mirzo xizmatida bo‘lish uchun qirq nafar saralangan askarni o‘z elchisi orqali ko‘plab sovg‘alar bilan Hirot shahriga yuborgani bayon etiladi[2, S.18]. Asarda quydagi jumlalar o‘rin olgan. Hindiston, Xitoy Mochin va Xo‘tandan unga chinni laganlarda sovg‘alar yuborilganligi qayd etiladi, elchilarning soliq va boj masalalarida imtiyoz so‘rab murojaat qilganlari ham tilga olinadi. Misr sultoni ham Shohruh

Mirzo bilan doimiy diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ygani. U elchilar orqali o‘z hurmati va salomini izhor qilib “Sen podshohlarning podshohisan men sening qulingman “ deya murojaat qilgani keltiriladi. Shuningdek, Usmoniylar sultoni Sulton Murod II Shohrux Mirzoga Venetsiyaning yuqori sifatli qalin matolari, podshohlik darajasiga munosib gilamlar, Shuningdek, zirhli qurollangan askarlar va maxsus himoya yopinchiqlari bilan himoyalangan otlarni yuborgan. Murod II o‘z davrining yuqori darajali kotibiga Shohrux Mirzo uchun maktub yozdirdi. Maktubda Shohrux Mirzoning siyosiy va axloqiy fazilatlari alohida ta’kidlangan. Unda Shohrux Mirzo davlatini adolatli boshqarayotgani, shaxsiy hayotining kamtaronaligi, davlatida tinchlik va barqarorlik ta’minlanganini yuqori baholagan. Shu sababli u boshqa hukmdorlar orasida yetakchi shaxs sifatida e’tirof etilgan. Hatto Murot II Shohrux Mirzo xizmatida bo‘lish uchun yuborgan saralangan askarlarga “ boringlar uning libosining yengini o‘pinglar “ deya so‘zlagani ma’lum. Elchilarning Hirotda Shohruh Mirzoning huzurida Sulton Murodning maktubida yozilgan so‘zlarni o‘qishi Shohrux Mirzo tomonidan ijobiy qabul qilingan. Shuningdek, Usmonli sultoni tomonidan yuborilgan maxsus tanlangan askarlar Sulton Murod II nomidan keltirilgan sovg‘alarni Shohrux Mirzoning huzuriga keltirdilar va ularga o‘tirish uchun 40 dona oltin bilan bezatilgan o‘rindiq qo‘ydilar, 10 dona qurollangan askarlar ustilari yopinchiqlar bilan himoyalangan otlarni ham Shohruhning huzuriga keltirdilar[6, S.536-537]. Shohrux Mirzo Hirotga kelgan elchilar delegatsiyasini nihoyatda ehtirom bilan kutib oldi va ular sharafiga Hirotda bayramona tantanalar tashkil ettirdi[2, S.18]. Bugungi kunda Shohrux Mirzo va Murod II nomalaridan yozilgan olti maktub nusxasi hozirgacha aniqlangan va ilmiy muomalaga kiritilgan hisoblanadi[3, B.102]. Yuqorida Usmoniylar elchilarining Shohrux Mirzo huzuriga sovg‘alar va xos askarlar bilan kelganligi Shohrux Mirzoning mintaqadagi siyosiy mavqeyini tan olinganidan dalolat bermoqda.

Usmoniylar sultoni Sulton Mahmud II Fotih (1444-1446)ning Shohrux Mirzo bilan makotibasining nusxasi ham saqlangan. Ushbu yozma muloqot tashabbusi Mahmud II Fotih tomonidan ko‘rsatilgan edi. Maktubda Fotih o‘z otasi Sulton Murodning saltanat taxtini unga topshirgani va Yevropa ittifoqchi kuchlari bilan bo‘lgan muhorabalarda qozongan g‘alabalari haqida yozgan. Shohrux Mirzo ushbu nomaga javoban o‘z maktubida, avvalo, Fotihni sultonlik taxtiga musharraf bo‘lganligi bilan tabriklab, so‘ng orada savdo, elchilik aloqalarini mustahkamlash istagini bildirgan[3, B.102].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Boyazid Yildirim o‘rtasidagi munosabatlar Anqara jangidagi harbiy to‘qnashuv bilan yakunlangan bo‘lsa, Shohruh Mirzo va Usmoniylar hukmdorlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar aksincha, tinchlik va murosaga asoslangan. Usmoniylar sultonlari Shohrux Mirzoni oliy hukmdor sifatida tan olib urush kelib chiqishidan qochishga intildilar. Natijada ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar XV asrda mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Roux, Jean-Paul. Türklerin Tarihi: Pasifik’ten Akdeniz’e 2000 Yıl. Çevirinler: Prof.Dr. Aykut Kazancıgil, Lale Arslan-Özcan. İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 2004, s. 334.
2. ÇETINDAĞ, Yusuf. “Siyasi Açıdan Timurlu-Osmanlı İlişkileri.” ASOS JOURNAL The Journal of Academic Social Science, 2016, s. 16–17-18.
3. Xayrullayev, M. M. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan. Toshkent: ХЕГА-ПРИНТ, 2003. B. 100–102-103.
4. Aka, İsmail. Mirza Şahruh: Timur’un Hükümdar Oğlu, Uluğ Bey’in Babası (1405–1447). İstanbul: Kronik Kitap, 2022, s. 254

5. Aka, Ismoil. Buyuk Temur davlati. Tarjimon: Tohir Qahhor. Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 1996. B. 77.
6. Togan, Zeki Velidi. “Büyük Türk Hükümdarı Şahruh.” 24.12.1948 tarihinde Eminönü Halkevi’nde verilen konferans, s. 536–537.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933

Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich
Senior Lecturer of the Department of History of Uzbekistan
Andijan State University, Andijan Region, Republic of Uzbekistan
E-mail: noyibxudoyorov1970@gmail.com
http://www.orcid.org/0009-0007-6337-9862

Ruziboev Samandarbek Sobirjon o‘g‘li
1st-year Master’s student of the educational program
“Cultural Heritage of the Near and Middle East and Africa”
Sapienza University of Rome, Rome, Italy
E-mail: roziboyevsamandar00@gmail.com
City: Rome, Italian Republic
http://www.orcid.org/0009-0003-7833-5759

Abstract. This article analyzes the policy of dekulakization and confiscation of peasant households implemented in Kazakhstan between 1929 and 1933. Based on archival documents and regulatory legal acts, the study examines the legal foundations of this policy, its mechanisms of implementation, and its socio-economic consequences. The authors argue that dekulakization served as a preparatory stage for forced collectivization and played a significant role in the formation of the material and technical base of collective farms.

Keywords: dekulakization, forced collectivization, confiscation, peasant households, Kazakhstan, Soviet agrarian policy, repression.

1929–1933-YILLARDA QOZOG‘ISTONDA QULOQLASHTIRISH VA DEHQON XO‘JALIKLARINI MUSODARA QILISH SIYOSATI

Xudoyorov Noyibjon Maripjonovich
O‘zbekiston tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Andijon davlat universiteti, Andijon viloyati, O‘zbekiston Respublikasi

Ro‘ziboyev Samandarbek Sobirjon o‘g‘li
“Yaqin va O‘rta Sharq hamda Afrika madaniy merosi” ta'lim dasturining
1-kurs magistranti
Rim, Sapienza universiteti, Rim, Italiya

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1929–1933-yillarda Qozog‘istonda amalga oshirilgan quloqlashtirish va dehqon xo‘jaliklarini musodara qilish siyosati tahlil qilinadi. Tadqiqot arxiv hujjatlari va normativ-huquqiy qarorlar asosida ushbu siyosatning huquqiy asoslari, amalga oshirish mexanizmlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritlgan. Mualliflar quloqlashtirish jarayoni majburiy kollektivlashtirishga tayyorgarlik bosqichi bo‘lganini va kolxozlarning moddiy-texnik bazasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaganini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: quloqlashtirish, majburiy kollektivlashtirish, musodara, dehqon xo‘jaliklari, Qozog‘iston, sovet agrar siyosati, repressiyalar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N05

Introduction. At the turn of the late twentieth and early twenty-first centuries, the inclusion of archival documents previously marked as “secret” and “top secret” into scholarly circulation made it possible to reassess Soviet agrarian policy. In particular, forced collectivization carried out in the 1920s–1930s and the closely related policy of dekulakization remain among the most significant and controversial topics in historiography. Although the policy of dekulakization in Kazakhstan was implemented on the basis of all-Union decisions, the region’s socio-economic and ethnic characteristics gave this process specific features. As a result of the vague and overly broad interpretation of the concept of the “kulak,” repressive measures were applied not only to wealthy peasant households but also to middle peasants and, in some cases, even poor households. This article examines the legal foundations, mechanisms of implementation, and socio-economic consequences of the dekulakization policy carried out in Kazakhstan between 1929 and 1933, based on an analysis of archival documents and regulatory decisions.

Literature Review and Methodology. In the historiography of the 1920s–1930s, Soviet agrarian policy—particularly the processes of forced collectivization and dekulakization—has been extensively examined. Early scholarly studies of this issue emerged during the Soviet period and were conducted primarily within the framework of Marxist-Leninist methodology and the concept of class struggle. In particular, the materials of the Eighth All-Kazakhstan Regional Conference of the All-Union Communist Party (Bolsheviks), as well as party documents, reveal the ideological foundations of this policy [1; 10]. In the speeches and writings of F. I. Goloshchyokin, the process of socialist transformation in Kazakhstan is justified from a class-based perspective, with the liquidation of kulak and bai households interpreted as a necessary measure [2]. Among Soviet-era scholars, N. A. Ivnitsky regarded dekulakization as an important stage of class struggle in the countryside and analyzed it in close connection with the state’s repressive mechanisms [4]. Documentary collections devoted to rural life on the eve of and during collectivization constitute an important source base for the present study [6; 11]. At the same time, Soviet historiography often portrayed confiscation and resettlement measures in a justificatory manner, without adequately addressing their social consequences.

In the post-Soviet period, a critical reassessment of this problem has intensified. Researchers such as A. P. Kozlov and V. M. Samosudov reconsidered collectivization and dekulakization from the perspective of socio-economic processes and the evolution of historiography [3; 7]. The works of R. A. Medvedev emphasize the role of individual actors and political decision-making in Stalin-era agrarian policy [8]. Regional studies have also highlighted the local specificities of dekulakization and forced resettlement, including the mechanisms of their implementation in Kazakhstan [5].

Methodologically, the study is based on the principles of historicism, systemic analysis, and the comparative-historical method. The main sources include regulatory legal acts, party resolutions, statistical materials, and archival documents. In particular, materials from the Archive of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan and the Russian State Archive of Socio-Political History are of key importance for understanding the practical implementation of the dekulakization policy [9; 12]. In addition, periodical publications and contemporary journalistic works were used in the analysis [13; 14].

Discussion. The mass introduction into scholarly circulation of archival materials previously marked as “Secret” and “Top Secret” led to the emergence of new concepts and research directions in historiography. This development made it possible to achieve a more accurate and comprehensive understanding of historical realities. Following the October Revolution, Soviet authorities divided the rural population into three main socio-economic groups—poor peasants, middle peasants, and kulak-bai households. The Bolsheviks adopted a specific approach to defining the criteria for classifying peasants into these categories. In particular, it was argued that “…it would be more appropriate to distinguish the rich, middle, and poor peasants according to the number of horses they possessed. If a peasant owned many horses, he was almost always considered well-off; if he had a large number of draught animals, this meant that he also had extensive arable land, additional plots beyond his own land, and financial reserves” [1]. At the same time, it was emphasized that “the situation of one-horse peasants was difficult,” and that “if we consider the entire stratum of one-horse peasants, there is no doubt that the majority of them belonged to the poor and needy population” [2]. By the 1920s, key criteria for identifying social groups included the size of landholdings, arable land, draught animals, and the presence of industrial (production) enterprises.

The forced and comprehensive collectivization of agriculture became one of the most violent and painful chapters in the history of Soviet peasantry. The policy of dekulakization implemented in Kazakhstan did not differ significantly from all-Union directives. However, given the region’s complex ethnic composition, certain specific features emerged in the course of this process. In particular, within the framework of social stratification of landowners, not only traditional Russian kulaks but also local Kazakh elites and other representatives of the landowning class were included among the so-called “exploitative elements.”

In Soviet historiography, measures of property deprivation—an integral component of the state’s repressive policy—were presented in a fragmented manner and predominantly within an ideological framework that sought to justify their “legitimacy.” Serious scholarly interest in this issue emerged primarily in the late 1980s and early 1990s, when numerous academic works were produced and significant research was conducted. Nevertheless, many aspects of forced confiscation of property and the resettlement of peasants, especially at the regional level, still require further and more in-depth study.

In contemporary national historiography, the chronological framework of the dekulakization policy—particularly the question of when it began—remains a subject of scholarly debate. A group of researchers associates the initial stage of this policy with the resolution adopted by the Council of People’s Commissars of the USSR on 21 May 1929. Since this document provided a detailed description of the specific characteristics of kulak households, it is interpreted as the prologue, or preparatory stage, of the dekulakization policy.

The vague criteria and broad interpretation of the concept of the “kulak household” during the period of mass collectivization made it possible to classify virtually any peasant household under this category. An analysis of historical sources [3; 4; 5] indicates that this practice lacked an objective basis. In fact, the resolution of the Council of People’s Commissars of the USSR dated 21 May 1929 was aimed, within the framework of the New Economic Policy (NEP), at restricting the economic growth of kulak households, and its objectives were clearly defined.

However, the drastic changes introduced into tax legislation in the autumn of 1929 indicated a completely different direction. These changes made it possible to excessively broaden the concept of the "kulak household," as a result of which middle peasants and even some poor peasants were included in this category. At the same time, they created a legal basis that, in practice, generated favorable conditions for the launch of forced collectivization [3].

Scholars who have examined the policy of dekulakization have largely relied on the interpretation of the Russian term *kulak* found in V. I. Dal's *Explanatory Dictionary of the Living Great Russian Language*, published between 1863 and 1866. In this dictionary, the lexical meaning of the word *kulak* is interpreted, first, as the act of clenching the hand into a fist, symbolizing density and compression. Second, the term *kulak* is applied to a specific social stratum of the rural population in Russia, characterized as miserly, self-interested, harsh, and strong-willed individuals [6].

The first three characteristics in this description correspond in Uzbek to such negative meanings as "stingy," "greedy," and "calculating," whereas the latter two may be interpreted as "determined," "reliable," and "independent." Depending on the context, these qualities may carry either negative or positive connotations. It should also be taken into account that V. I. Dal described the *kulak* stratum as a social phenomenon characteristic of the first half of the nineteenth century.

Russian linguists also interpret the word *kulak* as meaning "buyer," "seller," "collector," and "intermediary," emphasizing that representatives of this group were active participants in market relations rather than mere producers. Importantly, in pre-revolutionary Russia the term *kulak* did not always carry a negative connotation [6].

The abolition of serfdom in Russia in 1861 led to the emergence of new economic relations that significantly affected various social strata, including the social psychology of the peasantry. Rural entrepreneurs who understood the demands of the time began to achieve success not only in agriculture but also in industry. From the 1890s onward, the term *kulak* came to be used in Russia to denote the rural bourgeoisie [1].

In terms of cultural level and living conditions, kulaks did not differ sharply from ordinary peasants. Like other peasants, they directly participated in the labor process. What primarily distinguished kulaks from other rural social groups was their entrepreneurial spirit and business skills. Kulaks expanded their landholdings by leasing land from peasants, landowners, and the state. They owned agricultural machinery and implements, working and breeding livestock, as well as commercial and industrial facilities such as mills and sugar-processing enterprises. Kulaks rented draught animals and equipment to poorer peasants and employed hired labor on their own lands. They played a significant role in agricultural production in Russia, providing nearly 50 percent of grain output, and also controlled systems of trade and product distribution in rural areas.

When speaking about a "broad network of state and collective farms," Stalin undoubtedly idealized the existing situation, presenting a desired state of affairs as reality. At the same time, he expressed confidence that after the defeat of the Right Opposition, the idea of property confiscation would be supported by the majority of the party apparatus.

Stalin was well aware that dissatisfaction with the New Economic Policy (NEP) was widespread within the party, as this policy essentially restored economic arrangements against which the communists had previously fought. In his speech at the Fourteenth Congress of the

All-Union Communist Party (Bolsheviks), he rightly stated: “If communists are asked what the party is more prepared for—dekulakization or abandoning it in favor of an alliance with the middle peasant—I believe that 99 out of 100 communists are ready to support the party’s slogan. They will immediately deprive the kulaks of their property” [7]. In his speech at the Marxist Agrarian Congress, Stalin also determined the future fate of dekulakized peasant households and completely blocked their admission to collective farms. Posing the rhetorical question, “Is it possible to admit a kulak into a collective farm?” Stalin answered it categorically himself: “Of course, a kulak cannot be admitted to a collective farm. This is impossible, because he is a bitter enemy of the collective farm movement” [8].

In December 1929, a commission of the Political Bureau of the Central Committee of the Communist Party of the Soviet Union was established to develop measures for implementing mass collectivization. Its membership included secretaries of regional and local party organizations, among them the representative of Kazakhstan, F. I. Goloshchyokin. Under the leadership of Ya. A. Yakovlev, the commission discussed, among other issues, the liquidation of kulak households. The commission’s conclusions formed the basis of the resolution adopted on 1 February 1930 by the Central Committee of the All-Union Communist Party (Bolsheviks) entitled “On Measures to Strengthen the Socialist Reconstruction of Agriculture in the Areas of Mass Collectivization and the Struggle against the Kulaks” [9].

O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlariga oid huquqiy-me’yoriy baza mustahkamlandi, elektron tender platformalari, elektron raqamli imzolar, shartnomalar monitoringi, sun’iy intellekt va blokcheyn asosidagi nazorat mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy qilindi. Bularning barchasi xarid jarayonlarining tezligi, aniqligi, ochiqligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27 noyabrda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 1005-son Qonuni asosida davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash maqsadida raqamli texnologiyalar keng joriy etildi. “2023–2027-yillarda davlat xaridlari tizimini rivojlantirish strategiyasi doirasida elektron tender platformalari, blokcheyn texnologiyasi, sun’iy intellekt asosidagi tahlil modullari va boshqa raqamli texnologiyalari bosqichma-bosqich joriy qilininadi” [1].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar davlat xaridlarining har bir bosqichida – rejalashtirish, e’lon qilish, baholash, monitoring va ichki audit jarayonlarida samarali qo‘llanilmoqda. Raqamli iqtisodiyot davlat boshqaruvining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Jumladan, dori-darmon va tibbiy buyumlarni davlat xaridlari jarayonlarining raqamlashtirilishi orqali nafaqat byurokratik tartib-qoidalar soddalashtirilmoqda, balki xarajatlarni tejash, ochiqlik va shaffoflik darajasi oshirilmoqda va korrupsion xavflar kamaymoqda.

Davlat xaridlarining shaffofligi, samaradorligi va raqamli texnologiyalar yordamida tezligi oshdi. Elektron tender platformalari, raqamli imzo, blokcheyn va sun’iy intellekt

asosidagi tizimlar orqali xaridlar jarayonida korrupsiyaviy xavflar kamaydi, jamoatchilik nazorati kuchaydi. Bu holat davlat xaridlarining ochiq va adolatli o‘tishini ta’minlab, mamlakatda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shdi.

Bizning fikrimizcha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida sotib olinadigan dori vositalari va tibbiy buyumlarning shoshilinch va tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zarur miqdorda va hajmda xarid qilinishi bo‘yicha mas’uliyat va shaxsiy javobgarlik tibbiyot muassasalari rahbarining zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Natijada, aholi va tibbiyot muassasalarining sifatli dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta’minlanganlik darajasi oshadi. Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi “Xaridlar markazi” va uning 13 ta hududiy filiallari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat uchun to‘lov miqdori xarid summasining 8 foizigacha miqdorda belgilanishi lozim.

Davlat tibbiy sug‘urta tizimida “Xaridlar markazi” davlat muassasasiga xarid qilingan mahsulotlarni saqlash, mahsulotlarni joylarga yetkazib berish hamda tibbiy uskunalarga xizmat ko‘rsatish xizmatini autsorsing asosida tashkil etish huquqini berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari ishtirokchilarining shartnoma majburiyatlariga rioya etishini monitoring qilish, tahlil o‘tkazish va nazorat qilishning raqamli texnologiyalarga asoslangan kompleks dasturini joriy etish muhimdir. Fikrimizcha, elektron platformada axborotlarni joylashtirish, saralash va ma’lumot olishda qulayliklar yaratish maqsadida maxsus axborot portalining veb-dizaynini va funksionalligini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Raqamli iqtisodiyot davlat boshqaruvining barcha sohalariga, jumladan sog‘liqni saqlash sohasiga ham kirib bormoqda. Jumladan, dori-darmon va tibbiy buyumlarni davlat xaridlari jarayonlarining raqamlashtirilishi orqali nafaqat byurokratik tartib-qoidalar soddalashtirilmoqda, balki xarajatlarni tejash, ochiqlik, natijadorlik va shaffoflik darajasi oshirilmoqda va korrupsion xavflar kamaymoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунига давлат харидлари тизимини янада такомиллаштиришга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш ҳақида”ги 1005-сон Қонуни. 2024 йил. 27 ноябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат харидларида ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қуватлаш ҳамда уларга кенг имкониятлар яратиш бўйича қўшимча чора- тадбирлар тўғрисида”ги 417-сон Қарори. 2024 йил. 3 декабрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат тиббий суғуртаси механизмларини жорий этишга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги 311-сон Қарори. 2024 йил 5 сентябрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тиббиёт муассасаларини фармацевтика маҳсулотлари ва тиббий жиҳозлар билан таъминлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги 408-сон Қарори. 2024 йил. 29 сентябрь.
5. Бутковский П.П. Проблемы правового регулирования обязательного медицинского страхования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук (Специальность 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит). Москва. 2005. -С.25.

6. Ёдгоров М.Ф. Соғлиқни сақлаш соҳасида мажбурий тиббий суғуртанинг ўрни.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 6. ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor 2022 йил. №6. -Б.977-983. www.oriens.uz
7. Имонқулов Н.Қ. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимини молиялаштиришда натижага йўналтирилган бюджетлаштириш истиқболлари. и.ф.б.ф.д. д. автореферати. – Т.: ТДИУ, 2024. –Б. 5.
8. Касимова Г., Хайдарова Д. Тиббий суғурта. Монография. Таҳририй -нашриёт. ТДИУ. 2025. -Б.108.
9. Мелиев А.М. Соғлиқни саклаш тизимини давлат томонидан молиялаштиришнинг зарурияти. // Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт. 2024. №3. -Б. 1022-1026.
10. Русецкая Э.А. Формирование и развитие системы медицинского страхования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. (Специальность 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит). Ставрополь. 2004. -С.27.
11. Умрзакова М.Н. Германияда тиббий тиббий суғурта тизими.// ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2023. №9 (169). -Б.57-61.
12. Болтаев С. Давлат харидларида коррупцион хатарлар ва уларга қарши самарали курашиш усуллари. Молиячи маълумотномаси. // Илмий журнал. Тошкент. 2023. №10. –Б. 2-29. WWW.тсmf.uz
13. Сверхточий Б. Социальное страхование в контексте истории. // Социальная защита. – 2003.№ 3. – С.20-24.
14. Эшназаров С. Давлат бюджет назорати тизимини ривожлантириш йўналишлари.\\ Молия. – Тошкент. 2023. №5. – Б.36-42.
15. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг маълумотлари.
16. Бюджетнома 2024-2026. -Б.69-70.
17. https://api.mf.uz/media/filestore/%D0%91%D1%8E%D0%B4%D0%B6%D0%B5%D1%82%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B0_2024-2026_compressed.pdf

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

MULTIFACTOR ECONOMETRIC MODEL OF INFORMATION PRODUCTS BUSINESS DEVELOPMENT: COMPARISON OF OLS AND ARDL

Abdullayev Abdulla Fayzulla ugli
Tashkent State University of Economics, Tortkul Faculty
Assistant, Department of "Specialization, social-humanitarian and exact sciences"
E-mail: abdullajon_uzb@mail.ru

Abstract. The article analyzes a multifactor econometric model for the development of Uzbekistan's information products business based on OLS and ARDL methods. Based on 96 monthly observations (2017-2024), four factors affecting ICT exports were evaluated (employment, services, internet, e-commerce). Level OLS model showed high R^2=97.12%, but revealed multicollinearity (VIF=11.58) and autocorrelation (DW=0.21) problems. First-difference OLS reduced multicollinearity by 88%, eliminated autocorrelation, diagnostic tests improved from 33% to 67%. ARDL model proved most reliable, passing all 6/6 diagnostic tests, cointegration confirmed. Long-run elasticities: LABOR 1.83*** (strongest), SERVICES 0.75***, INTERNET 0.63***, ECOMMERCE 0.15***. Short-run: SERVICES most stable (1.00***), ECOMMERCE negative (-0.07*** substitution effect). Main conclusion: LABOR strategic factor, short and long-run policies should differ. Recommendations: long-term investment in training, domestic market development, digital infrastructure modernization.

Keywords: OLS, ARDL, econometric model, multifactor regression, cointegration, ICT export, Uzbekistan.

AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODELI: OLS VA ARDL TAQQOSLASH

Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti
"Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar" kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston axborot mahsulotlari biznesini rivojlantirishning ko'p omilli ekonometrik modeli OLS va ARDL usullari asosida tahlil qilindi. 96 oylik ma'lumotlar (2017-2024) asosida AKT eksportiga ta'sir etuvchi to'rtta omil (xodimlar, xizmatlar, internet, e-tijorat) baholandi. Level OLS modeli yuqori R^2=97,12% ko'rsatdi, ammo multikollinearlik (VIF=11,58), avtokorrelyatsiya (DW=0,21) muammolari aniqlandi. Birinchi farqli OLS multikollinearlikni 88% kamaytirdi, avtokorrelyatsiyani bartaraf etdi, diagnostik testlar 33%dan 67%ga yaxshilandi. ARDL modeli eng ishonchli bo'lib, barcha 6/6 diagnostik testdan o'tdi, kointegrasiya tasdiqlandi. Uzoq muddatli elastikliklar: LABOR 1,83*** (eng kuchli), SERVICES 0,75***, INTERNET 0,63***, ECOMMERCE 0,15***. Qisqa muddatda SERVICES eng barqaror (1,00***), ECOMMERCE manfiy (-0,07*** substitution effect). Asosiy xulosa: LABOR strategik omil, qisqa va uzoq muddatli siyosat turlicha bo'lishi kerak. Takliflar: kadrlar tayyorlashga uzoq muddatli investitsiya, ichki bozorni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish.

Kalit so'zlar: OLS, ARDL, ekonometrik model, ko'p omilli regression, kointegrasiya, AKT eksport, O'zbekiston.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N08

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda ekonometrik modellashtirish kompleks iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy tahlil qilish va prognozlash uchun asosiy vosita hisoblanadi [1]. Axborot mahsulotlari biznesi kabi tez rivojlanayotgan sohalarda omillar ta'sirini aniq baholash va qisqa hamda uzoq muddatli dinamikani ajratish zarur [2]. Ordinary Least Squares (OLS)

klassik ekonometrik usul bo‘lib, chiziqli munosabatlarni baholashda keng qo‘llaniladi [3]. Biroq, iqtisodiy vaqt qatorlari ko‘pincha nonstatsionarlik, multikollinearlik va avtokorrelyatsiya muammolariga ega [4; 111-120-b.]. Autoregressive Distributed Lag (ARDL) usuli Pesaran, Shin va Smith tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu muammolarni hal qiladi va qisqa hamda uzoq muddatli ta’sirlarni bir vaqtning o‘zida baholash imkonini beradi [5; 289-326-b.].

O‘zbekiston AKT sektori 2017-2024 yillarda jadal rivojlandi: eksport 150,65 mln $dan 640,8 mln $ga (4,3 marta), xodimlar 37,958 mingdan 83,051 minggacha (2,2 marta) oshdi [6]. Biroq, qaysi omillar eng kuchli ta’sirga ega, ularning qisqa va uzoq muddatli dinamikasi qanday, va qaysi ekonometrik usul eng ishonchli - bu savollar chuqur tahlilni talab qiladi. So‘nggi yillarda AKT eksporti bo‘yicha bir qator tadqiqotlar o‘tkazildi, ammo ularning aksariyati yillik ma’lumotlarga asoslangan va diagnostik testlar to‘liq o‘tkazilmagan [7]. OLS va ARDL usullarini to‘liq taqqoslagan, 96 oylik ma’lumotlar bilan barcha diagnostik testlardan o‘tkazilgan kompleks tadqiqot yetarli emas. Ushbu tadqiqot shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning metodik uslublari. Tadqiqotda uchta asosiy ekonometrik yondashuv qo‘llandi. Birinchi, Level OLS (Ordinary Least Squares) - klassik kichik kvadratlar usuli. Modelning umumiy shakli: $\ln(Y_t) = \beta_0 + \beta_1 ln(X_{1t}) + \beta_2 ln(X_{2t}) + \beta_3 ln(X_{3t}) + \varepsilon_t$, bu yerda Y - AKT eksporti, X_1 - xodimlar soni, X_1 - xizmatlar hajmi, X_1 - e-tijorat hajmi, ε - tasodifiy xato. Logarifmik shakl koeffitsientlarni elastiklik sifatida talqin qilish imkonini beradi. OLS baholash Python statsmodels kutubxonasi yordamida amalga oshirildi.

Ikkinchi, Birinchi farqli OLS - nonstatsionarlik muammosini hal qilish uchun farqlash operatsiyasi qo‘llaniladi: $\Delta Y_t = Y_t - Y_{t-1}$. Logarifmik o‘zgaruvchilar uchun $\Delta ln(Y_t) \approx$ foiz o‘zgarish. Farqlash stasionarlikni ta’minlaydi, multikollinearlikni kamaytiradi va avtokorrelyatsiyani bartaraf etadi. Bu yondashuv Hendry tomonidan “umumiydan xususiyga” strategiyasi doirasida tavsiya etilgan [9; 739-769-b.]. Farqli model qisqa muddatli dinamikani ko‘rsatadi.

Uchinchi, ARDL (Autoregressive Distributed Lag) - Pesaran, Shin va Smith tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy usul [10; 371-413-b.]. ARDL ning afzalliklari: (1) o‘zgaruvchilarning turli integratsiya tartibiga yo‘l qo‘yadi (I(0) va I(1)), (2) kichik namunaviy hajmga mos keladi, (3) qisqa va uzoq muddatli ta’sirlarni bir vaqtning o‘zida baholaydi, (4) endogenlik muammosini hal qiladi. ARDL modeli EViews 12 dasturiy paketida baholandi. Bounds test kointegrasiya mavjudligini tekshirish uchun qo‘llaniladi.

Diagnostik testlar har uchala model uchun o‘tkazildi: (1) Multikollinearlik - Variance Inflation Factor (VIF), tanqidiy qiymat VIF>5 muammo, VIF>10 jiddiy muammo [11; 389-397-b], (2) Avtokorrelyatsiya - Durbin-Watson statistikasi, ideal qiymat 2,0 ga yaqin [12; 409-428-b.], (3) Normallik - Jarque-Bera testi, null gipoteza: normal taqsimot, (4) Heteroskedastisite - White testi, null gipoteza: gomoskedastisite. Model sifati R^2 (aniqlash koeffitsienti), Adjusted R^2, F-statistika, RMSE (Root Mean Square Error) orqali baholandi.

O‘zgaruvchilar: ln_EXPORT (AKT eksport, mln $), ln_LABOR (xodimlar, ming kishi), ln_SERVICES (xizmatlar, mlrd so‘m), ln_ECOMMERCE (e-tijorat, trln so‘m). Barcha o‘zgaruvchilar logarifmik shaklda.

Tadqiqot cheklovlari: Yillik ma’lumotlar oylik chastotaga o‘tkazildi (interpolatsiya), bu ma’lum darajada taxminiylikni keltirib chiqaradi; ba’zi omillar (masalan, davlat siyosati) modelga kiritilmagan; 96 kuzatish ARDL uchun yetarli, ammo yanada uzoqroq qatorlar afzalroq.

Adabiyotlar tahlili. OLS usulining nazariy asoslari Gauss tomonidan XIX asrda yaratilgan va Markov teoremasi bilan mustahkamlangan [13]. OLS BLUE (Best Linear Unbiased Estimator) xususiyatiga ega, agar klassik taxminlar bajarilsa. Ammo, iqtisodiy vaqt qatorlari koʻpincha bu taxminlarni buzmaydi: nonstatsionarlik, multikollinearlik, avtokorrelyatsiya [14]. Multikollinearlik muammosi Tu va boshqalar (2004) tomonidan batafsil tahlil qilindi [15; 41-b.]. Erkli oʻzgaruvchilar oʻrtasida yuqori korrelyatsiya koeffitsientlarning turgʻunlashmaganligiga, standart xatolarning ortiqcha katta boʻlishiga va hatto manfiy ishoralarning paydo boʻlishiga olib keladi. VIF (Variance Inflation Factor) multikollinearlikni aniqlashning standart vositasi. Avtokorrelyatsiya Durbin va Watson (1950) tomonidan oʻrganilgan [16]. Vaqt qatorlarida ketma-ket kuzatishlar orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlarning samaradorligini pasaytiradi va statistik xulosalarni notoʻgʻri qiladi. Durbin-Watson statistikasi avtokorrelyatsiyani aniqlashning klassik usuli. Nonstatsionarlik va spurious regression muammosi Granger va Newbold (1974) tomonidan koʻrsatildi [17]. Ikki nonstatsionar vaqt qator oʻrtasida yuqori R^2 va ahamiyatli koeffitsientlar boʻlishi mumkin, ammo bu haqiqiy iqtisodiy bogʻlanish emas, balki umumiy trend ta’siri. Birinchi farqli model bu muammoni bartaraf etadi. ARDL yondashuvi Pesaran va Shin (1998) tomonidan ishlab chiqilgan va Pesaran, Shin va Smith (2001) tomonidan takomillashtirilgan [18]. ARDL ning asosiy afzalligi - oʻzgaruvchilarning turli integratsiya tartibiga yoʻl qoʻyadi, ya’ni I(0) va I(1) aralash boʻlishi mumkin. Bounds test kointegrasiyani tekshirish uchun ishlatiladi - agar F-statistika yuqori tanqidiy qiymatdan katta boʻlsa, uzoq muddatli munosabat mavjud. Hendry (1995) “umumiydan xususiyga” modellashtirish strategiyasini taklif etdi [19]. Birinchi, eng umumiy model (level OLS) qurish, keyin diagnostik testlar oʻtkazish, muammolarni aniqlash va bartaraf etish (farqlash, oʻzgaruvchilarni oʻzgartirish), va nihoyat soddalashtirilgan va ishonchli model olish. Bu strategiya ushbu tadqiqotda qoʻllanildi.

Oʻzbekiston AKT sektori boʻyicha tadqiqotlar mavjud, ammo koʻpchilik yillik ma’lumotlarga asoslangan va diagnostik testlar toʻliq emas [20]. Niebel (2018) rivojlanayotgan mamlakatlarda AKT va iqtisodiy oʻsish munosabatini tahlil qildi [21]. Pradhan va boshqalar (2015) ASEAN mamlakatlarida AKT infratuzilmasi, iqtisodiy oʻsish va moliyaviy rivojlanish dinamikasini oʻrgandilar [22]. Biroq, Oʻzbekiston uchun OLS va ARDL usullarini toʻliq taqqoslagan, 96 oylik ma’lumotlar bilan barcha diagnostik testlardan oʻtkazilgan kompleks tadqiqot yoʻq. Ushbu tadqiqot shu boʻshliqni toʻldiradi.

Muhokama. Level OLS modeli 96 oylik ma’lumotlar (2017.01-2024.12) asosida baholandi. Model tenglamasi:

$$ln(EXPORT) = \beta_0 + \beta_1 ln(LABOR) + \beta_2 ln(SERVICES) + \beta_3 ln(ECOMMERCE) + \varepsilon \quad (1)$$

1-jadval. Level OLS modelining baholash natijalari (96 kuzatish)

O‘zgaruvchi	Koeffitsient	t-statistika	p-qiymat	Ahamiyatlilik
β_0 (Intercept)	3,0869	3,66	0,0004	***
β_1 (ln_LABOR)	-0,1939	-0,89	0,374	ns
β_2 (ln_SERVICES)	1,1892	17,32	0	***
β_3 (ln_ECOMMERCE)	-0,0809	-8,48	0	***
R^2	0,9712			
Adjusted R^2	0,9703			
F-statistika	1035,1		0	***

*Izoh: *** p<0,01, ns - ahamiyatsiz. Manba: Muallif hisoblari.*

Model umumiy statistik koʻrsatkichlari juda yuqori: R^2 = 97,12%, Adjusted R^2 = 97,03%, F-statistika = 1035*** (p<0,001). Bu model eksportdagi oʻzgarishlarning 97,12%ini tushuntirishini koʻrsatadi. Ammo ikki koeffitsient manfiy: ln_LABOR (-0,1939, ahamiyatsiz) va ln_ECOMMERCE (-0,0809***). Bu iqtisodiy nazariyaga zid va multikollinearlik belgisi.

2-jadval. Level OLS diagnostik testlar natijalari

Test nomi	Statistika	Tanqidiy qiymat	Xulosa
Multikollinearlik (VIF):			
ln_LABOR	11,58	>10 (jiddiy)	MUAMMO
ln_SERVICES	7,1	>5 (oʻrtacha)	MUAMMO
ln_ECOMMERCE	7,72	>5 (oʻrtacha)	MUAMMO
Avtokorrelyatsiya:			
Durbin-Watson	0,2107	<1,5 (musbat)	MUAMMO
Normallik:			
Jarque-Bera	8,9066	p = 0,0116	MUAMMO
Heteroskedastisite:			
White test	41,9104	p = 0,000003	MUAMMO
Umumiy:			
Oʻtgan testlar	2/6 (33,3%)	R^2 va F-test	ZAIF

Manba: Muallif hisoblari.

Asosiy muammolar: (1) Multikollinearlik - VIF=11,58 (ln_LABOR) jiddiy muammo, erkli oʻzgaruvchilar oʻrtasida juda yuqori korrelyatsiya (r=0,88-0,97), (2) Avtokorrelyatsiya - DW=0,21 (ideal 2,0), kuchli musbat avtokorrelyatsiya nonstatsionarlikni koʻrsatadi, (3) Heteroskedastisite va normallik - qoldiqlar dispersiyasi oʻzgaruvchan va normal taqsimlanmagan. Faqat 2/6 (33,3%) test oʻtildi.

Muammolarni bartaraf etish uchun birinchi farqli model qurildi:

$$\Delta ln(EXPORT) = \beta_0 + \beta_1 \Delta ln(LABOR) + \beta_2 \Delta ln(SERVICES) + \beta_3 \Delta ln(ECOMMERCE) + \varepsilon \qquad (2)$$

3-jadval. Birinchi farqli OLS baholash natijalari

Oʻzgaruvchi	Koeffitsient	t-statistika	p-qiymat	Ahamiyatlilik
β_0 (Intercept)	0,0004	0,62	0,5374	ns
β_1 (Δln_LABOR)	1,6123	1,89	0,0618	*
β_2 (Δln_SERVICES)	1,0004	11,85	0	***
β_3 (Δln_ECOMMERCE)	-0,0706	-8,04	0	***
R^2	0,7768			
Adjusted R^2	0,7699			
F-statistika	109,32		0	***

*Izoh: *** p<0,01, * p<0,1. Manba: Muallif hisoblari.*

Asosiy oʻzgarishlar: R^2 pasaydi (97% → 78%) - bu normal, sof dinamikani koʻrsatadi, LABOR koeffitsienti ijobiy boʻldi (1,61*), SERVICES barqaror (1,00***), ECOMMERCE hali manfiy (-0,07***).

4-jadval. Farqli OLS diagnostik testlar (Level bilan taqqoslash)

Test	Level OLS	Farqli OLS	O‘zgarish	Status
VIF (max)	11,58	1,44	**-88%**	✅
Durbin-Watson	0,21	1,95	**827%**	✅
JB p-value	0,012	0	Yomonlashdi	❌
White p-value	0	0	O‘zgarmadi	❌
O‘tgan testlar	2/6 (33%)	4/6 (67%)	**100%**	✅

Manba: Muallif hisoblari.

Muvaffaqiyatlar: Multikollinearlik bartaraf etildi (VIF: 11,58 → 1,44, 88% ↓), Avtokorrelyatsiya yo‘qoldi (DW: 0,21 → 1,95, deyarli ideal), Model sifati ikki barobarga yaxshilandi (33% → 67%). Ammo normallik va heteroskedastisite muammolari qoldi.

E-tijorat koeffitsientining manfiy bo‘lishi. Ikkala modelda ham e-tijorat manfiy (-0,08*** va -0,07***). Bu substitution effect (o‘rnini bosish ta’siri) bilan tushuntiriladi: E-tijorat asosan ichki bozorga yo‘naltirilgan, uning o‘sishi bilan AKT kompaniyalari resurslarini (xodimlar, kapital) vaqtincha ichki loyihalarga yo‘naltiradi, qisqa muddatda eksport loyihalariga ajratiladigan resurslar kamayadi. Ammo uzoq muddatda (ARDL modeli) e-tijorat ijobiy (+0,15***).

ARDL(1,0,0,0,0) modeli EViews 12 da baholandi. Optimal lag tuzilmasi Akaike kriteriyasi bo‘yicha tanlandi.

5-jadval. ARDL uzoq muddatli koeffitsientlar

O‘zgaruvchi	Elastiklik	Standart xato	t-statistika	p-qiymat	Ahamiyatlilik
ln_LABOR	1,8347	0,4826	3,8	0,0003	***
ln_SERVICES	0,7456	0,1032	7,23	0	***
ln_INTERNET	0,6284	0,1548	4,06	0,0001	***
ln_ECOMMERCE	0,1532	0,0415	3,69	0,0004	***

*Izoh: *** p<0,01. Manba: Muallif hisoblari (EViews 12).*

ARDL modeli barcha koeffitsientlarni ijobiy va ahamiyatli ko‘rsatdi. Uzoq muddatli elastikliklar: LABOR eng kuchli (1,83***) - xodimlar 1% oshsa, eksport 1,83% oshadi, SERVICES ikkinchi (0,75***) - ichki bozor muhim, INTERNET uchinchi (0,63***) - infratuzilma zarur, ECOMMERCE eng zaif (0,15***) - uzoq muddatda ijobiy.

Bounds test kointegrasiya: F-statistika = 8,42, yuqori tanqidiy qiymat (I(1)) = 4,37. F > I(1) → kointegrasiya tasdiqlandi (p<0,01). Bu uzoq muddatli muvozanat mavjudligini anglatadi.

ARDL diagnostik testlar: R^2 = 98,50%, Adjusted R^2 = 98,39%, Multikollinearlik yo‘q (VIF<2), Avtokorrelyatsiya yo‘q (LM test p=0,45), Normallik: JB p=0,38, Heteroskedastisite: White p=0,22, Barcha 6/6 test o‘tildi.

6-jadval. Uch modelni kompleks taqqoslash

Mezon	Level OLS	Farqli OLS	ARDL uzoq	Eng yaxshi
Model turi	Statik	Qisqa muddat	Uzoq muddat	-
R^2	0,9712	0,7768	0,985	ARDL

Diagnostikalar	2/6 (33%)	4/6 (67%)	6/6 (100%)	ARDL
Multikollinearlik	VIF=11,58	VIF=1,44	VIF<2	ARDL
Avtokorrelyatsiya	DW=0,21	DW=1,95	LM p=0,45	ARDL
LABOR	-0,19 ns	1,61 *	**1,83***	ARDL
SERVICES	1,19***	1,00***	**0,75***	Barqaror
ECOMMERCE	-0,08***	-0,07***	**+0,15***	ARDL
INTERNET	-	-	0,63***	ARDL
Kointegrasiya	-	-	F=8,42***	ARDL

Manba: Muallif hisoblari.

Asosiy xulosalar: (1) ARDL eng ishonchli - 6/6 (100%) test o‘tdi, kointegrasiya tasdiqlandi, (2) SERVICES eng barqaror omil - barcha modellarda ijobiy va ahamiyatli (0,75-1,19***), (3) LABOR uzoq muddatda eng kuchli (1,83***), qisqa muddatda ahamiyatsiz - strategik omil, (4) ECOMMERCE qisqa/uzoq farqi - qisqa: manfiy (substitution), uzoq: ijobiy (raqamlashtirish).

Natijalar. Tadqiqot quyidagi natijalarni berdi:

1. Level OLS yuqori R^2=97,12%, ammo jiddiy muammolar. Multikollinearlik (VIF=11,58), avtokorrelyatsiya (DW=0,21), heteroskedastisite. Faqat 2/6 (33%) diagnostik test o‘tildi. Koeffitsientlar noto‘g‘ri: LABOR manfiy, ECOMMERCE manfiy.

2. Birinchi farqli OLS muammolarni 50% yechdi. Multikollinearlik 88% kamaydi (VIF 11,58 → 1,44), avtokorrelyatsiya bartaraf etildi (DW 0,21 → 1,95), diagnostikalar 2 marta yaxshilandi (33% → 67%). R^2 pasayishi (78%) normal - sof dinamikani ko‘rsatadi. Qisqa muddatli model.

3. ARDL eng ishonchli model. Barcha 6/6 (100%) diagnostik test o‘tildi, kointegrasiya tasdiqlandi (F=8,42***, p<0,01), R^2=98,50%. Barcha koeffitsientlar ijobiy va ahamiyatli.

4. Uzoq muddatli elastikliklar ierarxiyasi (ARDL):

- LABOR: 1,83*** (eng kuchli) - xodimlar 1% ↑ → eksport 1,83% ↑
- SERVICES: 0,75*** - ichki bozor 1% ↑ → eksport 0,75% ↑
- INTERNET: 0,63*** - internet 1% ↑ → eksport 0,63% ↑
- ECOMMERCE: 0,15*** - e-tijorat 1% ↑ → eksport 0,15% ↑

5. Qisqa muddatli dinamika (Farqli OLS):

- SERVICES: 1,00*** (eng barqaror)
- LABOR: 1,61* (kechikish ta’siri)
- ECOMMERCE: -0,07*** (substitution effect)

6. SERVICES eng barqaror omil. Barcha uchta modelda ijobiy va ahamiyatli (0,75-1,19***). Ichki bozor fundamental ahamiyatga ega.

7. ECOMMERCE dinamik moslashuv. Qisqa muddatda manfiy (-0,07***, substitution), uzoq muddatda ijobiy (+0,15***, raqamlashtirish). Farq: +0,22 (sezilarli).

Takliflar. Ekonometrik modellar natijalari asosida quyidagi siyosat tavsifalari ishlab chiqildi:

Uzoq muddatli strategiya (2025-2030):

Kadrlar tayyorlashga investitsiya – 1-raqamli prioritet (elastiklik 1,83*).** AKT ta’limini kengaytirish - universitetlarda yangi dasturlar, IT maktablari, bootcamp, xalqaro sertifikatsiyalar (AWS, CISCO, Google) qo‘llab-quvvatlash. Maqsad: xodimlarni yiliga 15-20% oshirish → eksport 27-37% ↑ (ARDL prognozi). 2030-yilga qadar 300 000 IT mutaxassis.

Ichki AKT xizmatlar bozorini rivojlantirish (elastiklik 0,75*).** E-government xizmatlarini kengaytirish (100+ → 500+ xizmat), startaplar va SME larni qo‘llab-quvvatlash, raqamli platformalar yaratish. Maqsad: ichki bozorni yiliga 20% oshirish → eksport 15% ↑. Ichki bozor eksportning asosi.

Raqamli infratuzilma (elastiklik 0,63*).** Universal internet kirish, 5G barcha shaharlarda (2027), internet narxini pasaytirish, data centerlar (Tier III standart). Infratuzilma eksportning zaruriy sharti.

Qisqa muddatli taktika (2025-2026):

Ichki bozorni tezlashtirish (elastiklik 1,00*).** SERVICES qisqa muddatda eng barqaror va tez ta’sir qiladi. E-government loyihalarini tezlashtirish, davlat zakaz hajmini oshirish.

Kadrlar uchun tezkor dasturlar. IT bootcamp (3-6 oy), internship dasturlari, IT Park bilan hamkorlik. Qisqa muddatda LABOR ta’siri kechikadi (elastiklik 1,61*, ammo ahamiyatsiz), shuning uchun tezkor dasturlar zarur.

E-tijorat va eksportni muvozanatlash. E-tijorat qisqa muddatda eksportga manfiy ta’sir qiladi (substitution effect -0,07***). Eksport kompaniyalariga maqsadli qo‘llab-quvvatlash: grant, kredit, marketing, xalqaro ko‘rgazmalar. Qisqa muddatli substitution effectni neutrallashtirish, uzoq muddatda e-tijorat ijobiy (+0,15***) - to‘xtatmaslik!

Strategik tavsiyalar:

Ikki model ishlatish: Qisqa muddatli prognoz va taktika uchun - Farqli OLS, uzoq muddatli strategiya va rejalashtirish uchun - ARDL.

Omillar prioriteti: Kadrlar (1,83***) > Ichki bozor (0,75***) > Infratuzilma (0,63***) > E-tijorat (0,15***).

Monitoring tizimi: Oylik monitoring - Farqli model asosida, yillik baholash - ARDL asosida.

Xulosa. O‘zbekiston axborot mahsulotlari biznesini rivojlantirishning ko‘p omilli ekonometrik modeli OLS va ARDL usullari asosida kompleks tahlil qilindi. 96 oylik ma’lumotlar (2017-2024) asosida uchta model qurildi va to‘liq diagnostik testlardan o‘tkazildi. Level OLS modeli yuqori R^2=97,12% ko‘rsatdi, ammo multikollinearlik (VIF=11,58), avtokorrelyatsiya (DW=0,21), heteroskedastisite muammolari aniqlandi va faqat 2/6 (33%) diagnostik test o‘tildi, ikki koeffitsient manfiy (LABOR -0,19, ECOMMERCE -0,08***). Birinchi farqli OLS muammolarni sezilarli bartaraf etdi: multikollinearlik 88% kamaydi (VIF 11,58 → 1,44), avtokorrelyatsiya yo‘qoldi (DW 0,21 → 1,95), diagnostikalar 2 marta yaxshilandi (33% → 67%), LABOR ijobiy bo‘ldi (1,61*), SERVICES barqaror (1,00***), ECOMMERCE hali manfiy (-0,07*** substitution effect), R^2 pasayishi (78%) normal - sof dinamikani ko‘rsatadi. ARDL modeli eng ishonchli bo‘lib chiqdi: barcha 6/6 (100%) diagnostik test o‘tildi, kointegrasiya tasdiqlandi (Bounds test F=8,42***, p<0,01), R^2=98,50%, barcha koeffitsientlar ijobiy va ahamiyatli. Uzoq muddatli elastikliklar ierarxiyasi aniqlandi: LABOR 1,83*** (eng kuchli) - xodimlar 1% oshsa eksport 1,83% oshadi, SERVICES 0,75*** - ichki bozor fundamental, INTERNET 0,63*** - infratuzilma zarur, ECOMMERCE 0,15*** - uzoq muddatda ijobiy. Qisqa muddatli dinamika (Farqli OLS) boshqacha: SERVICES eng barqaror (1,00***), LABOR kechikish ta’siri (1,61* ammo ahamiyatsiz), ECOMMERCE manfiy (-0,07*** substitution effect). SERVICES eng barqaror omil - barcha uchta modelda ijobiy va ahamiyatli (0,75-1,19***), bu ichki bozorning fundamental ahamiyatini tasdiqlaydi. ECOMMERCE dinamik moslashuv ko‘rsatadi: qisqa muddatda manfiy (substitution - resurslar ichki loyihalarga yo‘naladi), uzoq muddatda ijobiy

(raqamlashtirish ta'siri), farq +0,22 sezilarli. Siyosat tavsiyalari: uzoq muddatda (2025-2030) kadrlar tayyorlashga investitsiya №1 prioritet (elastiklik 1,83***), maqsad yiliga 15-20% oshirish → eksport 27-37% ↑, 2030-yilga 300,000 IT mutaxassis, ichki bozorni rivojlantirish (elastiklik 0,75***), e-government 500+ xizmat, raqamli infratuzilma 5G va universal internet; qisqa muddatda (2025-2026) ichki bozorni tezlashtirish (SERVICES elastiklik 1,00*** eng barqaror), kadrlar uchun tezkor dasturlar (bootcamp, internship), e-tijorat va eksportni muvozanatlash (substitution effectni neutrallashtirish). Strategik tavsiya: ikki model ishlatish - qisqa muddatli prognoz uchun Farqli OLS, uzoq muddatli strategiya uchun ARDL. Omillar prioriteti: Kadrlar > Ichki bozor > Infratuzilma > E-tijorat. Tadqiqot O'zbekiston axborot mahsulotlari biznesi uchun qisqa va uzoq muddatli siyosatni turlicha yuritish zarurligini isbotladi va ekonometrik modellashtirish orqali aniq miqdoriy asoslarni taqdim etdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Hendry D.F. Dynamic Econometrics / D.F. Hendry. – Oxford: Oxford University Press, 1995. – 872 p.
2. Stock J.H. Introduction to Econometrics / J.H. Stock, M.W. Watson. – 3rd ed. – Boston: Pearson, 2015. – 800 p.
3. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach / J.M. Wooldridge. – 6th ed. – Boston: Cengage Learning, 2016. – 789 p.
4. Granger C.W.J. Spurious Regressions in Econometrics / C.W.J. Granger, P. Newbold // Journal of Econometrics. – 1974. – Vol. 2. – № 2. – P. 111-120.
5. Pesaran M.H. Bounds testing approaches to the analysis of level relationships / M.H. Pesaran, Y. Shin, R.J. Smith // Journal of Applied Econometrics. – 2001. – Vol. 16. – № 3. – P. 289-326.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari statistikasi [Elektron resurs]. – Toshkent: Davstat, 2024. – Mavjud: http://www.stat.uz
7. IT Park Uzbekistan. Yillik faoliyat hisoboti 2024 [Elektron resurs] / IT Park Uzbekistan. – Toshkent, 2024. – Mavjud: https://it-park.uz
8. Denton F.T. Adjustment of monthly or quarterly series to annual totals / F.T. Denton // Journal of the American Statistical Association. – 1971. – Vol. 66. – № 333. – P. 99-102.
9. Hendry D.F. General-to-specific modelling: An overview / D.F. Hendry, H.-M. Krolzig // Oxford Bulletin of Economics and Statistics. – 2005. – Vol. 67. – P. 739-769.
10. Pesaran M.H. Autoregressive Distributed-Lag Modelling / M.H. Pesaran, Y. Shin // Econometric Society Monographs. – 1998. – Vol. 31. – P. 371-413.
11. Tu Y.K. Collinearity in linear regression / Y.K. Tu, D. Clerehugh, M.S. Gilthorpe // European Journal of Oral Sciences. – 2004. – Vol. 112. – № 5. – P. 389-397.
12. Durbin J. Testing for Serial Correlation / J. Durbin, G.S. Watson // Biometrika. – 1950. – Vol. 37. – № 3/4. – P. 409-428.
13. Gauss C.F. Theoria motus corporum coelestium / C.F. Gauss. – Hamburg: Perthes et Besser, 1809.
14. Greene W.H. Econometric Analysis / W.H. Greene. – 7th ed. – Boston: Pearson, 2012. – 1168 p.
15. Tu Y.K. Simpson's Paradox, Lord's Paradox, and Suppression Effects / Y.K. Tu, M.S. Gunnell, M.S. Gilthorpe // Emerging Themes in Epidemiology. – 2008. – Vol. 5. – P. 41.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

SOCIO-POLITICAL AND MORAL PROBLEMS OF DESTRUCTIVE IDEAS

Tashanov Abduxoliq
Head of Department at the Institute for Social and Spiritual Studies,
Doctor of Philosophy (DSc), Associate Professor

Abstract. The article analyzes the essence and nature of destructive ideas and the characteristics of their manifestation in socio-political spheres. It also examines the social consequences of destructive ideas aimed at dismantling social structures, their role in destabilizing the political environment, exerting negative influence on legitimate authority or attempting to overthrow it, inhumane political revolutions, violations of moral norms, and the destructive nature of immorality.

Keywords: destructive ideas, socio-political systems, society, state, social development, social environment, social stability, political instability, crisis.

BUZG‘UNCHI G‘OYALARNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI

Tashanov Abduxoliq
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Maqolada buzg‘unchi g‘oyalarning mazmun-mohiyati, ularning ijtimoiy-siyosiy sohalarda namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy tuzilmalarni yo‘q qilishga qaratilgan buzg‘unchi g‘oyalarning ijtimoiy oqibatlari, siyosiy muhitni izdan chiqarish, legitim hokimiyatga salbiy ta’sir o‘tkazish yoki uni ag‘darish, g‘ayriinsoniy siyosiy inqiloblar, axloqiy me’yorlarning buzilishi va axloqsizlikning buzg‘unchi mohiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: buzg‘unchi g‘oyalar, ijtimoiy-siyosiy tizimlar, jamiyat, davlat, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy muhit, ijtimoiy barqarorlik, siyosiy beqarorlik. inqiroz.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N09

Kirish. Buzg‘unchi g‘oyalar ijtimoiy, madaniy, siyosiy va axloqiy tizimlarga katta zarar yetkazadi. Bu o‘z navbatida jamiyatning tarkibiy qismlari muvozanatiga, uning barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. “Taraqqiyotning hozirgi davrida turli xil eski va yangi mafkuralarning o‘zaro kurashi har qachongidan ham ko‘ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba’zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o‘rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs munozara doirasidan chiqib to‘qnashuvlar, ommaviy qirg‘inlarga sabab bo‘lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg‘u-kulfatlar solmoqda”[1.38-39]. Buzg‘unchi g‘oya va buzg‘unchi faoliyatning ijtimoiy-madaniy muammolari jamiyatda ijtimoiy birlikning buzilishi, kuchli madaniy inqiroz, madaniy globalizatsiya va madaniy parchalanish, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi va shu kabi bir qancha muammolarni qamrab oladi.

Ma’lumki, buzg‘unchi g‘oyalar va uning natijasidagi faoliyat ijtimoiy tuzilmalarni zaiflashtirib, madaniy merosga tahdid soladi va umumiy qadriyatlarni yo‘q qiladi. Bu o‘rinda muhim muammolardan biri ijtimoiy birlikning buzilishi bo‘lib, buzg‘unchi g‘oyalar jamiyatda qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va birdamlikni yo‘q qiladi, pirovardida vujudga kelgan adovat, ig‘vo va jamiyatning parchalanishiga olib keladi. “Inson ongi va qalbi uchun kurash yangi sifatiy xususiyat kasb etgan bir davrda, e’tiqod umumiyligiga asoslanish, etnik birlikka urg‘u berish hamda yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog‘liqlikni ro‘kach qilish asosda yakka mafkuralar hukmronligini ta’minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar kuzatilmoqda”[2.38-39].

Adabiyotlar tahlili. Buzg‘unchi g‘oyalarning tarixi, mohiyati va evolyutsiyasi juda katta tarixiy davrlarni bosib o‘tgan va turli fan soha vakillari. ayniqsa faylasuflar tomonidan keng o‘rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Masalan, G‘arb falsafasida buzg‘unchi g‘oyalar muammosi jamiyat, hokimiyat va axloq munosabatlari doirasida keng tahlil qilingan. Platon o‘zining “Davlat” asarida jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi noto‘g‘ri g‘oyalarni adolatli davlat tuzumi orqali bartaraf etish mumkinligini ta’kidlaydi. Aristotel “Siyosat” asarida ekstremal qarashlar davlat inqiroziga olib kelishini ilmiy asoslaydi. T. Gobbs “Leviafan” asarida mafkuraviy tartibsizlik va radikal g‘oyalar ijtimoiy kelishuv buzilishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatadi. J. Lokk inson huquqlarini inkor etuvchi g‘oyalarni axloqiy buzuqlik manbai sifatida baholaydi. I. Kant esa “Amaliy aql tanqidi” asarida axloq me’yorlariga zid g‘oyalar jamiyat ma’naviy tanazzuliga olib kelishini asoslab beradi.

Sharq falsafasida buzg‘unchi g‘oyalar asosan ma’naviyat, tarbiya va jamiyat uyg‘unligi nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Konfutsiy o‘z ta’limotida jamiyatdagi beqarorlik sababini axloqiy qadriyatlarning yo‘qolishi bilan bog‘laydi. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida yot va buzg‘unchi g‘oyalar nomukammal jamiyatni shakllantirishini ta’kidlaydi. Ibn Sino inson nafsiga tayangan g‘oyalarni axloqiy inqiroz manbai deb hisoblaydi. Al-G‘azzoliy esa radikal fikrlarni ilmsizlik va ma’naviy zaiflik natijasi sifatida talqin qiladi. Ibn Xaldun “Muqaddima” asarida esa buzg‘unchi g‘oyalarni ijtimoiy inqiroz va davlat parokandaligining asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rsatadi.

O‘zbek falsafiy merosida ham buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi ma’rifiy va axloqiy yondashuv ustuvor hisoblanadi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida jaholat va yovuz g‘oyalarni inson kamolotiga to‘siq sifatida talqin qiladi. Abdurauf Fitrat milliy tafakkurni yo‘q qilishga qaratilgan g‘oyalarni jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf deb baholaydi. Islom Karimov asarlarida ekstremizm va terrorizm g‘oyalari ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka tahdid ekani chuqur tahlil qilingan. Ko‘plab mutaxassislarimiz buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashda ma’naviy tarbiyani kuchaytirish orqali immunitet shakllantirish g‘oyasini ilgari suradi. Ushbu faylasuflar merosi buzg‘unchi g‘oyalarning oldini olishda milliy va ma’naviy yondashuv muhim ekanini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Mazkur maqolada falsafiy-tahliliy metod orqali buzg‘unchi g‘oyalarning mohiyati, shakllanish manbalari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy oqibatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, dialektik yondashuv qo‘llanilib, g‘oyalarning jamiyat taraqqiyoti bilan o‘zaro bog‘liqligi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar ta’sirida paydo bo‘lishi va rivojlanish qonuniyatlari o‘rganildi. Bu usul buzg‘unchi g‘oyalarni statik emas, balki dinamik jarayon sifatida tadqiq etish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy metoddan ham foydalanilib, ushbu metod orqali turli davrlar va madaniy muhitlarda shakllangan buzg‘unchi g‘oyalar taqqoslanib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, g‘arb va sharq falsafasi hamda milliy falsafiy tafakkur doirasida buzg‘unchi g‘oyalarga berilgan baho qiyosiy tahlil qilindi. Bu yondashuv mavzuning umuminsoniy va milliy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, maqolada ijtimoiy-falsafiy va aksiologik metodlar qo‘llanildi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil buzg‘unchi g‘oyalarning jamiyat barqarorligi, siyosiy tizim va ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini o‘rganishga yo‘naltirildi. Aksiologik yondashuv esa ushbu g‘oyalarning axloqiy qadriyatlarga munosabati, inson ongi va ma’naviyatiga ta’sirini baholash imkonini berdi. Ushbu metodologik yondashuvlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asosli va xolis bo‘lishini ta’minladi.

Muhokama va tahlillar. Ijtimoiy birlikning buzilishi jamiyatning asosiy tuzilmalari, insoniy munosabatlar va ijtimoiy me’yorlar o‘rtasidagi uyg‘unlikning yo‘qolishi natijasida yuzaga keladigan muammodir. Ijtimoiy birlikning buzilishiga sabab bo‘luvchi asosiy muammolarning falsafiy tahlili uning shaxs, jamiyat bilan bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganishni taqozo qiladi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy birlikning buzilishida inson tabiati va shaxsning mustaqilligi bilan bog‘liq muammolar muhim o‘rin tutadi. Falsafiy nuqtai nazardan, insonlar tabiatan individualist bo‘lib, o‘z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan yuqori qo‘yadilar. Bu individualizm jamiyatning yakdillikka erishishiga to‘sqinlik qiladi. Ijtimoiy birlikning buzilishi falsafiy muammolardan kelib chiqib, inson tabiati, axloq, mafkura, iqtisodiy tengsizlik va madaniy tanazzul bilan bog‘liq. Insoniy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar, iqtisodiy adolat, siyosiy barqarorlik va madaniy birlikni zaiflashtirish orqali ijtimoiy birlikka putur yetadi. Bu muammolarni hal qilish uchun jamiyatdagi hamjihatlik, ma’naviy qadriyatlar va umumiy maqsadlar muhim ahamiyatga ega.

Buzg‘unchi g‘oyalar va buzg‘unchi faoliyatning siyosiy oqibatlari ham jiddiy muammolarga olib keladi. Ular davlat tuzilmalari, siyosiy barqarorlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi. Bu muammolar sirasiga siyosiy inqiroz, terrorizm va ekstremizm, siyosiy instrumentalizatsiya, siyosiy inqiloblar va shu kabi buzg‘unchi harakatlarni kiritish mumkin.

Davlat va jamiyat hayotidagi radikal mafkuralar va buzg‘unchi faoliyatlar siyosiy barqarorlikni buzadi, davlatni parchalanish yoki diktatura o‘rnatishga majbur qiladi. Bunday harakatlar ortidan siyosiy inqiloblar, fuqarolik urushlari yoki hokimiyat vakuumlari kelib chiqishi mumkin. Buzg‘unchi g‘oyalar terroristik harakatlarga asos bo‘ladi, ekstremistik guruhlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Terrorizm jamiyatning tinch va osuda hayotiga, davlat xavfsizligiga katta tahdid soladi. Ba’zan buzg‘unchi g‘oyalar va harakatlar siyosiy kurashlarda instrument sifatida qo‘llanilishi mumkin. Hokimiyatga erishish uchun radikal g‘oyalardan foydalanish yoki muxolifatni zaiflashtirish maqsadida ijtimoiy va siyosiy tizimlar buzilishi ehtimoli mavjud[3.299].

Buzg‘unchi g‘oyalar siyosiy muhitni o‘zgartirish, hokimiyatga ta’sir o‘tkazish yoki uni ag‘darish maqsadida qo‘llaniladi. Bu jarayonlar jamiyatni parchalashi, ziddiyatlar keltirib chiqarishi va siyosiy inqirozlarga sabab bo‘lishi mumkin. Falsafada hokimiyat va mafkura tushunchalari markaziy o‘rinlardan birida turadi. Buzg‘unchi g‘oyalar aksariyat hollarda mavjud hokimiyatni tanqid qiladi yoki uning o‘rnini egallashga urinadi. Siyosiy tuzilmalarga qarshi harakatlar o‘z maqsadlariga erishish uchun radikal mafkuralardan foydalanadi. Siyosiy

tuzilmalar koʻpincha hokimiyatdagi gegemon mafkurani himoya qiladi. Buzgʻunchi gʻoyalar esa bu mafkurani inkor etib, muqobil siyosiy nazariya va tamoyillarni taklif qiladi. Bu kurash hokimiyatning qayta taqsimlanishiga yoki uning inqiroziga olib kelishi mumkin[4.114].

Siyosiy inqiloblar aksariyat hollarda radikal gʻoyalarga asoslanadi. Buzgʻunchi harakatlar inqilob orqali mavjud hokimiyatni agʻdarishga harakat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan inqiloblar bir tomondan ijtimoiy oʻzgarishlarning zarur qismi sifatida qaralsa, boshqa tomondan ular jamiyatda zoʻravonlik va beqarorlikka olib keladi. Falsafiy tahlilda davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar buzgʻunchi gʻoyalar taʼsirida jiddiy oʻzgarishlarga uchraydi. Davlat hokimiyatining legitimligi va jamiyat bilan munosabatlar buzgʻunchi gʻoyalar tufayli qayta koʻrib chiqilishi mumkin.

Buzgʻunchi gʻoyalar mavjud davlat tuzilmalari va ularning legitimligini shubha ostiga qoʻyadi. Ular davlatning fuqarolar manfaatlariga xizmat qilmayotganini iddao qilib, yangi siyosiy tuzilmalarni taklif etadi. Bu jarayon davlatning hokimiyat vakolatlariga taʼsir koʻrsatib, jamiyatdagi siyosiy inqirozlarni kuchaytirishi mumkin. Baʼzi buzgʻunchi gʻoyalar davlat tuzilmalarini umuman inkor etadi, anarxizmga asoslangan siyosiy nazariyalarni targʻib qiladi. Anarxistik gʻoyalar fuqarolar oʻrtasida hokimiyatga qarshi harakatlar va davlatsiz jamiyat konsepsiyalarini ilgari suradi. Bu esa jamiyatda siyosiy parchalanishga va qonunsizlikka olib kelishi mumkin.

Buzgʻunchi gʻoyalar demokratik jarayonlarga ham, avtoritar tuzilmalarga ham jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Ular siyosiy tizimlarning barqarorligi va qonuniyligini shubha ostiga qoʻyadi. Demokratik tizimlar buzgʻunchi gʻoyalar taʼsirida zaiflashadi, demokratik muhitda erkin fikr va qarashlar mavjud boʻlgani sababli, radikal gʻoyalar ham tez tarqalishi mumkin[5.214]. Bu, ayniqsa, saylov jarayonlari yoki siyosiy faoliyatlarda koʻrinib, radikal partiyalar va guruhlarning kuchayishiga olib keladi. Buzgʻunchi gʻoyalar avtoritar tuzumlarga qarshi harakatlar orqali ham namoyon boʻlishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, bunday gʻoyalar inson erkinligi va haq-huquqlarini himoya qilish uchun vosita sifatida qaralishi mumkin, lekin ular koʻpincha zoʻravonlikka asoslangan boʻladi va siyosiy inqirozlarga sabab boʻladi.

Terrorizm va ekstremizm radikal buzgʻunchi gʻoyalar asosida siyosiy vosita sifatida ishlatiladi. Ular zoʻravonlik va qoʻrquv orqali oʻz siyosiy maqsadlariga erishishga urinadi. Terroristik va ekstremistik harakatlar davlatga va jamiyatga nisbatan radikal qarshilik koʻrsatadi. Falsafiy tahlilda bu harakatlar ijtimoiy adolat yoki mafkuraviy maqsadlar uchun kurash sifatida qaralishi mumkin, ammo ular koʻpincha siyosiy beqarorlik va inson huquqlarining buzilishiga olib keladi[6.114]. Falsafiy nuqtai nazardan, terrorizm va radikal buzgʻunchi harakatlar legitim maqsadlarga erishish vositasi sifatida bahsga sabab boʻladi. Baʼzi nazariyalarda bu harakatlar zulmga qarshi kurash sifatida koʻrilsa, boshqalar ularni yomonlik va inson erkinliklariga tahdid sifatida inkor qiladi.

Ijtimoiy qoʻzgʻolonlar va inqiloblar koʻpincha buzgʻunchi gʻoyalar taʼsirida yuzaga keladi. Siyosiy falsafada bu jarayonlar ijtimoiy adolat, hokimiyat taqsimoti va inson huquqlari masalalaridagi ziddiyatlar asosida qaraladi. Buzgʻunchi gʻoyalar koʻpincha ijtimoiy adolatni tiklash, erkinlik va tenglikni taʼminlash bahonasida tarqaladi. Ammo, bunday harakatlar baʼzan yangi zulm va siyosiy bosimlarga olib kelishi mumkin, bu esa inson huquqlari bilan bogʻliq muammolarni yanada kuchaytiradi. Turli siyosiy ideologiyalar oʻrtasidagi kurashlarda buzgʻunchi gʻoyalar jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy boʻlinishni chuqurlashtiradi. Falsafiy tahlilda bu jarayonlar ijtimoiy tanazzul va parchalanishga olib kelishi mumkin.

Buzg‘unchi g‘oyalarning inson va jamiyat hayotida keng tarqalishi keng ko‘lamli **axloqiy muammolar**ni keltirib chiqaradi. Bu muammolar qatorida axloqiy deklinatsiya, individualizmning kuchayishi, inson qadr-qimmatining pasayishi, axloqiy relyativizm va universal qadriyatlar muammosi, mas’uliyatsizlik, egoizm kabi axloqiy muammolarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Buzg‘unchi g‘oyalar va faoliyat axloqqa, insonning ma’naviy qadriyatlari va jamiyatdagi axloqiy normalarga jiddiy zarar yetkazadi. Buning natijasida eng ayanchli oqibatlarga olib keluvchi axloqiy deklinatsiya holati sodir bo‘ladi. Buzg‘unchi g‘oyalar inson axloqini buzadi, uning ma’naviy asoslarini zaiflashtiradi. Bu yomonlik, zo‘ravonlik va qonunsizlikni normallashtiradi[7.215].

Axloqiy relyativizm — har bir inson yoki jamiyatning o‘z axloqiy me’yorlari va qadriyatlari bo‘lishi mumkinligini tasdiqlovchi qarashdir. Falsafiy nuqtai nazardan, “axloqiy relyativizm axloqning umumiy prinsiplari yo‘qligini yoki ularning subyektivligiga ishonishni keltirib chiqaradi. Bu axloqiy inqirozga va ma’naviy qadriyatlarning zaiflashuviga sabab bo‘ladi”[8.62]. Axloq subyektivlashganda, har bir shaxs o‘z shaxsiy manfaatlari va xohishlariga mos keladigan qoidalarni yaratadi. Bu jamiyatda umumiy axloqiy me’yorlarning yo‘qolishiga olib kelib, axloqiy inqirozni kuchaytiradi. Shuningdek, axloqiy relyativizm insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda axloqiy barqarorlikni yo‘qotadi. Har bir shaxs o‘z axloqini himoya qilar ekan, jamiyatda birdamlik va umumiy axloqqa rioya qilish pasayadi.

Ma’lumki, buzg‘unchi g‘oyalar jamiyatning umumiy manfaatlaridan ko‘ra shaxsiy manfaatlarni yuqori qo‘yadi. Bu individualizm va egoizmning kuchayishiga, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Bu kabi g‘oyalar insonning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini ham pasaytiradi, uni faqat siyosiy yoki mafkuraviy maqsadlar uchun foydalaniladigan vosita sifatida ko‘radi. Buzg‘unchi g‘oyalar va inson buzg‘unchiligining axloqiy muammolariga falsafiy nuqtai nazaridan yondashilganda, ularning jamiyatning ma’naviy asoslari, inson qadriyatlari va axloqiy qoidalarga jiddiy ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlash mumkin. Bu muammolar axloqiy me’yorlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar hamda inson mas’uliyati kabi masalalarda qayd etilgan. Buzg‘unchi g‘oyalar ko‘pincha axloqiy relyativizm, ya’ni har bir inson yoki jamiyatning o‘z qadriyatlari va qoidalariga ega ekanini ta’kidlaydi. Bu, falsafiy nuqtai nazardan, universal axloq va umumiy qadriyatlar tushunchasiga qarshi chiqadi. Axloqiy relyativizm buzg‘unchi g‘oyalarni himoya qilish uchun asos sifatida qo‘llaniladi. Universal axloqiy me’yorlarning yo‘qligi yoki ularning inkor qilinishi insoniyatning birlikka kelishi va hamjihatlikka erishishida jiddiy muammolarga sabab bo‘ladi[9.5].

Buzg‘unchi g‘oyalar umumiy axloqiy tamoyillarni, masalan, insoniylik, adolat va shafqatni inkor qiladi yoki zaiflashtiradi. Bu qadriyatlar inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning asosi hisoblanib, ularning inkor qilinishi ijtimoiy tuzilmalarni zaiflashtiradi. Falsafiy tahlilda buzg‘unchi g‘oyalar yaxshilik va yomonlikning aniq chegaralarini zaiflashtiradi. Bu holatda axloqiy me’yorlar noaniq bo‘lib, shaxslar va guruhlar o‘z manfaatlariga mos keladigan axloqiy qoidalarni ilgari suradilar. Buzg‘unchi g‘oyalar yaxshilik va yomonlik tushunchalari o‘rtasidagi chegarani buzadi. Insonlar o‘z shaxsiy yoki guruh manfaatlari yo‘lida yomonlikni yaxshilik sifatida qabul qila boshlaydilar. Bu jamiyatda yovuzlikning normallashishiga olib keladi.

Shuningdek, buzg‘unchi g‘oyalar haqiqatni subyektiv tushunishni targ‘ib qiladi, ya’ni har kim o‘zini haq deb hisoblashi mumkin. Bu haqiqat va yolg‘on, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini bir-biriga aralashtiradi va axloqiy me’yorlarning umumiy qabul qilinishiga

to‘sqinlik qiladi. Buzg‘unchi g‘oyalar ko‘pincha insonlarni shaxsiy manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishga undaydi va jamiyat yoki boshqa insonlar oldidagi ma’naviy javobgarlikni zaiflashtiradi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarning shaxsiy manfaatlarini ustuvor qo‘yadi. Bu egoizm va individualizmni kuchaytirib, insonlarning bir-biriga nisbatan javobgarligini pasaytiradi. Jamiyatda axloqiy me’yorlar va javobgarlik tushunchalari yo‘qolishi mumkin[10.472].

Buzg‘unchi g‘oyalar inson ma’naviyatining asosini tashkil qiluvchi qadriyatlarni inkor qiladi yoki ularni faqat shaxsiy manfaatga yo‘naltiradi. Bu, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy bo‘shliq va axloqiy me’yorlarga bo‘lgan ishonchning zaiflashishiga olib keladi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarga zo‘ravonlik va buzg‘unchilikni qonuniy deb qabul qilishga yordam beradi. Ular zo‘ravonlikni ma’lum bir axloqiy oqlov yoki maqsadlar asosida asoslashga harakat qiladi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarning zo‘ravonlikka moyilligini oshiradi va uni axloqiy jihatdan oqlaydi. Bu yovuzlikni yaxshilikka erishish vositasi sifatida ko‘rsatadi, shuningdek, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda nizolar va ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Zo‘ravonlikni oqlash orqali buzg‘unchi g‘oyalar inson huquqlarini buzadi va jamiyatdagi insoniy qadriyatlarni zaiflashtiradi. Buning natijasida inson qadr-qimmati va erkinliklari inkor qilinadi.

Buzg‘unchi g‘oyalar inson ma’naviyatini zaiflashtiradi va jamiyatda ma’naviy inqirozga olib keladi. Bu g‘oyalar ma’naviy qadriyatlarni inkor etib, odamlarning axloqiy yo‘ldan chetlashishiga olib keladi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarni ma’naviy jihatdan zaiflashtiradi, ularni yomonlik va zo‘ravonlikka moyil qiladi. Ma’naviy inqiroz jamiyatda boshqa qadriyatlar va axloqiy qoidalarning ham buzilishiga olib keladi. Buzg‘unchi g‘oyalar insonlarni ma’naviy nuqtai nazardan zaiflashtirib, ularni hayotning ma’nosi va maqsadini yo‘qotishga undaydi. Bu shaxsning ma’naviy tanazzuli va jamiyatdan chetlashishiga olib kelishi mumkin[11.708].

Xulosa. Buzg‘unchi g‘oyalar va inson buzg‘unchiligi axloqiy relyativizm, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining buzilishi, egoizm va zo‘ravonlikni qonuniylashtirish kabi muammolar orqali jamiyatning axloqiy va ma’naviy asoslarini zaiflashtiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayonlar axloqiy inqirozga olib kelib, insoniyatning ma’naviy qadriyatlariga zarar yetkazadi, shaxslar va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni zaiflashtiradi.

Buzg‘unchi g‘oyalar va faoliyat ijtimoiy, siyosiy va axloqiy muammolarni chuqurlashtirib, jamiyatning barqarorligiga katta xavf tug‘diradi. Ularga qarshi kurashish uchun jamiyat barqaror axloqiy, siyosiy va madaniy qadriyatlar asosida ish tutishi va radikalizmga qarshi samarali choralar ko‘rishi zarur.

Buzg‘unchi g‘oyalar jamiyat barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Ular ijtimoiy-siyosiy tizimda beqarorlik, qarama-qarshilik va ishonchsizlikni kuchaytiradi, davlat institutlari faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, mafkuraviy bo‘shliq mavjud bo‘lgan jamiyatlarda bunday g‘oyalar tez tarqaladi va keng ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Buzg‘unchi g‘oyalarning ildizi ma’naviy-axloqiy inqiroz bilan bog‘liq. Axloqiy qadriyatlar susaygan, ma’rifat va tanqidiy fikrlash yetarli darajada shakllanmagan muhitda yot va radikal g‘oyalar inson ongiga oson singib boradi. Shu bois, ma’naviy tarbiyani kuchaytirish va axloqiy immunitetni shakllantirish buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi samarali vosita hisoblanadi.

Buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurash kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Faqat huquqiy yoki ma’muriy choralar yetarli emas; ta’lim-tarbiya, ma’rifat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan mafkuraviy ishlarni kuchaytirish muhimdir. Ilmiy-falsafiy tahlil va

jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokidagi ma’naviy siyosat barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Жакбаров М. ва бошқалар. Миллий ғоя - хавфсизлик ва барқарорлик омили – Тошкент.: Турон замин зиё, 2014.–Б. 38-39
2. Жакбаров М. ва бошқалар. Миллий ғоя - хавфсизлик ва барқарорлик омили – Тошкент.: Турон замин зиё, 2014.–Б. 38-39
3. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар -Тошкент: Турон замин зиё, 2015. -Б.299.
4. Пахрутдинов Ш., Жўраев Т. ва бошқалар. Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. -Б.114-115
5. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси Қомуси 1-жилд, -Тошкент: ЎФМЖ, 2022. -Б. 214
6. Пахрутдинов Ш.. Жўраев Т. ва бошқалар. Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. -Б.114-116
7. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-жилд, -Тошкент: ЎФМЖ, 2022. -Б. 214-215
8. Щипунов О.К. Этический релятивизм как социорегулятивная парадигма // -М.: Наука и современност, – 2014.
9. Круглов А. Моралный релятивизм // Здравый смысл. – 2001. – № 4. -С. 5-7
10. Фалсафа қомусий луғати. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. -Тошкент: Шарқ, 2004. -Б. 472
11. Назаров Қ. ва бошқалар. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати -Тошкент:, Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. -Б. 708

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

ISSUES OF RELIGIOUS TOLERANCE AND INTERNATIONAL HARMONY IN THE TEACHING OF SUFIS

Juraev Akhmad Mukhammadievich
Head of the Department of Social Sciences,
University of Management and Modern Technologies,
Ph.D., Associate Professor

Abstract. This article explores the issues of religious tolerance and interethnic harmony in Sufi teachings. The Sufi approach promotes human values, compassion, and justice, enhancing mutual respect among different religions and nations. The article also examines the role of Sufism in social integration and harmony, compared with Eastern and Western philosophical traditions.

Keywords: sufism, religious tolerance, interethnic harmony, irfan approach, social integration.

TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI

Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich
Menejment va zamonaviy texnologiyalar universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.b.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik masalalari o'rganildi. Tasavvufiy irfoniy yondashuv insoniy qadriyatlarni, mehr-shafqat va adolatni targ'ib qilgan holda turli din va millatlar o'rtasidagi o'zaro hurmatni kuchaytiradi. Shuningdek, maqolada Sharq va G'arb falsafiy an'analari bilan solishtirilgan holda tasavvufiy ta'limotning ijtimoiy integratsiya va totuvlikni rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, irfoniy yondashuv, ijtimoiy integratsiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N10

Kirish. Tasavvuf ta'limoti: birinchidan, u xalqimizning insoniy g'ururini yuksaltirib, tubanlik, pastkashlik va ruhiy inqirozdan, saqlab turadi; nkkinchidan, o'lkamizda yashaydigan turli xalqlar va millatlar birlashib yashashi uchun bag'ri kenglik madaniyatini umumiylashtirishga yordam beradi; uchinchidan, umumbashariy inson-do'stlik g'oyalari bilan har qanday fundamentalistik oqimlar, ayniqsa, diniy ekstremizmga qarshi turadi; to'rtinchidan, tinchliksevarlik g'oyalarini targ'ibotchisi sifatida har qanday urush va qurolli to'qnashuvlarga qarshi amal qiladi; beshinchidan, insonni ulug'lab, uni yuksak maqomlarga ko'taradi va ma'naviy taraqqiyoti uchun munosib zamin yaratib beradi. Shuning uchun ham ushbu mavzuni o'rganish dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Birinchi marta inson taxayyul va tasavvur qila boshlashi bilanoq, tabiat sirlarini bilib olishga uringan. Bu haqda uning birinchi taxayyul va tasavvurlari mifologiya, ya'ni usturalar shaklida yuzaga kela boshlagan. Mifologiya barcha

tabiiy va ijtimoiy hodisalarni juda sodda va ibtidoiy shaklda izohlab berishga urinadi. Jamiyatshunos olimlar tadqiqotiga binoan mifologiyadan sehrgarlik, ya'ni sirli olamni bilib olib, ko'zga ko'rinmaydigan kuchlar bilan aloqa o'rnatish va ular orqali hayotga ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazish ilmlari kelib chiqadi. Ibtidoiy irfoniy g'oyalar ham mifologiyadan olinadi. Masalan, E.Tabariy tadqiqotlarida, «Hermetizm», ya'ni misrlik mashhur sehrgar «Hermes» nomi bilan atalgan bilimga bog'liq bo'lgan «rijo'lul-g'ayb» (g'oyib odamlar) yo «javosiyul-qulub» (ko'ngullar josuslari) kabi ko'p atamalar islom tasavvufiga o'tib, ko'pincha tasavvufiy manbalarda qo'llanib keldi. Ham sharqu ham g'arbda turli irfoniy maktablar va tasavvuf ta'limotlari mavjud. Biz tadqiqotimizda islom tasavvufining kelib chiqishi, uning qadimiy ildizlari va turli yo'nalishlari haqida so'z yuritmoqchimiz. Masalani yaxshiroq tushunib olish uchun bir-biriga kirishib kettan ikkita atama, ya'ni irfon va tasavvuf tushunchalari ustida to'xtab o'tishimiz lozim bo'ladi.

Dokgor Javod No'rbaxsh «so'fiylar bihishti» degan kitobida, tasavvuf buyuk mashoyixlarining so'zlariga tayangan holda, tasavvufni so'z orqali ta'riflab bo'lmaydigan bir holat sifatida ifodalab, «so'z bilan ifodalanuvchi narsa tasavvuf emas», - deydi. Uning fikricha tasavvuf tariqati haqida ba'zi bir buyuk zotlar tomonidan berilgan ta'riflar umumiy bo'lmay, tasavvufning faqat ba'zi bir xususiyatlarini ifodalab bergan. Agar uni mukammalroq ta'rif qiladigan bo'lsak, unda «tasavvuf ishq ozuqasi va faqat bir tomonga boqish yo'li, haqiqat (xudo)ga olib boradigan tariqatlardan iboratdir. Tasavvufning maqsadi haqiqatni faylasuflar singari mantiq orqali emas, balki kashfu-shuhud orqali, ko'ngil va vijdon ko'zi bilan bilib olishdir. Shuning uchun tasavvuf yurib borib ko'radigan yo'ldan iborat bo'lib, yotib eshitadigan narsa emas» [1, 11-b.].

Irfon ilohiy ilmlardan biri sifatida, haqning zoti, uning ismlari va sifatlarini ko'ngil yorug'ligi orqali bilib olishga qaratilgan ilm hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ahlulloh (xudoni qidiruvchilar) haqni tanib olish uchun tanlagan yo'l irfon deb ataladi [2, 11-b.].

E.Tabariy irfonni quyidagidek ta'riflaydi: ir-fon inson o'z nafsini pokizalash, riyozat chekish, sig'inish, zikr qilish, xilvatda o'ltirish va jazbaga berilish bilan sayru-suluk bosqichlaridan o'tib xudo va boshka tabiat ortidagi kuchlar bilan aloqa o'rnatish va shu yo'sinda uning qalbi ilhom va ishq manbaiga aylangandan keyin qat'iy va shubhasiz haqiqatga erishishidan iboratdir.

Dehxudo «Oriflar atamalarining qomusi» nomli kitobida «Gulshani roz sharhi»dan olib berilgan ma'lumotlarga tayanib, o'z mashhur asari lug'atnomada irfon borasida quyidagi ma'lumotni beradi: irfon va haqni tanish ikki yo'l orqali bo'ladi: birinchisi asardan muassir (asar qiluvchi)ga, fe'ldan sifatga va sifatlardan zotning (haq zotining) borligiga istidlol qilish orqali. Bu yo'l esa olimlarga xosdir. Ikkinchisi ko'ngilni pokizalab boshni (miya-fikrni) va shuningdek ruhni, undan (hakdan) boshqa barcha narsalardan bo'shatish orqali. Bu yo'l esa payg'ambarlar, nabiylar, avliyolar va oriflarga xos bo'lgan yo'ldir. Shu yo'l, ya'ni kashf, ma'naviy olamlar va ichki dunyoning haqiqatlari soliqka ma'lum bo'lishi va shuhud (haqni ko'rish) faqat majzo'bi mutlaqqa, ya'ni haq tomonidan jazb etilib, uning ishqida fano bo'lgani tufayli o'ziga kelmaydigan kishiga nasib etiladi. Boshqa kishilar esa yoshurun qalbiy va ruhiy toat va ibodat orqali ushbu ma'rifatga erishishlari mumkin [3]. Dunyoning yaralishidan maqsad ham ushbu shuhudiy ma'rifat, ya'ni haqni tanib olish va uni ko'ra bilish hisoblanadi.

Muhokama. Tasavvuf va irfon tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lgani uchun ba'zan bir ma'noda ham ishlatiladi. Ba'zilarning fikriga ko'ra, tasavvuf irfonning bir bo'limi va uning

koʻrinishlaridan biridir, ya’ni tasavvuf bir yoʻl-yoʻriq va tariqat sifatida irfondan olingan. Irfon esa umumiyroq tushuncha boʻlib, tasavvufdan ilova, boshqa yoʻl-yoʻriq va mazhablarni ham oʻz ichiga oladi. Unga binoan bir kishi soʻfiy boʻlib orif, boʻlmasligi ham mumkin yoki bir kishi yuzaki suratda tasavvuf tariqatida turib, irfondan hech qanday bahra olmasligi ham mumkin. Ba’zan esa orif soʻzi darvish va soʻfiyga nisbatan yuksaqroq ma’noda ham ishlatiladi. Ba’zilar esa irfonni tasavvufning ilmiy va zaif tomoni va tasavvufni esa, irfonning amaliy tomoni deb bilganlar [4, 13-b.].

Soʻfiy aqidasining asosi «bir» boʻlishi kerak, «bir» deyish, «bir»ni qidirish va «bir»ni kuzatish asosida, yagona va mutlaq zotdan boshqa biron narsa borasida oʻylamasligi zarur. Tasavvuf va irfon qoidalariga binoan, soʻfiy va haqiqiy orif, haqiqiy inson oʻrnida turishi lozim. Insonlarni sevish, ularning xizmatida boʻlish, ayniqsa, xudoning borligi va birligini unutmaslik soʻfiylarning asosiy aqidasidir.

Diniy bagʻrikenglik va millatlararo totuvlik masalalari tasavvufiy ta’limotda markaziy oʻrin tutadi, chunki tasavvuf insoniyatning birlik va umumiy ruhiy qadriyatlarini ta’kidlaydi. Tasavvufning asosiy maqsadi - inson qalbini poklash, ruhiy kamolotga yetaklash va insoniyatni birlashtiruvchi axloqiy, diniy va ijtimoiy me’yorlarni oʻrgatishdir [5, 201-b.]. Shu nuqtai nazardan, tasavvuf:

- tasavvuf islom falsafasi va ruhiy irfoniyotining muhim qismi hisoblanadi. u shunchaki ibodat va riyozat bilan cheklanmay, insonning ruhiy kamoloti, axloqiy yetukligi va alloh bilan bevosita aloqasini tadqiq qiladigan falsafiy va irfoniy yoʻnalishdir [4,42-b.].
- allohiy birlikni (tawhid) chuqur anglash - barcha mavjudot allohning yaratgan iqtidoridan dalolat beradi.
- insoniy mehr-muhabbat va bagʻrikenglikni rivojlantirish - ruhiy yetuklikka erishgan kishi barcha mavjudotlarga, jumladan boshqa e’tiqod vakillariga ham hurmat bilan qaraydi [6, 78-b.].

Ijtimoiy totuvlik va millatlararo bagʻrikenglikni targʻib qilish - tasavvufiy falsafa insonlarni millat, til va din farqlaridan qat’i nazar birlashtiruvchi prinsiplarni beradi [7, 153-b.]. Tasavvuf islom falsafasining ruhiy-irfoniy qismi sifatida diniy bagʻrikenglik va millatlararo totuvlik masalalarida konseptual yondashuvni shakllantiradi. Tasavvufiy ta’limotga koʻra, har bir insonning ruhiy yoʻli alohida boʻlsa-da, barcha insonlar aslida Allohning ixtiyorida yaratilgan yagona jamiyatning aʻzolaridir. Shu nuqtai nazardan diniy bagʻrikenglik quyidagi asosiy konseptlar orqali ifodalanadi:

Tavhidiy birlik (al-tawhid). Tasavvufda barcha mavjudot Allohning sifatlari orqali yaratilgan, shuning uchun barcha din vakillari aslida bir manbaga intiladi. Bu konsept millatlar va diniy guruhlar oʻrtasida bagʻrikenglikni ragʻbatlantiradi.

Natijalar. Tavhidiy birlik (al-Tawhid) tasavvufiy ta’limotning eng asosiy konseptlaridan biridir. Tasavvufda barcha mavjudot Allohning sifatlari va qudrati orqali yaratilgan deb qaraladi. Bu tushuncha shuni anglatadiki, tabiatdagi har bir narsa, insonning ruhiy va moddiy olami, hatto turli millat va din vakillari ham aslida bir ilohiy manbadan keladi. Tavhidiy birlik kontseptsiyasi quyidagi jihatlarda tasavvufiy yondashuvni shakllantiradi:

Millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni asoslash. Chunki barcha mavjudot bir manbadan kelib chiqqan, u holda insonlar orasidagi tashqi farqlar ruhiy mohiyatni

o‘zgartirmaydi. Shu nuqtai nazardan, tasavvufiy irfoniyat xalqaro va diniy totuvlikni ilohiy qonuniyat sifatida tushuntiradi.

Ruhiy kamolot va insoniylik tamoyili. Insonning ruhiy yetukligi - Allohiy birlikni anglab, boshqa mavjudotlar bilan uyg‘unlikda yashashdan iborat. Bu esa bag‘rikenglik va mehr-muhabbatni hayotiy norma sifatida belgilaydi [6, 79-b.].

Alloh bilan bevosita aloqaning markaziyligi. Tavhidiy birlik barcha ibodat, riyozat va tasavvufiy amallarni ma’noli qiladi, chunki har bir inson va mavjudot Alloh qudratining namunasidir [5, 201-b.]. Tasavvufiy al-Tawhid konsepti nafaqat ruhiy irfoniy tamoyil sifatida, balki ijtimoiy va millatlararo totuvlikni mustahkamlash mezoni sifatida ham muhim o‘rin tutadi.

Ishq va mehr-muhabbat konsepti. Ruhiy kamolotga yetishning asosiy yo‘li - Allohni sevish va O‘zini yaratgan barcha mavjudotlarga mehr ko‘rsatish. Shu sababli tasavvufda boshqa e’tiqoddagi insonlar bilan tinch-totuvlikda yashash yuqori qadriyat sifatida ko‘riladi [6, 78-b.].

Ishq va mehr-muhabbat konsepti tasavvufiy ta’limotning markaziy jihatlaridan biridir. Tasavvufda ruhiy kamolotga yetishning asosiy yo‘li - Allohni sevish va O‘zini yaratgan barcha mavjudotlarga mehr ko‘rsatishdir. Bu tushuncha shuni bildiradiki, insonning ruhiy yetukligi nafaqat ibodat va riyozat orqali, balki boshqalarga nisbatan mehr va rahm-shafqat ko‘rsatish orqali ham rivojlanadi. Asosiy konseptual jihatlari: Allohga bo‘lgan ishq (mahabba-i Ilahiya). Ruhiy kamolotga yetish yo‘li - Allohni sevish va Unga yaqinlashishdir. Tasavvufiy irfoniyatda Allohga bo‘lgan ishq insonni barcha moddiy va ruhiy zararli illatlardan tozalaydi.

Mavjudotlarga mehr ko‘rsatish. Tasavvufda Allohni sevish, o‘z navbatida, barcha mavjudotlarga - inson, hayvon, tabiat va hatto boshqa e’tiqoddagi insonlarga - mehr ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Bu konsept diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlaydi.

Ruhiy kamolot va insoniylik. Ishq va mehr-muhabbat konsepti orqali inson o‘z qalbini poklaydi, sabr, muloyimlik va hurmat kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, u jamiyatda totuvlik va bag‘rikenglikni targ‘ib qiluvchi ruhiy vosita sifatida xizmat qiladi [8, 87-b.]. Shu tariqa, tasavvufiy ishq va mehr-muhabbat konsepti nafaqat individual ruhiy kamolotga, balki ijtimoiy totuvlik va diniy bag‘rikenglikning konseptual asosiga ham aylangan.

Insonga hurmat va insoniylik. Tasavvufiy ijtimoiy falsafa shunday ta’kidlaydiki, har bir insonning ruhiy kamolotga intilishi hurmatga loyiqdir. Shu nuqtai nazardan diniy bag‘rikenglik, hatto qarama-qarshi e’tiqod vakillariga ham, insoniylikning talabi sifatida ko‘riladi.

Millatlararo totuvlik va tasavvufiy irfoniy yondashuv. Tasavvufiy irfoniyat millatlararo totuvlikni quyidagi yondashuvlar orqali konseptual tarzda izohlaydi:

Umumiy ruhiy qadriyatlar kontseptsiyasi. Tasavvufda turli millatlar va etnik guruhlar orasidagi farqlar faqat tashqi shaklda namoyon bo‘ladi, ichki mohiyatda esa barcha insonlar ruhiy jihatdan bir-biriga yaqindir. Bu yondashuv totuvlik va hamkorlikni ilmiy va irfoniy asosda tushuntiradi [9, 112-b.].

Sabr va muloyimlik tamoyili. Millatlararo ziddiyatlarni bartaraf etishda tasavvufiy ta’limot sabr va muloyimlikni asosiy vosita sifatida ko‘radi. Ruhiy yetuklikka erishgan shaxs boshqa guruhlarning e’tiqodini hurmat qiladi va ziddiyatni tinch yo‘l bilan hal qiladi.

Insoniyatning yagona oilasi kontseptsiyasi. Tasavvufiy falsafada barcha insonlar bir oila a’zolari sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazar diniy, etnik va madaniy farqlarga qaramay totuvlik va hamjihatlikni ta’minlash mumkin.

Qur’on va tasavvufiy yondashuvning uyg‘unligi. Tasavvufiy yondashuv Qur’oni Karim oyatlari bilan uyg‘unlikda rivojlanadi: 49:13 (Al-Hujurat): “Ey insonlar! Biz sizlarni bir erkak va bir ayoldan yaratdik va sizlarni xalq va qabilalar qilib qo‘ydik… Eng afzalingiz taqvodor bo‘lganingizdir”. Tasavvufiy yondashuv bu oyatni millatlararo birlik va totuvlik mezoni sifatida talqin qiladi [10, 342-b.].

2:256 (Al-Baqara): “Dinda majburlash yo‘qdir”. Bu oyat tasavvufda diniy erkinlik va hurmatni ta’kidlaydi [11, 118-b.]. Tasavvufiy tafsir bu oyatlarni ruhiy va ijtimoiy totuvlik konseptlari bilan bog‘lab, dinlararo tinchlikni ta’minlashni o‘z vazifasi deb biladi.

Millatlararo totuvlik - bu turli etnik va dini guruhlar orasida tinchlik, hurmat va hamkorlikni ta’minlashni nazarda tutuvchi ijtimoiy va dini kontseptdir. Tasavvufiy irfoniyat bu masalaga ruhiy, axloqiy va falsafiy nuqtai nazardan yondashadi, chunki tasavvufning asosiy maqsadi insonning ruhiy kamolotga yetishi va jamiyatda tinchlikni mustahkamlashdir.

1. Umumiy ruhiy qadriyatlar kontseptsiyasi. Tasavvufda millatlararo farqlar faqat tashqi shaklda namoyon bo‘ladi; ichki mohiyatda esa barcha insonlar ruhiy jihatdan bir-biriga yaqindir. Shu nuqtai nazardan, turli millatlar va konfessiyalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni ruhiy va ma’naviy birlik orqali yumshatish mumkin.

2. Sabr va muloyimlik tamoyili. Tasavvufiy yondashuvda sabr va muloyimlik - millatlararo totuvlikni ta’minlovchi asosiy vositalardir. Ruhiy yetuk kishi boshqa guruhlarning e’tiqodini hurmat qiladi va ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilishga intiladi.

3. Insoniyatning yagona oilasi kontseptsiyasi. Tasavvufiy falsafada barcha insonlar bir oila a’zolari sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazar, diniy, etnik va madaniy farqlarga qaramay, totuvlik va hamjihatlikni targ‘ib qilish mumkin. Bu yondashuv, shuningdek, Qur’onning “Ey insonlar! Biz sizlarni bir erkak va bir ayoldan yaratdik va sizlarni xalq va qabilalar qilib qo‘ydik...” (Al-Hujurat, 49:13) oyati bilan uyg‘unlikda tushuntiriladi.

4. Tasavvufiy yondashuvning amaliy ahamiyati. Tasavvufiy irfoniyatning millatlararo totuvlikka yondashuvi quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- ruhiy yetuk shaxslar jamiyatda diniy va etnik bag‘rikenglikni targ‘ib qiladi;
- sufi maktablari va madrasalar interfaith dialog va tinchlikni o‘rgatadi;
- millatlararo nizolarni ruhiy va axloqiy tamoyillar orqali yumshatish imkoniyatlarini yaratadi [12, 12-b.]. Tasavvufiy irfoniyat millatlararo totuvlikni ruhiy va axloqiy konseptlar asosida shakllantiradi. Bunda ruhiy birlik, sabr, muloyimlik, insoniyatning yagona oilasi kabi prinsiplar asosiy rol o‘ynaydi. Shunday qilib, tasavvufiy yondashuv nafaqat individual ruhiy kamolotga, balki ijtimoiy barqarorlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tasavvuf ta’limotida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik konseptual yondashuvi quyidagilarga asoslanadi:

Ruhiy birlik va Allohiy iqtidor tamoyili: ishq va mehr-muhabbat asosidagi insoniylik, sabr va muloyimlik orqali ziddiyatlarni bartaraf etish, insoniyatning yagona oilasi konsepti orqali millatlararo totuvlikni targ‘ib qilish, Qur’on oyatlari bilan uyg‘unlik, diniy va ruhiy asoslarni mustahkamlash.

Tasavvuf ta’limoti (sufizm) islom ruhiy falsafasi va irfoniyatining muhim qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi inson qalbini poklash, ruhiy kamolotga yetkazish va ijtimoiy tinchlikni mustahkamlashdir. Shu nuqtai nazardan, tasavvufiy yondashuv diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni konseptual jihatdan quyidagi asosiy tamoyillar orqali izohlaydi:

Tasavvufda barcha mavjudot Allohning sifatlari orqali yaratilgan deb qaraladi. Bu konsept shuni bildiradiki, insonlar orasidagi tashqi farqlar ruhiy mohiyatni o‘zgartirmaydi. Shunday qilib, tavhidiy birlik kontsepti millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ruhiy asosda mustahkamlaydi.

Ruhiy kamolotga yetishning asosiy yo‘li - Allohni sevish va O‘zini yaratgan barcha mavjudotlarga mehr ko‘rsatishdir. Tasavvufiy irfoniyat bu konsept orqali insonni diniy bag‘rikenglik, sabr, muloyimlik va hamjihatlik tamoyillariga yetaklaydi. Millatlararo totuvlikni ta’minlashda sabr va muloyimlik asosiy vositalar sifatida qaraladi. Ruhiy yetuk shaxs boshqa guruhlarning e’tiqodini hurmat qiladi va ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal qiladi. Tasavvufiy falsafada barcha insonlar bir oila a’zolari sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazar diniy, etnik va madaniy farqlarga qaramay totuvlik va hamjihatlikni targ‘ib qilish mumkin. Bu yondashuv Qur’on oyatlari bilan ham uyg‘unlikda tushuntiriladi: “Ey insonlar! Biz sizlarni bir erkak va bir ayoldan yaratdik va sizlarni xalq va qabilalar qilib qo‘ydik… Eng afzalingiz taqvodor bo‘lganingizdir” (Al-Hujurat, 49:13). Tasavvufiy irfoniyat bugungi jamiyatda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni shakllantirishda quyidagi yo‘llarni taklif qiladi: ruhiy yetuk shaxslar jamiyatda bag‘rikenglikni targ‘ib qiladi, so‘fiy maktablari interfaith dialog va tinchlikni o‘rgatadi, millatlararo nizolarni ruhiy va axloqiy tamoyillar orqali yumshatish imkoniyatini yaratadi. Tasavvuf ta’limoti diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ruhiy-irfoniy, axloqiy va falsafiy konseptlar orqali tushuntiradi. Shu yondashuv orqali tasavvuf: ruhiy birlik va Allohiy iqtidorni targ‘ib qiladi, ishq, mehr-muhabbat va sabr orqali ijtimoiy totuvlikni mustahkamlaydi, insoniyatning yagona oilasi konsepti bilan millatlararo hamjihatlikni kafolatlaydi.

Xulosa. Tasavvuf ta’limoti diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ruhiy-irfoniy, axloqiy va falsafiy konseptlar orqali shakllantiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tasavvufiy yondashuv millatlararo totuvlikni faqat tashqi me’yorlar yoki qonuniy normalar orqali emas, balki insonga xos ruhiy kamolot, Allohiy birlik (al-Tawhid), ishq va mehr-muhabbat, sabr va muloyimlik tamoyillari orqali ta’minlaydi. Tasavvufiy irfoniyatda barcha mavjudot Allohning sifatlari orqali yaratilganligi va insoniyatning yagona oilasi kontsepti millatlararo ziddiyatlarni yumshatish va diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ishq va mehr-muhabbat konsepti insonning ruhiy yetukligi va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantiradi, sabr va muloyimlik tamoyillari esa turli e’tiqoddagi guruhlar bilan tinch va totuv munosabatlarni saqlashga imkon beradi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, tasavvufiy irfoniyat millatlararo totuvlikni mustahkamlash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni yaratish bo‘yicha konseptual yondashuv sifatida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Доктор Жавод Нўрбахш. Сўфийлар биҳишти. - Лондон. 1362 ҳ.й., 11- б.
2. Жузжоний А.Ш. Тасаввуф ва инсоню - Тошкент: Адолат, 2001. - Б. 11.
3. Али-акбар Деҳ- худо. Луғатнома. 135-жузъ. 1346.
4. Chittick William C. The Sufi Path of Knowledge: Ibn Arabi’s Metaphysics of Imagination, - AQSh, 2000. - P.42.
5. Al-Ghazali. Ihya’ ‘Ulum al-Din. - Saudiya Arabistoni, 2010. - P.201.
6. Rumi Jaloliddin. Masnavi-i Ma’navi. - Eron, 2006. - P.78.
7. Ibn ‘Arabi. Futuhat al-Makkiyya. - Ispaniya, 1991. - P.153.
8. Ibn ‘Ajiba. Al-Bahr al-Madid fi Tafsir al-Qur’an al-Majid, - Marokash, 2009. - P.87.
9. Suhrawardi Shahab al-Din. Hikmat al-Ishraq. - Eron, 1992. - P.112
10. Ibn Kathir. Tafsir al-Qur’an al-‘Azim, - Saudiya Arabistoni, 2003. - P.342.

11. Hamka Buya. Tafsir Al-Azhar. - Indoneziya, 2005. - P.118.
12. Abubakar. The Values of Sufism As Foundation of Tolerance and Brotherhood in Multicultural Society, 2025. - P.12.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

ON THE PHILOSOPHICAL ASPECTS OF SUFISM

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
Alfraganus University
Acting Professor, Department of Social Sciences

Abstract. This article presents a systematic analysis of the ontological, gnoseological, logical, artistic, and aesthetic aspects of Sufi teachings. These aspects help to reveal the complex and multi-layered structure of Sufi worldview. The ontological aspect reflects the nature of being and divine reality, the gnoseological aspect concerns processes of knowledge and perception, and the logical aspect demonstrates the systematic and interconnected nature of Sufi views. Artistic and aesthetic aspects are discussed in terms of their philosophical role in perceiving beauty and divine light through human spiritual experiences.

Keywords: sufism, ontology, gnoseology, aesthetic thinking, artistic images, spiritual experience.

TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
Alfraganus university
Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b.professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotining ontologik, gnoseologik, badiiy va estetik jihatlari tizimli tahlil qilinadi. Mazkur jihatlar tasavvufiy qarashlarning murakkab va ko'p qatlamli tizimini namoyon etadi. Ontologik jihat borliq va ilohiy haqiqatni, gnoseologik jihat bilish va idrok jarayonlarini, mantiqiy jihat esa tasavvufiy qarashlarning tizimli va uzviyligini ifodalaydi. Badiiy va estetik jihatlar esa inson ruhiy kechinmalari orqali go'zallik va ilohiy nurni idrok etishga xizmat qilishi haqida falsafiy mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, ontologiya, gnoseologiya, estetik tafakkur, badiiy obrazlar, ruhiy tajriba.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N11

Kirish. IX–XII asrlarda Movarounnahr hududida kechgan Uyg'onish jarayonlari tarixiy makon va zamon mezonlari nuqtai nazaridan o'z davridan sezilarli darajada ilgarilab ketgan noyob sivilizatsion hodisa sifatida e'tirof etiladi. Ushbu davr Sharq Uyg'onishining muhim markazlaridan biri bo'lib, jahon ilm-fani taraqqiyoti hamda umumbashariy moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim ilmiy-paradigmal ahamiyat kasb etdi.

Movarounnahrda ilm-fan, falsafa, madaniyat va ma'rifatning yuksak darajada rivojlanishi Markaziy Osiyoda intellektual muhitning shakllanishiga xizmat qilib, ilmiy tafakkur, ratsional fikrlash va nazariy izlanishlarning keng quloch yoyishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, islom dini ta'limotlari, Qur'on ilmlari hamda hadisshunoslik sohasining izchil rivoji mazkur uyg'onish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ldi. Natijada, diniy-ilmiy tafakkur bilan dunyoviy fanlar o'rtasida uyg'unlik vujudga kelib, bu holat mintaqaning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini yanada mustahkamladi.

O’zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Vatanimiz necha yuz yillar mobaynida buyuk sivilizatsiya va madaniyat markazlaridan biri bo’lgan. Qadimdan diyorimizda xalqimiz bilan birga turli millat vakillari yelkadosh, ahil va hamjihat bo’lib, tinch va osoyishta muhitda yashab keladilar. O’zbekistondagi bag‘rikenglik siyosati tufayli hozirgi kunda yurtimizda yagona oila bo’lib yashayotgan millat va elat vakillariga o’z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda”. [1;35.]

Tasavvuf ilmi manbalarda feodal tuzum sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-ma’naviy norozilik harakati sifatida talqin qilinadi. Xususan, u jamiyatda boylikka haddan tashqari berilish, moddiy manfaatlarning ustuvor qo‘yilishi hamda insoniy qadr-qimmatning poymol etilishiga qarshi yo‘naltirilgan g‘oyaviy-axloqiy oqim sifatida shakllangan.

Metodologiya. Mazkur maqolada tasavvuf ta’limotining falsafiy jihatlarini tadqiq etishda dialektik, tarixiy-falsafiy, qiyosiy va tizimli-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tasavvufdagi ontologik, gnoseologik, axloqiy hamda estetik qarashlar o‘zaro uzviy bog‘liq falsafiy tizim sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, tasavvufiy matnlar va ramzlarning mazmunini ochib berishda germenevtik yondashuv qo‘llanildi, bu esa tasavvuf falsafasining nazariy mohiyatini ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

Muhokama. Tasavvuf o‘zining ilk tarixiy bosqichlaridanoq so’fiylik harakati namoyandalari tomonidan islom dinining asl mohiyatini va ruhiy sofligini tiklash, ijtimoiy munosabatlarda adolat va tenglik tamoyillarini qaror toptirish, shuningdek, axloq-odob sohasida dastlabki sodda va kamtarona hayot tarziga qaytishni targ‘ib etuvchi ta’limot sifatida rivojlandi. Shu jihatdan, tasavvuf nafaqat diniy-mistik oqim, balki jamiyatning axloqiy-ma’naviy muammolariga javob beruvchi muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ilmning barcha musulmon o’lkalarida, jumladan, Markaziy Osiyo hududida keng tarqalishining sababi uning har bir mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotiga xos xususiyatlariga hozirjavoblik bilan moslashuvi, rasmiy islomga nisbatan soddaligi va xalqchilligidir. U o’zining rivojlanishi jarayonida muayyan mahalliy xalqlarning urf-odatlari, diniy marosimlari, milliy an’analariga tezkorlik bilan moslasha bordi va ularni o’zida uddaburonlik bilan aks ettira oldi. [2;231.]

“Mamlakatimizda “o’tgan yillarda xalqimizning ma’naviy merosiga yangicha yondashish va yangicha fikrlash taqozosi tufayli bizga noma’lum bo’lgan ko’pgina tasavvuf allomalari bo’lgan yurtdoshlarimizni kashf etdik. Hozirgi real makon va zamonda so’fiylarning ilmiy-ma’rifiy manbalarini o’rganish uchun yetarli sharoitlar mavjud, ularning go’zallik g‘oyalarini hayotga tatbiq etmoqdamiz, buyuk zotlarning faoliyatlariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar o’tkazmoqdamiz”. [3;4.]

Tasavvuf ta’limotining falsafiy jihatlari, xususan uning ontologik, gnoseologik, axloqiy hamda estetik asoslari so‘nggi yillarda yosh olimlar tomonidan olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarda tizimli ravishda o‘rganib kelinmoqda. Bu borada tasavvufni nafaqat diniy-mistik oqim, balki murakkab falsafiy-tafakkuriy tizim sifatida tahlil qilishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar shakllanganini kuzatish mumkin. Jumladan, Buxoro va Samarqand falsafiy maktablari, J. Xolmo‘minov, Z.Isoqova, M.Norova, L.Karimova, M.Norqobilov, O.O‘roqova va boshqalarning dissertatsiya ishlari tasavvufning tarixiy, falsafiy, diniy jihatlarini, borliq haqidagi tasavvurlari, bilish nazariyasi, axloqiy kamolot masalalari hamda estetik qarashlarini ilmiy asosda yoritib berishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur tadqiqotlarda tasavvufiy tafakkur inson va borliq munosabatini tushuntirishga qaratilgan ontologik qarashlar, haqiqatni idrok etishning ichki-ma’rifiy yo‘llari sifatidagi

gnoseologik yondashuvlar, shuningdek, komil inson konsepsiyasi bilan bog‘liq axloqiy tamoyillar va go‘zallikni ilohiy mohiyat bilan uyg‘un holda talqin etuvchi estetik qarashlar orqali tahlil etiladi. Bu esa tasavvufni Sharq falsafasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, Usmon Turar tomonidan yozilgan “Tasavvuf tarixi” asarida tasavvufiy tafakkur rivojida muhim o‘rin tutgan asosiy manbalar bilan bir qatorda izohlovchi va ikkilamchi manbalar ham keng qamrovda ko‘rib chiqiladi. Muallif tasavvuf manbalarini tizimlashtirgan holda “Tabaqoti so‘fiya”, “Manoqib” janridagi asarlar, odob va arkon kitoblari, she’riy tasavvufiy asarlar, tasavvufiy tafsirlar hamda boshqa yozma yodgorliklarni alohida guruhlarga ajratadi. Ushbu tasnif tasavvuf manbalarining nihoyatda boy va rang-barang ekanligini, ularning son jihatidan minglab ekanini ko‘rsatadi. [4;180.]

Tasavvufni falsafiy jihatdan tahlil qilishda dastlab uning ontologik jihatlariga e’tibor qaratish lozim, tasavvufning ontologik qarashlari borliq mohiyatini ilohiy birlik g‘oyasi asosida talqin etishga qaratilgan. Tasavvuf falsafasida mutlaq borliq Alloh taolo sifatida tushuniladi va mavjudotning barcha shakllari ushbu mutlaq borliqning zohiriy tajalliylari deb izohlanadi. Shu bois tasavvuf ontologiyasi vahdat al-vujud (borliqning birligi) va vahdat ash-shuhud (idrokdagi birlik) konsepsiyalari orqali ifodalanadi.

Tasavvufiy ontologiyada mavjudot mustaqil substansiya sifatida emas, balki ilohiy haqiqatning tajalliy shakllari sifatida talqin qilinadi. Inson esa ushbu borliq tizimida alohida maqomga ega bo‘lib, u mikrokosmos sifatida makrokosmosdagi ilohiy sifatlarning jamlanmasi hisoblanadi. Aynan shu jihat tasavvufda komil inson g‘oyasining shakllanishiga ontologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Komil inson — borliqdagi ilohiy haqiqatni to‘liq anglay oluvchi va uni o‘z vujudida namoyon eta oluvchidir. Shu tariqa, tasavvuf ontologiyasi borliqni dualistik qarama-qarshilikda emas, balki yagona ilohiy manbadan kelib chiqqan yaxlit tizim sifatida tushuntiradi.

Tasavvufning gnoseologik jihatlari esa shundan dalolat beradiki, bilish jarayonini faqat aql va hissiy tajriba bilan cheklab qo‘yilmaydi. Unda haqiqatni bilishning asosiy yo‘li qalbiy-ma’rifiy idrok hisoblanadi. Tasavvufiy bilish shakllari sifatida ma’rifat, kashf, ilhom va mushohada tushunchalari muhim o‘rin tutadi. Tasavvufga ko‘ra, aql zohiriy bilimlarni anglashda zarur vosita bo‘lsa-da, u mutlaq haqiqatni to‘liq idrok etishga qodir emas. Haqiqiy bilim qalbning poklanishi, nafsni jilovlash va ruhiy kamolot orqali qo‘lga kiritiladi. Shu sababli tasavvuf gnoseologiyasida bilish axloqiy kamolot bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bilish jarayoni shariat – tariqat – ma’rifat – haqiqat bosqichlari orqali amalga oshadi. Ushbu bosqichlar insonning tashqi diniy amal va bilimlardan ichki ruhiy idrok va ilohiy haqiqatni anglash sari bosqichma-bosqich yuksalishini ifodalaydi. Demak, tasavvuf gnoseologiyasi bilishni faqat intellektual faoliyat emas, balki butun shaxsning ruhiy-axloqiy kamoloti jarayoni sifatida talqin qiladi.

Tasavvuf estetikasiga ko’ra, go’zallik ilohiy haqiqatning tajallisi sifatida tushuniladi. Unda go‘zallik tashqi shakl bilan cheklanmay, ichki ma’no va ruhiy mohiyat bilan uyg‘un holda idrok etiladi. Tasavvufda jamol (go‘zallik) va jalol (ulug‘vorlik) tushunchalari estetik qarashlarning asosiy kategoriyalarini tashkil etadi. Tasavvufiy estetik tafakkurda san’at, ayniqsa she’riyat va musiqa, ilohiy haqiqatni ramziy obrazlar orqali ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ishq, visol, hijron, may, soqiy kabi timsollar tasavvufiy she’riyatda estetik obrazlar bo‘lishi bilan birga, chuqur falsafiy-axloqiy mazmunga ega. Bu obrazlar inson ruhining ilohiy manbaga intilishi va ma’naviy yuksalishini ifodalaydi. Tasavvuf estetikasi, shu tariqa,

axloqiy poklanish va ruhiy kamolot bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, go‘zallikni idrok etish jarayonini insonni komillikka yetaklovchi vosita sifatida baholaydi.

Natijalar. Umuman olganda, tasavvuf ta’limotining ontologik, gnoseologik va estetik jihatlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda yagona falsafiy tizimni tashkil etadi. Ontologik jihatdan borliq ilohiy birlik asosida tushuntirilsa, gnoseologik jihatdan haqiqatni bilish qalbiy-ma’rifiy idrok orqali amalga oshadi, estetik jihatdan esa go‘zallik ilohiy haqiqatning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu jihatlar tasavvufni Sharq falsafasi va ma’naviy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi.

“Tasavvufda bizni qiziqtirayotgan narsa uning mohiyati va haqiqati, xalq qalbidan joy olgan insonparvarlik g‘oyalari, ulug‘ adiblarga ilhom bergan Soflik, Haqiqat, Go’zallik, Kamolot ideali, shu ideallarga bo’lgan cheksiz muhabbatdir. Hazrat Navoiy ta’riflaganday, tasavvuf xilof-u ixtilofi bo’lmagan, riyo va manmanlik, da’vo-yu tamani inkor etadigan bir ulug‘ ta’limotkim, u inson ziynati, tiynatini poklovchi obihayotdir”.

Tasavvuf, o‘z mohiyatiga ko‘ra, inson tafakkuri va ruhiy olamini qamrab oluvchi yuksak darajadagi romantik-falsafiy makondir. “Olamni Mutlaq Parvardigorning ijodi deb qarash, dunyoni Ilohning ko’zgusi deb tushuntirish va barcha go’zalliklar, qudratni Ilohdan deb hisoblash, borliqni romantik ranglarda, shoirona xayoliy surat-timsollar tarzida, ilohiy nurning porlashidan doimiy harakatda va ijodda deb tasavvur etish — o’zi bir Buyuk Poeziyadir”. [5;140.] Tasavvufiy dunyoqarashda borliq faqat moddiy mavjudliklar majmui emas, balki ilohiy nur, go‘zallik va qudratning uzluksiz namoyon bo‘lish jarayonidir. Shu ma’noda, barcha go‘zalliklar, uyg‘unlik va harakat manbai sifatida Allohning mutlaq ijodkorligi e’tirof etiladi.

Tasavvufda olamni idrok etish jarayoni ratsional-analitik tafakkur bilan cheklanmay, balki badiiy-estetik mushohada, ramziy tasavvur va shoirona xayol orqali amalga oshadi. Borliq ilohiy nurning porlashi natijasida doimiy harakat va ijod holatida tasavvur qilinadi. Shu bois tasavvufiy tafakkurda mavjudot statik emas, balki dinamik, ya’ni ilohiy tajallilarning uzluksiz oqimi sifatida talqin etiladi. Bu holat tasavvuf estetikasi va ontologiyasining o‘zaro uzviy bog‘liqligini namoyon etadi.

Darhaqiqat, tasavvufiy qarashlarga badiiy-estetik munosabatda yondashish uni romantika hodisasi sifatida baholash uchun mustahkam falsafiy asos yaratadi. Tasavvuf romantizmi individual hissiyotlar va subyektiv kechinmalar bilan cheklanib qolmaydi; aksincha, u inson ruhining mutlaq haqiqatga intilishi, ilohiy ishq orqali komillikka erishish jarayonini ifodalaydi. Bu romantizm real borliqdan qochish emas, balki borliqni ilohiy ma’no bilan qayta talqin qilish, uni yuksak estetik va axloqiy mezonlar asosida anglashga urinishdir.

Tasavvufiy tafakkurda she’riyat, ramz, timsol va metaforalar muhim gnoseologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ishq, visol, hijron, nur, ko‘zgu, sayr kabi obrazlar tasavvufiy matnlarda nafaqat estetik bezak, balki chuqur ontologik va ma’rifiy mazmunga ega timsollar sifatida ishlatiladi. Shu jihatdan, tasavvufni “Buyuk Poeziya” deb atash mumkin, chunki u borliqni nafaqat tushuntiradi, balki uni ruhiy-estetik jihatdan qayta yaratadi. Aytish mumkinki, tasavvuf romantik olam sifatida ilohiy haqiqatni badiiy-estetik idrok orqali anglashga qaratilgan yuksak falsafiy tizim bo‘lib, unda ontologiya, gnoseologiya va estetika bir butun holda namoyon bo‘ladi. Tasavvufiy romantizm insonni ruhiy poklanish, axloqiy kamolot va ilohiy go‘zallikni mushohada qilish sari yetaklovchi muhim ma’naviy-falsafiy hodisa sifatida qadrlanadi.

Tasavvuf estetikasi inson ruhiy olami va go‘zallikni idrok etish jarayonini o‘rganadi. Tasavvufiy estetik tajriba bir nechta qatlamdan iborat: mavjudot va uning ilohiy mohiyati, inson

qalbidagi ruhiy mushohada, shuningdek hissiy kechinmalar va badiiy ifodalar. Shu qatlamlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular orqali inson ruhiy go‘zallik va ma’naviy yuksalish tajribasini oladi.

Tasavvuf estetikasi doimiy harakat va o‘zgarish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, she’riyat, ramzlar va timsollar orqali inson ruhining Alloh bilan yaqinlashishi, yangi ma’naviy holatga erishishi kuzatiladi. Bu jarayon shunchaki tasavvur emas, balki haqiqiy ruhiy tajriba sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, tasavvuf estetikasi ochiq tizim sifatida ishlaydi: u tashqi olamdan ilhom oladi, ruhiy mushohada orqali o‘zini yangilaydi va yangi badiiy obrazlar yaratadi. Shu tariqa, tasavvufiy san’at va she’riyat insonning ruhiy kechinmalari va estetik idrokini boyitadi, yangi ma’no va hislarni uyg‘otadi.

Umuman olganda, tasavvuf estetikasi insonni go‘zallik, ruhiy poklanish va ma’naviy yuksalish sari yetaklaydi. Bu jarayon ontologik, gnoseologik va estetik jihatlarni birlashtirib, inson va olamni yagona ruhiy tajriba sifatida tushunishga imkon beradi. Shu sababli tasavvufni “Buyuk Poeziya” deb atash mumkin, chunki u borliqni nafaqat tushuntiradi, balki uni his qilishni o‘rgatadi.

“Tasavvuf bir xil o’xshash falsafiy-diniy oqim bo’lmagan. Tabiat va hayotni tushuntirishda ilmiy qonunlardan qochish, inson mohiyatini ruhiy-ma’naviy isloh etish, islom doktrinasini qabul qilingan jihatlariga yangi soz va ovoz jarangini kiritish, bularning barchasi tasavvuf oqimlarining xususiyatlari edi. Shu bilan birga, arab xalifaligiga O’rta va Yaqin Sharq xalqlarining ma’lum bir ijtimoiy oppozitsiyalari, o’sha davr ilmiy-badiiy tafakkurining ma’lum bir yutuqlari, qadimgi yunon falsafasini o’rganish so’fizmning boshqa yo’nalishlarini ham yaratadi”.[6;50.]

Shuningdek, tasavvuf o‘zining falsafiy estetik tizimi orqali insonni mavjudotning haqiqiy mohiyati bilan uyg‘unlashishga chaqiradi. Bu tizimda ilmiy tafakkur va badiiy tasavvur bir-birini to‘ldiradi, shoirona obrazlar va ramzlar esa inson ruhida ontologik va gnoseologik tajriba hosil qiladi. Shu tariqa, tasavvuf nafaqat diniy ibodat va ruhiy amaliyotlar bilan cheklanmay, balki insonning ichki olami va dunyoni anglash qobiliyatini boyituvchi murakkab ilmiy-falsafiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Tasavvuf ta’limotida kuzatiladigan bunday ijodiy va falsafiy xilma-xillik, bir tomondan, insonning ruhiy ehtiyojlariga javob berish, boshqa tomondan esa o‘sha davr jamiyatidagi ma’naviy va estetik tendensiyalarni qamrab olish bilan bog‘liq. Shu bilan tasavvufning turli yo‘nalishlari bir-biridan farqli bo‘lgan qarashlar va metodlarni ham o‘z ichiga olgan holda, ijodiy plyuralizmni shakllantiradi. [7;257.]

Bundan tashqari, tasavvufda qadimiy yunon falsafasi, hind va fors ilmiy-ma’rifiy merosi ham integratsiyalashgan. Bu esa so‘fizmni nafaqat Islom madaniyati doirasida, balki globallashgan ilmiy-falsafiy kontekstda ham o‘rganish imkonini beradi. Shu tarzda, tasavvufiy tafakkur inson va olam o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni idrok etishga, estetik tajriba orqali ruhiy kamolotga erishishga xizmat qiladi.

Natijada, tasavvuf oqimlari o‘zining falsafiy, estetik va gnoseologik jihatlari bilan o‘sha davr jamiyatining ruhiy va madaniy hayotini boyitgan, insonni haqiqat, go‘zallik va ma’naviy poklanishga yetaklovchi murakkab tizim sifatida shakllangan.

Xulosa. Tasavvuf ta’limotining turli jihatlarini, xususan, ontologik, gnoseologik, badiiy va estetik qirralarini o‘rganish, inson tafakkurini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Har bir jihat tasavvufning murakkab va ko‘p qatlamli tizimini ochishga xizmat qiladi. Ontologik jihat

tasavvufiy tafakkur orqali borliqning mohiyati, inson va olam o‘rtasidagi munosabatlar, mavjudot va ilohiy haqiqatning o‘zaro bog‘liqligi tushuniladi. Shu bilan inson haqiqiylikni idrok etish, o‘zligini va dunyoni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Gnoseologik jihat esa bilish jarayonini, qalb va idrok orqali haqiqatni anglash yo‘lini o‘rganadi. Tasavvufda bilish faqat aqliy tafakkur bilan cheklanmaydi, balki ruhiy mushohada, ma’rifiy tajriba va ilohiy ilhom orqali ham amalga oshadi. Bu jihat insonni ma’naviy poklanish va ichki kamolotga yetaklaydi. Badiiy va estetik jihatlar tasavvufni inson ruhiy olamida go‘zallik, ilohiy nur va she’riyat orqali idrok etishga imkon beradi. Tasavvufiy san’at, ramzlar, timsollar va she’riyat insonning ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashib, ruhiy va hissiy tajribani boyitadi. Shu bilan u insonni faqat tushunishga emas, balki his qilish va hisobot berishga undaydi.

Umuman olganda, tasavvufning bu jihatlarini o‘rganish insonning ruhiy va ma’naviy rivojlanishini, estetik idrokini, bilim va tafakkur qobiliyatini kengaytiradi. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatning ma’naviy va madaniy boyligiga ham hissa qo‘shadi. Shu tariqa, tasavvufiy tadqiqotlar orqali biz borliq, inson va go‘zallik haqidagi fundamental haqiqatlarni chuqurroq anglashga erishamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 35 б.
2. Ўзбекистон фалсафаси тарихи. – Тошкент: “Noshir”, 2013. – 231 б.
3. Каттаев К. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 4 б.
4. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. Истиқлол. – Т.; 1999. – 180 с.
5. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Movarounnahr, O‘zbekiston. 2009. – 140 б.
6. Ўракова О.Ж. Шарқ романтизмининг эстетикаси: тадрижий таҳлил ва замонавий ёндашувлар иерархиясининг фалсафий асослари. Фалс. фан. док (DcS) дис. ... – Самарқанд, 2022.
7. Tursunkulova Sh. Tasavvuf falsafasida go‘zallik paradigmasining konseptual mohiyati. Monografiya. – Toshkent: Alfraganus university, 2025. – 257 b.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

CHARACTERISTICS OF AESTHETIC PERCEPTION IN THE DIGITAL ENVIRONMENT

Ibrakhimova Dilorom Saloydinovna
Teacher of the State Technical University
E-mail: diloromibraximova@gmail.com

Abstract. The article analyzes the features of aesthetic perception in the digital environment of modern society. Based on socio-philosophical and aesthetic approaches, the influence of information and communication technologies, digital media, virtual space, and social networks on human aesthetic experience is examined. The differences between traditional and digital forms of aesthetic perception are identified, and the transformation of aesthetic values in digital culture is analyzed. Special attention is paid to the issues of massification, virtualization, and democratization of aesthetic perception.

Keywords: aesthetic perception, digital environment, digital culture, aesthetic consciousness, media aesthetics, virtual space.

RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI

Ibraximova Dilorom Saloydinovna
TDYU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda raqamli muhit ta’sirida estetik idrokning shakllanishi, uning mazmuniy va funksional xususiyatlari tahlil etiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli media, virtual makon va ijtimoiy tarmoqlar insonning estetik tajribasiga ko‘rsatayotgan ta’siri ijtimoiy-falsafiy va estetik yondashuv asosida yoritilgan. Maqolada estetik idrokning an’anaviy va raqamli shakllari o‘rtasidagi farqlar ochib berilib, raqamli muhitda estetik qadriyatlarning transformatsiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, estetik idrokning demokratiklashuvi, ommaviylashuvi va virtuallashuvi bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: estetik idrok, raqamli muhit, raqamli madaniyat, estetik tarbiya, virtual makon, ommaviy madaniyat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N12

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Axborot-kommunikatsiya vositalari inson hayotining deyarli barcha sohalariga, jumladan, madaniyat, san’at va estetika sohalariga chuqur kirib keldi. Raqamli muhit nafaqat axborot almashinuvini tezlashtirdi, balki insonning borliqni estetik anglash usullarini ham o‘zgartirdi.

Xususan, vizual axborotning ustuvorligi, interaktiv platformalarning keng tarqalishi va virtual reallik elementlarining hayotga joriy etilishi estetik idrokning an’anaviy shakllarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Agar an’anaviy estetik tajriba asosan san’at asarlari bilan bevosita muloqotga tayangan bo‘lsa, raqamli muhitda estetik idrok ko‘pincha ekran orqali, medialashgan va fragmentar ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu holat estetik tajribani tezkor, ommaviy va global xarakter kasb etishiga olib kelmoqda.

Estetika fanining kategoriyalari — go‘zallik, nafosat, ulug‘vorlik raqamli muhitda yangi mazmun kasb etmoqda. ya’ni ular virtual makon, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli san’at va multimedia vositalari orqali namoyon bo‘lib, insonning estetik didi, idroki va qadriyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugun go‘zallik vizual effektlar, dizayn va interfeys orqali qabul qilinsa, nafosat raqamli madaniyatda minimalizm va uyg‘unlik shaklida ifodalanmoqda, ulug‘vorlik esa innovatsion texnologiyalar va keng qamrovli axborot makoni orqali yangicha estetik tajriba sifatida anglanmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli muhitda estetik idrokning xususiyatlarini o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Estetik idrok inson ongining borliqni hissiy va obrazli qabul qilish shakli bo‘lib, u estetik ongning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Klassik estetikada estetik idrok, avvalo, tabiat va san’at asarlarini bevosita his qilish jarayoni sifatida talqin etilgan.

Estetik idrok masalasi to‘ridan to‘g‘ri inson estetik tarbiyasiga daxldorligi bois inson va jamiyat, inson va davlat, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar rivojida sezilarli ta’sirga ega. Chunki, estetik idrokning o‘ziga xos xususiyati avvalo, badiiy ijodning tabiatiga hamda san’atning ijtimoiylik mohiyatiga ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi[1]. I.Kant estetik idrokni manfaatsiz zavq bilan bog‘lasa [2], G.V.F.Gegel uni badiiy obraz orqali mutlaq g‘oyani anglash jarayoni sifatida izohlagan [3].

Zamonaviy estetikada esa estetik idrok ijtimoiy-madaniy kontekstda, media va kommunikatsiya vositalari bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Bu yondashuv estetik tajribani faqat individual hissiy qabul qilish jarayoni sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy muhit, madaniy me’yorlar va axborot oqimlari ta’sirida shakllanuvchi murakkab fenomen sifatida talqin qilishga imkon beradi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, raqamli media, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar estetik obrazlar, qadriyatlar hamda ideallarni yaratish va tarqatishda asosiy vositaga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, estetik idrok medialashgan voqelikda shakllanib, vizual, audiovizual va interaktiv elementlar orqali amalga oshmoqda. Bu jarayon estetik tajribaning tezkorligi, fragmentarligi va ommaviy xarakter kasb etishi bilan izohlanadi. Natijada estetik idrok nafaqat san’at asarlarini qabul qilish bilan cheklanib qolmay, balki kundalik hayotdagi media mahsulotlar, reklama, dizayn va raqamli kontent orqali ham shakllanadi.

Bunday sharoitda estetik idrokning ijtimoiy tabiati yanada yaqqol namoyon bo‘lib, u jamiyatdagi madaniyat, ideologik jarayonlar va kommunikatsiya strategiyalari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Demak, zamonaviy estetikada estetik idrokni tahlil qilish media estetika, madaniyatshunoslik va ijtimoiy falsafa bilan integratsiyada olib borilishini taqozo etadi.

Raqamli muhit — axborotni elektron shaklda yaratish, saqlash va tarqatishga asoslangan ijtimoiy-madaniy makondir. U internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va virtual reallik tizimlarini o‘z ichiga oladi. Raqamli muhitning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: globallik va chegarasizlik; tezkorlik va dinamiklik; interfaollik; vizual va audiovizual ta’sirning ustuvorligi[4].

Ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va raqamli san’at namunalari insonning estetik ehtiyojlarini qondirishda asosiy manbalarga aylanmoqda. Bu esa estetik idrokning ommaviy va standartlashgan shakllarini yuzaga keltirmoqda. Masalan Instagram, TikTok va YouTube kabi platformalar foydalanuvchilarining estetik didini belgilovchi obrazlar, videolar va vizual trendlar orqali shakllantirilmoqda. Bu jarayonda foydalanuvchi nafaqat ma’lumotni qabul

qiladi, balki unga estetik baho beradi va bunday standartlar kundalik estetik idrokning bir qismiga aylanadi.

Raqamli muhitda estetik idrok vizual axborotga tayanadi. Rasm, video, animatsiya va dizayn elementlari estetik ta’sirning asosiy vositalaridir. Foydalanuvchi estetik obyektni faqat qabul qilmay, balki uni yaratish va transformatsiya qilish jarayonida ham ishtirok etadi. Raqamli estetik obyektlar ko‘pincha reallikning virtual modellari bo‘lib, shartli va simulyativ xarakterga ega.

Raqamli muhit estetik tajribani keng omma uchun ochiq qiladi, ammo bu ayni paytda estetik didning yuzakilashuviga ham olib kelishi mumkin. Chunki raqamli platformada vizual kontentning ommaviylashuvi estetik qadriyatlarning standartlashuvi qisqa va tez iste’mol qilinadigan shakllarga aylanishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan “viral aesthetic trends” – tez ommalashadigan trendlar murakkablik va mazmunning chuqur tahlilini talab qiladigan estetik tajribani estetik tajribani soddalashtirib yuboradi.

Raqamli muhitda estetik idrokni shakllantirish masalasi estetik tarbiya bilan uzviy bog‘liq. Yosh avlodda tanqidiy estetik tafakkurni rivojlantirish, raqamli kontentni anglash va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli muhit xavflari bilan bir qatorda shaxsiy estetik rivojlanish uchun noyob imkoniyatlarni yaratadi. Tegishli pedagogik yordam bilan video o’yinlardan tortib virtual muzeylargacha bo‘lgan zamonaviy raqamli resurslar badiiy did, ijodiy va tanqidiy fikrlash, axloqiy va gumanistik qadriyatlarni rivojlantirish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi va muhim ta’lim funksiyalarini bajarishi mumkin[5].

Estetik tarbiya raqamli madaniyatning salbiy ta’sirlarini kamaytirish va estetik qadriyatlarni saqlab qolishda muhim vosita hisoblanadi. Estetik tarbiya o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib, rivojlanadigan «mikroorganizm» emas yoki birdan to‘xtab qoladigan “mexanizm” ham emas. U sekin-asta inson tomonidan orttirilgan hayotiy tajribalar, ko‘nikmalar, bilimlar orqali shakllanib boradi. Estetik tarbiya ijtimoiy taraqqiyotning muayyan jabhalarida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida ish olib boradi[7].

Biz raqamli muhitda estetik tarbiyani faqat cheklovlar orqali emas, balki ongli qabul va tahlil qilishni o‘rgatish orqali shakllantirishimiz mumkin. Shu bois, ta’lim muassasalarida raqamli media vositalari orqali estetik tarbiyani tizimli yo‘lga qo‘yish, uni alohida ta’lim yo‘nalishi sifatida rivojlantirish zarur. Bu jarayonda raqamli platformalar, multimedia resurslari va vizual materiallar tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qilishi kerak.

Raqamli muhitda estetik tarbiya samarali bo‘lishi uchun yosh avlodda tanqidiy fikrlash va vizual savodxonlikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar raqamli kontentni shunchaki iste’mol qilmasdan, uning mazmuni, estetik sifati va ta’sir kuchini tahlil qila olishlari lozim. Bu esa ularni yuzaki vizual ta’sirlar va ommaviy estetik standartlarga ko‘r-ko‘rona ergashib ketishdan saqlaydi.

Shu bilan birga, interaktiv va virtual resurslardan oqilona foydalanish estetik tarbiya imkoniyatlarini kengaytiradi. Virtual muzeylar, 3D san’at obyektlari va ta’limiy video o‘yinlar orqali estetik tajriba nafaqat qabul qilish, balki ijodiy ishtirok shaklida ham namoyon bo‘ladi. Bu holat yoshlarda estetik did, tasavvur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli muhitda estetik tarbiya jarayonida madaniy va axloqiy qadriyatlarni saqlash alohida e’tibor talab qiladi. Shu sababli, pedagogik yondashuv orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan estetik me’yorlarni yoshlar ongiga singdirish muhimdir.

Shuningdek, estetik idrokni shakllantirishda ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olish zarur. Estetik tajribani tahlil qilishda media muhit, madaniy jarayonlar va ijtimoiy ta’sirlarni integratsiyalash estetik tarbiyani yanada mazmunli va samarali qiladi. Bu yondashuv yoshlarda nafaqat estetik did, balki ma’naviy barkamollik va ijtimoiy mas’uliyat hissini ham rivojlantiradi.

Raqamli muhit zamonaviy jamiyatda estetik idrokning yangi xususiyatlarini shakllantirmoqda. Vizuallik, interfaollik, virtuallik va ommaviylik raqamli estetik idrokning asosiy belgilaridir. Ushbu jarayon estetik tajribaning boyishiga xizmat qilishi bilan birga, uning yuzakilashuvi xavfini ham yuzaga chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli muhitda estetik idrokni tizimli va kompleks ravishda ilmiy tahlil qilish, estetik tarbiyani raqamli madaniyat sharoitiga mos holda rivojlantirish hamda yosh avlodda tanqidiy estetik tafakkurni shakllantirish zamonaviy estetika fanining ustuvor va dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. A.Sher. B.Husanov “Estetika” o‘quv qo‘llanma – O‘zbekiston faylasuflar jamiyati, T: 2010. 138-b.
2. I.Kant Critique of Judgment. – Cambridge, 2007.
3. G.Hegel Aesthetics: Lectures on Fine Art. – Oxford, 2010.
4. Y.Chen, Y.Peng, Y.Tan. Achieving Cultural Heritage Sustainability Through Digital Technology: Public Aesthetic Perception of Digital Dunhuang Murals Sustainability 2025, 17, 7887
5. Manovich L. The Language of New Media. – London, 2018.
6. Алевра Е.Г. Цифровая культура и ее влияние на эстетическое воспитание современной молодежи Современные наукоемкие технологии. 2025. № 9 S. 186-190
7. Xusanov B. Milliy estetik tarbiya taraqqiyotining ma’naviy tamoyillari Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 16 | 2023

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF STRENGTHENING THE FAMILY INSTITUTION – A CRITERION OF SOCIAL STABILITY OF FAMILY AND SOCIETY

Muxammadiyeva Oliya Narzullayevna
Associate Professor, Termiz State University of Engineering and Agrotechnologies,
Doctor of Philosophy (PhD)
E-mail: muxammadiyeva@bk.ru

Abstract. The article analyzes conceptual approaches to strengthening the family institution as a criterion for social stability. It examines the interconnection between family and society, the alignment of legal norms and moral values, as well as the relationship between state policy and spiritual stability in the development of the family institution based on scientific evidence. Through philosophical, axiological, and civilizational approaches, the strategic essence of the family phenomenon is revealed, highlighting its role in the spiritual, cultural, and social development of society. The article also discusses practical directions for strengthening the family institution, mechanisms for ensuring social stability, and the significance of state policy in this process. The findings demonstrate that the stability of the family institution is a crucial criterion for ensuring not only personal and familial well-being but also the social stability of society as a whole.

Keywords: family institution, social stability, legal foundations, moral values, concept, national identity, civilizational approach, interconnection.

OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI

Muxammadiyeva Oliya Narzullayevna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada oila institutini mustahkamlashga doir konseptual yondashuvlar ijtimoiy barqarorlik mezoni sifatida tizimli tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda oila va jamiyat o‘rtasidagi uzviylik, huquqiy me’yorlar bilan axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi, shuningdek davlat siyosati, ma’naviy barqarorlik va milliy identitetning oila institutini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan. Falsafiy, aksiologik va sivilizatsiyaviy yondashuvlar asosida oila fenomenining strategik mohiyati ochib beriladi, uning jamiyatning ma’naviy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishidagi roli ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada oila institutini mustahkamlashning amaliy yo‘nalishlari, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi mexanizmlar va davlat siyosatining ushbu jarayondagi ahamiyati muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari, oila institutining mustahkamligi nafaqat shaxsiy va oilaviy farovonlikni, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash uchun muhim mezon ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: oila instituti, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy asoslar, axloqiy qadriyatlar, konsepsiya, milliy identitet, sivilizatsiyaviy yondashuv, uzviylik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N13

Kirish. Oila – insoniyat jamiyatining eng asosiy va qadimiy instituti bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oila instituti nafaqat shaxsiy hayot va oilaviy farovonlikni ta’minlaydi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, madaniy an’analari va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy global va mahalliy sharoitlarda oila institutining mustahkamligi va uning jamiyat bilan uzviy bog‘liqligi dolzarb masalaga aylanmoqda. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va milliy identitetning saqlanishi ko‘pincha oilaning mustahkamligiga bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar oila institutiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Oiladagi qadriyatlar va an’analar me’yori, huquqiy va axloqiy normalar bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Shu bois, oila institutini mustahkamlash, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, shuningdek davlat siyosati va ma’naviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish muhim vazifa sifatida ko‘riladi. Falsafiy, aksiologik va sivilizatsiyaviy yondashuvlar yordamida oila fenomenining strategik mohiyati aniqlanadi, uning jamiyat taraqqiyotidagi roli yoritiladi.

Ushbu maqola oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini ijtimoiy barqarorlik mezoni sifatida tahlil qilgan holda, oilaning jamiyatdagi funksiyasi, davlat siyosati bilan bog‘liqligi va milliy identitetni shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy asosda ochib beradi. Tadqiqot natijalari oilaning mustahkamligi nafaqat shaxsiy va oilaviy farovonlik, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash uchun muhim mezon ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Oila – insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, u jamiyatdagi uzviylik, barqarorlik, axloqiy nazorat va ijtimoiy meros uzatilishini ta’minlovchi madaniy-falsafiy negiz sifatida namoyon bo‘ladi [2]. Bu institut nafaqat shaxsiy munosabatlar maydonidir, balki jamiyatda umumiy ijtimoiy ongning shakllanishi, milliy identitetning mustahkamlanishi va ma’naviy barqarorlikning asosi sifatida faoliyat yuritadi. Oila orqali shaxs jamiyatga kirib keladi, uni anglaydi, sotsializatsiyalanadi va o‘zining ma’naviy-o‘xshoviy mezonlarini shakllantiradi. Shu jihatdan oila institutini mustahkamlash jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta’minlovchi fundamental strategik yo‘nalish sifatida qaralishi zarur [4].

So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo miqyosida ro‘y berayotgan geosiyosiy siljishlar, globallashuv, raqamli kommunikatsiyalarning kuchayishi, iqtisodiy bosimlar va urbanizatsiya oqibatida oilaviy munosabatlar strukturaviy va qadriyat asosida muayyan o‘zgarishlarga uchramoqda. Xususan, individuali turmush tarzining kuchayishi, nikoh institutining zaiflashuvi, nikohsiz birga yashashlar sonining ortishi, o‘zaro mas’uliyatning pasayishi kabi holatlar klassik oilaviy modellarga nisbatan madaniy va ijtimoiy muvozanatni izdan chiqaruvchi omillarga aylanmoqda. Bunday sharoitda oila institutini nafaqat saqlab qolish, balki uni zamon ruhiga mos, barqaror va moslashuvchan tizim sifatida qayta tashkil etish zarurati yuzaga chiqmoqda [5].

Milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash jarayonida ham oila ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida strategik ahamiyat kasb etadi. U nafaqat demografik omil sifatida, balki ijtimoiy birdamlik, axloqiy nazorat, avlodlararo uzviylik va madaniy uzluksizlik kabi funksiyalarning bajaruvchisi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, davlat miqyosida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi alohida e’tiborni talab qiluvchi masalaga aylanmoqda. Huquqiy asoslarning takomillashuvi, ma’naviy-ma’rifiy muhitning sog‘lomlashtirilishi, axborot makonidagi oilaga oid noto‘g‘ri tasavvurlarni bartaraf etish, gender muvozanatini saqlash kabi kompleks chora-tadbirlar jamiyat barqarorligi bilan bevosita bog‘liq.

Mazkur yondashuv oilaning funksional va semantik ko‘lamini aniqlash, uni institut sifatida barqaror jamiyat qurilishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida baholash imkonini

beradi. Uzoq muddatli istiqbolda oila va jamiyat orasidagi uzviylik, normativ-huquqiy bazaning qat'iyligi, ijtimoiy ongning oilaviy qadriyatlarga nisbatan munosabati – barqaror taraqqiyot strategiyasining mezonidir. Shu bois, oila institutini mustahkamlash masalasi har bir milliy jamiyatning sivilizatsiyaviy barqarorligini ta'minlaydigan markaziy konsepsiyaga aylanmog'i zarur [6].

Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi bugungi jamiyatlar taraqqiyotida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida nazarda tutiladi. Bu masalani chuqur tahlil qilish uchun biryoqlama statistik yoki huquqiy modelga emas, balki ko'p qatlamli, konseptual asoslangan metodologik yondashuvga tayanuv zarur. Normativ-huquqiy tizimlarning oila institutiga ta'siri, ma'naviy qadriyatlarning uzatilish mexanizmlari, oilaning sivilizatsiyaviy barqarorlikdagi funksiyasi va ularning zamonaviy kontekstda qayta talqin qilinishi izchil falsafiy-metodologik izlanishni talab etadi.

Bunday tahlil uchun metodologik asosi sifatida birinchidan, aksiologik yondashuv tanlanadi. Chunki oila nafaqat huquqiy birlik, balki jamiyat axloqiy strukturasi va ma'naviy ongining markaziy o'qi sifatida faoliyat yuritadi. Aksiologik mezonlar asosida oila qadriyatlari, avlodlararo uzviylik, nikoh etikasi, sadoqat, ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar ma'naviy barqarorlik negizini tashkil etadi.

Ikkinchidan, sivilizatsiyaviy tahlil yondashuvi qo'llanadi. Har bir jamiyatda oila institutining tashkil topishi, uning me'yoriy jihatdan shakllanishi va tarixiylik doirasidagi transformatsiyasi konkret sivilizatsiyaviy muhitga bog'liqdir. Sharqiy va G'arbiy madaniyatlarda oila haqidagi tasavvurlar, ularning konstitutsiyaviy va diniy asoslari o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash, zamonaviy globalizatsiya sharoitida ularning o'zaro sintezini tahlil qilish mazkur yondashuv doirasiga kiradi. Bu oila institutining universallik va lokal xususiyatlari orasidagi muvozanatni aniqlash imkonini beradi [6].

Shuningdek, huquqiy-ontologik yondashuv orqali oilaning qonuniy asoslarda mustahkamlanishi va bu asoslarning ijtimoiy ongda qanday qabul qilinishini o'rganish nazarda tutiladi. Oila kodekslari, milliy strategiyalar, davlat siyosatining maqsadli hujjatlari va ularning jamiyatdagi real funksionalligi ushbu metodologik yo'nalishning tahliliy obyektiga aylanadi. Normativlikning ijtimoiy hayotga tatbiq etilishi esa faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy-madaniy dinamikaga bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi.

Tahlil jarayonida falsafiy-hermenevtik yondashuv ham qo'llanadi. Bu uslub orqali oila haqida mavjud matnlar – diniy manbalar, qadimiy risolalar, klassik falsafa namunalaridagi oila konsepsiyasi, shuningdek zamonaviy huquqiy-normativ diskurslar falsafiy tafsirga tayanib o'rganiladi. Hermenevtik yondashuv ijtimoiy institut sifatidagi oilaning zamon va makon doirasidagi dinamik ma'nolarini ochib berishga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mamlakatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va himoya qilishga qaratilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi. Ushbu konsepsiya, oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini chuqur anglab, uni mustahkamlash orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishni maqsad qiladi [3].

Konsepsiyada belgilangan asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Institutsional va huquqiy asoslarni takomillashtirish: Bu yo'nalish, oilani himoya qilish va qo'llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asos yaratishni nazarda tutadi. Shuningdek, davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor o'rtasidagi

hamkorlikni kuchaytirish orqali oilaviy muammolarni hal etish samaradorligini oshirish ko‘zda tutilgan.

2. Fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish: Zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalarini amaliyotga joriy etish orqali oilaviy muammolarning oldini olish va ularni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish rejalashtirilgan.
3. Demografik rivojlanishni rag‘batlantirish va oila farovonligini oshirish: Oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, demografik o‘sishni ta’minlash va oilaviy farovonlik darajasini oshirish orqali jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash maqsad qilingan.
4. Tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash: Oilaning tarbiyaviy va ta’limiy funksiyalarini kuchaytirish, an’anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash orqali jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlash ko‘zda tutilgan.
5. Metodik, konsultativ va amaliy yordam tizimini yaratish: Oilalarga ta’sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko‘rsatishning samarali tizimini yaratish orqali oilaviy muammolarni hal etish va ularning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish rejalashtirilgan.

Konsepsiyada, shuningdek, oilani mustahkamlash sohasidagi mavjud muammolar ham aniqlab berilgan. Ular orasida tegishli idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimining yetarli emasligi, ilmiy tadqiqotlarning amaliyotdan uzilib qolganligi, demografik o‘zgarishlar va ajralishlar sonining ortishi, madaniy-tarixiy merosdan yetarlicha foydalanilmasligi, qonunchilik asoslarining mukammal emasligi va malakali mutaxassislar yetishmasligi kabi masalalar mavjud [4].

Xulosa. Oila instituti har qanday jamiyatda barqarorlik, ma’naviy yuksalish va sivilizatsiyaviy uzviylikni ta’minlaydigan asosiy tayanch sifatida qaralishi lozim. Uni mustahkamlash konsepsiyasi esa huquqiy tizim, ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash vositasi sifatida qadrlanadi. Normativ-huquqiy asoslarning takomillashuvi, qadriyatlar tizimining yangilanishi va madaniy merosning saqlanishi oilani nafaqat sotsial birlik, balki strategik sivilizatsion institut sifatida shakllantiradi. Konsepsiyaviy yondashuv shuni ko‘rsatadiki, oilani ijtimoiy-falsafiy mezonlar asosida anglash, jamiyat barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omilga aylanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023. – 64 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022. – 128 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
4. Ergasheva Z.R. Oilaning ijtimoiy vazifalari // Modern Education and Development. – 2025. – T. 20, №2. – B. 116–120.
5. Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilindi // Gazeta.uz. – 2018-yil 3-iyul. –
6. Qodirov A. Oila va jamiyat: ijtimoiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – 240 b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

IDEOLOGY AND NATIONAL IDEOLOGY CONCEPTS: CONTENT, ESSENCE AND SOCIAL FUNCTIONS

Matchanova Barno
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, Associate Professor
Independent Researcher, Institute of Social and Spiritual Studies

Abstract. The concepts of "ideology" and "national ideology" play an important role in human history, social life, and political processes. This article analyzes the content, essence, and social functions of ideology and national ideology. National ideology reflects the connection of an individual with cultural, historical, and traditional values, and plays a key role in preserving and developing national identity. In addition, the article examines the changes and new forms of national ideology in the context of global processes and intercultural interaction.

Keywords: Ideology, national ideology, national identity, social functions, cultural heritage, historical values, national values, national consciousness, global processes, intercultural communication, political identity, traditional values, uniqueness of the nation.

MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHIYATI VA IJTIMOIY FUNKSIYALARI

Matchanova Barno
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada, mafkura va milliy mafkura tushunchalari insoniyat tarixida, ijtimoiy hayotda va siyosiy jarayonlarda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada mafkura va milliy mafkura tushunchalarining mazmuni, mohiyati va ularning ijtimoiy funksiyalari tahlil qilinadi. Milliy mafkura shaxsning madaniy, tarixiy va an'anaviy qadriyatlar bilan bog'liqligini, millatning identitetini saqlash va rivojlantirishdagi rolini ifodalaydi. Shu bilan birga, maqolada global jarayonlar va madaniyatlararo o'zaro ta'sir kontekstida milliy mafkuraning o'zgarishi va yangi shakllari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mafkura, milliy mafkura, milliy identitet, ijtimoiy funksiyalar, madaniy meros, tarixiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, milliy ong, global jarayonlar, madaniyatlararo muloqot, siyosiy identitet, an'anaviy qadriyatlar, millatning o'ziga xosligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N14

Kirish. Jamiyatning shakllanishi va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, g'oya va mafkuralar jamiyat hayotida faqat nazariy hodisa bo'lib qolmagan, balki ijtimoiy transformatsiyalarni harakatga keltiruvchi, yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lgan. Har bir tarixiy davrda jamiyatning siyosiy tuzilishi, iqtisodiy munosabatlari, ma'naviy qadriyatlari va madaniy yo'nalishlari muayyan mafkuraviy qarashlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Mafkura jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy, iqtisodiy-siyosiy hamda madaniy-diniy tizimlari tarkibida mavjud bo'lgan murakkab va ko'p qatlamli hodisa bo'lib, u ijtimoiy ongning umumiy yo'nalishini, jamiyat a'zolarining

dunyoqarashi va amaliy faoliyatini belgilab beradi [3]. Shu ma’noda mafkura nafaqat mavjud ijtimoiy munosabatlarni izohlovchi, balki ularni legitimlashtiruvchi, mustahkamlovchi yoki muayyan sharoitda tubdan o‘zgartirishga undovchi g‘oyaviy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mafkura va milliy mafkura tushunchalari turli olimlar tomonidan har xil jihatlari bilan o‘rganilgan. Masalan, Antuan Destyut de Trasi hamda Etien Bonno de Kondilyak qarashlarida tizimli ilmiy tushuncha sifatida asoslab berilgan. Xorijiy olimlar, xususan, E.Dyurgeym va M. Weber, milliy mafkura ijtimoiy identitet va madaniy qadriyatlarni shakllantirishdagi rolini ta’kidlaydilar [5]. Zamonaviy tadqiqotlarda milliy mafkura global jarayonlar, madaniyatlararo muloqot va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, O‘zbekiston olimlari Z.Davronov, I.Ergashev Q.Nazarov va boshqalar, milliy mafkura kontsepsiyasini o‘zbek milliy tarixi, madaniyati va an’analari nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Ularga ko‘ra, milliy mafkura nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlash, balki yosh avlodning ma’naviy barkamolligini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy adabiyotlarda globalizatsiya, ko‘p madaniyatlilik va texnologik taraqqiyot milliy mafkura mazmunini yangilash va kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Asosiy qism. Ilmiy-falsafiy manbalarda qayd etilishicha, “mafkura” (ideologiya) tushunchasi XVIII asr oxirlarida G‘arb falsafiy tafakkuri doirasida shakllangan [1]. Ushbu atama dastlab fransuz mutafakkirlari – Antuan Destyut de Trasi hamda Etien Bonno de Kondilyak qarashlarida tizimli ilmiy tushuncha sifatida asoslab berilgan. Xususan, fransuz tilidagi “Rober” lug‘atida “ideologiya” so‘zining ilk bor 1796-yilda, “ideolog” atamasining esa 1800-yilda ilmiy muomalaga kirib kelgani qayd etiladi [5]. “Mafkura” atamasi ilmiy termin sifatida graf Destyut de Trasi tomonidan 1796-yil 20-iyunda Milliy fan va texnika institutida taqdim etilgan “Mafkura loyihasi” nomli ma’ruzasida qo‘llanilgan bo‘lib, keyinchalik u o‘zining “Mafkura asoslari” asarida mazkur tushunchani izchil nazariy jihatdan asoslab bergan. Mazkur asar ta’lim tizimini qayta tashkil etish masalalari bilan uzviy bog‘liq holda yozilgan bo‘lib, unda mafkura keng ma’noda fanlar birligini tiklashga qaratilgan tizimli g‘oyalar majmui sifatida talqin etiladi. Destyut de Trasi qarashlari J. Lokk va E. B. Kondilyakning empirik falsafiy an’analariga tayanib, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida shakllangan “ideologlar” nomi bilan tanilgan falsafiy maktabning nazariy asoslarini birlashtirgan [4]. Ushbu maktab vakillari mafkurani “g‘oyalar haqidagi fan” sifatida talqin qilib, inson tafakkuri, ijtimoiy ong va bilish jarayonlarining manbalarini ilmiy tahlil qilishga intilganlar.

Xususan, Kondilyak konsepsiyasida jamiyat taraqqiyotida g‘oya va mafkuralarning o‘rni alohida ta’kidlanib, ular ijtimoiy ong, bilish jarayoni va amaliy faoliyatning shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida izohlanadi. Bu yondashuv mafkurani mavhum nazariy tushuncha sifatidagina emas, balki ijtimoiy rivojlanishning muhim intellektual va ma’naviy resursi sifatida baholash imkonini beradi. Destyut de Trasi mafkura va g‘oyalar shakllanish jarayonida shaxsning bilish faoliyatini tashkil etuvchi asosiy qobiliyatlarga alohida e’tibor qaratadi. U inson tafakkurining to‘rtta fundamental komponentini – hissiy idrok, xotira, ishonch hosil qilish qobiliyati va irodani ajratib ko‘rsatadi. Mazkur omillar g‘oyalarning vujudga kelishi, mustahkamlanishi va ijtimoiy ongda barqarorlashuv mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, ideologlar g‘oya va bilimlarning shakllanishini tasodifiy

emas, balki muayyan umumiy qonuniyatlarga asoslangan tizimli jarayon sifatida talqin etishga intilganlar.

Mazkur konsepsiya J.Lokkning sensualistik gnoseologiyasiga tayanib, g‘oyalarning paydo bo‘lishini hissiy tajriba mazmunidan kelib chiqadigan umumiy qoidalar tizimi orqali izohlaydi. Natijada, Destyut de Trasi ideologiyani axloq, siyosat va huquq sohalarining nazariy-metodologik poydevori sifatida ko‘rib, uni jamiyat hayotini ongli ravishda tartibga solish imkonini beruvchi intellektual vosita deb baholaydi. Biroq ideologlar qarashlarining siyosiy amaliyotga tatbiqi murakkab tarixiy sharoitda yuz bergan. Destyut de Trasi va Kondilyak Napoleon Bonapart hokimiyatga kelganidan so‘ng, o‘z g‘oyalarini davlat siyosatiga singdirishga uringanlar. Ammo Napoleon ularning ijtimoiy-siyosiy voqelikni ko‘proq mavhum nazariy konstruksiyalar orqali izohlashga intilishini amaliy siyosatdan uzilgan deb baholab, bu qarashlarga tanqidiy munosabat bildirgan [6]. Aynan shu tarixiy omil ta’sirida “ideologiya” atamasi tanqidiy, hatto kinoyaviy mazmun kasb etib, keyingi davrlarda ham ushbu semantik yuklama qisman saqlanib qolgan. Ideologlar loyihasining siyosiy jihatdan rad etilishi natijasida mazkur tushuncha muayyan muddat ilmiy va siyosiy muomaladan chekinib turgan.

Mafkura tushunchasi mazmunan ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar va davlatlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda strategik maqsadlarini ifodalovchi g‘oyalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. U ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, turli manfaatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash va muayyan ijtimoiy yo‘nalishni legitimlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ideologiya (yunoncha: idea – tasavvur, g‘oya; logos – so‘z, ta’limot) konseptual jihatdan shakllangan g‘oyalar tizimi bo‘lib, u sinflar, millatlar, jamiyatlar, siyosiy institutlar va ijtimoiy harakatlarning manfaatlari hamda ideallarini ifodalaydi. Ideologiya ayrim hollarda mavjud siyosiy va ijtimoiy tuzumni mustahkamlovchi (konservativ yo‘nalish), boshqa vaziyatlarda esa uni tubdan o‘zgartirishga intiluvchi g‘oyaviy dastur sifatida namoyon bo‘ladi [8]. Shu bois u jamiyat ongi shakllaridan biri sifatida madaniyat va ma’naviy ishlab chiqarish tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ideologiya ilmiy fan emas, biroq u ilmiy bilimlar natijalaridan foydalanishi mumkin; uning asosiy farqi shundaki, u ijtimoiy-siyosiy voqelikni xolis tasvirlashdan ko‘ra, muayyan ijtimoiy kuchlar manfaatlari nuqtai nazaridan baholaydi.

Zamonaviy davrda mafkuraviy jarayonlar globallashuv, ommaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining keskin rivoji bilan uzviy bog‘liq holda kechmoqda. Shu nuqtai nazardan, ideologiya ko‘pincha ommaviy madaniyat bilan chambarchas bog‘langan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ideologiya ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi va uni rivojlantirishga turtki beruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, omma uchun mo‘ljallangan madaniy mahsulotlar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytiradi. Ommaviy madaniyat mafkuradan xoli bo‘lishi mumkin emas, chunki mafkura aynan kundalik ehtiyojlar, sodda tasavvurlar va ommaviy ong darajasida faoliyat yuritadi. Ommaviy ong bilan ishlash jarayonida ideologiya ilmiy bilimlarga qaraganda ko‘proq samaradorlikka ega bo‘ladi. Buning sababi shundaki, ilmiy tafakkur murakkab tahlil va tanqidiy yondashuvni talab etadi, ideologiya esa soddalashtirilgan, hissiy jihatdan ta’sirchan va tez qabul qilinadigan g‘oyalar orqali ommaga murojaat qiladi. Shu bois omma tarixiy jarayonlarda faol subyekt sifatida namoyon bo‘la boshlagan pallalarda ideologiya siyosiy hokimiyat uchun kurashda muhim vositaga aylanadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, madaniyatning ichki mazmuniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning soddalashuvi va inqirozga yuz tutishiga olib kelishi mumkin.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda mafkura rivojlanishining uch bosqichi ajratib ko‘rsatiladi. Bular, dialektik, demagogik va dogmatik bosqichlar. Dialektik (yoki falsafiy) bosqich ideologiyaning shakllanish davri bo‘lib, unda g‘oyalar hali qat’iy tizimlashmagan, biroq falsafa, ilm-fan, san’at va madaniyatning boshqa sohalari bilan faol aloqada bo‘ladi. Bu davrda mafkura raqobatdagi boshqa g‘oyaviy oqimlar bilan munozara va kurash orqali o‘z konturlarini aniqlashtiradi.

Ikkinchi – demagogik bosqich mafkuraning keng ommaga tarqalish davri hisoblanadi. Mazkur bosqichda mafkura ommani safarbar etish, ularning hissiyotlari va manfaatlariga moslashish orqali tez sur’atlarda yoyiladi. Bu jarayon ayrim tadqiqotchilar tomonidan mafkura “infeksiya” metaforasi orqali izohlanadi, ya’ni ideologiya barqaror e’tiqodga ega bo‘lmagan onglarni tezda o‘z ta’siriga oladi va katta ijtimoiy qatlamlarni qamrab oladi.

Uchinchi – dogmatik bosqichda ideologiya o‘zining dastlabki ijodiy va tanqidiy salohiyatini yo‘qotib, qat’iy dogmalar majmuasiga aylanadi. Bu holatda g‘oyalar real hayot ehtiyojlaridan uzilib, tanqidga yopiq holga keladi. Natijada ideologiya falsafiy tafakkurdan voz kechib, uni inkor etuvchi kuchga aylanadi. Aynan shu bosqich ideologiyaning inqirozi va asta-sekin tarix sahnasidan chekinishiga zamin yaratadi.

Mafkura dastlab madaniyatning ichki qatlamlarida, uning bir sohasi sifatida vujudga keladi, biroq keyinchalik butun madaniy makonni bo‘ysundirishga intiladi. Bu holat madaniyat uchun eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. G. Gegel ta’biri bilan aytganda, bunday vaziyatda madaniyat “o‘zining boshqasiga” aylanadi, ya’ni o‘z mohiyatiga zid shaklga kiradi [7]. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ideologiya hokimiyat uchun kurash maydoniga XVIII asr oxirlarida faol kirib kelgan bo‘lsa-da, uning to‘liq mustahkamlanishi Birinchi jahon urushidan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Fransiya inqilobi, shuningdek XX asr boshlaridagi inqilobiy jarayonlar ideologiyaning qanday qilib ozodlik, tenglik va birodarlik kabi yuksak shiorlar ostida hokimiyatni qo‘lga kiritib, keyinchalik repressiv mexanizmlarga aylanishi mumkinligini yaqqol namoyon etdi. Turli tarixiy shakllarda – liberal-kapitalistik, milliy va sotsialistik ideologiyalar ko‘rinishida namoyon bo‘lgan ushbu jarayonlar jamiyatga baxt va farovonlik va’da qilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bu va’dalarning to‘liq ro‘yobga chiqmaganini ko‘rsatdi. Bu holat ideologiyaning ichki ziddiyatlari va uning tarixiy chegaralanganligini ilmiy jihatdan tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Bizga ma’lumki, mafkura tushunchasining umumiy nazariy tahlilidan kelib chiqib, milliy mafkurani jamiyat taraqqiyotining muhim ma’naviy-siyosiy tayanchi sifatida talqin etish mumkin. Milliy mafkura – bu muayyan xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, ijtimoiy xotirasi, qadriyatlar tizimi hamda uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini o‘zida mujassam etgan murakkab g‘oyaviy tizimdir. U nafaqat jamiyatning bugungi holatini izohlash, balki uning istiqboliy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash vazifasini ham bajaradi.

Ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, milliy mafkura obyektiv tarixiy jarayonlar bilan subyektiv ijtimoiy ong o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mahsulidir. U spontan ravishda emas, balki muayyan tarixiy sharoitlar, ijtimoiy ehtiyojlar va siyosiy-ma’naviy muammolar ta’sirida shakllanadi [9]. Shu sababli milliy mafkura doimo dinamik xarakterga ega bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti bilan birga takomillashib boradi.

Milliy mafkuraning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri – jamiyatning ichki barqarorligini ta’minlashdir. Ijtimoiy tizimda turli manfaatlar, qarashlar va guruhlar mavjud bo‘lgan sharoitda milliy mafkura ularni umumiy g‘oyaviy maydonda uyg‘unlashtiruvchi integrativ mexanizm

vazifasini bajaradi [11]. Bu integratsiya zo‘ravonlik yoki ma’muriy bosim asosida emas, balki umumiy tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar va kelajak uchun umumiy mas’uliyat hissi orqali amalga oshiriladi. Falsafiy jihatdan milliy mafkura milliy o’zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog’liqdir. Milliy o‘zlik – bu faqat etnik yoki hududiy mansublik emas, balki tarixiy taqdir, madaniy tajriba va ma’naviy merosga ongli munosabatdir. Milliy mafkura aynan shu ongli munosabatni shakllantiradi, jamiyat a’zolarida “biz kimmiz?”, “qayerdan keldik?” va “qayerga ketmoqdamiz?” kabi fundamental savollarga nisbatan umumiy tushuncha va pozitsiyani vujudga keltiradi [10].

Milliy mafkura universallik da’vosidan ko‘ra, aniq tarixiy-madaniy kontekstga tayanganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan u global yoki transmilliy ideologiyalardan tubdan farq qiladi. Global ideologiyalar ko‘pincha umumlashtirilgan, standartlashtirilgan model va shiorlarga tayanib, turli jamiyatlarga bir xil yondashuvni taklif etsa, milliy mafkura konkret jamiyatning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, madaniy kodlari va mental tuzilmasini hisobga oladi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom milliy mafkura jamiyatni yopiq yoki izolyatsiyalangan holatga olib kelmaydi. Aksincha, u global jarayonlarga ochiqlikni saqlagan holda milliy manfaatlarni himoya qilish imkonini beradi. Bu jihatdan milliy mafkura globalizatsiya sharoitida madaniy assimilyatsiya va ma’naviy standartlashuvga qarshi muhim himoya mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, milliy mafkura jamiyat hayotida faqat siyosiy vosita emas, balki chuqur ma’naviy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. U tarixiy xotirani saqlash, milliy o‘zlikni mustahkamlash, ijtimoiy birdamlikni ta’minlash va jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini kafolatlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mafkura va ommaviy madaniyat o‘rtasidagi munosabat zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning markaziy muammolaridan biridir. Ideologiya ommaga yo‘naltirilgan g‘oyalar tizimi sifatida faqat siyosiy maydon bilan cheklanib qolmay, balki madaniyatning ommaviy shakllarini ishlab chiqish va ularni muayyan ijtimoiy manfaatlarga bo‘ysundirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, ideologiya ko‘pincha “omma uchun madaniyat”ni shakllantiradi va uni ijtimoiy ongni boshqarish vositasiga aylantiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бобровников Н. Идеология // Большая советская энциклопедия: В 65 томах / гл. ред. О. Ю. Шмидт. – 1-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1933. – Т. 27. – С. 452–463.
2. Идеология // Большая советская энциклопедия: в 51 томе / Гл. ред. Б. А. Введенский. – 2-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1952. – Т. 17. – С. 333–337.
3. Антонович И. И. Социодинамика идеологий. – Мн., 1995.
4. Жижек С. Возвышенный Объект Идеологии. – М.: «Художественный журнал», 1999. – ISBN 5-901116-01-1
5. Идеология / Келле В. Ж. // Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. – 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969–1978.
6. Логинов Алексей Валерьевич. Идеология как проблема социальной онтологии : Дис. … канд. филос. наук : 09.00.11 : Екатеринбург, 2004. – 136 с.
7. Макаренко В. П. Главные идеологии современности. – Ростов н/Д.: Феникс, 2000.
8. Манхейм Карл. Идеология и утопия // Избранное. Диагноз нашего времени. – М.: Юристъ, 1994. – С. 7–276.
9. Мисюров Д. А. Какая идеология нужна России? // Вестник Московского университета. Серия 12. Политические науки. 1996. No 2. С. 84–86.

10. Савельева О. О. Формирование новой российской идеологии // Свободная мысль. – 2000. – № 3.
11. В. С. Мартьянова, Л. Г. Фишмана. Россия в поисках идеологий: трансформация ценностных регуляторов современных обществ / под ред. – М.: Политическая энциклопедия, 2016.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

SUFI-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE IDEA OF TOLERANCE (Based on the treatise “Risala-yi Tanbih al-‘Ulama” by Makhdumi A‘zam)

Urakov Nodirbek Boboqulovich
Samarkand Agroinnovations and Research University
Assistant of the Department of Digital Technologies, Tourism and Humanities

Abstract. This article analyzes the issues of tolerance, spiritual patience, non-neglect of others, and respect for inner perfection based on the Sufi views expressed in the work of Makhdumi Azam (15th–16th century) “Risaali Tanbih ul-Ulama” that fanaticism towards external knowledge and disconnection from inner enlightenment create spiritual narrowness in human thinking. The work criticizes the uncompromising attitude of scholars who are limited to external knowledge towards the followers of the order, and argues that human perfection is achieved not only through external actions, but also through inner upbringing, state, and enlightenment. The article explores the idea of tolerance in relation to human nature, the concept of existence, and the doctrine of guardianship.
This article analyzes the philosophical foundations of the idea of tolerance formed within the framework of Islamic Sufism. In the work, the article explores the relationship between the external and the internal, human nature, the concept of mortality, and the role of the guidance of a perfect guide in the formation of tolerance. Sufi tolerance is interpreted not as a moral call, but as an ontological state that expresses the level of spiritual maturity of a person.

Keywords: tolerance, Sufism, Mahdumi Azam, outward and inward, sainthood, extinction, human perfection, Islamic philosophy, human nature, perfect guide, spiritual perfection.

BAG‘RIKENGLIK G‘OYASINING TASAVVUFIY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A’zamning “Risolai tanbeh ul-ulamo” asari asosida)

Uraqov Nodirbek Boboqulovich
Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti
Email: u-nodirbek@yandex.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Maxdumi A’zam (XV–XVI asr)ning “Risolai Tanbeh ul-ulamo” asarida zohiriy ilmga mutaassiblik va botiniy ma’rifatdan uzilish inson tafakkurida ma’naviy torlikni yuzaga keltirishi ifodalangan tasavvufiy qarashlar asosida bag‘rikenglik, ma’naviy sabr, boshqani inkor qilmaslik va botiniy kamolotga hurmat masalalari falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda zohiriy ilm bilan cheklanib qolgan ulamolarning tariqat ahliga nisbatan murosasiz munosabati tanqid qilinib, inson kamoloti faqat zohiriy amallar bilan emas, balki botiniy tarbiya, hol va ma’rifat orqali kamol topishi asoslab beriladi. Maqolada bag‘rikenglik g‘oyasi inson fitrati, vujud konsepsiyasi va valiylik ta’limoti bilan bog‘liq holda ochib berilgan.
Mazkur maqolada islom tasavvufi doirasida shakllangan bag‘rikenglik g‘oyasining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Asarda Maqolada zohir va botin nisbati, inson fitrati, fano tushunchasi hamda komil murshid irshodining bag‘rikenglik shakllanishidagi o‘rni ochib beriladi. Tasavvufiy bag‘rikenglik axloqiy chaqiriq emas, balki insonning ma’naviy kamolot darajasini ifodalovchi ontologik holat sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: bag‘rikenglik, tasavvuf, Maxdumi A’zam, zohir va botin, valiylik, fano, inson kamoloti, islom falsafasi, inson fitrati, komil murshid, ma’naviy kamolot.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N15

Kirish. Islom falsafasi va tasavvufiy meros insonning ma’naviy kamoloti va axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda insonning ma’naviy va axloqiy muammolari ko‘plab ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, falsafiy va tasavvufiy tafakkur insonning ma’naviy rivojlanishi va axloqiy tarbiyasida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi (Qur’oni Karim, 2020).

Bu maqolada maqsad shunday: inson ma’naviy kamolotining asosiy prinsiplarini tahlil qilish, tasavvufiy va falsafiy nazariyalarni solishtirish, shuningdek zamonaviy ilmiy qarashlar bilan uyg‘unlashtirish. Maqola zamonaviy va an’anaviy manbalardan foydalangan holda tahliliy va ilmiy yangilikni taqdim etadi.

Hozirgi zamon jamiyatida g‘oyaviy, diniy va madaniy ixtiloflar kuchayib borayotgan bir paytda bag‘rikenglik muammosi faqat ijtimoiy-siyosiy tushuncha sifatida emas, balki chuqur falsafiy mazmunga ega kategoriya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Islom falsafasi va tasavvuf ta’limotida bag‘rikenglik insonning tashqi munosabatlaridan ko‘ra, uning ichki ma’naviy holati bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Shu bois mazkur maqolada tasavvufiy manbalar asosida bag‘rikenglik g‘oyasining ma’naviy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bag‘rikenglik masalasiga oid tadqiqotlar zamonaviy falsafa, dinshunoslik va ijtimoiy fanlarda keng yoritilgan [1; B.7]. Biroq klassik tasavvuf manbalarida mazkur tushuncha axloqiy emas, balki ontologik kategoriya sifatida qaraladi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, germenevtik va falsafiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Maxdumi A’zamning “Risolai tanbeh ul-ulamo” asari olindi [2; B.25–26].

Tadqiqotda falsafa va tasavvufning klassik namoyandalari asosiy manba sifatida qaraldi. Maxdumi A’zamning Risolai tanbeh ul-ulamo (357b–365a) asarida ma’naviy va ilmiy kamolotning asosiy qoidalari berilgan. Qushayriyning Ar-Risolat ul-qushayriyasi va Hujviriyning Kashf ul-mahjub asarlari insonning ruhiy rivojlanishi va ixlos prinsiplarini tahlil qilishda asosiy manba hisoblanadi (Qushayriy, 2002; Hujviriy, 2001).

G‘azzoliyning Ixyo ulumid-din asari axloq va ma’naviyatning integrativ konsepsiyasini taqdim etadi, shuningdek, Rumiy va Jomiy asarlari insonning ichki va ma’naviy dunyosini boyitishdagi rolini ochib beradi (G‘azzoliy, 2004; Rumiy, 1998; Jomiy, 2000).

Metodologik jihatdan maqola ta’rifiy-tahliliy va komparativ usullardan foydalanadi. Bu usullar klassik va zamonaviy adabiyotlarni taqqoslash, ularning umumiy va farqli nuqtalarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ilmiy yangilikni aniqlash va natijalarni obyektiv tahlil qilishda zamonaviy tadqiqot metodlari qo‘llanildi (Abdullayev, 2018; Karimov, 2021).

Muhokama. Maxdumi A’zam asarida zohiriy ilmga suyanib qolgan ulamo qatlami tanqid qilinadi. Muallifga ko‘ra, botiniy ma’rifatdan uzilgan ilm insonni ma’naviy torlikka olib keladi. Tasavvufda inson fitrati pok bo‘lib, bag‘rikenglik ana shu fitratning tabiiy ifodasidir. Fano maqomiga yetish orqali inson o‘z “men”idan voz kechib, o‘zgalarni qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu holat bag‘rikenglikning tasavvufiy-falsafiy asosini tashkil etadi.

Tasavvuf va falsafada ma’naviy kamolot konsepsiyalari har xil tavsiflangan bo‘lsa-da, ularning asosiy umumiy jihatlari bor. Bular: insonning ichki pokligi, axloqiy yuksalish va ma’naviy barqarorlik. Maxdumi A’zam va Qushayriy insonning ma’naviy rivojlanishida ilmiy va axloqiy bilimlarning ahamiyatini ta’kidlaydilar.

G‘azzoliyning ta’riflariga ko‘ra, inson faqat bilim va ma’rifati orqali emas, balki ixlos va ibodat orqali ham kamol topishi mumkin. Bu nuqtai nazar Rumiy va Jomiy asarlaridagi ichki dunyo va ma’naviy poklik tushunchalari bilan uyg‘un keladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda (Abdullayev, 2018; Karimov, 2021) insonning ma’naviy kamoloti ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq ekani ko‘rsatilgan. Bu zamonaviy ahamiyatni ko‘rsatadi va klassik nazariyalar bilan integratsiyalana oladi.

Shu bilan birga, inson ma’naviy kamolotida axloq va ma’rifati bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Bu zamonaviy fanning psixologiya va sotsiologiyasidan olingan nazariyalar bilan ham tasdiqlanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida diniy-ma’naviy bag‘rikenglik, turli qarash va maktablarga nisbatan murosali munosabat masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Islom tafakkuri tarixida bu muammo yangi emas: u zohiriy ulamolar va botiniy tariqat ahli o‘rtasidagi bahslar shaklida ko‘p asrlar davomida mavjud bo‘lib kelgan.

Maxdumi A’zamning “Risolai Tanbeh ul-ulamo” asari aynan shu muammoning klassik tasavvufiy yechimini taklif qiladi. Asarning asosiy g‘oyasi — boshqani inkor qilish jaholatdan, bag‘rikenglik esa ma’rifatdan tug‘iladi degan fikrdir.

1. Zohir va botin qarama-qarshiligi: bag‘rikenglikning ildizi.

Asarda shariat, tariqat va haqiqat o‘rtasidagi farq quyidagicha ifodalanadi: “Shariat qavllardir, tariqat fe’llardir, haqiqat esa holatlardir.”

Bu ta’rif falsafiy nuqtai nazardan bilim → amal → hol zanjirini anglatadi. Muallif zohiriy ilmni inkor etmaydi, lekin uni mutlaqlashtirishni ma’naviy torlik, ya’ni bag‘rikenglikka zid holat sifatida baholaydi.

Zohirga mahkam yopishib olgan inson: boshqani tushunmaydi, botiniy tajribani inkor qiladi, oxir-oqibat, ixtilof va adovatga sabab bo‘ladi.

Shu ma’noda, tasavvufda bag‘rikenglik — bilim kamchiligini emas, qalb kengligini anglatadi.

2. Inson fitrati va bag‘rikenglik falsafasi.

Asarda inson aslida pok fitratda yaratilishi ta’kidlanadi: “Har bir tug‘ilgan bola fitratda tug‘ilur...” Bu g‘oya falsafiy jihatdan insonning: tabiiy ravishda pok, murosaga moyil, birlashtiruvchi mavjudot ekanini anglatadi. Lekin keyinchalik: ilm, nasab, maqom, mansab kabi oriziy (tasodifiy) sifatlar inson qalbida hijobga aylanadi. Ana shu hijoblar insonni takabburlikka, boshqani past ko‘rishga olib boradi. Bag‘rikenglik esa bu hijoblarni bartaraf etish bilan bog‘liq ma’naviy holatdir.

3. Komil murshid va ma’naviy sabr.

Maxdumi A’zam bag‘rikenglikni mustaqil ravishda emas, tarbiya va irshod bilan bog‘laydi. Uningcha: Komil murshidsiz suluk — xatarli, o‘zboshimchalik — adashishga olib keladi. Adashgan inson esa boshqani ham adashtiradi.

Bu yerda bag‘rikenglik passiv toqat emas, balki: o‘z nafsini cheklash, o‘zini mutlaq haq deb bilmaslik, boshqani kamolot yo‘lida sherik sifatida ko‘rishdir.

Qisqasi, murshid nafaqat ruhiy yo‘lboshchi, balki bag‘rikenglik madaniyatining ustozidir.

4. Vujud ta’limoti va bag‘rikenglik.

Asarda vujud ikkiga bo‘linadi: Haqiqiy vujud — Allohning vujudi;

Majoziy vujud — maxluqotning vujudi. Inson o‘z majoziy vujudi (menlik, ilmiy mag‘rurlik, nasabiy faxr) bilan yashar ekan, u: o‘zini markaz deb biladi, boshqani rad etadi, bag‘rikenglikdan mahrum bo‘ladi. Fano (o‘zlikdan kechish) esa: insonni ichki kenglikka, umuminsoniylikka, muhabbat va rahmdillikka olib boradi.

Bu tasavvufiy falsafada bag‘rikenglikning eng chuqur metafizik asosidir.

5. Zohiriy ilm va botiniy ma’rifat muammosi.

Islom tafakkuri tarixida zohiriy ilm (shariat ahkomlari) va botiniy ma’rifat (qalb ilmlari) o‘rtasidagi munosabat doimo muhokama qilingan masalalardan biri bo‘lib kelgan. Maxdumi A’zam “Risolai tanbeh ul-ulamo” asarida aynan shu muammoga alohida e’tibor qaratgan holda, zohiriy bilim bilan cheklanib qolgan ulamo qatlamini tanqid qiladi.

5.1. Muallifga ko‘ra, zohiriy ilm insonni qonun va shakl doirasida tartibga solsa, botiniy ma’rifat insonni inson qiladi, ya’ni qalbni poklab, o‘zgalarni anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Ana shu qobiliyat esa bag‘rikenglikning ildizini tashkil etadi. Faqat zohirga bog‘lanib qolgan tafakkur ixtilofga moyil bo‘lsa, botin bilan boyitilgan tafakkur murosaga moyil bo‘ladi.

5.2. Inson fitrati va ma’naviy bag‘rikenglik

Tasavvufda inson pok fitrat bilan yaratilgan deb qaraladi. Bag‘rikenglik esa shu fitratning tabiiy ifodasidir. Ammo nafs, kibr va manmanlik inson fitratini pardalab, ma’naviy torlikka olib keladi. Maxdumi A’zam insonning bag‘rikeng yoki tor fe’l bo‘lishi uning ilm darajasiga emas, balki nafsni jilovlash darajasiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi.

Bu yerda bag‘rikenglik axloqiy talab emas, balki ontologik holat, ya’ni insonning vujudiy kamolot darajasi sifatida namoyon bo‘ladi. Qalbi pok inson o‘zgalarni inkor etmaydi, balki ularni anglashga harakat qiladi. Shu ma’noda tasavvufiy bag‘rikenglik – ma’naviy yuksalishning natijasidir.

5.3. Komil murshid, fano va bag‘rikenglik

Tasavvuf ta’limotida komil murshidning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki murshid insonni nafs asoratidan qutqarib, fano maqomiga yetaklaydi. Fano – “men”likdan kechish, o‘zini mutlaq haqiqat oldida yo‘q qilish demakdir.

Mazkur holatga yetib borgan inson uchun “boshqacha fikr”, “begona qarash” xavf emas, balki tafakkur imkoniyatiga aylanadi. Shu bois fano maqomiga yetishgan orif bag‘rikeng bo‘ladi. Demak, tasavvufiy bag‘rikenglik ijtimoiy kelishuv emas, balki ma’naviy yuksalish samarasidir.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tasavvufiy ta’limotda bag‘rikenglik tashqi murosa emas, balki ichki ma’naviy kamolot mahsulidir. Zohir va botin uyg‘unligi, nafsni jilovlash va komil murshid irshodi inson ongida bag‘rikenglikni shakllantiradi. Bu yondashuv zamonaviy jamiyatda bag‘rikenglik g‘oyasini chuqur ma’naviy asoslar bilan boyitish imkonini beradi.

Ma’naviy kamolot falsafiy va tasavvufiy manbalarda bir qator umumiy prinsiplar asosida ifodalanadi: ixlos, ibodat, bilim, ma’rifati yuksalishi.

Klassik asarlar (Maxdumi A’zam, Qushayriy, Hujviriy, G‘azzoliy, Rumiy, Jomiy) va zamonaviy tadqiqotlar (Abdullayev, Karimov) integrativ tahlil asosida inson ma’naviy rivojlanishini ilmiy jihatdan ochib beradi.

Mazkur maqolada quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

Bag‘rikenglik g‘oyasi ilk bor Maxdumi A’zam tasavvufiy qarashlari asosida ontologik va ma’rifiy kategoriya sifatida tahlil qilindi.

Zohiriy ilmga mutaassiblik va botiniy ma’rifat o‘rtasidagi ziddiyat bag‘rikenglik muammosi bilan bog‘lab ochib berildi.

Bag‘rikenglik inson fitrati va fano maqomi bilan bog‘liq holda falsafiy jihatdan asoslab berildi.

Komil murshid irshodining ma’naviy bag‘rikenglik shakllanishidagi hal qiluvchi o‘rni ilmiy jihatdan yoritildi.

Maxdumi A’zamning “Risolai Tanbeh ul-ulamo” asari ilk bor bag‘rikenglik g‘oyasi nuqtai nazaridan tizimli tasavvufiy-falsafiy tahlil qilindi. Asar faqat tariqatni himoya qiluvchi risola sifatida emas, balki islom tafakkurida murosa, ma’naviy sabr va boshqani inkor qilmaslik konsepsiyasini asoslovchi manba sifatida talqin etildi.

Zohiriy ilm va botiniy ma’rifat o‘rtasidagi qarama-qarshilik bag‘rikenglik muammosi bilan bog‘liq holda qayta konseptuallashtirildi. Muallif tomonidan ilgari surilgan “shariat–tariqat–haqiqat” uchligi inson ma’naviy kamolotining bosqichlari sifatida falsafiy jihatdan izohlandi.

Inson fitrati, majoziy vujud va haqiqiy vujud ta’limoti bag‘rikenglikning metafizik asosi sifatida ochib berildi. Asardagi fano va vujuddan kechish g‘oyalari insonda ichki kenglik va bag‘rikeng tafakkur shakllanishining asosiy sharti ekanligi isbotlandi.

Komil murshid instituti bag‘rikenglik madaniyatini shakllantiruvchi ma’naviy mexanizm sifatida asoslandi. Murshidsiz sulukning xatarli ekani haqidagi fikrlar zamonaviy ma’naviy tarbiya muammolari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Asardagi ulamo va fuqaholarga qaratilgan tanbeh falsafiy mulohaza sifatida qayta baholandi. Bu tanbeh shaxs yoki ilmga qarshi emas, balki ma’naviy torlik va mutlaqchilikka qarshi qaratilgan konseptual tanqid ekani ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Ilmiy yangilik: maqola zamonaviy fan va klassik tasavvufiy ta’limlarni uyg‘unlashtirib, ma’naviy kamolotning yangi konseptual modelini taqdim etadi.

Ma’naviy kamolotning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati aniqlandi, shu bilan uning amaliyotga tatbiqi imkoniyatlari ko‘rsatildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Maxdumi A’zam tasavvufiy merosida bag‘rikenglik inson ma’naviy kamolotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv bag‘rikenglikni faqat ijtimoiy talab emas, balki falsafiy-ontologik holat sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Maqolada inson ma’naviy kamoloti tasavvuf va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Klassik va zamonaviy manbalarning tahlili ma’naviy rivojlanishdagi asosiy prinsiplarni ochib berdi.

Ilmiy yangilik shundaki, maqola falsafiy nazariyalar va zamonaviy tadqiqotlarni integratsiyalab, inson ma’naviy kamoloti konsepsiyasini rivojlantirdi. Bu natijalar ma’naviy va axloqiy ta’lim jarayonlariga tatbiq qilinish imkonini beradi.

Mavjud tadqiqotlar natijasida inson ma’naviy kamoloti faqat diniy yoki falsafiy nuqtai nazar bilan cheklanmasdan, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda ham tahlil qilinganligi aniqlandi.

Maxdumi A’zamning “Risolai Tanbeh ul-ulamo” asarida bag‘rikenglik g‘oyasi: jamiyatdagi ixtiloflarni yumshatuvchi, zohir va botin o‘rtasida muvozanat yaratuvchi, insonni kamolotga yetaklovchi ma’naviy qoida sifatida talqin qilinadi.

Muallif fikriga koʻra, tasavvuf — ilmga qarshi emas, balki ilmni bagʻrikenglik bilan toʻldiruvchi yoʻldir. Zohiriy ilmni mutlaqlashtirish jaholatga, botiniy maʼrifat esa sabr, muhabbat va murosaga olib boradi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, tasavvufiy taʼlimotda bagʻrikenglik tashqi majburiyat yoki axloqiy qoida emas, balki insonning ichki kamolot darajasi bilan uzviy bogʻliq holatdir. Maxdumi Aʼzamning “Risolai tanbeh ul-ulamo” asarida zohiriy ilmga mutaassiblik maʼnaviy torlik manbai sifatida tanqid qilinadi va botiniy maʼrifatga yuzlanish bagʻrikenglikka olib boruvchi yoʻl sifatida talqin qilinadi.

Shu maʼnoda, tasavvufiy-falsafiy yondashuv zamonaviy jamiyatda bagʻrikenglik gʻoyasini chuqur maʼnaviy asoslar bilan mustahkamlash imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдуллаев А. Ислом фалсафасида инсон муаммоси. – Тошкент: Фан, 2018.
2. Ғаззолий, Абу Ҳомид. Ихё улумид-дин. – Қоҳира: Дор ул-ҳадис, 2004.
3. Жомий, Абдурраҳмон. Нафаҳот ул-унс. – Теҳрон: Асотир, 2000.
4. Каримов Ш. Тасаввуф ва маънавий камолот. – Тошкент: Маънавият, 2021.
5. Қушайрий, Абулқосим. Ар-Рисолат ул-қушайрия. – Байрут: Дор ул-кутуб ал-илмия, 2002.
6. Куръони Карим. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 624 б.
7. Махдуми Аъзам. Рисолаи танбеҳ ул-уламо. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ, инв. №1443-XXV1. – 357б–365а.
8. Румий, Жалолиддин. Маснавийи маънавий. – Теҳрон: Амир Кабир, 1998.
9. Ҳужвирий, Али ибн Усмон. Кашф ул-маҳжуб. – Теҳрон: Интишороти Исломия, 2001.
10. Имом Бухорий. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ. – Қоҳира: Дор ул-фикр, 2005.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

STAGES OF DEVELOPMENT OF INTEGRATION IN SOCIAL PHILOSOPHY

Rakhmatov Alisher Obidovich
Independent researcher, chief specialist of the Bukhara regional
Council of People's Deputies
E-mail: alisherrakhmatov154@gmail.com

Abstract. This article analyzes the essence of the concept of integration in social philosophy and the stages of its development from a philosophical point of view. The role of cultural capital, spiritual values, innovative environment and digital competencies in the integration of the individual is revealed. Based on the views of such thinkers as K. Jaspers, E. Fromm, K. Popper and M. Castells, new forms of individual integration in modern society, in particular the process of hybrid integration, are highlighted. Also, the need for social integration of the individual in the conditions of New Uzbekistan to be ensured on the basis of the harmony of national and universal values, spiritual and intellectual maturity and innovative thinking is substantiated.

Keywords: social integration, social philosophy, individual and society, cultural capital, spiritual values, innovation, digital environment, information culture, hybrid integration, New Uzbekistan.

IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Raxmatov Alisher Obidovich
Mustaqil izlanuvchi, xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy falsafada integratsiya tushunchasining mazmun-mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shaxs integratsiyasida madaniy kapital, ma'naviy qadriyatlar, innovatsion muhit va raqamli kompetensiyalarning o'rni ochib beriladi. K.Yaspers, E.Fromm, K.Popper va M.Kastels kabi mutafakkirlarning qarashlari asosida zamonaviy jamiyatda shaxs integratsiyasining yangi shakllari, xususan, gibrid integratsiya jarayoni yoritiladi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida shaxsning ijtimoiy integratsiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, ma'naviy-intellektual yetuklik hamda innovatsion tafakkur asosida ta'minlanishi zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy falsafa, shaxs va jamiyat, madaniy kapital, ma'naviy qadriyatlar, innovatsiya, raqamli muhit, axborot madaniyati, gibrid integratsiya, Yangi O'zbekiston.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N16

Zamonaviy ijtimoiy jarayonlarda shaxs integratsiyasida madaniy kapitalning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Madaniyat insonning jamiyatdagi mavqeyini belgilaydigan qadriyatlar tizimini shakllantiradi. K.Yaspersva E.Fromm [3] kabi mutafakkirlar madaniyatni insonning ma'naviy integratsiya vositasi sifatida ko'radilar. Ular fikricha, zamonaviy sivilizatsiyada insonning ma'naviy parchalanishi, ya'ni "axloqiy individualizm" kuchayishi jamiyatdagi integratsion tizimlarni zaiflashtiradi. Shuning uchun integratsiyaning barqaror bo'lishi madaniy va ma'naviy asoslar mustahkamligiga bog'liq.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham insonning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashda milliy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi muhim ahamiyatga ega.

“Yangi O‘zbekiston – yangi tafakkur sohiblari jamiyati” konsepsiyasi aynan shunday g‘oyani ifoda etadi: ya’ni inson o‘z milliy madaniyati va an’analarini saqlagan holda global innovatsion jarayonlarda ishtirok eta oladigan integratsiyalashgan shaxsga aylanishi lozim [1]. Ijtimoiy falsafada integratsiyaning yana bir jihati — bu uning rivojlanish bosqichlari. Ilmiy adabiyotlarda integratsiya odatda to‘rt bosqichda namoyon bo‘ladi:

1.Ijtimoiy identifikatsiya – shaxs o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida anglaydi;

2. Adaptatsiya – yangi ijtimoiy qoidalar va normalarni qabul qiladi;

3. Integratsiya – shaxs jamiyatda faol muloqot va hamkorlik jarayoniga kirishadi;

4. Avtonom integratsiya – shaxs ijtimoiy tizimda faol subyekt sifatida o‘z mavqeyini shakllantiradi.

Bu bosqichlar insonning ijtimoiy tajribasi orqali amalga oshadi va har bir bosqich shaxsning falsafiy dunyoqarashi hamda ma’naviy yetukligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy davrda integratsiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan shaxsning axborot savodxonligi, media madaniyati va raqamli kompetensiyalariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Chunki yangi jamiyat axborot oqimida yashaydi va inson uni faol boshqara bilmasa, ijtimoiy izolyatsiya xavfi tug‘iladi. Shuning uchun shaxs integratsiyasi faqat ijtimoiy munosabatlarda emas, balki raqamli muhitdagi ishtirok darajasi orqali ham baholanmoqda.

Zamonaviy dunyoda shaxs integratsiyasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri — innovatsion muhitdir. Innovatsiya nafaqat iqtisodiy rivojlanishning, balki ijtimoiy yangilanishning ham drayveriga aylangan. Inson o‘z faoliyati orqali yangi g‘oyalar, yangi qiymatlar va yangi ijtimoiy munosabatlar yaratadi. Demak, innovatsion jarayonlar shaxsning ijtimoiy integratsiyasini faqat tashqi moslashuv emas, balki ijodiy ishtirok sifatida ta’minlaydi.

Innovatsiyaga falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, u inson ongining kreativ imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish shaklidir. Karl Popper ta’kidlaganidek [4], bilim doimiy ravishda “xato va tuzatish” mexanizmi orqali rivojlanadi. Demak, inson innovatsion jarayonlarga integratsiyalashishi — bu uning tanqidiy tafakkuri, ya’ni mavjud bilim va qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayonda shaxsning falsafiy fikrlash darajasi, yangi g‘oyalarni qabul qilish va amalga tatbiq etish salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy hayotning innovatsion transformatsiyasida inson faoliyatidagi “yangi haqiqiylik” — raqamli va axborot muhiti markaziy o‘rinni egalladi. XXI asrda ijtimoiy integratsiya endilikda axborot-kommunikativ jarayonlar orqali kechmoqda. M.Kastelsning “Tarmoq jamiyati” nazariyasida ta’kidlanganidek [5], zamonaviy insonning ijtimoiy mavqeyi uning ma’lumotlar almashinuvidagi faolligi, raqamli maydondagi ishtirok darajasi bilan belgilanadi. Raqamli muhit shaxsga keng imkoniyatlar bilan birga yangi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Bir tomondan, u insonning axborotga kirishish, muloqot qilish, ta’lim olish va ijod qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan esa, virtual dunyodagi “asossiz erkinlik” va “axborot ortiqchaligi” insonning ongi barqarorligini izdan chiqarishi mumkin. Shu bois, integratsiya jarayonida faqat texnologiyalarni o‘zlashtirish emas, balki axborot madaniyatini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Axborot madaniyati shaxsning raqamli jamiyatda to‘g‘ri harakat qilish, axborotni tanlash, tahlil qilish va ma’naviy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash qobiliyatini anglatadi. Bu jarayonda raqamli shaxsiyat tushunchasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u insonning onlayn faoliyati orqali jamiyatdagi mavqeyini belgilaydi. Demak, shaxs integratsiyasini faqat fizik

jamiyatda, balki virtual jamiyatda ham amalga oshadi. Buning natijasida integratsiyaning yangi tipi — gibrid integratsiya shakllanmoqda. U an’anaviy ijtimoiy munosabatlar bilan zamonaviy raqamli aloqalarning uyg‘unligini ifoda etadi. Masalan, insonning mehnat faoliyati, ta’limi, siyosiy faolligi va madaniy ishtirokini endi faqat jismoniy muhit bilan chegaralab bo‘lmaydi. U internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali keng qamrovli ijtimoiy munosabatlarga kiradi. Shu bilan birga, bu jarayonda shaxsning axloqiy barqarorligi, ma’naviy immuniteti va madaniy o‘zligi saqlanib qolishi kerak [6].

Yangi O‘zbekiston sharoitida shaxsning integratsiyasi faqat iqtisodiy yoki texnologik jarayon sifatida emas, balki ma’naviy-intellektual rivojlanish yo‘lidagi asosiy tamoyil sifatida qaralmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “yangi taraqqiyot davrining asosiy maqsadi — yangi tafakkurga ega shaxsni voyaga yetkazishdir”. Bu g‘oya falsafiy nuqtai nazardan insonning ijtimoiy integratsiyasini ma’naviy va innovatsion uyg‘unlik asosida ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Shaxsning ma’naviy integratsiyasi deganda uning jamiyat qiymatlar tizimi bilan ichki uyg‘unligi, axloqiy pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyati tushuniladi. Ma’naviyat bu jarayonda ichki boshqaruv tizimi, ya’ni inson faoliyatining ma’noviy mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Uning yetishmasligi yoki parchalanishi natijasida inson integratsiya o‘rniga ijtimoiy izolyatsiyaga duchor bo‘lishi mumkin. Shuning uchun Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, madaniyat siyosatlari va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish dasturlari shaxsning ma’naviy yetukligini ta’minlashga qaratilgan [7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy falsafada integratsiya shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab, ko‘p qirrali va uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon nafaqat shaxsning jamiyatga moslashuvi, balki uning ijtimoiy tizimda faol, mas’uliyatli va ijodkor subyekt sifatida shakllanishini ham ifodalaydi. Integratsiyaning ijtimoiy identifikatsiya, adaptatsiya, integratsiya va avtonom integratsiya kabi bosqichlari shaxsning hayotiy tajribasi, ma’naviy yetukligi va falsafiy dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liqdir.

Zamonaviy jamiyat sharoitida shaxs integratsiyasining barqarorligi, avvalo, madaniy kapital va ma’naviy qadriyatlarning mustahkamligiga tayanadi. K.Yaspers va E.Fromm ta’kidlaganidek, ma’naviy parchalanish va axloqiy individualizm kuchaygan sharoitda jamiyatdagi integratsion tizimlar zaiflashadi. Shu bois, integratsiyani ta’minlashda milliy madaniyat, an’analar va umuminsoniy g‘oyalarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Raqamli va innovatsion transformatsiyalar sharoitida shaxs integratsiyasi yangi mazmun kasb etib, axborot madaniyati, media savodxonlik va raqamli kompetensiyalar bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Raqamli muhit shaxs uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda ma’naviy va ijtimoiy xavflarni ham yuzaga keltirayotganligi sababli, integratsiya jarayonida texnologik moslashuv bilan birga axloqiy barqarorlik va ma’naviy immunitetni saqlash zarurati kuchaymoqda. Natijada, an’anaviy va raqamli ijtimoiy munosabatlar uyg‘unligiga asoslangan gibrid integratsiya shakllanmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Yaspers K. Tarixning ma’nosi va vazifasi. — Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
3. Fromm E. Inson qalbi. — Toshkent: Sharq, 2004.
4. Popper K. Ilmiy tadqiqotlar mantiqi. — Toshkent: Fan, 1998.
5. Kastels M. Tarmoq jamiyati: axborot davrining paydo bo‘lishi. — Moskva: GU–VShE, 2000.
6. Habermas Yu. Kommunikativ harakat nazariyasi. — Moskva: Nauka, 2001.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. Yangi O‘zbekiston: taraqqiyot va integratsiya yo‘llari. — Toshkent, 2022.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

TRANSFORMATION OF NATIONAL IDENTITY AND SOCIAL INTEGRATION: THE EXPERIENCE OF THE KOREAN DIASPORA IN UZBEKISTAN

Oybek Murodilovich Osarkulov
Researcher, Fergana State University

Abstract. This article analyzes the national identity of the Korean diaspora in Uzbekistan from a socio-philosophical perspective. Diaspora identity is interpreted as a socio-cultural phenomenon shaped in the context of a multiethnic society. The study highlights the connection of the Korean diaspora with historical memory, cultural heritage, and processes of social adaptation. Furthermore, issues of preservation and transformation of national identity are examined within the framework of integration and intercultural interaction. The findings of the article hold significant theoretical value for understanding diaspora identities in a multiethnic society.

Keywords: national identity, diaspora, Korean diaspora, multiethnic society, social philosophy.

MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOIY INTEGRATSIYA: O‘ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI

O‘sarkulov Oybek Murodilovich
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: osarkulovoybek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi koreys diasporasining milliy identikligi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Diaspora identikligi polietnik jamiyat sharoitida shakllanuvchi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda koreys diasporasining tarixiy xotira, madaniy meros va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, milliy identiklikning saqlanishi va transformatsiyasi masalalari integratsiya va madaniyatlararo muloqot kontekstida yoritiladi. Maqola natijalari polietnik jamiyatda diasporalar identikligini anglashda muhim nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: milliy identiklik, diaspora, koreys diasporasi, polietnik jamiyat, ijtimoiy falsafa.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N17

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” konseptual g‘oyasi negizida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning ijtimoiy ongida chuqur transformatsion jarayonlarni yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarni, balki ijtimoiy ong, identiklik va madaniy o‘zini anglash tizimlarini ham qamrab olmoqda. Mazkur g‘oya umumjamiyat miqyosida harakatlantiruvchi kuchga aylanib, “Yangi O‘zbekiston” barpo etish jarayonining falsafiy-mafkuraviy asosini shakllantirmoqda.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, bu jarayon millatlararo munosabatlar tizimida ham sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, mamlakatda yashayotgan diasporalarning jamiyat hayotidagi o‘rni va faolligiga alohida e’tibor qaratilishi ijtimoiy barqarorlik, madaniy xilma-xillik va fuqarolik birdamligini mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat Uchinchi Renessans g‘oyasining ijtimoiy asoslarini kengaytirib, jamiyat taraqqiyotida inklyuziv rivojlanish modelining ustuvorligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan vazmin va ochiq tashqi siyosat tamoyillari ham mazkur jarayonning falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi. Murakkab geosiyosiy sharoitda teng huquqlilik, konstruktiv muloqot va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan siyosat yuritilishi davlatning nafaqat tashqi aloqalarini, balki ichki ijtimoiy muvozanatini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda.[1]

Tarixiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O‘zbekistonda koreys diasporasining institutsional shakllanishi ijtimoiy integratsiyaning muhim ko‘rinishi sifatida yuzaga chiqqan. Toshkent shahrida koreys madaniy markazlarining tashkil etilishi, hududiy delegatlar ishtirokida konferensiyalar o‘tkazilishi va keyinchalik Respublika assotsiatsiyasining tuzilishi diasporaning jamoaviy identikligini mustahkamlab, ko‘pmillatli jamiyat sharoitida barqaror fuqarolik birdamligining shakllanishiga zamin yaratdi.[3]

1937-yilgi majburiy deportatsiya va repressiya oqibatida O‘zbekistonga kelib qolgan koreyslar uchun bu hudud tarixan yangi vatan sifatida shakllandi. Ular vaqt o‘tishi bilan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida faol ishtirok etib, o‘z mehnati va madaniy merosi bilan jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Bu holat ijtimoiy-falsafiy jihatdan adaptatsiya, madaniy moslashuv va identiklik transformatsiyasining yorqin namunasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bildirilgan fikrlar ham mazkur jarayonning falsafiy asoslarini tasdiqlaydi. Uning ko‘p millatlilikni jamiyat boyligi sifatida talqin qilishi O‘zbekiston modelining asosiy tamoyillaridan biri — madaniy plyuralizm va o‘zaro bag‘rikenglik g‘oyalariga uyg‘un keladi. Koreys diasporasi vakillarining O‘zbekistonni o‘z vatani sifatida qabul qilishi esa ijtimoiy integratsiyaning muvaffaqiyatli kechayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda koreys milliy madaniy markazlari faoliyati diasporaning madaniy xotirasini saqlash, etnik identiklikni mustahkamlash va jamiyat bilan uyg‘unlashuvini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ona tilini o‘rganish, milliy bayramlarni nishonlash, folklor jamoalari va sport to‘garaklari faoliyati orqali madaniy uzviylik ta’minlanmoqda. Shu bilan birga, “O‘zbekistonlik koreyslarning an’analari va urf-odatlari” mavzusidagi respublika miqyosidagi konferensiya va seminarlar diasporaning ijtimoiy faolligini oshiruvchi, madaniy merosni avloddan avlodga uzatuvchi muhim ijtimoiy-falsafiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.[4]

Adabiyotlar tahlili. Koreya milliy markazi assotsiatsiyasi faoliyatini yoritib boruvchi nashr “Koryo Sinmun” o‘zining dunyoga kelganini e’lon qildi. Gazetaning ilk soni 1997-yil 19-sentyabr Toshkent shahridagi Tezkor bosma nashriyotida (direktori – Kim Vitaliy Bongirovich) 5000 nusxada bosib chiqarildi. Yana bir nashr “Корейцы Узбекистана” gazetasi 2019-yil 1-noyabrdan nashr etila boshlandi.[5]

Hozirgi davrda teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar mamlakatda yashovchi 20 dan ortiq millat va elatlarning tillarida efirga berib borilmoqda. O‘zbekiston kanalida Do‘stlik studiyasi tomonidan tasvirga olib uzatiladigan “Yagona oilada”. “Yagona osmon ostida”, “O‘zbekiston umumiy uyimiz”, “Chinsen”, “Didar”, “Adolatli bo‘lishga intilib”, “Elomon” “Ranf” kabi ko‘rsatuv va dasturlar, polietnik jamiyat sharoitida madaniy xilma-xillikni uyg‘unlashtirish va milliy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy instrument sifatida baholanishi

mumkin. Ushbu tashabbuslar millatlararo dialogni rivojlantirish, milliy xotira va qadriyatlarni jamiyat hayotida uyg‘unlashtirishda samarali vosita vazifasini bajaradi.[6]

Koreya milliy markazi assotsiatsiyasi o‘z faoliyatini barcha koreys oilalarini milliy yozuvni o‘rganishdan boshladi va bu borada ijobiy o‘zgarishlarga erishdi.

1992-yil may oyida Toshkent shahrida Koreya Respublikasi elchixonasi huzurida Koreya Respublikasi Ta’lim markazi (KRTM) ochildi. Ushbu markaz qisqa vaqt ichida koreyslar orasida emas, balki koreys bo‘lmaganlar orasida ham mashhurlikka erishdi. Masalan, 2008-yilda birinchi semestrda KRTM tomonidan taklif etilgan koreys tili kurslariga jami 1198 nafar tinglovchi ro‘yxatdan o‘tgan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning poytaxti va yirik shaharlarida 24 ta koreys milliy-madaniy markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Markaz orqali koreys tili, tarixi, madaniyati va ularning yutuqlari o‘rganilmoqda. Ushbu markazlar orqali koreys tili, tarixi, madaniyati va ularning yutuqlari nafaqat saqlanib qolmoqda, balki polietnik jamiyatda milliy identiklikni mustahkamlash va madaniy integratsiyani rivojlantirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-falsafiy platformaga aylanmoqda.

Ma’lumki, barcha diasporalar taraqqiyotining uch asosiy bosqichni boshidan kechiradi. Bular 1) shakllanish; 2) rivojlanish; 3) tarqalish yoki transformatsiya (boshqa shaklda namoyon bo‘lish). Bunda shakllanish davrida diaspora oldida turadigan asosiy vazifa xalqning tilini madaniyatini himoya qilish, uning jismoniy hayot bo‘lishiga kurashishdan iborat.

O‘zbekistonning poytaxti va yirik shaharlarida 24 ta koreys milliy-madaniy markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Markaz orqali koreys tili, tarixi, madaniyati va ularning yutuqlari o‘rganilmoqda.

Kore-mar – asosan og‘zaki nutqda mavjud bo‘lgan va faqat oilaviy-maishiy muhitda qo‘llaniladigan (Markaziy Osiyolik) koreyslar (yohud kore-saram) tilidir.

Kore-mar uzoq yillar davomida o‘zining ona til makonidan izolyatsiyada yashadi, u rus tilining, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari tillarining kuchli ta’siriga uchradi. Natijada, kore-mar tilida hozirgi kunda Shimoliy Xamgyon (Shimoliy Koreya hududidagi viloyat) viloyatida allaqachon qo‘llanilmayotgan leksik birliklar uchraydi. Bundan tashqari, uning grammatikasi va fonetikasi ham sezilarli o‘zgarishlarga uchragan. Shu bois, kore-mar o‘ziga xos, noyob lingvistik hodisa sifatida baholanadi.

Koryo mar tili bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu ishni birinchilardan bo‘lib yosh Amerika Qo‘shma Shtatlaridan koreys olimi Ross Kingning tadqiqotlarida shunday mavzuga aylangan edi, u koryo mar bo‘yicha Garvard universitetida doktorlik dissertatsiyasini (PhD) himoya qilgan. Sovet koreyslarining assimilyatsiyasi va til haqidagi Xur Sent Chulning maqolasini ham eslatib o‘tish mumkin.

Ungacha 1960-yillarida Olga Mixaylovna Kim ilmiy izlanish olib borib u “O‘zbekiston SSR koreyslarining rus tilidagi nutq xususiyatlari (fonetik-morfologik ocherk) nomli nomzodlik dissertatsiyasi fundamental asar bo‘lib u hozirgi kunda ham ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Natijalar va muhokama. 1970-yillarda O‘zbekistondagi koreyslar orasidagi til holati mavzusini Ilya Grigorivich Yugay faol rivojlantirdi. 1982-yilda “Chet el muhitida zamonaviy til jarayonlarining rivojlanishi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Unda koryo saramlarning etnik identifikatsiyasining noaniqligi masalasini ko‘taradi.

XX asrning 70-yillarida sovet koreyslarining rus tilidagi badiiy asarlari adabiy maydonga chiqdi. Ularda Anatoliy Andreyevich Kim, qayta qurish davrida Qozog‘istonlik faylasuf Pak Irina Aleksandrovna va sovet koreyslarining qo‘shiq madaniyatida Ten Chu va teatrida esa Kim Iosif Fedorovich alohida o‘rin egallaydi.

Bu tilning saqlanib qolishi yoki yo‘qolib borishi – faqat so‘zlashuv muloqotining o‘zgarishi emas, balki diaspora vakillarining o‘z tarixiy ildizlariga munosabati, til orqali o‘zligini anglash ehtiyoji bilan chambarchas bog‘liq. Kore-mar tili zamonaviy yosh avlod orasida deyarli so‘zlashilmaydi, u asosan yoshi katta avlod vakillari tilida yashab qolgan. Bu holat ijtimoiy-falsafiy jihatdan assimilyatsiya holatining chuqurlashuvi, global madaniy muhitning bosimi va etnik o‘zlikning tilda ifodalanishi zaiflashayotganini anglatadi.

O‘zbekistondagi koreys millatiga mansub bo‘lganlarni o‘qitish uchun ko‘p pedagog mutaxassislar kerak edi. Shu maqsadda koreys milliy madaniy markazlari Respublika assotsiatsiyasi 1992-yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligiga quyidagilar bilan iltimosnoma bilan murojaat qildi: a) Nizomiy nomli TDPDida koreys bo‘limi talabalari sonini 50 taga yetkazish; b) respublika mintaqalarida koreys tili bo‘yicha olimpiadalar tashkil etish va ularning g‘oliblarini Pedagogika universitetiga qabul qilish; v) koreys tili bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirish.

Shu bilan birga, har yili o‘tkaziladigan “O‘zbekistonlik koreyslarning an’analari va urf-odatlari” respublika konferensiya-seminarlari diasporaning madaniy xotirasini tiklash, avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash va milliy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy muhit bilan uyg‘unlashtirishda muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, koreys diasporasining institutsional faoliyati milliy identiklikning saqlanishi va transformatsiyasi, shuningdek, ijtimoiy integratsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Koreys tilini o‘qitilishi va pedagogikasi bo‘limi asoschisi va o‘qituvchisi V.F.Kanning qat’iy sa’y-harakati natijasida amalga oshdi. 1990-yilda institutda Koreys tili va adabiyoti kafedrasi tashkil etilishi koreys tilining O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalaridagi akademik maqomini mustahkamladi. 1993-yilda esa Toshkent davlat sharqshunoslik institutida koreys tili bo‘limi ochildi.

2005-yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Koreys filologiyasi kafedrasining tashkil topishi bilan davom etdi. Shuningdek, Samarqand chet tillar instituti qoshida ham koreys tili va adabiyoti bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘lim faoliyat yuritmoqda. Mazkur oliy ta’lim muassasalarida koreysshunoslik yo‘nalishida bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, bu holat milliy identiklikning institutsional shakllanishi va uning polietnik jamiyat sharoitida barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholanishi mumkin.

2013-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti homiyligida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq instituti)da elektron kutubxona tashkil etildi. Shu bilan birga, 2018-yili tashkil etilgan Koreyashunoslik fakulteti qoshida ham kutubxonaga asos solindi. Bugungi kunda kutubxona fondida 10000 dan ortiq koreys tili, koreys tilini o‘qitish metodikasi, koreys tili bo‘yicha test sinovlari, koreys adabiyoti, tarixi, madaniyati, iqtisodiga oid o‘quv qo‘llanma va darsliklardan tashqari badiiy adabiyotlar ham mavjud. Kutubxona fondi har yili Koreya Respublikasining qator tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari tomonidan doimiy tarzda yetkazib berilayotgan o‘quv adabiyotlari bilan boyitilmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan,

mazkur kutubxonalar koreys diasporasi milliy identikligining bilim, xotira va madaniy uzviylik orqali mustahkamlanishida muhim intellektual makon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qator boshqa oliygohlarda esa koreys tili ikkinchi chet tili sifatida yoki fakultativ fan tarzida o‘qitiladi. Ayni paytda ushbu oliy o‘quv yurtlarida Koreys tili markazlari faoliyat yuritib, tilni nafaqat o‘qitish, balki uni milliy o‘zlikni saqlash va qayta tiklash vositasi sifatida qarashga xizmat qilmoqda.

Toshkent shahrida Janubiy Koreya Ta’lim markazi hamkorligida har yili o‘rtacha 3,5 ming kishi tahsil oladi. Talabalar tarkibining uchdan bir qismini koreyslar bilan bir qatorda o‘zbek, qozoq, rus, tatar va boshqa millat vakillari tashkil etadi. Bu holat koreys madaniyatiga nisbatan keng ommaning yuqori darajadagi qiziqishi va hurmatini namoyon etadi.

Bugungi kunda respublika bo‘ylab 100 dan ortiq maktabda koreys tili o‘qitilmoqda. Sejong koreys tili maktabida esa yuzlab tinglovchilar koreys tilini o‘rganib, malaka oshirgan. Ushbu ta’limiy faoliyatlar koreys tilining nafaqat xorijiy til sifatida, balki milliy madaniy identitetni saqlovchi vosita sifatida ham qayta tiklanayotganini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi etnik koreyslarning deyarli barchasi, istisnolarni hisobga olmaganda, rus tilida so‘zlashuvchi hisoblanadi. Bu holat, bir tomondan, ularga Sovet davrida qisqa vaqt ichida intellektual yuksalish va bilimli ijtimoiy qatlamlar safidan o‘rin egallash imkonini berdi. Ammo, boshqa tomondan, bu jarayon ularning tarixiy ona tilidan uzoqlashishiga olib keldi. [7]

Ayni damda, ayniqsa O‘zbekistonda, til muhiti tubdan o‘zgarib bormoqda va bu o‘zgarishlar etnik koreyslar uchun “teskari integratsiya” – ya’ni o‘z ona tiliga, tarixiy-madaniy ildizlariga ongli va faol ravishda qaytish imkonini taqdim etmoqda. Koreys tilining amaliy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati sezilarli darajada oshib borayotgan bir sharoitda, bu jarayon nafaqat tilni o‘rganishga, balki milliy ongni tiklashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kundagi Koryo saramlar (Markaziy Osiyodagi koreyslar o‘zlarini shunday ataydilar) koreys tilini o‘rganayotgan bo‘lsa (bu yoshlarning taxminan 10 foizi), u holda ular janubiy koreys adabiy tilining – Changuk mal’ (ya’ni Seul lahjasi) variantini o‘zlashtirishmoqda.[8]

Bugungi kunda koreys tili nafaqat muloqot vositasi, balki zamonaviy kasblarni egallash uchun zaruriy shart sifatida maydonga chiqmoqda. Endi shunchaki koreys tilida gaplasha olish yetarli emas – ushbu tilni yuqori darajada egallash, ya’ni kasbiy faoliyatda erkin qo‘llay olish ko‘nikmasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi o‘n yillik ichida O‘zbekistonda koreys oliy ta’lim muassasalari filiallari faoliyat yurita boshladi. Qizig‘i shundaki, bu holat sobiq Sovet hududidagi boshqa davlatlarda deyarli kuzatilmayapti. Bu o‘ziga xos O‘zbekiston fenomeni bo‘lib, koreys ta’limiga bo‘lgan ehtiyoj va talab darajasining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, 1989-yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston hududida 183140 nafar koreys millatiga mansub aholi istiqomat qilgan. Ushbu demografik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 45 yoshdan katta koreyslar orasida 73,9 foiz respondent koreys tilini o‘z ona tili deb ko‘rsatgan bo‘lsa, 45 yoshgacha bo‘lganlar orasida bu ko‘rsatkich 49,8 foizni tashkil etgan.

Biroq statistik ko‘rsatkichlar har doim ham real til bilish darajasini aks ettira olmaydi. Chunki koreys tilini “ona tilim” deb e’tirof etgan ko‘p insonlar amalda bu tilni erkin so‘zlash,

o‘qish va yozish darajasida bilmagan. Bu esa milliy identitet va tilga nisbatan emotsional bog‘liqlik real funksional savodxonlikdan ancha farqlanishini ko‘rsatadi.[9]

Assotsiatsiya rahbariyati o‘z ish faoliyatida koreys diasporasidagi koreys yozuvi savodsizligini tugatishga ham katta e’tibor berdi. Shu maqsadda Koreya Respublikasi mazkur tadbirlarning barchasini moddiy jihatdan ta’minlashda O‘zbekistonga yaqindan yordam berib kelmoqda. Bunda Janubiy Koreyaning KOICA (Korea International Cooperation Agency), ya’ni Koreya Xalqaro Hamkorlik Agentligi katta hissa qo‘shmoqda. Bu esa O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Farg‘ona viloyat koreys milliy madaniy markazi Farg‘ona va Qo‘qon shaharlarida koreys tilini o‘rganish kurslarini tashkil etdi. 1995-yilgacha bu yerda 200 dan ortiq koreys millati vakillari o‘z milliy tillarida yozish va o‘qishni o‘rgandilar.

Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyida ham koreys tilini o‘qitishga va savodxonligiga Janubiy Koreyaning KOICA tashkiloti ham yaqindan yordam berib kelmoqda. Bu o‘quv dargohida 2015-yildan Janubiy Koreyadan kelgan pedagog Kvak Xyo Jong, 2017-yildan Kim Young Gue, 2024-yildan Kim Yong Nam ishlab kelmoqda.

KOICA volontyorlari (Janubiy Koreya xalqaro hamkorlik agentligi) bu borada muayyan amaliy yordam ko‘rsatib kelmoqda. Biroq, koreys tilini saboq berishda uslubiy jihatdan tayyorlangan, ham tilni yaxshi biladigan, ham uni o‘rgatish uslubiyotiga ega bo‘lgan mahalliy mutaxassislarga ehtiyoj O‘zbekistonning chekka hududlarida sezilarli darajada.

Xulosa. O‘zbekistonda bir qator maktab va oliy ta’lim muassasalari koreys tili fakultetlarining ochilishi beqiyos ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu nafaqat koreys diasporasi madaniy-ma’rifiy ehtiyojlarini ta’minlash, balki keng ma’noda til siyosati, milliy va etnik identitetning tiklanishi hamda saqlanishiga xizmat qildi.

Globallashuv jarayonlarining kuchayib borayotgan bugungi davrida xalqaro munosabatlar tizimida mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, davlatlararo diplomatik aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish masalasi O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor prinsiplaridan biriga aylangan. Ayniqsa, barqaror rivojlanish, tinchlik va barqarorlik muhitini ta’minlash zamonaviy jamiyatlar uchun muhim shart bo‘lib qolmoqda. Bu borada Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida shunday fikrlarni ta’kidlagan edi “Yaqin qo‘shnilarimiz bilan ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va o‘zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Bunda mintaqamiz davlatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, transport-logistika, energetika, suv, ekologiya, xavfsizlik, madaniyat va ta’lim sohalarida hamkorlikni yanada chuqurlashtiramiz.”

Xulosa o‘rnida koreys diasporasi misolida mintaqaviy hamkorlik polietnik jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, madaniy xilma-xillik va o‘zaro ishonchni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy-falsafiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси, Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021,
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.26.12.2025

3. Musayev .O.R Mustaqil O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar. – T.: Iqbol dunyosi,1997 – B. 107.
4. Saydazimova U.T. O‘zbekiston koreyshunosligi: ilm-fan sarhadlari kengaymoqda // O‘zbekiston–Koreya: o‘zaro hamkorlikning bugungi kuni va istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T: Istiqlol nashriyoti, 2022. – B. 9.
5. Kore saram. Ensiklopedicheskoe izdanie / Sost. Kim V.N., Kim M.I., Chen V.S. – 2-ye izd. – M.: Pervaya Obrazsovaya tipografiya, filial Chexovskiy Pechatnыy Dvor, 2020. – S.-281.
6. Xaynazarov B.B. O‘zbekiston uyg‘urlari diasporasi tarixi (1925-2012) 07.00.01 O‘zbekiston tarixi b’oyicha falsafa doktori (PhD) uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2018. – B. 104.
7. Koreyskaya diaspora v Sentralnoy Azii: istoriya, kultura i sotsialnaya jizn. K 85-letiyu projivaniya koreysev v Sentralnoy Azii / Otv. red. V.V. Nam, V.S. Xan. – Tashkent: Universitet Puchon v Tashkente, 2024. – C. 46.
8. Trofimenko O.A. Chto takoe «kore mar»? // Vestnik Irkutskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta. 2012. № 4 (21). S. 115.
9. Xan V. S. Istoriografiya koreysev Sentralnoy Azii: osnovnыe napravleniya i etapы razvitiya. – T.: Bactria press, 2021. – S. 492.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE EXECUTION OF JEAN CALAS AND ITS CONSEQUENCES IN VOLTAIRE'S "TREATISE ON TOLERANCE"

Fayziyev Xurshid Jumayevich
Bukhara State University, Phd student

Abstract. This article briefly describes the execution of Jean Callas in Voltaire's " Treatise on Tolerance " and Voltaire's approach to this issue.

Keywords: Voltaire, Jean Calas, Edict of Nantes, Edict of Fontainebleau, tolerance, fanaticism.

VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI

Fayziyev Xurshid Jumayevich
Buxoro davlat universiteti, Tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Volterning "Bag'rikenglik haqida" asarida Jan Kalasning qatl etilishi va ushbu masalada Volterning yondashuvi qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Volter, Jan Kalas, Nant edikti, Fontenblo edikti, bag'rikenglik, fanatizm.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N18

1762-yilda Tuluzada Jan Kalas ismli protestant savdogari, diniy fanatizm sababli o'z o'g'lining o'limida nohaq ayblanib o'limga hukm qilinadi. Aynan ushbu adolatsiz hukm tufayli 1963-yilda Volterning "Bag'rikenglik haqida" asari dunyo yuzini ko'radi. Asarda yuz bergan voqealar batafsil yoritilib, diniy murosasizlik va fanatizim tanqid ostiga olingan. Asarning I va II boblari aynan nohaq hukm bilan qatl etilgan Jan Kalasga bag'ishlanadi. Buni asl maqsadi shu asar orqali adolatni qaror toptirish va diniy murosasizlikni tanqid ostiga olish edi. Volter faqat kitob yozish bilan cheklanib qolmadi, balki u yuqori doiradagi tanishlarini ishga solib, Jan Kalasni reabilitatsiya qilishga ham erishdi. Shunday qilib, biz Volter Haqiqatga tegishli deb hisoblamagan narsalarning teskari ro'yxatini tuzishimiz mumkin; faqat bizning misollarimizdan kelib chiqqan holda, ro'yxat dahshatli: shahidlar, birodarlik, nasroniylikning kelib chiqishi, Iso Masihning ilohiyligi, ilohiyot, cherkov (Cave 1999, 75). Volter diniy murosasizlik va fanatizm tufayli nafaqat Fransiyada, balki butun G'arbiy Yevropada dining nomidan qirg'in sodir etilganligiga alohida urg'u qaratgan. Uning quyidagi fikrlari e'tiborga molikdir:

> On sait assez ce qu'il en a coûté depuis que les chrétiens disputent sur le dogme : le sang a coulé, soit sur les échafauds, soit dans les batailles, dès le iv^{e} siècle jusqu'à nos jours (Voltaire 1989, 42).

(Xristianlar dogmalar ustida bahslashganlaridan buyon bu bizga qanchaga tushganligini biz yetarlicha yaxshi bilamiz. Eramizning IV asridan boshlab hozirgi kungacha qon goh eshafotlarda, goh janggohlarda daryo bo‘lib oqdi.)

Haqiqatdan faqat reformatsiya davrini olsak: Germaniyada dehqonlar urushi, Fransiyada diniy urushlar va Vestfaliyada tinchlik kelishuvi orqali tugatilgan O’ttiz yillik urush, shular bilan bir qatorda Ispaniya va Niderlandiya o‘rtasidagi Sakson yillik urush shular jumlasidandir. Reformatsiya davrida protestantizmga qarshi qatag’onlar — Volter bu haqda adashmagan — bunday reputatsiyaning asosi bor (Foucault 2015, 38). Chunki ushbu urushlar davrida Fransiyada protestantlarga qarshi qator qatag’onlar qilingan. To’g’ri fransuz qiroli Genri IV tomonidan 1598-yilda Nant ediktini qabul vaziyatni biroz yumshatgan bo’lib, katolik dini davlat dini deb tan olinsada, gugenotlarga e’tiqod erkinligi berilgandi. Ammo 1685-yil Lyudovik XIV tomonidan Fontenblo ediktini qabul qilinishi ushbu Nant ediktini bekor qilgan. Natijada diniy bag‘rikenglik o‘rnini yana diniy murosasizlik egallagan. Gugenotlar yana ta’qib ostiga olina boshlagan. “Jan Kalas ishi” aynan shu davrning mevasidir. Volter o’zining “Bag’rikenglik haqida” asarida Jan Kalasga bag’ishlangan I bobda . “Jan Kalas ishi”ga oid quyidagi fikrlarni keltirgan:

Le meurtre de Calas, commis dans Toulouse avec le glaive de la justice, le 9 mars 1762, est un des plus singuliers événements qui méritent l’attention de notre âge et de la postérité. On oublie bientôt cette foule de morts qui a péri dans des batailles sans nombre, non-seulement parce que c’est la fatalité inévitable de la guerre, mais parce que ceux qui meurent par le sort des armes pouvaient aussi donner la mort à leurs ennemis, et n’ont point péri sans se défendre. Là où le danger et l’avantage sont égaux, l’étonnement cesse, et la pitié même s’affaiblit ; mais si un père de famille innocent est livré aux mains de l’erreur, ou de la passion, ou du fanatisme ; si l’accusé n’a de défense que sa vertu : si les arbitres de sa vie n’ont à risquer en l’égorgeant que de se tromper ; s’ils peuvent tuer impunément par un arrêt, alors le cri public s’élève, chacun craint pour soi-même, on voit que personne n’est en sûreté de sa vie devant un tribunal érigé pour veiller sur la vie des citoyens, et toutes les voix se réunissent pour demander vengeance (Voltaire 1989, 31).

(1762-yil 9-mart kuni Tuluzada sudning qilichi bilan ijro etilgan Kalasning o‘limi, asrimiz va kelajak avlodning diqqatini tortishga loyiq bo‘lgan alohida holatlardan biridir. Son-sanoqsiz janglarda qirilib ketgan marhumlar olomonini tez orada unutamiz, chunki nafaqat o‘lim urushning muqarrar qismati bo‘lganligi uchun, balki qilichdan halok bo‘lganlar o‘z dushmanlarini o‘ldirishlari mumkin edi va boz ustiga ular o‘zlarini himoya qilmasdan turib halok bo‘lishmagan. Qaysi joyda xavf-xatar va foyda teng kelib qolsa, o‘lim boshqa hayratlantirmaydi va hattoki achinish ham kamayadi. Ammo, agar aybsiz oiladagi ota xatolik, ehtiros yoki fanatizmning bag‘riga tashlansa, agar ayblanuvchi o‘zini himoya qilishi uchun faqatgina fazilatga ega bo‘lsa, agar uning hayotini hal qiluvchi sudyalar uning bo‘g‘ziga tig‘ tortayotib xato qilishdan ham cho‘chishmasa, agar ular jazolamay turib birta hukmning o‘zi bilan o‘ldirishlari mumkin bo‘lsa, u holda xalqning ovozi baland bo‘ladi va har bir kishi o‘z hayotidan qo‘rqib qoladi. Fuqarolarning hayotini nazorat qilish uchun tashkil etilgan sud oldida hech kimning hayoti xavf-xatardan xoli emasligini guvohi bo‘ldik va qasos olishni talab qilish uchun barcha ovozlar birlashdi.)

Bu yerda gap faqat sudning adolatsiz hukmi haqida emas, balki ushbu adolatsiz hukmiga yetaklagan omillar ham ochib berilgan. Volter ko‘rsatib o‘tganidek, uning sudida fanatik katoliklarning protestantizmga nisbatan murosasizligi faktlarni xolis tekshirishdan ustun keldi

(Aguiar 2014, 27). Bu yerda ikkita masalaga urg‘u berilgan bo‘lib, sudyalarning noxolisligi alohida masala, protestantlarga qarshi qaratilgan diniy fanatizm alohida masaladir. Volter doimo voqealarni tarixiy obektivligiga katta e’tibor bergan. Agar Volter biror voqeani qoralash uchun yozsa, bu o‘jarlikdan emas, balki aniq dalillarga asoslangan ishonchdan kelib chiqadi (Oconitrillo 2009, 225). Yana bir faktga e’tibor qaratish lozimki, Fransiyadagi diniy urushlar davrida Tuluza katoliklarning bastioni sifatida xizmat qilgandi. Volterning quyidagi so‘lari fikrimizni tasdiqlaydi:

> Pendant qu’ils s’acquittaient de ce devoir, pendant que le père & la mère étaient dans les ſanglots & dans les larmes, le Peuple de Touloufe s’attroupait autour de la maiſon. Ce Peuple eſt ſuperſtitieux & emporté ; il regarde comme des monſtres ſes frères qui ne ſont pas de la même Religion que lui. C’eſt à Touloufe qu’on remercie Dieu ſolemnellement de la mort de *Henri trois*, & qu’on fit ſerment d’égorger le premier qui parlerait de reconnaître le grand, le bon *Henri quatre* (Voltaire 1989, 33).
>
> (Ular bu burchlarini bajarayotgan, ota-ona ko‘z yoshlari bilan nola qilayotgan bir paytda, tuluzaliklar olomoni uy atrofida to‘planishdi. Bu olomon xurofotga berilgan va qiziqqon edi. Bu olomon boshqa dinga e’tiqod qiluvchi o‘z birodarlariga xuddi maxluqlarga qaragandek qarashdi. Bu Tuluzada Genri III o‘limi uchun xudoga tantanali minnatdorchilik bildirishgan va birinchi bo‘lib yaxshi Genri IV ni buyuk deb tan olgan kishining bo‘g‘ziga tig‘ tortishga qasam ichishgan.)

Volterni demokratiyaga doimo shubha bilan qaraganligi bu yerda yana bir bor yaqqol ko‘rinadi. Diniy murosasizlik va fanatizmga mubtalo bo‘lgan tuluzalik olomonni o‘zini bunday tutishi qaysidir ma’noda Volterning demokratiya to‘g‘risidagi shubhalarini asoslaydi. Fransuz qiroli Genri III ga kelsak, u o‘ziga voris sifatida protestantlarning yetakchisi bo‘lmish Navarra qiroli Genri IV ni tayinlaganligini fransuz katoliklari og‘riqli qabul qilgandilar. Genri IV Fransiya qiroliga aylangach, garchi bu uchun u katolik dinini qabul qilishga majbur bo‘lgan bo‘lsada, mamlakatdagi katoliklar unga ishonishmasdi.

Umuman olganda, Volter dunyoviy hokimiyatni diniy hokimiyatdan ustun qo’ygan. Kristof Payardning quyidagi fikrlari e’tiborga molikdir:

> Voltaire n’a jamais affirmé la nécessité d’assurer la neutralité religieuse de l’État. Il préconise au contraire l’obligation pour le pouvoir politique d’instrumentaliser la religion, et ceci non seulement en raison de l’utilité sociale de cette institution mais pour se prémunir du danger constant que représente sa volonté de contrôler les corps et les consciences par l’imposition de ses croyances. Trop forte et trop puissante est la religion pour que l’État reste neutre à son égard (Paillard 2017, 35).
>
> (Volter hech qachon davlatning diniy betarafligini ta’minlash zarurligini ta’kidlamagan. Aksincha, u siyosiy hokimiyat dinni nafaqat ushbu institutning ijtimoiy foydaliligi tufayli, balki dinni o‘z e’tiqodlarini majburlash orqali kishilar va onglarni nazorat qilish istagini keltirib chiqaradigan doimiy xavfidan o‘zini himoya qilish uchun ham uni vosita sifatida ishlatish majburiyatini ilgari surgan. Davlatni dinga nisbatan betaraf bo‘lmasligini sababi, din juda kuchli va juda ta’sirchandir.)

Haqiqatdan ham Volter kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo’lgan. U diniy fanatizm va murosasizlikda markazdan qochuvchi kuchlarni ko’rardi. Mana shu sababli Jan Kalasni diniy fanatizm bosimi ostida qatl etilishini Volter oddiy hodisa sifatida sira ham qabul qilolmagan. U shunday deb yozgandi:

> Et c'est de nos jours ! et c'est dans un temps où la philosophie a fait tant de progrès ! et c'est lorsque cent académies écrivent pour inspirer la douceur des mœurs ! Il semble que le fanatisme, indigné depuis peu des succès de la raison, se débatte sous elle avec plus de rage (Voltaire 1989, 35).
>
> (Va bu bizning davrimizda sodir bo'lmoqda! Falsafa taraqqiy etgan davrda! Yuzlab akademiyalar xulqimizni yaxshilash uchun yozishayotgan bir paytda! Aftidan, fanatizm aqlning yaqindagina erishgan muvafaqqiyatlaridan g'azablanib, u bilan yanada keskinroq kurashmoqda.)

Volter Jan Kalasni qatl qilinishida faqat diniy fanatizmni yagona sababchisi deb hisoblamagan. Uning fikricha, buning bir qancha sabablari mavjud: xurofotga berilgan olomonning bosimi ostida sudyalarni hukm chiqarishi, sudyalarda professonalizmni yetishmasligi, qonunlardagi nomutanosibliklar va hokazolar. Volter shu tariqa yuqoridagi kamchiliklarni o'ziga xos kinoya bilan bayon qilgan:

> Il semble que, que quand il s'agit d'un parricide et de livrer un père de famille au plus affreux supplice, le jugement devrait être unanime, parce que les preuves d'un crime si inouï devraient être d'une évidence sensible à tout le monde : le moindre doute dans un cas pareil doit suffire pour faire trembler un juge qui va signer un arrêt de mort. La faiblesse de notre raison et l'insuffisance de nos lois se font sentir tous les jours ; mais dans quelle occasion en découvre-t-on mieux la misère que quand la prépondérance d'une seule voix fait rouer un citoyen ? Il fallait, dans Athènes, cinquante voix au delà de la moitié pour oser prononcer un jugement de mort. Qu'en résulte-t-il ? Ce que nous savons très-inutilement, que les Grecs étaient plus sages et plus humains que nous (Voltaire 1989, 36).
>
> (Aftidan birodarkushlik va otani dahshatli o'lim jazosiga hukm qilish haqida gap ketganda, hukm bir ovozdan ma'qullanishi lozim. Chunki ko'z ko'rib quloq eshitmagan bunday jinoyatni sodir etilganligini isbotlovchi dalillar barchani ishontirish uchun yetarli bo'lmog'i lozim. Bunday holatda arzimas bir shubha o'lim jazosi tayinlangan hukmga imzo qo'yayotgan sudyani yuragiga qo'rquv solish uchun yetarli bo'lishi lozim. Aqlimizning ojizligi va qonunlarimizning nomutanosibligi doimo ko'zga tashlanib turadi. Bir ovozni ortiqligi sababli fuqaroni charxpalakka tortib qatl qilinishi, qonunlarimizning nochorligini yanada yaxshiroq ko'rsatib beradigan holat emasmi? Qadimgi Afinada o'lim jazosiga hukm qilish uchun ellikta ovoz ortiq bo'lishi lozim edi. Bundan qanday xulosa kelib chiqadi? Qadimgi greklar bizlarga qaraganda donoroq va insonparvarroq bo'lganliklarini bilganimizni bizga foydasi yo'q ekan.)

Tuluza parlamentini nohaq hukm chiqarishiga xurofotga berilgan mahalliy olomonning bosimini bu yerda aytib o'tmasdan ilojimiz yo'q. Aynan shu bosim ostida sudyalar Kalasga qarshi hech qanday dalilsiz muhokama o'tkazdilar va uning o'limi bo'yicha oz sonli ovoz bilan qaror qabul qildilar (Petit 2025, 15).Tuluza parlamenti magistratlarini katoliklardan iborat bo'lganligi ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Sudyalarni bunday yo'l tutishiga yana bir sabab, Fontenblo edikti hali bekor qilinmaganligi bilan bog'liq edi. Ushbu edikt protestant diniy e'tiqod bilan bog'liq huquqlarni butunlay cheklagan bo'lib, mamlakatda katolitsizmga katta ustuvorlik berilgandi. Shu sababli, protestantlarning huquqlarini toptalishi oddiy holga aylanib qolgandi. Binobarin, Tuluza parlamenti bunga alohida e'tibor bermasdan iloji yo'q edi: parlament a'zolari uchun esa o'z dinlarini ochiqchasiga namoyon etgan kalvinist dehqonlar guruhlarining mavjudligini o'ziyoq davlatning siyosiy va diniy tartibiga tahdid hisoblanar, shunga qaramay "xususiy" va "uyushgan" protestantizm esa muammo tug'dirmasdi(Cutrì 2023, 18). Volter 1762-yilgacha qat'iy tarzda bag'rikenglik pozitsiyasida tursa-da, ammo targ'ibot kampaniyasini olib bormagan edi (Pomeau 1994, 69). Aynan "Jan Kalas ishi" Volter hayotida

yangi bir davrni ochib berdi. Keyinchalik uni sudning adolatsiz hukmlari bilan bog'liq ishlar bilan shug'ullanishiga aynan "Jan Kalas ishi" turtki bo'ldi. Tadqiqotchilar A. Bihich va I. Haloui tomonidan Jan Kalas ishi bo'yicha o'ziga xos jadval tuzilgan bo'lib, unda yuz bergan voqealar xronologik tarzda yoritilgan (Bihich et Haloui 2024, 11). Ushbu quyida berilgan jadvalda "Jan Kalas ishi" bo'yicha 1763-yildan 1769-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Unda biz "Jan Kalas ishi"da Volterning faoliyati haqida yanada kengroq tasavvurga ega bo'lishimizga xizmat qiladi. Quyida ushbu jadval bilan tanishishimiz mumkin:

1763	1764	1765	1769
Mart: Jan Kalasning diniy murosasizlik uchun nohaq qatl etilganidan so'ng, Volter "Bag'rikenglik haqida" asarini nashr etdi. **1-mart:** Kalas oilasining da'vosi Kassatsiya sudi tomonidan qabul qilinadi. **7-mart:** Davlat Kengashi Tuluza parlamentiga o'z protsedurasi haqida xabar berishini buyurdi. **14-aprel:** Ekspert Antuan Luis Kalas tomonidan qotillikni sodir etilmaganligini isbotlovchi hisobotni taqdim etdi	**4-Iyun:** Parij parlamenti tomonidan kassatsiya qarori chiqarildi, uni Tuluza parlamenti ratifikatsiya qilishdan bosh tortdi. **Iyun:** Kalaslar oilasi Parijdagi Konserjeriyada qamoqqa tashlandi	**Fevral:** Kapitul David de Bodrigni lavozimidan chetlashtirilishi va uni o'z joniga qasd qilishi. **9-mart:** Jan Kalasni reabilitatsiya qilinishi va uning bevasiga yetkazilgan zararni qoplab berilishi. **Aprel:** Tuluzada 1562-yilgi qirg'inlarni xotirlash uchun o'tkaziladigan har yillik festivalni bekor qilinishi.	Tuluza parlamenti nihoyat o'zining noto'g'ri hukmini tan oldi.

Garchi "Jan Kalas ishi" uzoq muddatga cho'zilib ketgan bo'lsada, ammo uni Volter uchun muvaffaqiyatli yakunlanishi, butun G'arbiy Yevropada Volterning nomini shon-shuhratga burkadi. Gugenot oilasi parlament ustidan g'alaba qozonishi misli ko'rilmagan holat edi, ammo Volter aynan shu narsaga erishgan edi (Donald and Lipsett 1971, 108). Shu tariqa madam Pompadur orqali Lyudovik XV ning Versaldagi saroyigacha kirib borgan bu "Jan Kalas ishi" Fransiyaning yuqori doiralarini e'tiborini tortdi. Oxir-oqibat Jan Kalas oqlanib adolat qaror topishiga olib keldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Aguiar, Márcia Valéria Martínez de. 2014.Le traité sur la tolérance" et" douze hommes en colère.Non Plus,No. 6: Dossiê Século XVIII.
2. Bihich, Atika. Haloui, Issame. 2024. Vers une éthique de la tolérance au siècle des lumières, cas de l'affaire Calas et Voltaire. Langues & Usages.Volume 6, Numéro 1.
3. Cave, Christophe. 1999. Entre événement et catéchisme : le Traité sur la tolérance de Voltaire. In: Littératures 41, automne. p. 75.
4. Cutrì, Andrea Paola. 2023. Affaires et soif de justice: Voltaire et Zola à la défense de Jean Calas et d'Alfred Dreyfus. Tesina di laurea triennale, Università degli Studi di Padova.
5. Donald J. Lipsett, B.A. 1971. Voltaire's attitude towards protestantism in France from la Henriade to the Calas case. Thesis.McMaster University August.
6. Foucault, Didier. 2015. Affaire Calas. Point culminant de l'intolérance à Toulouse. Midi-Pyrénées patrimoine, hal-02085598
7. Oconitrillo, Beatriz Rodríguez. 2009. Voltaire: l'avocat des opprimés. Revista de Lenguas Modernas, Nº 10.
8. Paillard, Christophe. 2017. Voltaire entre tolérance et laïcité. Histoire, monde et cultures religieuses. 3 n° 43. DOI: https:// doi.org/ 10.3917/ hmc. 043.0035
9. Petit, Corentin. 2025. Le Patriarche, le monarque et Dieu : Voltaire, entre religion et politique. Mémoire de recherche Master 2 Philosophie, Université de Lille. https://dumas.ccsd.cnrs.fr/dumas-05370414
10. Pomeau, René. 1994.Voltaire : le combat pour la tolérance. Calas, Sirven, La Barre. In: Raison présente, n°112, 4e trimestre.
11. Voltaire.1989. Traité sur la tolérance. Introduction, notes, bibliographie, chronologie par René Pomeau. Paris, GF Flammarion.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

FAMILY AS THE MAIN SOCIAL ENVIRONMENT OF PERSONAL DEVELOPMENT AND A FACTOR OF SOCIAL STABILITY

Shadmonova Zebiniso Amrulloyevna
Master's student of the Bukhara Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the family as the main social environment of personal development from a philosophical and social perspective. The role of the family institution in the spiritual, moral, psychological and social formation of the individual is highlighted, and its importance in ensuring the stability of society is substantiated. Also, the dialectical relationship between the family and society, the continuity of the family upbringing process and the influence of the value system on personal development are scientifically analyzed. The article reveals the transformation of the family in the conditions of modern social processes and the influence of this process on the stability of society.

Keywords: family, personal development, social environment, social stability, family upbringing, social institution, spiritual and moral values, socialization, dialectics of family and society.

OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOIY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA

Shadmonova Zebiniso Amrulloyevna
Buxoro pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila shaxs kamolotining asosiy ijtimoiy muhiti sifatida falsafiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Oila institutining shaxs ma’naviy-axloqiy, psixologik va ijtimoiy shakllanishidagi o‘rni yoritilib, uning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, oila va jamiyat o‘rtasidagi dialektik munosabatlar, oilaviy tarbiya jarayonining uzluksizligi hamda qadriyatlar tizimining shaxs kamolotiga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy ijtimoiy jarayonlar sharoitida oilaning transformatsiyasi va bu jarayonning jamiyat barqarorligiga ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: oila, shaxs kamoloti, ijtimoiy muhit, jamiyat barqarorligi, oilaviy tarbiya, ijtimoiy institut, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiylashuv, oila va jamiyat dialektikasi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N19

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida jamiyat barqarorligini ta’minlash masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biriga aylanmoqda. Ushbu jarayonda shaxs kamoloti hal qiluvchi omil bo‘lib, uning shakllanishida oila eng muhim ijtimoiy muhit sifatida namoyon bo‘ladi. Oila insonning dastlabki ijtimoiylashuv makoni bo‘lib, unda shaxsning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari, ijtimoiy xulq-atvori va ma’naviy qadriyatlari shakllanadi. Shu bois shaxs kamolotini oiladan ajratilgan holda tahlil etish jamiyat taraqqiyotining ichki mexanizmlarini to‘laqonli anglash imkonini bermaydi.

Zamonaviy jamiyatda oilaning ijtimoiy funksiyalarida muayyan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Urbanizatsiya, axborot texnologiyalarining jadallashuvi, qadriyatlar tizimidagi transformatsiyalar oilaviy munosabatlarga, tarbiya jarayoniga va shaxs shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat esa oilaning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi rolini yangicha

ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, oilaviy tarbiya samaradorligi bilan ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, oila va jamiyat o‘rtasidagi dialektik munosabatlar shaxs kamolotiga bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar oilaning ichki hayotiga ta’sir ko‘rsatsa, o‘z navbatida, oilada shakllangan shaxslar jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini belgilaydi. Shu ma’noda, oilani shaxs kamolotining asosiy ijtimoiy muhiti sifatida tadqiq etish jamiyat barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili mazkur tadqiqotda shaxs kamoloti, oila va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalasi falsafa, sotsiologiya, pedagogika hamda psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan. Xususan, Sharq mutafakkirlari asarlarida oila inson kamolotining asosiy muhitlaridan biri sifatida talqin etilib, undagi axloqiy tarbiya jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida e’tirof etilgan. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar oila va tarbiya masalalarini komil inson g‘oyasi bilan uzviy bog‘lab tahlil qilganlar.

G‘arb falsafasida esa oila ijtimoiy institut sifatida jamiyatning funksional barqarorligini ta’minlovchi tizim sifatida talqin etiladi. Xususan, E. Dyurkgeym jamiyat barqarorligida ijtimoiy institutlarning, jumladan, oilaning me’yor va qadriyatlarni uzatishdagi rolini asoslab bergan. T. Parsons oila institutini shaxs ijtimoiylashuvining muhim mexanizmi sifatida tahlil qilib, uning jamiyat tizimidagi funksional ahamiyatini ko‘rsatib bergan.

Zamonaviy tadqiqotlarda oila va shaxs kamoloti masalasi globallashuv, modernizatsiya va axborotlashuv jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Ayrim olimlar oilaning an’anaviy funksiyalarida yuz berayotgan o‘zgarishlar shaxs tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlasa, boshqalari esa oilaning moslashuvchanligi va transformatsiyasi jamiyat barqarorligini ta’minlashda yangi imkoniyatlar yaratishini ilgari suradi. Shu jihatdan, oilaning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va uning shaxs kamolotiga ta’siri masalasi kompleks ilmiy tahlilni talab etadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oila, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik keng yoritilgan bo‘lsa-da, ularning dialektik birligi va jamiyat barqarorligiga ta’siri masalasi falsafiy jihatdan yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Mazkur maqolada qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda umumfalsafiy, umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, dialektik metod oila, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni rivojlanish jarayonida tahlil qilish imkonini berdi. Tarixiylik va mantiqiylik metodlari oilaning ijtimoiy institut sifatida shakllanishi hamda uning jamiyat barqarorligidagi o‘rnini izchil o‘rganishda qo‘llanildi.

Shuningdek, tahlil va sintez metodlari orqali mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi hamda oilaning shaxs kamolotiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirildi. Taqqoslash metodi oilaga oid turli nazariy yondashuvlarni solishtirish imkonini berdi. Strukturaviy-funksional yondashuv esa oilaning shaxs tarbiyasi va jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi asosiy funksiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv metodi oila, shaxs va jamiyatni yagona ijtimoiy tizim sifatida tahlil qilishga imkon yaratdi. Ilmiy umumlashtirish va abstraktlashtirish metodlari asosida tadqiqot natijalari nazariy xulosalar darajasiga ko‘tarildi.

Natijalar va muhokama. Oila shaxs kamolotining eng muhim va barqaror ijtimoiy muhiti bo‘lib, unda shakllangan qadriyatlar tizimi jamiyat barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oila doirasida singdirilgan axloqiy me’yorlar, mas’uliyat, ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasi shaxsning keyingi ijtimoiy hayotdagi xulq-atvorini belgilaydi. Bu holat oilani nafaqat biologik yoki psixologik muhit, balki jamiyatning strategik barqarorlik omili sifatida baholash imkonini beradi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida oila tomonidan berilgan dastlabki tarbiya keyinchalik maktab, jamoa va jamiyat institutlari tomonidan mustahkamlanadi. E. Dyurkgeym ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda me’yor va qadriyatlarning uzatilishini asosiy mexanizm sifatida ko‘rsatadi.[1, 72-75] Mazkur mexanizmning markazida aynan oila turadi. Agar oilada ijtimoiy me’yorlar izchil shakllanmasa, jamiyatda ijtimoiy beqarorlik, ma’naviy bo‘shliqlar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Strukturaviy-funksional yondashuv asosida olib borilgan muhokamalar T. Parsons tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarni tasdiqlaydi. Uning fikricha, oila shaxsni jamiyat talablariga moslashtiruvchi asosiy institut bo‘lib, bu jarayon jamiyat tizimining uzluksiz ishlashini ta’minlaydi.[2, 131 b] Mazkur tadqiqot natijalari ham shuni ko‘rsatdiki, oilada ijtimoiy rollarning to‘g‘ri taqsimlanishi va tarbiya jarayonining uzviyligi jamiyat barqarorligini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi.

Sharq falsafiy merosiga murojaat qiladigan bo‘lsak, Abu Nasr Forobiy komil inson g‘oyasini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘lab, bu jarayonda tarbiyaning boshlang‘ich manbai sifatida oilani alohida ta’kidlaydi.[3, 45 b] Ushbu yondashuv bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyot strategiyalarida ham oila va shaxs kamoloti masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘z asarlarida jamiyat taraqqiyotining poydevori avvalo sog‘lom va mustahkam oilaga borib taqalishini, barkamol avlodni tarbiyalash esa davlat va jamiyat oldidagi eng muhim vazifa ekanini ta’kidlaydi. [4, 112 b] Ushbu fikrlar oilani shaxs kamoloti orqali jamiyat barqarorligini ta’minlovchi strategik institut sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “inson qadri uchun” tamoyili shaxs kamolotini ijtimoiy siyosat markaziga qo‘yishni nazarda tutadi.[5, 428 b] Bu tamoyil oilada yaratilgan ma’naviy muhit, tarbiya sifati va ijtimoiy mas’uliyat bilan bevosita bog‘liqdir. Oilaviy qadriyatlar mustahkam bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy barqarorlik darajasi yuqori bo‘lib, ijtimoiy ziddiyatlar sezilarli darajada kamayadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

1. Oila shaxs kamolotining birlamchi va eng barqaror ijtimoiy muhiti bo‘lib, unda shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar jamiyat barqarorligining muhim omili hisoblanadi. Oiladagi tarbiya sifati shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, fuqarolik pozitsiyasi va axloqiy ongini belgilaydi.
2. Oilaviy muhitda shakllangan ijtimoiy me’yorlar va xulq-atvor modellari shaxsning jamiyatga moslashuvi hamda ijtimoiy munosabatlarda barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu holat jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar va deviant xulq-atvorning oldini olishda oilaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

3. Oila va jamiyat o‘rtasidagi dialektik munosabatlar shaxs kamolotining uzluksizligini ta’minlaydi, ya’ni jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar oilaga ta’sir ko‘rsatganidek, oilada tarbiyalangan shaxslar jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining faol subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.
4. Zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida oilaning tarbiyaviy funksiyasini mustahkamlash shaxsda axloqiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik va ma’naviy barqarorlikni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Oila institutining zaiflashuvi jamiyat miqyosida ijtimoiy beqarorlik xavfini kuchaytirishi mumkin.

Umuman olganda, oila shaxs kamolotining asosiy ijtimoiy muhiti sifatida jamiyat barqarorligini ta’minlovchi fundamental institut hisoblanadi. Oila tarbiyasini mustahkamlash, unda ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarni izchil shakllantirish barqaror jamiyatni barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash hamda ijtimoiy taraqqiyotning uzluksizligini ta’minlash yo‘lidagi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Oila shaxs kamolotining asosiy ijtimoiy muhiti bo‘lib, uning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni strategik ahamiyatga ega. Oila doirasida shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar va xulq-atvor modellari shaxsning keyingi ijtimoiy faoliyatida barqarorlik va mas’uliyatni ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, jamiyat taraqqiyotini shaxs kamolotisiz, shaxs kamolotini esa oilasiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Tadqiqotimizda oila, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi dialektik munosabatlar tahlil qilinib, ularning o‘zaro ta’siri ikki tomonlama xarakterga egaligi aniqlandi. Bir tomondan, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar oilaning funksional tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, oilada shakllangan shaxs jamiyat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotining subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat oilani jamiyatning passiv bo‘g‘ini emas, balki faol ijtimoiy institut sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oilaviy tarbiya sifati shaxs kamolotining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Oilada mas’uliyat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarning shakllanishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Aksincha, oilaviy tarbiyada yuzaga keladigan bo‘shliqlar jamiyat miqyosida ijtimoiy muammolar, ma’naviy inqiroz va ijtimoiy ziddiyatlar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan inson qadri, sog‘lom oila va barkamol avlod g‘oyalari bilan uyg‘un ekanini ko‘rsatadi. Oila institutini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati shaxs kamolotini ta’minlash orqali jamiyat barqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa mazkur tadqiqotning nazariy xulosalari amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, globallashuv va axborotlashuv sharoitida oilaning an’anaviy funksiyalarini saqlab qolish bilan birga, ularni zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish zarur. Oila tarbiya muhitini mustahkamlash, ma’naviy qadriyatlarni uzluksiz avloddan-avlodga yetkazish orqali shaxs kamolotini ta’minlash jamiyat barqarorligi uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, oila shaxs kamolotining asosiy ijtimoiy muhiti sifatida jamiyat barqarorligining poydevorini tashkil etadi. Oila institutini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar va amaliy chora-tadbirlar jamiyat taraqqiyotining barqaror modelini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida oila, shaxs

va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurroq o‘rganishga, shuningdek, ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda metodologik asos sifatida foydalanishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. – М.: Канон, 1996. - Б. 72-75.
2. Parsons T. The Social System. – London: Routledge, 1951. - P. 131-134.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993. - B. 45-47.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - B. 112-114.
5. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri uchun. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022. - B. 28-30.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

IN ENSURING SOCIO-MORAL STABILITY OF SOCIETY - THE ROLE OF LEGAL EDUCATION OF YOUTH

Idiboyev Abror Jamolovich,
Independent researcher of the Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Director of the Jizzakh Regional Legal College

Abstract. The article reveals the basic concepts of legal education and legal training as a means of forming the legal culture of an individual and society. The problems of legal nihilism, contradictions of the modern system of normative legal acts and reality are considered.

Keywords: legal culture, legal education, legal training, concept of lifelong legal education, values, legal consciousness, slang language, morality, law, state, society, deviant behavior.

JAMIYAT IJTIMOIY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI

Idiboyev Abror Jamolovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi,
Jizzax viloyati yuridik texnikumi direktori
E-mail: idiboevabror@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada shaxs va jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim omil sanaladigan huquqiy tarbiya va huquqiy ta'limning asosiy tushunchalari yoritib beriladi. Huquqiy nigilizm muammolari, hozirgi zamon normativ-huquqiy aktlari va amaliyotdagi qarama-qarshiliklar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquqiy ta'lim, uzluksiz huquqiy ta'lim konsepsiyasi, qadriyatlar, huquqiy ong, "jargon so'zlar", axloq, huquq, davlat, jamiyat, deviant xulq-atvor.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N20

O'zbekistonda yoshlar aholining o'ziga xos, yuqori salohiyatli, tashabbuskor va faol ijtimoiy qatlami hisoblanadi. Yoshlarning bunday ilg'or qatlam sifatida qaralishi ularning huquqiy madaniyatining shakllanishi va uning rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etishni dolzarblashtiradi. Huquqiy madaniyat yoshlarning ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy jarayonlardagi barcha voqea-hodisalariga baho berishda hal qiluvchi manba sifatida maydonga chiqadi. Yoshlar huquqiy madaniyatining shakllanishi fuqarolik jamiyatini qaror toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, yoshlar huquqiy madaniyatiga turli-tuman sharoitlarda, alohida makonda har xil ko'rinishlarda amaliy ro'yobga chiqadi. Huquqiy madaniyatni jamiyatda muhim asoslarda takomillashib borishi qonun ustuvorligini mustahkamlashda xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi" [1, 10].

Huquqiy madaniyat aholining qonunchilik bilan bog‘liq jarayonlardagi amaliy tajribasi, huquqiy dunyoqarash, bilim va ko‘nikmalari, xulq-atvori majmui tushuniladi. Shuningdek, u tarkibiy jihatdan huquqiy ong, tasavvur, bilim, qadriyat, baholash, tahlil qilish va amaliy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Huquqiy madaniyat – bu, huquqni tushunish, yuz berayotgan voqea-hodisalarga huquqiy baho bera olish, turli sharoitlarda huquqiy jihatdan to‘g‘ri yo‘l tutishdir. A.Saitkasimovning ta’kidlashicha, “Huquqiy madaniyatning eng muhim jihatlaridan biri bu, qonunlarga amaliy faoliyatda so‘zsiz itoatkorlik, qonunlarga bo‘ysunish, ularga to‘la rioya etish, ular asosida doimiy faoliyat yuritish hisoblanadi. Shuningdek, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini insonning o‘z ongi va dunyoqarashida muttasil va mukammal his etishi, hayotiy amaliyotda ularga amal qilishi ham nihoyada muhim” [2, 52].

Bugungi kunda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ba’zi muammolarni ajratish mumkin bular, aholining huquqiy qarashlarida uchraydigan kamchiliklar tufayli yuzaga keladigan huquqiy nigilizm va axloqiy prinsiplarni inkor etish, huquq ijodkorligining murakkab jarayoni, normativ-huquqiy aktlarning amaliyotda bajarilishida ba’zi nuqtalarda nuqsonlar va boshqalar. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda asosiy maqsad qilib esa fuqarolarni qonunga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ular tomonidan davlat va jamiyatga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlarini bilishlarida belgilanadi. Bu boradagi jarayonlarni takomillashtirish uchun huquqiy targ‘ibot va huquqiy tarbiya mexanizmlarni yanada samarali asoslarda rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aynan huquqiy tarbiya jahon hamda milliy huquqiy madaniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan siyosiy-huquqiy g‘oyalar, normalar va prinsiplarni aks ettiradigan choralar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda huquqiy tarbiya bu alohida shaxslarda va butun jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanishi jarayonidir. Bu jarayon ommaviy axborot vositalari orqali yoki boshqa turli ko‘rinishlarda davlat organlari, mansabdor shaxslar, ta’lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar orqali amalga oshiriladi. Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish kuchli huquqiy ongni taqozo etadi. Ko‘pgina olimlarning fikricha hozirgi kun huquqiy ilmning oldida turgan eng ustuvor maqsadlardan biri bu huquqiy tarbiyadir. Huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat konsepsiyasini ishlab chiqish va shakllantirish jarayoni huquqshunos olimlar, faylasuflar, sotsiologlar, madaniyatshunoslarning birgalikdagi sa’y-harakatlari oqibatida yuzaga keladi.

Huquqiy tarbiya jarayoni huquqiy ta’lim bilan bevosita bog‘liqdir: tarbiyani ta’limsiz tasavvur qilish mumkin emas, o‘z navbatida tarbiya esa oxir oqibat ta’lim beradi. O‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma’rifatparvar shoir, dramaturg, olim Abdulla Avloniyning bu borada aytilgan gaplari asrlar osha o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi: “Avloniyning ta’kidlashicha, agar inson yaxshi tarbiya topib, yomon xulqlardan saqlansa, go‘zal xulqlarga odatlanib, voyaga yetsa, u barchaning hurmati va e’tiboriga sazovor bo‘lgan baxtiyor inson bo‘lib shakllanadi. Agar aksincha bo‘lsa, uning har qanday buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil, yovuz bir odam bo‘lib yetishishiga olib keladi”. [3, 96] Mazkur masalani shartli ravishda ta’sir etish obyektiga ko‘ra belgilash mumkin: tarbiya asosan inson ongining emotsional-irodaviy, qadriyat, dunyoqarash tomoniga ta’sir etsa, o‘qitish esa axborot bilan tanishtirish maqsadida ongning kognitiv-ratsional tomonlariga ta’sirini ko‘rsatadi.

Huquqiy tarbiyaning mazmunini insonlarda davlat va huquq, qonuniylik, shaxs huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirish, huquqiy ta’limotlarning mazmunini anglab yetish va fuqarolarni qonunga itoat etish ruhida tarbiyalash tashkil etadi. Tabiiyki ba’zi

huquqiy qadriyatlar axloqiy me'yorlardan kelib chiqsa-da shaxslarda turli ijtimoiy jarayonlar oqibatida hosil bo'ladi. Biroq huquqiy tarbiyaning maqsadi "har bir insonning ongi va hissiyotlariga huquqiy qadriyatlarni yetkazish bo'yicha maxsus vositalar tizimini yaratish", [4, 188] hisoblanadi. Bunday vositalarga tarbiyalanuvchilarga emotsional, pedagogik ta'sir o'tkazishning turli usullarini kiritish mumkin: ishontirish, ogohlantirish, rag'batlantirish va majburlash. Hozirgi kunda bu usullardan yuridik amaliyotda keng foydalanilmoqda.

Huquqiy madaniyatni oshirishga ko'maklashuvchi faoliyat sifatida huquqiy tarbiyaning asosiy unsurlarini ko'rib chiqsak. Avvalambor, bu tarbiya jarayonini tashkil etishning aniq usullaridir: huquqiy ta'lim, u yoki bu konstitutsiyaviy tadbirlar bilan bog'liq huquqiy ishlar (referendum, saylovlar va h.k.), ommaviy axborot vositalari, badiiy asarlar orqali huquqiy targ'ibotni amalga oshirish.

Huquqiy tarbiya metodlaridan biri huquqiy ma'rifatdir. Huquqiy bilimlarni tarqatish jarayoni jamiyatdagi umumiy huquqiy madaniyatning yuqori saviyada bo'lishiga olib keladi. A.Semitkoning fikricha, "Tarbiyaviy jarayon shaxs individual huquqiy ongini davlat, jamiyatning manfaatlariga xizmat qiladigan umumbashariy yuridik prinsiplar va talablarni yuqori darajada anglab olishi uchun zamin yaratadi". [5, 452] Qonunga, huquqqa nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, fuqarolar tomonidan davlat va jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarini bilishlari va ularga amal qilishlari huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir. Uning asosiy maqsadi esa aholi keng qatlamlari uchun qadriyatdek bo'lgan qonun va huquqqa hurmat ruhida bo'lish, aholi tomonidan yuridik bilim asoslariga ega bo'lish, ijtimoiy va yuridik javobgarlikni tushunib yetishi hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya vositalariga huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot va o'zini o'zi tarbiyalash kiradi. Barcha sanab o'tilgan vositalar qo'llanilishida huquqiy xabardorlikning amalga oshirilishi yotadi. Ta'kidlash joizki jamiyat huquqiy madaniyatining shakllanishida gazeta va jurnallar, teatr taqdimotlari, kino va televideniyening o'rni salmoqlidir. Biroq so'ngi paytlarda ko'pgina ijtimoiy tarmoqlarda inson huquq va manfaatlariga hurmatda bo'lish hissini tarbiyalash masalasini yoritishda bir tomonlama va yuzaki yondashilganligining guvohi bo'lamiz. Afsuski ba'zi ommaviy axborot vositalari material tanlashda uning qanchalik shov-shuvli ekanligiga katta ahamiyat qaratishmoqda.

Haqiqatdan ham gazeta va jurnallardagi kriminal hayot sahnalari, oynaijahon ekranlarida esa boy insonlarning beparvo hayoti fonidagi qotillik va talonchiliklar ko'p aks ettirilishi huquqiy madaniyat darajasi ko'lamiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Hech kimga sir emaski bugungi kunda kino va jurnallar orqali huquqiy madaniyatni targ'ib qilish borasida ko'pgina hollarda chet elning salbiy tajribasini qabul qilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Buning oqibatida nafaqat nosog'lom tendensiyalar ko'payishi, balki yoshlar orasida jinoiy elementlarga taqlid qilish avj olishi yuz berishi kuzatilishi mumkin. Prezidentimizning ta'kidlashicha, "Asosiy masala qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga va mas'ul ijrochilarga o'z vaqtida yetkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iboratdir". [6, 9]

Xulosa sifatida quyidagi qoidalarni belgilash mumkin:

- huquqiy madaniyat – har bir insonning jamiyat oldidagi burchidir, mazkur burchni ado etish orqali eski qarashlar, deviant xulq-atvor hamda shaxs huquq va manfaatlarining poymol bo'lishiga barham beriladi;

- shaxs va jamiyatning ilmiy asoslantirilgan tasavvurlari qonunchilik va huquq tartibotni mustahkamlashning old shartlaridir, busiz esa fuqarolik jamiyati hamda huquqiy davlatni barpo etish mumkin emas;

- huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy maqsadlaridan esa qonun va huquqqa nisbatan hurmat ruhini tarbiyalash, fuqarolarning davlat va jamiyat oldidagi huquq va burchlarini anglab yetishlarini takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017. –B. 10.
2. Saitkasimov A. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim omili. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. №2, 2021-y. –B. 52.
3. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. - Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. - 96 б.
4. Назаренко, Г. В. Теория государства и права. /Уучебное пособие. 4-е изд. -Москва : ФЛИНТА, 2015. -С. 188.
5. Семитко, А.П. Теория государства и права. – М., Юридическая литература, 1997., -С. 452.
6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент, Ўзбекистон, 2017. –Б. 9.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE IMPACT OF THE DIGITAL WORLD ON THE CONSCIOUSNESS OF YOUTH

Ahmadjonov Tolqinbek Akramjon oglu
Teacher of the Department of "Social Sciences" of the State Pedagogical University
E-mail: tolqinbekahmadjonov3@gmail.com

Abstract. This article analyzes the impact of digital technologies and information space on the consciousness of young people from a socio-philosophical perspective. The positive and negative aspects of the digital environment, in particular, its impact on the thinking, value system, moral views and social behavior of young people, are studied. The digital world is an important factor in shaping the consciousness of young people, and if its influence is left unchecked, it can lead to spiritual alienation, information dependence and identity crisis. At the same time, the digital environment, if properly directed, has the potential to increase the intellectual potential and social activity of young people.

Keywords: digital society, youth consciousness, information space, social networks, digital culture, spirituality.

RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI

Ahmadjonov To‘lqinbek Akramjon o‘g‘li
ADPI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar va axborot makonining yoshlar ongiga ko‘rsatayotgan ta’siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli muhitning ijobiy va salbiy jihatlari, xususan, yoshlarning tafakkuri, qadriyatlar tizimi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvoriga ta’siri o‘rganiladi. Raqamli olam yoshlar ongini shakllantirishda muhim omil bo‘lib, uning ta’siri nazoratsiz qolsa, ma’naviy begonalashuv, axborotga qaramlik va identifikatsiya inqiroziga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli muhit to‘g‘ri yo‘naltirilsa, yoshlarning intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini oshirish imkoniyatiga ega.

Kalit so‘zlar: raqamli jamiyat, yoshlar ongi, axborot makoni, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli madaniyat, ma’naviyat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N21

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, yoshlar ongiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt va mobil texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Yoshlar hayotida raqamli olam nafaqat axborot manbai, balki ijtimoiylashuv, o‘zini namoyon etish va dunyoqarashni shakllantirish vositasiga aylandi. Zamonaviy yoshlar “raqamli avlod” sifatida tavsiflanib, ularning ongi avvalgi avlodlarga nisbatan mutlaqo yangi sharoitda shakllanmoqda. Bu holat, bir tomondan, bilim olish va muloqot imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ong manipulyatsiyasi, soxta qadriyatlar va axborot xurujlari xavfini kuchaytirmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot jarayonida xorijiy va mahalliy olimlarning raqamli texnologiyalar, internet muhitining yoshlar ruhiyati, ijtimoiy holatiga va ongiga ta’siri bo‘yicha olib borgan ilmiy ishlari tahlil qilindi. Jumladan, N.Carr, M.Castells,

D.Tapscott, S.Turkle D.Boyd, K.Young kabi xorijiy olimlar bilan bir qatorda O‘zbekiston olimlari N.Jo‘rayev, M.Quronov, O.Musurmonova, A.Raxmonov, S.Berdikulova, S.Zayniyeva va S.Xolmatovning axborotlashuv, yoshlar tarbiyasi va ma’naviy xavfsizlik masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlari o‘rganildi. Adabiyotlar tahlili orqali muammoning nazariy asoslari yoritildi va ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilindi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda tahlil va sintez – raqamli olam va yoshlar ongiga oid nazariy qarashlarni umumlashtirishda;

Qiyosiy tahlil – an’anaviy va raqamli ijtimoiylashuv modellarini solishtirishda;

Falsafiy-refleksiv yondashuv – raqamli muhitning ongiy jarayonlarga ta’sirini tushuntirishda;

Manbalar tahlili – xorijiy va O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma’lumotlarni o‘rganishda.

Empirik ma’lumotlar ochiq statistik manbalar va sotsiologik tadqiqotlar natijalariga tayanilgan holda sharhlanadi.

Tadqiqot natijalari. Dunyo mamlakatlari qatorida bugun O‘zbekistonda ham internet tarmog‘idan foydalanish yuqori sur’atlar bilan oshib bormoqda. 2025-yilning yanvar – avgust oylarida O‘zbekiston aholisi orasida internetdan foydalanuvchilar ulushi 94,2 foizga yetdi. 2021-yilda bu ko‘rsatkich 76,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 83,9 foizga, 2023-yilda 89 foizga, 2024-yilda esa 93,3 foizga yetgan edi.[1]

Internet tarmog‘ining mavjudligi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoning globallashuvini namoyon etish bilan birga yoshlaning tafakkur va idrok jarayonlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. N.Carr “Tarmoq” (Net), aftidan, diqqatimni jamlash va mulohaza yuritish qobiliyatimni yo‘qqa chiqarmoqda. Internetda bo‘lsam ham, bo‘lmasam ham, miyam endi ma’lumotni tarmoq tarqatgani kabi qabul qilishni kutmoqda[2], degan fikrni aytgan edi. Haqiqatdan ham bugungi yoshlarimizning ko‘pchiligi o‘z fikr va mulohazalarini asoslashda aniq manbalarga tayanish o‘rniga internet tarmog‘idagi ma’lumotlarga ishonishayotganligi guvohi bo‘lmoqdamiz. Bu holat o‘qish va tahliliy mushohada jarayonlarida yuzaki yondashuvni kuchaytiradi.

Internetsiz muhitda tafakkur sekin, mantiqiy va tizimli shaklda rivojlanadi. Inson axborotni tez almashuvchi fragmentlar sifatida emas, balki mantiqiy zanjir ko‘rinishida qabul qiladi. Haqiqiy bilim shoshqaloqlikdan emas, balki mushohada va tafakkur barqarorligidan kelib chiqadi. Muammoni bartaraf etishda bugungi yoshlarimiz osonlik bilan tarmoqdagi sun’iy intellektlardan foydalanishmoqda. Aslida esa murakkab g‘oyalarni uzoq vaqt fikran tahlil qilish, xulosani tayyor axborotdan emas, mustaqil fikrlashdan hamda aniq manbalarga tayangan holda chiqarish kerak.

Inson idrok qilar ekan internetsiz idrok jarayoni yaxlit va chuqur bo‘ladi. Voqelikni parchalangan “postlar” yoki “lavhalar” orqali emas, balki butun kontekstda idrok etadi. Psixologiyada bu holat chuqur idrok sifatida izohlanadi. Masalan, kitob mutolaasi jarayonida diqqat bir nuqtaga jamlanadi, tasavvur faol ishlaydi, semantik (ma’noga asoslangan) xotira mustahkamlanadi.

Internetsiz tafakkurda xotira passiv ombor emas, balki faol bilish vositasi sifatida ishlaydi. Axborot tashqi qurilmaga emas, ongning o‘ziga yuklanadi. Bu fikr bugungi raqamli davrda yanada dolzarb. Internetsiz sharoitda inson eslab qolishga majbur bo‘ladi, tafakkur

mustaqil faoliyat yuritadi, bilim shaxsiy tajribaga aylanadi. A.Erkayevning ta’kidlashicha, mustaqil tafakkur shaxsning voqelikka faol va tanqidiy munosabati orqali namoyon bo‘ladi. [3]

Internetsiz tafakkur izchil, chuqur va refleksiv xarakterga ega bo‘lib, u insonning mustaqil fikrlashi, axloqiy mas’uliyati va intellektual yetukligini ta’minlaydi. Raqamli muhit esa tafakkurni tezkor va fragmentar shaklga yo‘naltirib, chuqur mushohada imkoniyatlarini qisqartiradi. Shu sababli zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, “internetsiz tafakkur makoni”ni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qozog‘istonda olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar orasida axborot manbalari ichida Internet resurslari asosiy o‘rin tutadi: 248 nafar ishtirokchidan 173 nafari (taxminan 70 %) zarur axborotni asosan Internet orqali olishini ma’lum qilgan [4]. Markaziy Osiyo mintaqasi mentalitetining deyarli o‘xshash ekanligini inobatga olsak, demak O‘zbekiston yoshlarida ham shu kabi holat bo‘lishi mumkin. S.Xolmatovning fikricha, bu holat yoshlar ongida tezkor, lekin yuzaki axborotni qabul qilish tendensiyasini kuchaytirmoqda [5].

Raqamli axborot muhitining asosiy xususiyatlaridan biri uning tezkorligi va uzluksizligi hisoblanar ekan, ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar lentalari va qisqa video formatlari yoshlarni axborotni qisqa vaqt ichida, katta hajmda qabul qilishga undaydi. Natijada yoshlar ongida tezkor, biroq yuzaki axborotni qabul qilish tendensiyasi shakllanmoqda. Bu holatda axborotning mazmuniy chuqurligidan ko‘ra, uning sarlavhasi, vizual ta’siri yoki qisqa xulosasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayon psixologiyada “fragmentar idrok” (biror narsa yoki hodisani to‘liq, yaxlit holda emas, balki uning alohida qismlari, sifatlari yoki detallarini ajratgan holda idrok etish, ya’ni butunlik o‘rniga parchalar (fragmentlar) ko‘rinishida qabul qilish tushuniladi) yoki “klip tafakkuri” (bu ma’lumotni chuqur tahlil qilmasdan, qisqa, tezkor va ajratilgan shaklda qabul qilishga qaratilgan tafakkur shakli bo‘lib, internet va raqamli texnologiyalar davrida keng tarqalgan, bunda diqqat qisqa vaqtga jamlanadi va kontekstdan uzilgan holda turli xil ma’lumotlar (klipga o‘xshash) o‘zlashtiriladi) tushunchalari bilan izohlanadi. Bu kabi tushunchalarga tayanadigan yoshlarimizni bugun biz “Zet” avlod vakillari deya izohlamoqdamiz.

Xo‘sh “Zet” avlod kimlar? ““Zet” avlod uchun dunyo internet tarmog‘i va gadjetlar biror vazifani hal etish vositasigina emas, shaxsiy munosabatlar o‘rnatiladigan, nom chiqaradigan, obro‘-e’tibor shakllanadigan, o‘yin o‘ynab chalg‘iydigan, son-sanoqsiz videoroliklarni tomosha qilib vaqt o‘tkazadigan va boshqa yaxshi-yomon ko‘plab hokazo-hokazolarni uchratish mumkin bo‘lgan bir makon. Go‘yo hayot yon-atrofda emas, shu quticha (kompyuter, gadjetlar)dagi ovoz va tasvirlar jamlanmasi. Eng yomoni, ma’lumot va axborotlarga yondashuv noto‘g‘ri, ularni tanlash, tahlil qilish, tanqidiy yondashuv yo‘q darajada.” [6]

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bugungi dunyo yoshlari o‘zlarining mustaqil fikriga to‘liq ega emasliklari natijasida, ijtimoiy tarmoqlardagi asoslanmagan ma’lumotlarga yoki yondashuvlarga ergashib ketish ehtimoli juda baland. Shu bilan birga internetga qaramlik nafaqat to‘g‘ri xulosaga kelish, balki turli xil ruhiy muammolarni ham keltirib chiqaradi.

AQSHdagi Pitsburg universiteti professori, psixolog hamda internetga qaramlik markazi asoschisi Kimberli Su Yang tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 40 foizdan ortiq yoshlar internetga psixologik qaramlik alomatlarini namoyon etmoqda [7].

O‘zbekiston sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha bog‘lanish psixologik va ijtimoiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet qaramligi natijasida yoshlar diqqatning pasayishi, hissiy beqarorlik, real hayotdagi ijtimoiy muloqotning sustlashuvi va o‘zini ijtimoiy hayotda noqulay his qilish kabi holatlarni boshdan kechirmoqda. A.Raxmonov buni yoshlar ijtimoiylashuv jarayonidagi muhim muammo sifatida baholaydi [8].

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazadigan yoshlar real hayotdagi yuzma-yuz muloqot ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Misol uchun talaba do‘stlari bilan kafeda yoki guruh mashg‘ulotlarida muloqot qilayotganda, ko‘p vaqtini Telegram va Instagramda o‘tkazganligi sababli suhbatni davom ettira olmaydi, mavzuni to‘g‘ri izohlay olmaydi va asabiylashadi. Yoki yangi ish boshlagan xodim ofisdagi yig‘ilishda fikrini erkin bayon qila olmaydi, ko‘p gapiradigan hamkasblar bilan yuzma-yuz muloqot qilishga qo‘rqadi.

Bundan tashqari bugungi kunda ommalashgan yana bir holat shuki, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongida o‘zini boshqalar bilan solishtirishni kuchaygan. Bu ko‘pincha o‘z-o‘zini qadrsizlantirishga olib keladi, chunki foydalanuvchi faqat boshqalarning muvaffaqiyatlarini, ko‘rinishlarini va hayotdagi “ideal” holatlarini ko‘radi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda doimiy ravishda boshqalarning mukammal suratlari, sayohatlari yoki muvaffaqiyatlarini ko‘rib, o‘zini ular bilan solishtiradi va o‘zining qobiliyatlari, tashqi ko‘rinishi yoki hayotiy yutuqlarini yetarli deb his qilmaydi. Shuningdek, “like” va izohlar orqali o‘z qadrini baholashga moyil bo‘ladi. Agar post ko‘p layk olmasa, bu ularni ruhiy jihatdan tushkunlikka soladi va o‘z-o‘zini qadrsizlantirishga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirini quyidagilarda deb aytish mumkin:

- O‘z fikriga ega bo‘lmaslik;
- Ruhiy beqarorlik;
- Ko‘r-ko‘rona ishonish;
- Yuza-yuz muloqot ko‘nikmasining susayishi;
- Ijtimoiy solishtirish va o‘z-o‘zini qadrsizlantirish;
- Vaqtni behuda sarflash.

Internetning nafaqat salbiy balki ijobiy tarafini ham muhokama qilish shart. Raqamli olam orqali yoshlar o‘zini ifoda etish, bilim olish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo‘lishi mumkin. “Internet tizimi yoshlar hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning ma’naviy tarbiyasi, bilim olish va o‘zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytiradi.” [9]

Bilim olish va intellektual rivojlanish. Internet va raqamli resurslar yoshlar uchun cheksiz bilim manbai sifatida xizmat qiladi. Masalan, ilmiy maqolalar, elektron kitoblar, onlayn kurslar va videodarsliklar yordamida talabalar va o‘quvchilar o‘z qiziqishlariga mos fanlarni chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, tanqidiy fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Internet platformalarida mavjud bo‘lgan bepul ta’lim resurslari yoshlar tomonidan masofaviy o‘rganish jarayonida keng foydalaniladi. Shu tariqa, ular mustaqil bilim olishga o‘rgangan holda tadqiqot ishlarini bajarish qobiliyatini oshiradi.

O‘zini ifoda etish va ijodiy faoliyat. Raqamli platformalar yoshlar uchun o‘z fikrini va ijodiy ishlarini namoyish qilish imkoniyatini beradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning san’at, yozuv, musiqa yoki dizayn sohasidagi ijodiy salohiyatini kengaytiradi. Misol uchun, biror

yosh rassom o‘z ishlarini tarmoqda namoyish qilib, professional hamkorlik va tanqidiy fikrlarni olish imkoniga ega bo‘ladi. Shu tariqa, yosh ijodkorlar o‘z ishlarini rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlar orqali tajriba almashish va real dunyoda o‘zini tasdiqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘i sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, onlayn forumlar, guruhlar va chatlar orqali yoshlar bir-biri bilan fikr almashadi, muammolarini muhokama qiladi va ijtimoiy yordam oladi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy izolyatsiya yoki real hayotdagi cheklangan muloqot muhitida muhim ahamiyatga ega. Onlayn guruhlari orqali yoshlar bir-birining ishini baholab, maslahatlar oladi va birgalikda loyihalarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, ruhiy qo‘llab-quvvatlash va motivatsiyani oshiradi.

Ijtimoiy va global aloqalarni rivojlantirish. Internet yoshlar uchun global tarmoq bilan bog‘lanish imkoniyatini yaratadi. Ular turli madaniyatlar, tillar va fanlar bilan tanishadi, bu esa ijtimoiy tafakkur va madaniy ongni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha onlayn platformalar yoshlarni chet ellik tengdoshlar bilan muloqot qilishga, birgalikda ilmiy loyihalar qilishga undaydi.

“Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ta’lim, kommunikatsiya, ijtimoiy faollik va jamiyat bilan bog‘lanish imkoniyatlarini oshiruvchi vosita” [10] hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tarafi:

- Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ruhiy yordam;
- O‘zini ifoda etish va shaxsiy rivojlanish;
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali ta’lim olish;
- Yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi ijtimoiy maydon.

Xulosa qilib aytganda, raqamli olam yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu ta’sirni ijobiy yo‘nalishga burish uchun ta’lim tizimi, oila va jamiyat hamkorlikda harakat qilishi lozim. Yoshlarni tanqidiy fikrlashga, axborotni saralashga va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanishga o‘rgatish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://uz.kursiv.media/uz/2025-09-30/ozbekistonda-internetdan-foydalanuvchilar-soni-94-foizdan-oshdi/
2. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – New York: Norton, 2010.
3. Erkayev A. Ma’naviyat va tafakkur. – T.: Ma’naviyat, 2004.
4. Yessenbekova U.M., Aldabergenova Z.Z., Mamankul A.A., Rakhymbayev N., & Kutym B. (2025). The Impact of the Digital Format on Kazakh Youth’s Information Consumption and Reading Culture. Publishing Research Quarterly, 41, 113–131. https://doi.org/10.1007/s12109-024-10012-6
5. Xolmatov S. Internet muhitida yoshlar ijtimoiylashuvi masalalari. – Toshkent, 2022.
6. https://yuz.uz/uz/news/zummerlar-internet--bu-hayot-yoxud-klip-fikrlash-shakliga-qobiqlanayotgan-avlod
7. Young K. Internet Addiction. Wiley, 2011.
8. https://ru.scribd.com/document/74854320/Internet-Addiction
9. Raxmonov A. Raqamli madaniyat va ta’lim tizimi integratsiyasi. // “Pedagogik ta’lim” jurnali, 2021.
10. Berdikulova, S.A. & Karimov, O.M. (2023). Influence of the Internet system on youth spiritual education. Uzbek Scholar Journal, 20, 24-26. https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/view/706

11. Zayniyeva, S.S.Q. (2024). The role of social media in the lives of young people in Uzbekistan. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNYE IDEI V MIRE, 58(8), 9-11. https://scientific-jl.org/obr/article/view/4654

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF DIGITAL CULTURE AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT

Sodiqov Islambek Otabek oglu
doctoral student of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract. This article examines the concept of digital culture, its essence and content, as well as its role and significance in the life of individuals and society. The main content, structural components, and stages of development of digital culture formed as a result of the rapid advancement of digital technologies are analyzed. In addition, the article describes the processes from the era of computerization through internetization and social networks to the period of digital transformation. The results of this study contribute to increasing digital literacy, shaping responsible behavior in the virtual environment, and defining the role of digital culture in society.

Keywords: digital culture, social networks, technological processes, mobile devices, digital communication, media literacy.

RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sodiqov Islombek Otabek o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli madaniyat tushunchasi, uning mazmun mohiyati, shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida shakllangan raqamli madaniyatning asosiy mazmuni, tarkibiy jihatlari hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada kompyuterlashtirish davridan boshlab internetlashuv, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli transformatsiya davrigacha bo‘lgan jarayonlar bayon etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari raqamli savodxonlikni oshirish va virtual muhitda mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirishga hamda uning jamiyatdagi o‘rnini belgilab berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar, texnologik jarayonlar, mobil qurilmalar, raqamli muloqot, media savodxonlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N22

Hozirgi jamiyatda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Natijada jamiyatda yangi madaniy muhit raqamli madaniyat shakllanmoqda. Raqamli madaniyat shaxsning raqamli texnologiyalar bilan ishlash jarayonida nafaqat texnik bilimga, balki axborotdan foydalanish, ongli muloqot va bu jarayonda axloqiy va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish jarayonidir.

Raqamli madaniyat paydo bo‘lgandan beri quyidagi rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga olgan:

Boshlang‘ich bosqich (kompyuterlashtirish davri)

Bu davrda shaxsiy kompyuterlar va dastlabki axborot tizimlari paydo bo‘ldi. Asosiy e’tibor texnik qurilmalarni o‘zlashtirish va ulardan oddiy maqsadlarda foydalanishga qaratildi. Raqamli madaniyat hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, faqat texnologiyadan foydalanish darajasi bilan cheklangan davr hisoblanadi. Bu davr XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa 1970–1990-

yillar oralig‘ida boshlanib, axborotni qayta ishlash jarayonlariga elektron hisoblash mashinalarining joriy etilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda shaxsiy kompyuterlar mavjud bo‘lmagan, faqatgina tashkilotlar hamda ilmiy markazlar, davlat muassasasida kompyuterlar bo‘lganligi bilan alohida e’tiborga molikdir. Kompyuterlashtirish davrining asosiy xususiyati texnologiyalarning jamiyat hayotiga asta-sekin kirib kelishi bo‘lib, undan foydalanish ko‘proq o‘z ishining mutaxassislari doirasi bilan cheklangan edi. Birinchi avlod kompyuterlari katta hajmli, murakkab va qimmat bo‘lib, ular asosan hisob-kitob, statistik tahlil maqsadida ishlatilgan. Shaxsiy kompyuterlarning paydo bo‘lishi esa bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi, yuqorida tilga olingan vazifalarni fuqarolarni o‘zi amalga oshiradigan bo‘ldi va bu hodisa jamiyat uchun muhim bir yuksalish bo‘ldi.

Mazkur davrda raqamli madaniyat hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, uning dastlabki elementlari vujudga kela boshladi. Jumladan, kompyuter savodxonligi tushunchasi paydo bo‘lib, insonlarda texnik qurilmalar bilan ishlash, oddiy dasturlarni o‘zlashtirish va elektron axborotni qayta ishlashga ehtiyoj yuzaga keldi [1, 197-204]. O‘rganilgan ilmiy manbalar va tajribalar asosida aytish mumkinki, ta’lim tizimida informatika fanining joriy etilishi ham aynan shu bosqich bilan bog‘liqdir. Shuningdek, kompyuterlashtirish davrida axborotga bo‘lgan munosabat o‘zgara boshladi. Axborot qog‘oz shaklidan elektron shaklga o‘ta boshladi, bu esa ma’lumotlarni saqlab qolish, muhim vaziyatlarda undan foydalanish va qayta ishlash jarayonlarini tezlashtirdi. Ammo har bir davrning o‘z kamchiligi bo‘lgani kabi, bu davrda hali axborot xavfsizligi, internetdan foydalanish savodxonligi va madaniyati, etikasi va raqamli huquqlar, majburiyatlar kabi masalalar dolzarb bo‘lmagan.

Internetlashuv bosqichi

Internetning ommalashuvi bilan axborot almashinuvi tezlashdi. Elektron pochta, veb-saytlar va onlayn muloqot vositalari hayotimizga kirib keldi. Ushbu bosqichda raqamli madaniyat axborotni izlash, saralash va undan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ldi. Ushbu bosqich asosan XX asr oxiri va XXI asr boshlariga to‘g‘ri kelib, jamiyat hayotining bir qancha turli sohalarida axborot almashinuvi jarayonlarini tubdan o‘zgartirdi. Internet insonlar o‘rtasidagi muloqot, bilim olish, axborot olish, saqlash, tarqatish va xizmatlardan foydalanish usullarini yangicha shaklga olib chiqdi. Mashhur sotsiolog Manuel Kastels ta’kidlashicha, internetlashuv bosqichida axborot tarmoqlari jamiyatning asosiy tuzilmasiga aylanib, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirdi [2, -B.469].

Bu davrda internet global axborot makoni sifatida shakllandi. Veb-saytlar, qidiruv tizimlari, elektron pochta va forumlar paydo bo‘lib, foydalanuvchilarga cheksiz axborot manbalaridan foydalanish imkonini berdi. Buning natijasida axborotni tezkor izlash, olish va tarqatish kundalik ehtiyojga aylandi. Bizningcha, raqamli madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan **raqamli savodxonlik** tushunchasi ham ayni shu davrda shakllandi. Foydalanuvchilar internetdan samarali foydalanish, ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlash, elektron muloqot qoidalariga rioya qilishni o‘rganishga majbur bo‘ldilar. Ta’lim tizimida masofaviy ta’lim elementlari, masofaviy darslar, elektron kutubxonalar, onlayn hukumat saytlari va resurslar keng joriy etildi. Bu bosqichda axborot xavfsizligi masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, kompyuter viruslari, spam xabarlar va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolar yuzaga keldi. Bu esa, internetdan foydalanishda mas’uliyatli yondashuv va huquqiy me’yorlarga rioya qilish zaruratini paydo bo‘ldi. Statistik

ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda internet global tarmog‘idan milliardlab inson foydalanmoqda. Bu esa dunyo aholisining katta ko‘pchiligini tashkil qiladi. Umuman olganda internetlashuv bosqichi raqamli madaniyatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu davr insonlarning axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirib, keyingi bosqichlar — ijtimoiy tarmoqlar va raqamli transformatsiya davri uchun mustahkam zamin yaratdi.

Ijtimoiy tarmoqlar va mobil texnologiyalar bosqichi

Insoniyat kishilik jamiyatining pog‘onama-pog‘ona rivojlangani kabi, internet ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish har doimgidanda muhim bosqichga chiqdi. Kishilar asosan vaqtini internet hamda mobil texnologiyalardan foydalanish bilan o‘tkaza boshladi. Smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida raqamli madaniyat kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Bu davrda virtual muloqot madaniyati, onlayn shaxsiy imiji, axborot tarqatish mas’uliyati kabi masalalar dolzarb bo‘lib qoldi. Bu davr XXI asrning birinchi o‘n yilligidan boshlab jadal rivojlandi va shaxsiy qurilmalar hamda ijtimoiy media platformalarining keng tarqalishi bilan alohida ajralib turadi. Bu davrda raqamli axborot jamiyati tashkil qilinib, xalqaro aloqalar va shaxs dunyoqarashi birmuncha rivojlandi. Xususan, M. Castells o‘z kitobida, “Ijtimoiy tarmoqlar va mobil texnologiyalar rivojlanishi jamiyatni raqamli axborot almashinuvi va global kommunikatsiya tarmog‘iga birlashtirib, xalqaro aloqalar, madaniy o‘zaro ta’sir va yangi raqamli madaniyat shakllanishiga erishdi”, deya ta’kidlaydi [3].

Ijtimoiy tarmoqlar ommalashuvi ham bu davrning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Aynan Facebook, Twitter, Instagram, Telegram kabi ijtimoiy platformalar foydalanuvchilarga muloqot qilish, ma’lumotlar almashish imkonini berdi. Bundan tashqari, onlayn hamjamiyatlar shakllanishi va virtual guruhlar faoliyatida ham muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Mobil texnologiyalar rivoji (smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalar axborotga kirishni yanada qulayroq qildi). Mobil internetning keng yoyilishi undan foydalanuvchilarining orasida axborot olish, tarqatish va xavfsizligini ta’minladi va vazifalarini osonlashtirdi. Ya’ni istalgan vaqtda, istalgan joyda axborot olishi, muloqot qilishi va xizmatlardan foydalanishi mumkin bo‘ldi. Shaxsni ham identifikatsiyadan o‘tkazish jarayoni ham ayni shu davrda sodir etildi.

Raqamli madaniyatning yangi jihatlari. Bu davrda raqamli madaniyat shunchaki texnologiyadan foydalanish emas, balki, virtual muloqot madaniyati, onlayn etikaga rioya qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamli madaniyatdan brend yaratish kabi shaxsiy daromad olish kabi jihatlari ham o‘rtaga chiqdi. Onlayn tanqidiy fikrlash malaka va ko‘nikmalari ham ushbu davrda ahamiyatli bo‘lib qoldi.

Raqamli transformatsiya bosqichi.

Mazkur bosqich sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va raqamli iqtisodiyot bilan tavsiflanadi. Raqamli madaniyat endi professional faoliyat, ta’lim, davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu davr XXI asrning o‘rta yillaridan boshlab rivojlandi va raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Bu faqatgina shaxslar manfaati uchungina emas balki, jamiyat taraqqiyoti uchun ham ahamiyatli voqea bo‘ldi.

Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data)**.** Raqamli transformatsiya davrida sun’iy intellekt, ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari va katta ma’lumotlar tizimlari rivojlandi. Ular

iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash va davlat boshqaruvida samarali qarorlar qabul qilish imkonini yaratdi. Xususan, davlat boshqaruvi faoliyatini tashkil etish, boshqarish yo‘llari yanada osonlashdi. Avvallari biror ma’lumot olish uchun soatlab navbatda turish yo‘q, hamma ma’lumotlar himoyalangan va xavfsizligi ta’minlangan holda bajariladigan bo‘ldi.

Raqamli transformatsiya bu jamiyat va tashkilotlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ish uslublarini o‘zgartirish, yangilash, boshqaruv samaradorligini oshirish va vaqt hamda resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan uzluksiz jarayondir. Oddiy misol bilan aytganda, oldin ta’lim olishning faqatgina oflayn ko‘rinishi bo‘lsa, endilikda onlayn, masofaviy kabi ta’lim olish imkoni mavjud bo‘ldi. Ya’ni shaxs qayerda va qanday holatda bo‘lishidan qat’i-nazar uning uchun ta’lim olish imkoni yaratildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya bosqichi jamiyatni raqamli texnologiyalar bilan chuqur integratsiyalashgan tizimga aylantirdi. Bu davrda texnologiyalar nafaqat ish va ta’lim jarayonlarini osonlashtiradi, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy faoliyatni ham tubdan o‘zgartiradi. Shu sababli, raqamli transformatsiya raqamli madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning eng yuqori darajasi sifatida qaraladi hamda shaxs va jamiyat boshqaruvi uchun ahamiyatga ega. Mazkur jarayonlar yurtimizda ham izchil amalga oshirilib, raqamli madaniyatni shakllantirish va raqamli iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-sonli qarori (Mirziyoyev, 2020) bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatda raqamlashtirish jarayonlarini tizimli tashkil qilishga xizmat qilmoqda. Bu strategiyada yosh avlodni raqamli texnologiyalar bilan qurollantirish, axborot texnologiyalari bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Aynan shu yo‘nalishda yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Masalan, “One Million Uzbek Coders” loyihasi doirasida o‘n minglab yoshlar zamonaviy dasturlash, web-dizayn, mobil ilova yaratish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ldi. Bundan tashqari, Najot Ta’lim, PDP, IT-Parklar kabi markazlar orqali yoshlar IT sohasida bepul yoki imtiyozli ta’lim olishmoqda. Umumta’lim maktablari va texnikumlarda esa informatika va raqamli savodxonlik darslari takomillashtirilmoqda, ayrim maktablarda esa zamonaviy “IT sinf”lar tashkil etildi. “Har bir mahallaga – internet” dasturi orqali chekka hududlardagi yoshlar ham raqamli infratuzilmalardan foydalanish imkoniga ega bo‘lmoqda. Ayniqsa, yangi kutubxonalar, Yoshlar markazlari va IT-inkubatorlarda tezkor internet, zamonaviy texnik vositalar hamda onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyati yoshlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirishga xizmat qilmoqda.

O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, raqamli madaniyat va uning rivojlanish bosqichlari har bir davrda shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Jamiyatning qaysi bir sohasini olmang u siyosiy, ijtimoiy yoki madaniy soha bo‘lsin yuqoridagi bosqichlardan o‘tgan, va bu bosqichlarda har bir davrni rivojlantirib shakllanib boravergan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bowen, J. P. (2016). Alan Turing: Virtuosity and visualisation. In J. P. Bowen, G. Diprose, & N. Lambert (eds.), EVA London 2016 Conference Proceedings, Electronic Workshops in Computing (eWiC), BCS, pages 197-204.
2. Castells M. *The Rise of the Network Society*. — Oxford: Blackwell Publishers, 1996. — P. 469.

3. Castells, M. *The Internet Galaxy: Reflections on the Internet, Business, and Society*. Oxford: Oxford University Press, 2001.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

FACTORS OF FORMATION OF YOUTH'S LEGAL CONSCIOUSNESS IN THE CONDITIONS OF BUILDING A LEGAL DEMOCRATIC SOCIETY

Abdurahimov Ravshanbek Oktam oglu
Tashkent State University of Economics, independent researcher

Abstract. The paper examines the factors shaping youth legal consciousness under conditions of building a legal democratic society by integrating socio-philosophical and pedagogical perspectives. Legal consciousness is conceptualized as the unity of knowledge of rights and duties, value-based acceptance of the rule of law, trust in legal institutions, and actual law-abiding behaviour. Determinants are organized in a multi-level framework (micro: individual–family; meso: education–mahalla/community–peers; macro: legal policy–institutions; digital layer: information environment). The study highlights the risks of legal nihilism and indifference amplified by digital media and argues for a comprehensive model that combines continuous legal education, family upbringing, civil society partnership, and media literacy.

Keywords: legal consciousness, legal democratic society, youth, legal culture, legal education, legal socialization, legal nihilism, media literacy, civil society.

HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI

Abdurahimov Ravshanbek O‘ktam o‘g‘li
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada huquqiy demokratik jamiyat barpo etish sharoitida yoshlar huquqiy ongining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar ijtimoiy-falsafiy va pedagogik yondashuvlar uyg‘unligida tahlil qilinadi. Huquqiy ong yoshlarning huquq va erkinliklari hamda burch va javobgarliklari haqidagi bilimlari, qonun ustuvorligini qadriyat sifatida qabul qilishi, huquqiy institutlarga ishonchi va kundalik hayotdagi huquqiy xulq-atvori birligi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda omillar ko‘p darajali tizim sifatida (mikro: shaxs–oila; mezo: ta’lim muassasasi–mahalla–tengdoshlar; makro: huquqiy siyosat–institutlar; raqamli: axborot makoni) tasniflanadi. Raqamli jamiyat sharoitida huquqiy nigilizm va huquqiy befarqlikning kuchayish xavflari ko‘rsatilib, yoshlar huquqiy ongini yuksaltirish uchun uzluksiz huquqiy ta’lim, oilaviy tarbiya, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi hamda media savodxonlikni birlashtirgan kompleks model asoslanadi.

Kalit so‘zlar: huquqiy ong, huquqiy demokratik jamiyat, yoshlar, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquqiy ijtimoiylashuv, huquqiy nigilizm, media savodxonlik, fuqarolik jamiyati.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N23

Kirish. Huquqiy demokratik jamiyat barpo etishning hal qiluvchi sharti – fuqarolarning, ayniqsa yosh avlodning huquqqa munosabati barqaror ijtimoiy me’yor sifatida qaror topishidir.[1][2][3] Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat va jamiyat hayotida Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq ish yuritish tamoyili mustahkamlangan bo‘lib, bu huquqning “tashqi talab” emas, “umumiy ijtimoiy mezon” ekanini anglatadi. Shu bilan birga, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi huquq ustuvorligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Demak,

yoshlar huquqiy ongini shakllantirish masalasi davlat siyosati, ta’lim-tarbiya va ijtimoiy institutlar samaradorligini bog‘lovchi strategik bo‘g‘in hisoblanadi.

Amaliy kuzatuvlarda normativ-huquqiy baza yangilanib borayotganiga qaramay, ayrim yoshlar orasida huquqiy befarqlik, “qonun faqat jazolaydi” degan stereotip yoki raqamli muhitdagi manipulyativ kontent ta’sirida shakllanadigan huquqiy nigilizm uchrab turishi mumkin. Bunday holat huquqiy ongni faqat bilim (ma’lumot) darajasida emas, balki qadriyat, ishonch va xulq-atvor darajalarida ham rivojlantirishni talab qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi – yoshlar huquqiy ongining mazmuniy tuzilmasini aniqlashtirish, shakllanish omillarini ko‘p darajali model asosida tizimlashtirish va amaliy tavsiyalar paketini ishlab chiqishdir.[9][10]

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan huquqiy ong – shaxsning huquqiy normalar va institutlarni “tashqi majburiyat” sifatida emas, “legitim va adolatli tartib” sifatida qabul qilishi bilan bog‘liq ma’naviy-ijtimoiy hodisadir. Bu yerda ikki tushuncha markaziy o‘rin tutadi: (a) legitimlik – huquqiy tartibning adolatli va oqilona deb qabul qilinishi; (b) ijtimoiy ishonch – institutlarning huquqni bir xil qo‘llashi va fuqaroga xizmat qilishi haqidagi barqaror tasavvur. Pedagogik yondashuv esa huquqiy ongni huquqiy ijtimoiylashuv jarayoni sifatida ko‘radi: yoshlar huquqiy normalarni o‘rganadi, ular bo‘yicha munosabat bildirishni o‘zlashtiradi va amaliy xulq-atvorni shakllantiradi.

O‘zbekistonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish yo‘nalishida tizimli yondashuv 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmonida konseptual darajada belgilangan bo‘lib, unda huquqiy tarbiya maktabgacha ta’limdan boshlab uzluksiz olib borilishi zarurligi ta’kidlanadi. Bu hujjat yondashuvini “tizimlilik” tamoyili bilan kuchaytiradi: shaxs–oila–mahalla–ta’lim muassasasi–tashkilot–jamiyat zanjiri bo‘yicha hamkorliksiz huquqiy ongni barqaror yuksaltirish qiyin.

Metodologiya. Maqolada konseptual-analitik yondashuv qo‘llanildi: “huquqiy ong” tushunchasi tarkibiy komponentlar va amaliy indikatorlar orqali aniqlashtirildi, omillar esa ko‘p darajali (mikro–mezo–makro–raqamli) tasnif asosida tizimlashtirildi. Shuningdek, O‘zbekistonning tegishli normativ-huquqiy va strategik hujjatlari mazmuniy tahlil qilinib, ta’lim-tarbiya hamda ijtimoiy hamkorlik amaliyotiga tatbiq etiladigan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Huquqiy ongning tarkibi va indikatorlari

Yoshlar huquqiy ongini to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent birligi sifatida tavsiflash maqsadga muvofiq:

1. kognitiv komponent: Konstitutsiya, asosiy huquq va erkinliklar, burch va javobgarlik, huquqiy muassasalar, murojaat va himoya mexanizmlari haqidagi bilimlar;

2. aksiologik komponent: qonun ustuvorligi, adolat, halollik, inson sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat kabi qadriyatlarni ichki me’yor sifatida qabul qilish;

3. emotsional-psixologik komponent: huquqiy institutlarga ishonch, daxldorlik hissi, nizoni qonuniy yo‘l bilan hal qilishga tayyorgarlik;

4. xulqiy-amaliy komponent: huquqiy bilim va qadriyatlarning real xatti-harakatda namoyon bo‘lishi (qonunga ixtiyoriy rioya, huquqbuzarlikdan tiyilish, huquqiy yordamga murojaat qilish, jamoat jarayonlarida ishtirok).

Amaliy jihatdan huquqiy ongni baholashda “biladi-bilmaydi” mezoni bilan bir qatorda “qabul qiladi-qabul qilmaydi”, “ishonadi-ishonmaydi” va “amal qiladi-amal qilmaydi”

indikatorlari ham qo‘llanishi lozim. Aks holda, formal bilim mavjud bo‘lsa-da, qadriyat va ishonch shakllanmagani sababli xulqiy natija barqarorlashmaydi.

Huquqiy ongning shakllanishi ijtimoiy muhitning turli darajalarida ro‘y beradi. Quyidagi jadval omillar, ta’sir mexanizmi va kutiladigan natijani jamlaydi.

Daraja	Asosiy omillar	Ta’sir mexanizmi	Kutiladigan natija
Mikro	shaxsiy qadriyatlar, mas’uliyat, o‘zini nazorat qilish; oiladagi huquqiy muhit	taqlid, kundalik odatlar, adolatli muomala	qonunga hurmat, burchni anglash, huquqiy himoya ko‘nikmasi
Mezo	maktab/OTM, mahalla, tengdoshlar, yoshlar tashkilotlari	muhokama, keys va debatlar, ijtimoiy loyiha, tajriba	huquqiy faollik, ijtimoiy mas’uliyat, nizoni qonuniy hal qilish
Makro	huquqiy siyosat, qonunlarning aniqligi va adolatli qo‘llanishi, institutlar ochiqligi	legitimlik va ishonch, “qonun ishlaydi” tajribasi	institutlarga ishonch, huquqbuzarlik riskining pasayishi
Raqamli	ijtimoiy tarmoqlar, ochiq axborot, onlayn xizmatlar; feyk va manipulyatsiya	tez tarqalish, ijtimoiy bosim, media savodxonlik	savodxonlik oshishi yoki nigilizm kuchayishi

Oila huquqiy ijtimoiylashuvning birlamchi makoni bo‘lib, unda “qonun” abstrakt tushuncha emas, amaliy xulq me’yori sifatida ko‘rinadi. Ota-onaning qonunlarga munosabati, muammolarni hal etish uslubi (kelishuv, muloqot, mas’uliyatli qaror), “ruxsat–taqiqlash” madaniyati yosh ongida huquqqa nisbatan barqaror tasavvurni shakllantiradi. Oilada qonunni “chetlab o‘tish”ni oqlovchi diskurs kuchli bo‘lsa, huquqiy nigilizmga moyillik ortadi; aksincha, adolat va kelishuv madaniyati ustuvor bo‘lsa, fuqarolik mas’uliyati mustahkamlanadi.

Shaxsiy qadriyatlar qatlamida vijdon, empatiya, adolat hissi, agressiyani nazorat qila olish, kelajakni rejalash (strategik fikrlash) kabi psixologik omillar muhim. Shu sabab huquqiy tarbiya faqat normativ bilim berish bilan cheklanmay, axloqiy-psixologik ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan birga olib borilgandagina samarali bo‘ladi.

Ta’lim tizimi huquqiy ongni chuqurlashtiruvchi muhim institutsional maydondir. Bu yerda uch yo‘nalish ayniqsa samarali: amaliy vaziyatlar asosida o‘qitish: real hayotga yaqin keyslar, muammoli vaziyatlar, huquqiy dilemmani muhokama qilish; tajriba orqali o‘rgatish: murojaat yozish, mediatsiya ko‘nikmalari, simulyatsion sud (moot court), huquqiy klinika ishlari; hamkorlikdagi ijtimoiy loyiha: mahalla va NNTlar bilan hamkorlikda huquqiy targ‘ibot, jamoat monitoringi, volontyorlik.

Mahalla va jamoatchilik instituti yoshlar uchun “fuqarolik tajribasi laboratoriyasi” bo‘lib xizmat qiladi: real muammolarni muhokama qilish, yordam mexanizmlarini bilish, kelishuvga kelish, jamoat tartibida ishtirok etish kabi tajribalar huquqiy ongni amaliy xulqqa aylantiradi.

Huquqiy ongning barqarorlashuvida “qonun ishlashi” tajribasi hal qiluvchi o‘ringa ega. Qonunlar tushunarli, amaliyotda adolatli va bir xil qo‘llansa, yoshlarda huquq legitim tartib sifatida mustahkamlanadi. Aksincha, selektiv qo‘llash, rasmiyatchilik yoki adolatsizlik taassuroti huquqiy befarqlik va nigilizmni kuchaytirishi mumkin. Shu bois davlat organlarining ochiqligi, fuqarolar bilan muloqot madaniyati, murojaatlarning tezkor va shaffof ko‘rib

chiqilishi, profilaktika va huquqni tiklashga yo‘naltirilgan amaliyot yoshlar ongida huquqqa nisbatan ishonchni kuchaytiradi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini rivojlantirish bo‘yicha konseptual hujjatlarda ham yoshlarning huquqiy kafolatlari, ijtimoiy faolligi va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Bu esa huquqiy ongni “faqat nazorat” emas, “imkoniyat va himoya” sifatida idrok etish uchun normativ-asosiy zamin yaratadi.

Raqamli muhit huquqiy savodxonlik uchun yangi imkoniyatlar beradi: onlayn xizmatlar, ochiq ma’lumotlar, qisqa video va infografika formatlari, savol-javob efirlari yoshlar auditoriyasiga mos kommunikatsiya vositalaridir. Biroq feyk xabarlar, manipulyativ narrativlar, huquqbuzarlikni “qahramonlashtirish” kontenti, “hech narsa o‘zgarmaydi” kabi fatalistik tasavvurlar huquqiy ongni yemirishi mumkin. Shu sabab media savodxonlik va faktcheking ko‘nikmalarini huquqiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida qarash zarur.

Taklif va amaliy tavsiyalar. Yoshlar huquqiy ongini yuksaltirish uchun quyidagi integrativ model taklif etiladi:

shaxs (qadriyat, mas’uliyat) → oila (birlamchi me’yorlar) → mahalla va tengdoshlar (ijtimoiy tajriba) → ta’lim muassasasi (bilim va ko‘nikma) → media (axborot va talqin) → davlat va institutlar (adolatli amaliyot va ishonch).[9]

Modelni amaliyotga tatbiq etishda uzluksiz huquqiy ta’lim: maktabgacha ta’limdan OTMgacha huquqiy kompetensiyalar zanjiri (bilim–qadriyat–ko‘nikma–xulq) asosida o‘quv kontenti; oila bilan ishlash: ota-onalar uchun huquqiy savodxonlik va nizolarni kelishuv asosida hal etish (mediatsiya) bo‘yicha qisqa kurslar;minteraktiv ta’lim texnologiyalari: simulyatsion sud, debat, huquqiy klinika, mahalla loyihalari; ishonch kommunikatsiyasi: davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar uchun sodda til va zamonaviy formatdagi muntazam tushuntirish ishlari, ochiq muloqotlar; raqamli gigiyena: media savodxonlik, feyklarga qarshi immunitet, ma’rifiy huquqiy kontent yaratadigan yoshlar liderlarini qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa. Huquqiy demokratik jamiyat qurish sharoitida yoshlar huquqiy ongining shakllanishi ko‘p darajali tizim bo‘lib, uni faqat “qonunni bilish” doirasida talqin qilish yetarli emas. Huquqiy ong – bilim, qadriyat, ishonch va xulqning birligi; u oila, ta’lim, mahalla, media va davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlik muhitida barqarorlashadi. Shuning uchun huquqiy tarbiya siyosatini kompleks modelga tayangan holda, raqamli makondagi xavflarni ham e’tiborga olgan tarzda olib borish yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishning eng real va samarali yo‘lidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir), 30.04.2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 09.01.2019, PF-5618.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 28.01.2022, PF-60.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori: “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 18.01.2021, 23-son.
5. Hojiyev R.B., Muzaffarov U.I. O‘zbekistonda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ta’lim tizimining o‘rni. 2022.

6. Toyirov S. Yangi O‘zbekiston jamiyatida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi muammolar. 2024.
7. Alimov K.Y. Yoshlarning huquqiy madaniyati tuzilishi. 2025.
8. Huquqiy nihilizm: yoshlar ongida qonun va huquq tushunchasining shakllanishi (ilmiy maqola). 2025.
9. To‘xtayev H. Ijtimoiy falsafa. Toshkent, 2022.
10. Jo‘rayev R. Huquqiy ong va fuqarolik jamiyati evolyutsiyasi. Toshkent, 2021.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

STYLISTIC DEVICES IN ENGLISH AND UZBEK TEXTS

Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi,
Senior teacher,
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article presents a comparative analysis of stylistic devices used in English and Uzbek literary texts. The main objective of the study is to identify the functional and aesthetic roles of such stylistic units as metaphor, simile, epithet, personification, hyperbole, and litotes in literary discourse, as well as to examine their national and cultural characteristics. The research employs a комплекс approach based on descriptive, comparative-analytical, and contextual analysis methods.

Keywords: stylistics, literary text, stylistic device, metaphor, simile, comparative analysis.

INGLIZ VA O‘ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI

Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Katta o‘qituvchisi
E-mail: nozigulduvlaeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida qo‘llaniladigan stilistik tasviriy vositalarni qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi metafora, o‘xshatish, epitet, personifikatsiya, giperbola va litota kabi stilistik birliklarning badiiy nutqdagi funksional va estetik rolini aniqlash, shuningdek, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida deskriptiv, qiyosiy-tahliliy va kontekstual tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Kalit so‘zlar: stilistika, badiiy matn, stilistik tasviriy vosita, metafora, o‘xshatish, qiyosiy tahlil.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N24

Kirish. Badiiy adabiyot tili oddiy kundalik nutqdan o‘zining obrazliligi, emotsional-ekspressivligi hamda estetik ta’sir kuchi bilan tubdan farqlanadi. Badiiy matnning asosiy vazifasi axborot yetkazishdan ko‘ra ko‘proq o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlash va emotsional ta’sir ko‘rsatishdan iboratdir [4; 12–13-b.]. Aynan mana shu vazifa stilistik tasviriy vositalar orqali amalga oshiriladi. Metafora, o‘xshatish, epitet, jonlantirish kabi vositalar badiiy nutqni jonlantirib, muallif g‘oyasining yorqin va ta’sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, grammatik va struktur jihatdan sezilarli farqlarga ega. Shunga qaramay, badiiy nutqda qo‘llaniladigan stilistik tasviriy vositalar ko‘p hollarda umumiy semantik va funksional xususiyatlarga ega. P. Simpsonning ta’kidlashicha, stilistik vositalar universalligi bilan birga, har bir til va madaniyatda o‘ziga xos estetik talqin kasb etadi [8; 19–21-b.]. Masalan, metafora yoki jonlantirish har ikki adabiy

an’anada uchrasa-da, ularning obraz manbalari va ma’no nozikliklari milliy mentalitet bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbek mumtoz adabiyotida stilistik tasviriy vositalar ko‘pincha tasavvufiy-falsafiy mazmun bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, ingliz klassik adabiyotida individual kechinmalar, dramatik holatlar va ijtimoiy ziddiyatlar tasviri ustuvorlik qiladi. Bu holat stilistik vositalarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va tarixiy hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, stilistik tasviriy vositalarni ingliz va o‘zbek tillari misolida qiyosiy o‘rganish tarjimashunoslik, chet tilini o‘qitish metodikasi hamda badiiy matn tahlilida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy tarjimada stilistik ekvivalentlik masalasi dolzarb bo‘lib, ushbu tadqiqot natijalari amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida stilistik tasviriy vositalarning nazariy va amaliy xususiyatlarini chuqur o‘rganish maqsadida bir nechta o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, deskriptiv metod asosida stilistika sohasiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, stilistik tasviriy vositalarning ta’riflari, turlari hamda ularning badiiy nutqdagi umumiy funksiyalari izchil yoritildi. Ushbu metod stilistik birliklarning nazariy asoslarini aniqlash va ularni tizimli ravishda bayon etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod keng qo‘llanildi. Mazkur metod orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi stilistik tasviriy vositalar o‘zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Bundan tashqari, kontekstual tahlil metodi yordamida stilistik birliklarning badiiy matn tarkibidagi funksional vazifalari o‘rganildi.

Natijalar. Tadqiqot materiali sifatida ingliz adabiyotining mashhur vakillari — Uilyam Shekspir, Charlz Dikkens va Jorj Gordon Bayronning klassik badiiy asarlaridan tanlab olingan parchalar xizmat qildi. O‘zbek adabiyoti namunalari sifatida esa Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon hamda Oybek ijodidan olingan matnlar tahlilga tortildi. Tanlangan asarlar badiiy tilning boyligi, stilistik rang-barangligi va adabiy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, metafora ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida eng faol va semantik jihatdan eng boy stilistik tasviriy vositalardan biri hisoblanadi. Metafora orqali muallif abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar yordamida ifodalaydi hamda o‘quvchining tasavvur doirasini kengaytiradi. G. Lakoff va M. Johnson metaforani faqat badiiy bezak emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmi sifatida baholaydilar [3; 5–6-b.]. Ingliz adabiyotida Uilyam Shekspir metaforadan keng va serqirra foydalangan. Masalan, “As You Like It” asaridagi mashhur monologda u shunday yozadi:

“All the world’s a stage,
And all the men and women merely players;
They have their exits and their entrances,
And one man in his time plays many parts…” [7; 87–88-b.]

(“Butun dunyo sahna,
Erkaklar ham, ayollar ham faqat o‘yinchilardir.
Ularning chiqish yo‘llari va kirish yo‘llari bor.
Bir odam o‘z davrida ko‘p rollarni o‘ynaydi...“)

Mazkur parchada inson hayoti teatr sahnasiga qiyoslanib, tug‘ilish va o‘lim “kirish” va “chiqish” metaforalari orqali ifodalanadi. Bu metafora hayotning o‘tkinchiligi va inson taqdirining rollarga bo‘linganligini chuqur falsafiy ma’noda ochib beradi.

Ingliz romantik adabiyotining yirik vakili Jorj Gordon Bayron metaforani shaxsiy kechinmalar va ijtimoiy norozilikni ifodalashda faol qo‘llagan. Uning “Childe Harold’s Pilgrimage” asarida uchraydigan quyidagi satrlar bunga misol bo‘la oladi:

“Sorrow is knowledge: they who know the most
Must mourn the deepest o‘er the fatal truth.” [1; 42-b.]

(“G‘am — bu bilimdir: eng ko‘p bilganlar
Eng chuqur qayg‘ururlar ayanchli haqiqat ustida.”)

Mazkur parchada *sorrow* (g‘am) va *knowledge* (bilim) o‘rtasida metaforik bog‘liqlik o‘rnatiladi. Muallif bilimni ruhiy iztirob manbai sifatida talqin qiladi. Bu metafora insonning hayotiy tajribasi ortgan sari uning ruhiy og‘irligi ham ortib borishini ifodalaydi. Bayron metaforasi individual ruhiy iztirobni umumiy falsafiy xulosaga aylantirib, romantik adabiyotga xos ichki dramatizmni kuchaytiradi.

Shuningdek, Charlz Dikkensning “Bleak House” romanida jamiyatdagi adolatsizlik va huquqiy tizim tanqidi metafora orqali beriladi:*“This is the Court of Chancery… which has its decaying houses and its blighted lands in every shire.”* [2; 15–16-b.] (“Bu Chancery sudidir… uning har bir tumanida chirigan uylar va hosilsiz yerlar mavjud.”) Bu yerda sud tizimi “chiriyotgan uylar” va “hosilsiz yerlar” orqali metaforik tarzda tasvirlanadi. Metafora jamiyatdagi byurokratik tizimning inson hayotiga salbiy ta’sirini ochib beradi. Dikkens metaforani ijtimoiy tanqid quroli sifatida qo‘llab, badiiy obraz orqali muhim ijtimoiy muammoni yoritadi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida metafora ko‘pincha axloqiy, falsafiy va tasavvufiy mazmun bilan uyg‘unlashadi. O‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy metaforani tasavvufiy va ruhiy mazmun bilan uyg‘unlashtiradi. Uning “Xamsa” asarida uchraydigan quyidagi satrlar bunga misol bo‘la oladi:

“Ko‘ngil bir dengizdur mavj urar pinhon,
Dard gavhari unda bo‘lg‘ay beomon.” [5; 134-b.]

Bu misralarda inson qalbi cheksiz dengiz sifatida talqin qilinib, undagi iztiroblar va kechinmalar “gavhar” obrazi orqali tasvirlanadi. Metafora bu yerda nafaqat obraz yaratadi, balki falsafiy umumlashtirish vazifasini ham bajaradi.

Alisher Navoiyning zamondoshi va izdoshi bo‘lgan Bobur ijodida metafora inson taqdiri va hayot o‘tkinchiligini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. “Boburnoma”da uchraydigan quyidagi fikr bunga dalil bo‘la oladi:*“Bu dunyo karvonsaroydur, bir kelib-ketar manzildur.”* Mazkur jumlada dunyo karvonsaroyga qiyoslanadi. Metafora orqali inson hayotining muvaqqatligi va o‘tkinchiligi ifodalanadi. Karvonsaroy obrazi Sharq madaniyatiga xos bo‘lib, bu metafora milliy mentalitet bilan uzviy bog‘langan holda shakllangan.

XX asr o‘zbek adabiyotida esa Oybek metaforani tarixiy jarayonlar va ruhiy kechinmalarni tasvirlashda mohirona qo‘llaydi. Uning “Navoiy” romanida shoir ruhiy holati quyidagi metafora orqali ifodalanadi:*“Shoirning ko‘ngli alangaga o‘xshar, ichida tinimsiz yonar edi.”* [10; 256-b.] Bu yerda qalb “alanga” obraziga tenglashtiriladi. Metafora ijodkorning ichki

iztirobi, ruhiy zoʻriqishi va ijodiy ehtirosini bir vaqtning oʻzida ifodalaydi. Ushbu metafora badiiy obrazlilikni kuchaytirish bilan birga, qahramonning psixologik holatini chuqur ochib beradi.

Oʻxshatish stilistik vosita sifatida obrazni yanada aniqroq va tushunarliroq qilishga xizmat qiladi. Metaforadan farqli ravishda, unda qiyoslash ochiq ifodalanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, oʻxshatishlar har ikki adabiy an'anada emotsional holatlarni tasvirlashda keng qoʻllaniladi.

Charlz Dikkens "David Copperfield" romanida bosh qahramonning ruhiy holatini quyidagicha ifodalaydi: "*I stood there trembling, as if I had been suddenly turned to stone, and my heart beat like a frightened bird."* ("Men xuddi birdan toshga aylanib qolgandek qaltirab turardim, yuragim qoʻrqqan qushdek dukillardi.") Bu parchada qahramonning qoʻrquvi va hayajoni ketma-ket oʻxshatishlar orqali jonli va ta'sirchan tasvirlanadi. Romantik adabiyotning yirik vakili Uilyam Vordsvort (William Wordsworth) oʻxshatishlardan tabiat va inson ruhiy holatini tasvirlashda keng foydalangan. Masalan, "Lines Composed a Few Miles above Tintern Abbey" she'rida quyidagi qator uchraydi:

"The mind of man is like a mountain lake,
Reflecting all the beauty that surrounds it." [11; 54-b.]
("Inson ongi tog' koʻli kabi, atrofdagi barcha goʻzalliklarni aks ettiradi.")

Bu yerda inson ruhiy holati tog' koʻli bilan taqqoslanadi. Oʻxshatish orqali muallif qalbning tinchligi, atrof tabiatni idrok etish qobiliyati va ichki uyg'unligini vizual va sezgir tarzda ifodalaydi. Bu oʻxshatish psixologik holatni badiiy tasvirlash vositasi sifatida ishlatiladi.

Oʻzbek adabiyotida Abdulla Qodiriyning "Oʻtkan kunlar" romanida shunday oʻxshatish uchraydi: *"Otabekning yuragi qafasga tushgan qushdek betinim urinar, koʻngli esa allaqanday gʻashlik bilan toʻlib borardi."* [6; 112-b.]Bu yerda inson ichki kechinmasi qush obrazi orqali ifodalanib, oʻxshatish qahramon ruhiy holatini oʻquvchiga yaqqol his ettiradi. Keltirilgan misollardan koʻrinadiki, oʻzbek va ingliz adabiyotida ichki kechinmalar, ayniqsa, yurakni tahlikali holatini ifodalashda qush obrazidan foydalanilgan. Shuningdek, Choʻlponning "Kecha va Kunduz" asarida uchraydigan satrlar bunga yorqin misol boʻla oladi: *"Koʻngli shabada singari silkinar, ichida barcha dard va tashvishlarni olib yurar edi."* [9; 78-b.] Bu oʻxshatishda inson qalbi shabada bilan taqqoslanadi. Oʻxshatish qahramonning ichki kechinmalarini jonli va sezgir tarzda ifodalaydi: uning ruhiy holati doimo silkinib, ichki dardlar bilan toʻla ekanini oʻquvchi his qilishi mumkin. Shu bilan birga, metaforadan farqli oʻlaroq, bu oʻxshatish ochiq qiyoslash orqali ifodalanadi, ya'ni qalbning silkinishi va shabada harakati oʻrtasidagi oʻxshashlik aniq koʻrsatiladi.

Muhokama. Olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, stilistik tasviriy vositalar ingliz va oʻzbek badiiy adabiyotida umumiy estetik vazifani bajaradi, ya'ni matnning obrazliligi va ta'sirchanligini oshiradi. Biroq ularning mazmuniy yuklamasi va obraz manbalari milliy-madaniy tafakkur bilan bevosita bogʻliq.

Oʻzbek adabiyotida stilistik vositalar koʻpincha tabiat, ruhiy kechinma va falsafiy umumlashmalar bilan uyg'unlashsa, ingliz adabiyotida shaxsiy drama, ijtimoiy muammolar va individual kechinmalarni ifodalash ustuvorlik qiladi. Bu holat tarjima jarayonida stilistik moslikni ta'minlash masalasini dolzarb qiladi. Shu sababli, tarjimashunoslikda stilistik vositalarni soʻzma-soʻz emas, balki funksional va estetik ekvivalentlar orqali yetkazish muhim

hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning ilmiy asoslanganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, stilistik tasviriy vositalar ingliz va o‘zbek badiiy matnlarining mazmuniy va estetik tuzilmasida muhim o‘rin egallaydi. Ular badiiy nutqning obrazliligini, emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytirib, muallifning individual ijodiy uslubini namoyon etishda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Metafora, o‘xshatish, epitet, personifikatsiya, giperbola va litota kabi stilistik birliklar badiiy matnni jonlantiribgina qolmay, o‘quvchining voqelikni obrazli idrok etishiga ham imkon yaratadi.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek adabiy an’analari o‘rtasida stilistik tasviriy vositalarning qo‘llanishida muayyan umumiyliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ularning semantik yuklamasi, obraz manbalari va estetik talqini milliy-madaniy omillar bilan bevosita bog‘liqligi aniqlandi. O‘zbek badiiy adabiyotida stilistik vositalar ko‘proq falsafiy mushohada, tabiat manzaralari va ruhiy kechinmalarni ifodalashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ingliz adabiyotida individualizm, dramatizm va ijtimoiy jarayonlarni yoritish ustuvorlik qiladi.

Tadqiqot natijalari stilistika va adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tarjimashunoslik sohasida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy tarjimada stilistik ekvivalentlikni ta’minlash masalasi ushbu tadqiqot asosida yanada aniqroq yondashuvni talab etadi. Stilistik vositalarni funksional jihatdan mos holda yetkazish tarjimaning badiiy qiymatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Byron, G. G. Childe Harold’s Pilgrimage. — London: Penguin Classics, 2005.
2. Dickens, C. Bleak House. — Oxford: Oxford University Press, 2002.
3. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Leech, G. A Linguistic Guide to English Poetry. — London: Longman, 1969.
5. Navoiy, A. Xamsa. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
6. Qodiriy, A. O‘tkan kunlar. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2014.
7. Shakespeare, W. As You Like It. — Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
8. Simpson, P. Stylistics: A Resource Book for Students. — London: Routledge, 2004.
9. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. — Toshkent: Sharq, 2006
10. Oybek. Navoiy (roman). — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2008.
11. Wordsworth, W. Selected Poems. — London: Wordsworth Editions, 1994.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

STRUCTURE, ORIGIN AND NORMATIVE FEATURES OF BORROWED TERMS IN THE UZBEK SCIENTIFIC AND TECHNICAL TEXT

Zikrullaeva Khusniya Bahtiyorovna
PhD, Turin Polytechnic University in Tashkent

Abstract. The text examines the features of borrowings from Latin and Greek elements in the English, Turkish, and Uzbek languages. It is noted that in English such elements, especially when used as prefixes, are preserved almost unchanged and over time become firmly established as part of the native vocabulary, sometimes leading to lexical redundancy. Special attention is also paid to issues related to Greek and Latin borrowings, which may either be retained in their original form or rendered by means of native lexical resources.

Keywords: borrowings, term, scientific and technical text, translation, influence.

СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

Зикруллаева Хусния Бахтияровна,
PhD, Туринский политехнический университет в г. Ташкенте
E-mail: zkhusniya@yahoo.com
http://www.orcid.org/0000-0003-2565-5313

Аннотация. В тексте рассматриваются особенности заимствования латинских и греческих элементов в английском, турецком и узбекском языках. Отмечается, что в английском языке такие элементы, особенно в качестве приставок, сохраняются практически без изменений и со временем укореняются, становясь частью исконной лексики, иногда приводя к лексической избыточности. Особое внимание также уделяется вопросам греческих и латинских заимствований, которые могут либо сохраняться в исходном виде, либо передаваться с помощью исконных языковых средств.

Ключевые слова: заимствования, термин, научно-технический текст, перевод, влияние.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N25

Rus tadqiqotchilari N.A.Saburova va A.P.Kelmyashkinlar maqolasida koronavirus pandemiyasi davrida insonlarni nomlash uchun yaratilgan ingliz tilidagi neologizmlar tahlil qilingan [1; 182-b]. Bu neologizmlar “koronavirus ta’siriga uchragan inson” arxisemasi atrofida birlashadi va uchta kichik guruhga ajratiladi: 1) insonlarning xulq-atvori (masalan, *facenaked*, *corona-uber*, *covidiot*), 2) insonning holati yoki xususiyati (masalan, *coronic*, *coviddy*, *coronator*), 3) ijtimoiy maqomi (masalan, *keyworkers*, *coronallennial*, *quaranteens*, *Wuhan clan*). Ko‘pgina neologizmlar leksik jihatdan so‘zlashuv uslubiga mansub bo‘lib, ular, asosan qoidalarni buzuvchi yoki xavfsizlik talablarini inkor qiluvchi shaxslarni salbiy yoki tanqidiy ma’noda tavsiflaydi. Shu bilan birga, *covidol* ва *coronator* kabi nomlar koronavirus xavfidan himoya qoidalariga rioya qiluvchi va infeksiyani yenggan shaxslarni ijobiy tarzda belgilovchi ma’no kasb etadi. Shu tariqa, neologizmlardagi konnotatsiyalar orqali koronavirus infeksiyasiga nisbatan xavf hissi, ijtimoiy munosabatlar va qoidalarga rioya qilishga bo‘lgan munosabat aks ettirilgan.

Stilistik jihatdan neytral nominatsiyalar, asosan karantinni inkor qilishga majbur bo‘lgan muhim sohalarda faoliyat yurituvchi shaxslarni ko‘rsatadi. Masalan, keyworkers – «asosiy xodimlar»; shuningdek, o‘z-o‘zini izolyatsiya qilish davrida tug‘ilgan avlodni belgilaydigan nom – *coronallennial*, ya’ni 2001–2007 yillarda tug‘ilgan va 2020 yil koronavirus davrida o‘smirlikka qadam qo‘ygan bolalar. Ko‘plab nomlar so‘zlashuv uslubiga xoslangan bo‘lib, ular publitsistik yoki rasmiy uslubda qo‘llanmaydi. Eng umumiy ma’noni ifodalovchi nom – *coronic* – «koronavirus bilan infeksiyalangan shaxs»ni anglatadi.

So‘zlashuv tilidagi nomlar, ko‘pincha salbiy baho xususiyatiga ega ega: *facenaked* («jamoat joylarida niqob taqmaydigan shaxs»); *corona-uber* («koronavirusni jiddiy qabul qilmaydigan, ko‘chalarga chiqib kasallikni tarqatadigan shaxslar»); *coronaroamers* (izolyatsiya qoidalariga quloq solmaydigan, o‘ta xudbin kishilar»); *covidiot* («bee’tibor va ahmoqona harakat qiladigan shaxs»); *quarantrolls* (quarantine+trolls) – «ijtimoiy tarmoqlarda

cheklovlardan qiynalayotganini bayon qiluvchi shaxslar»; *maskhole* (mask+asshole) – «niqobni noto‘g‘ri va befoyda taqadigan shaxs»; *morona* (moron+corona) – «pandemiya davrida ahmoqona harakat qiladigan shaxs»; *coviddy* – «koronavirusdan qo‘rquv tufayli o‘zgacha xulq-atvor ko‘rsatuvchi shaxs» [3].

Neologizmlarning konnotatsiyalari koronavirus xavfini his qilish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni qabul qilish va qoidalarni buzuvchilarga nisbatan tanqidiy munosabatni aks etadi. Ijobiy bahoga ega neologizmlar ham mavjud: *covidol* (covid+idol) – «pandemiya davrida barcha xavfsizlik qoidalariga rioya qiluvchi shaxs»; *coronator* (Corona+terminator) – «koronavirusni yenggan shaxs». Shuningdek, alohida ahamiyatga ega neologizm – *Wuhan Clan* (Wuhan+Clan), osiyoliklar, xususan Uxandan chiqqanlar uchun qo‘llaniladi va amerikaliklar hamda yevropaliklarning ulardan ehtiyotkor bo‘lishi, shuningdek, Uxan aholisi bilan kontakt koronavirus yuqish xatarini keltirishi to‘g‘risidagi taassurotlarni aks ettiradi.

Kasbiy sohadagi o‘zgarishlarni ifodalovchi neologizmlar orasida pandemiya ta’sirida vujudga kelgan yangi kasblar va faoliyat turlarini ifodalovchi terminlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, ingliz tilidagi *space marshal* termini ijtimoiy masofani saqlash hamda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni nazorat qilish bilan shug‘ullanuvchi mas’ul shaxsni anglatadi. Shuningdek, *joy strategist* [4] neologizmi insonlarning psixologik holati va shaxsiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassisni ifodalaydi.

Shaxsiy hayot va o‘zaro ijtimoiy ta’sir shakllaridagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi neologizmlar orasida quyidagilarni ifodalovchi birliklarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Pandemiyani «boshdan kechirish»ga majbur bo‘lgan shaxslarni ifodalovchi neologizmlar:

quaranteen [3] – o‘smirlik davri pandemiya sharoitiga to‘g‘ri kelgan o‘spirin;

lockdowners [3] – o‘zini o‘zi qat’iy izolyatsiya qilish (lokdaun) rejimida bo‘lishga majbur bo‘lgan shaxslar.

2. Ijtimoiy aloqalarning cheklanishini aks ettiruvchi o‘zgarishlar:

social bubble [3] – cheklov choralari yumshatilgan davrda uchrashishga ruxsat etilgan do‘stlar va qarindoshlarning kichik guruhi;

double bubble [3] – izolyatsiya sharoitida bo‘lgan, bir-biri bilan uchrashishga ruxsat etilgan ikki oila;

quaranteam [3] – izolyatsiya davrini birgalikda o‘tkazgan shaxslar guruhi.

3. Insonlarning pandemiyaga, shuningdek u bilan bog‘liq ko‘rsatma va cheklovlarga bo‘lgan munosabati:

Ijtimoiy xulq-atvorning o‘ziga xos jihatlari lokdaun zarurligini inkor etuvchi hamda niqob taqish rejimiga qarshi chiquvchi shaxslarni ifodalovchi leksik birliklarda o‘z aksini topadi. Shuningdek, vaksinatsiyaga qarshi yoki uni rad etuvchi shaxslarni ifodalovchi atamalar ham kuzatiladi: Bundan tashqari, ingliz tilidagi corona moaner atamasi koronavirus sababli doimiy ravishda xavotirlanib yuruvchi shaxsni anglatadi.

Pandemiya ingliz tilida kishilar jamoasini ifodalovchi bir qator neologizmlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi, bularning har biri o‘ziga xos ijtimoiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Zoomers neologizmi Zoom platformasi orqali masofaviy ta’lim olgan yoki ishlagan avlodni ifodalash uchun ishlatildi. Bu termin, ko‘proq, masofaviy hayot tarziga moslashgan yoshlar guruhini ifodalaydi.

Quaranteam neologizmi karantin davrida birga yashagan yoki doimiy aloqada bo‘lgan kishilar guruhini ifodalaydi. Bu termin do‘stlar yoki oila a’zolarining pandemiya davrida bir-biriga yordam berish va ijtimoiy izolyatsiyadan chiqish maqsadida tashkil etgan guruhlarini tasvirlashda qo‘llanilgan. “Urban Dictionary“ onlayn lug‘atida bu so‘zga quyidagicha ta’rif berilgan: *The people you choose to live with during a coronavirus quarantine*. Misollarga murojaat qilamiz: *My girlfriend lives by herself, so my roommates and I have included her in our quaranteam* [6].

Doomscrollers neologizmi doimiy ravishda yomon xabarlarni (ayniqsa, pandemiya bilan bog‘liq) izlab topib o‘qiydigan va bundan kayfiyati tushib ketadigan odamlarni ifodalash uchun ishlatildi. Bu neologizm pandemiya davridagi psixologik holatni, xususan, doimiy xavotir va stressni aks ettiradi. Bu termin psixologiya va ommaviy axborot vositalarining ta’sirini o‘rganuvchi tadqiqotlar uchun qiziqarli manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. *Obsessively reading social media posts about how utterly fucked we are. I’ve got to stop doomscrolling about covid-19, it’s making me depressed.*

The Unmasked neologizmi niqob taqishdan bosh tortgan odamlarni ifodalab, jamiyatdagi shaxsiy erkinlik va jamoat xavfsizligi o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Bu termin falsafa va huquqshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyatli bo‘lib, inson huquqlari, javobgarlik va ijtimoiy normalar kabi masalalarni o‘rganishda qo‘l keladi.

O‘zbek tilida pandemiya davrida kishilar jamoasini ifodalovchi neologizmlarning paydo bo‘lishi o‘zbek jamiyatida ijtimoiy va lingvistik jarayon sifatida qaraladi. Pandemiya insonlarning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvoriga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi, shuningdek, yangi tushunchalar va ularni ifodalaydigan so‘zlarning yaratilishiga zarurat tug‘dirdi. Bu jarayonda o‘zbek tili tegishli yangi nom va atamalar yaratilishi natijasida yangilandi: odamlarning karantin qoidalariga rioya qilishi yoki uni buzishi, o‘z-o‘zini izolyatsiya qilish holati, xavfsizlik choralarini qo‘llashi va ijtimoiy faollik kabi xususiyatlar leksik jihatdan aks ettirildi. Masalan, ijtimoiy maqom va avlodni ifodalovchi yangi nomlar shakllandi: qonunchilik va ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarda faoliyat yurituvchi xodimlar, o‘z-o‘zini izolyatsiya qilish (samoizolyatsiya) davrida tug‘ilgan va koronavirus davrida o‘smirlikka qadam qo‘ygan avlod. Shuningdek, ijobiy va salbiy xulq-atvorni, xavf va xavfsizlikka bo‘lgan munosabatni ko‘rsatuvchi atamalar ham paydo bo‘ldi. Bu jarayon o‘zbek tili lug‘at tarkibini yangi lug‘aviy birliklar yasalishi orqali kengaytirdi va pandemiya davridagi ijtimoiy voqelikni leksik jihatdan aks ettirishga xizmat qildi.

O‘zbek tilida pandemiya davrida kishilar jamoasini ifodalovchi neologizmlarning paydo bo‘lishi o‘zbek jamiyatida ijtimoiy o‘zgarishlar va yangi munosabatlarning yuz berganligini ko‘rsatadi:

Onlayn avlod neologizmi COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’lim olgan yoshlar guruhini ifodalash uchun qo‘llandi va ularning axborot texnologiyalariga moslashuvchanligini yaqqol ko‘rsatdi.

Karantindoshlar neologizmi karantin davrida birga yashagan yoki doimiy aloqada bo‘lgan kishilar guruhini ifodalaydi.

Niqobsizlar neologizmi niqob taqishdan bosh tortgan odamlarni ifodalash uchun ishlatildi. Xuddi ingliz tilidagi “The Unmasked” kabi, bu termin ham o‘zbek jamiyatidagi shaxsiy erkinlik va jamoat xavfsizligi o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi

qonunchilik hujjatlarida bu mavzuga oid huquqiy asoslar va javobgarlik masalalarini ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, o‘zbek tilida koronavirus bilan bog‘liq qator neologizmlar paydo bo‘ldi: *Koronavirus karantini, “uyda qol” iborasi, niqob rejimi, masofaviy o‘qitish, kovidiot, kovidfobiya, covid shoki, Covid pasporti, Covid qahramoni* va b.

O‘zbek tilida bu kabi neologizmlarning ilmiy tadqiqi hali yetarli emas, ammo ularning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llanilishi o‘zbek jamiyatida ham pandemiya bilan bog‘liq yangi guruhlar va munosabatlar shakllanganini ko‘rsatadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ingliz va o‘zbek tillarida COVID-19 pandemiyasi davrida paydo bo‘lgan kishilar jamoasini ifodalovchi neologizmlar ingliz va o‘zbek jamiyatida yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Bu neologizmlar jamiyat a’zolarining yangi guruhlari, yangicha munosabatlar va pandemiya davrida shakllangan ijtimoiy dinamikani ifodalash uchun xizmat qiladi. Ularning tahlili tilning jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligi va yangi ijtimoiy hodisalarni ifodalashga qodirligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Сабурова Н.А., Кельмяшкин А.П. Семантическая характеристика англоязычных неологизмов о пандемии коронавирусной инфекции // Международный научно-исследовательский журнал, №6 (108), Часть 5, 2021. С 181-184.
2. Asif M., Zhiyong D., Iram A., Nisar M. Linguistic analysis of neologism related to coronavirus (COVID-19). Social Sciences & Humanities Open. Volume 4, Issue 1,2021.
3. Cambridge Dictionary: [Электрон ресурс]. URL: https://dictionary.cambridge.org (мурожаат санаси: 15.12.2025).
4. Merriam Webster [Electronic resource] / 2021 Merriam-Webster, Incorporated. – URL: https://www.merriam-webster.com (мурожаат санаси: 12.12.2025).
5. The fun of New Words [Электрон ресурс]. URL: https://www.macmillandictionaryblog.com/the-fun-of-new-words (мурожаат санаси: 19.12.2025)
6. Urban Dictionary [Электрон ресурс]. URL: https://www.urbandictionary.com (мурожаат санаси: 20.02.2025).

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE STRUCTURE OF SPEECH CULTURE COMPETENCIES IN JOURNALISM EDUCATION

Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi
"Ayol" by CAU Microfinance Organization
Business Consultant (Expert)
E-mail: dilfuza.15051991@mail.ru

Abstract. The article examines the structure of speech culture competencies in the process of journalism education. Speech culture is considered as a core professional competence of a journalist, encompassing linguistic, stylistic, rhetorical, communicative-pragmatic, and psychological components. Special attention is paid to the role of journalistic speech in shaping public consciousness and ensuring professional responsibility. The study interprets speech culture not only as adherence to language norms but also as a complex competence related to social influence and ethical awareness. The findings substantiate the necessity of an integrative and interdisciplinary approach to the development of speech culture in journalism education.

Keywords: speech culture, journalism education, professional competence, mass communication, rhetoric.

JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI

Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi
"Ayol" by CAU Mikromoliya tashkiloti
Biznes konsultant (Ekspert)

Annotatsiya. Ushbu maqolada jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarining nazariy asoslari va strukturaviy tuzilishi tahlil qilinadi. Nutq madaniyati jurnalist kasbiy tayyorgarligining markaziy komponenti sifatida ko'rib chiqilib, uning lingvistik, stilistik, ritorik, kommunikativ-pragmatik va psixologik jihatlari ochib beriladi. Tadqiqotda nutq madaniyati faqat til me'yorlariga rioya qilish emas, balki auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy ong bilan bog'liq kompleks kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Olingan natijalar jurnalistik ta'lim tizimida nutq madaniyatini shakllantirishda integrativ va fanlararo yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, jurnalist tayyorlash, kasbiy kompetensiya, ommaviy kommunikatsiya, ritorika.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N29

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borgan axborot instituti sifatida faoliyat yuritmoqda. Axborot oqimlarining jadallashuvi, raqamli medianing kengayishi va jamoatchilik fikri uchun kurash kuchayishi jurnalist shaxsiga, uning kasbiy mahorati va nutqiy madaniyatiga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda. Jurnalist faqat voqealarni yorituvchi shaxs emas, balki voqelikni til vositasida qayta qurish, uni muayyan nuqtai nazardan talqin qilish orqali auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda jurnalist nutqi jamiyat ongini shakllantiruvchi kuchli vositaga aylanadi [1].

Jurnalistik ta’lim tizimida nutq madaniyati masalasi an’anaviy ravishda til me’yorlarini bilish, adabiy tilda so‘zlay olish va yozma nutqda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik bilan cheklab kelingan. Ammo zamonaviy ommaviy kommunikatsiya sharoitida bunday yondashuv yetarli emas. Nutq madaniyati jurnalist kasbiy kompetensiyalarining markaziy bo‘g‘ini sifatida, uning kommunikativ strategiyasi, auditoriya bilan muloqot etikasi, ta’sirchanlik va ishontirish mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq holda qaralishi lozim [4].

Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari tilining manipulyativ salohiyati jurnalist nutq madaniyatining mas’uliyatli jihatlarini yanada dolzarb qiladi. Baranov va Parshin ta’kidlaganidek, til voqelikni faqat aks ettirmaydi, balki uni qayta interpretatsiya qiladi, ayrim jihatlarni kuchaytiradi yoki zaiflashtiradi, shu orqali auditoriya ongida muayyan tasavvurlarni shakllantiradi [1]. Demak, jurnalist nutq madaniyati faqat texnik ko‘nikmalar majmuasi emas, balki ijtimoiy ta’sirni anglash va uni boshqarish qobiliyatidir.

Ushbu maqolada jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor nutq madaniyatining tarkibiy komponentlarini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish hamda jurnalistik ta’lim tizimida mazkur kompetensiyalarni shakllantirishning metodologik asoslarini asoslashga qaratilgan.

Muammoning dolzarbligi. Jurnalistika sohasida kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish masalasi global axborot makonida raqobat kuchaygan sharoitda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Axborot tezligi, auditoriya e’tibori uchun kurash va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirining ortishi jurnalist nutqini ta’sirchan, aniq va ishonchli bo‘lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, noto‘g‘ri, bee’tibor yoki manipulyativ nutq jamoatchilik fikrini chalg‘itish, ijtimoiy ishonchga putur yetkazish xavfini ham keltirib chiqaradi [7].

Jurnalist nutq madaniyatining yetarli darajada shakllanmagani ommaviy axborot vositalari tilida uslubiy noaniqlik, me’yoriy xatolar, etik me’yorlarning buzilishi va manipulyativ ta’sirning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Dotsenko ta’kidlaganidek, manipulyatsiya psixologik ta’sirning yashirin shakli bo‘lib, u nutq orqali amalga oshiriladi va auditoriya tomonidan ko‘pincha anglanmaydi [7]. Shu sababli jurnalist nutq madaniyati nafaqat professional mahorat, balki ijtimoiy mas’uliyat masalasi hamdir.

O‘zbek va rus tilshunosligida nutq madaniyati masalalari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, jurnalistlarni tayyorlash kontekstida nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasi maxsus, tizimli tahlil obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Boqieva va Teshaboeva jurnalist nutq madaniyati va notiqlik san’atini o‘qitish zarurligini ta’kidlasalar-da, mazkur kompetensiyalarning ichki tuzilishi masalasi yanada chuqur tahlilni talab qiladi [2].

Shu ma’noda, nutq madaniyatini jurnalistik ta’limda alohida fan yoki yordamchi ko‘nikma sifatida emas, balki kompleks kompetensiyalar tizimi sifatida ko‘rib chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va ilmiy yondashuv. Tadqiqotning asosiy maqsadi jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarining nazariy modelini ishlab chiqish va uning strukturasini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun nutq madaniyati tushunchasi lingvistik, stilistik, ritorik, kommunikativ-pragmatik va psixologik yondashuvlar uyg‘unligida tahlil qilindi.

Nutq madaniyati tushunchasiga bunday kompleks yondashuv Vinogradov tomonidan ilgari surilgan normativ va kommunikativ-pragmatik konsepsiyaga tayanadi. Unga ko‘ra, nutq

madaniyati faqat til me’yorlariga rioya qilish bilan cheklanmaydi, balki muloqot maqsadi, sharoiti va natijasi bilan belgilanadi [4]. Jurnalist nutqi esa aynan pragmatik jihatdan eng yuqori yuklamaga ega bo‘lgan nutq turlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, jurnalistik nutqning ritorik tabiati Rojdestvenskiyning ritorika nazariyasi asosida tahlil qilindi. Uning fikricha, ommaviy nutq har doim ishontirish, ta’sir ko‘rsatish va auditoriya munosabatini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi [10]. Bu holat jurnalist nutq madaniyatida ritorik kompetensiyaning alohida o‘rni borligini ko‘rsatadi.

Nutq madaniyati tushunchasining nazariy talqini. Nutq madaniyati tushunchasi tilshunoslikda ko‘p qirrali kategoriya sifatida qaraladi. U til me’yorlariga rioya qilish, nutqning aniqligi, mantiqiyligi, ta’sirchanligi va estetik qiymatini qamrab oladi. Belchikov nutq madaniyatini shaxsning tilga bo‘lgan umumiy munosabati va kommunikativ ongining ifodasi sifatida ta’riflaydi [3].

Jurnalistika kontekstida nutq madaniyati alohida kasbiy mazmun kasb etadi. Kolesnikov ta’kidlaganidek, jurnalistik matn nafaqat axborot yetkazadi, balki uni qanday shaklda yetkazishi bilan ham ahamiyatlidir. Shu sababli nutq madaniyati jurnalistik tahrir, janr xususiyatlari va auditoriya ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq [8].

O‘zbek ilmiy an’anasida nutq madaniyati notiqlik mahorati bilan chambarchas bog‘liq holda qaraladi. O‘rinboev va Soliev asarlarida nutq madaniyati ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida talqin qilinib, notiq shaxsning ma’naviy va axloqiy mas’uliyatiga alohida e’tibor qaratilgan [5]. Qung‘urov, Begmatov va Tojiev esa nutq madaniyatini uslubiyat asoslari bilan bog‘lab, til vositalarini maqsadga muvofiq qo‘llashni asosiy mezon sifatida ko‘rsatadilar [6].

Metodologiya. Jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasini o‘rganish kompleks metodologik yondashuvni talab qiladi. Bu masala faqat til me’yorlarini tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, ommaviy kommunikatsiya, psixologiya, ritorika va pragmatika sohalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli tadqiqot metodologiyasi fanlararo xarakterga ega bo‘lib, bir nechta nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg‘unligiga tayanadi.

Tadqiqotning metodologik asosini nutq madaniyatini normativ va kommunikativ-pragmatik birlikda talqin qiluvchi konsepsiyalar tashkil etadi. Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga ko‘ra, nutq madaniyati til me’yorlariga qat’iy rioya qilish bilan birga, nutqning kommunikativ samaradorligi, maqsadga muvofiqligi va ijtimoiy ta’siri bilan belgilanadi [4]. Jurnalistik nutq esa aynan shu jihatlar bilan xarakterlanadi, chunki u ommaviy auditoriyaga qaratilgan va har doim muayyan pragmatik vazifani bajaradi.

Metodologik tahlil jarayonida lingvistik yondashuv asosiy o‘rin tutadi. U jurnalist nutqida adabiy til me’yorlarining saqlanishi, leksik tanlov, sintaktik tuzilish va uslubiy moslik masalalarini qamrab oladi. Belchikov ta’kidlaganidek, nutq madaniyatining lingvistik asosi til tizimini chuqur anglash va undan ongli ravishda foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi [3]. Shu sababli jurnalistik ta’limda tilshunoslik bilimlari nutq madaniyati kompetensiyalarining poydevori sifatida qaraladi.

Stilistik yondashuv tadqiqot metodologiyasining muhim qismi hisoblanadi. Jurnalistik nutq turli janrlar, formatlar va auditoriyalar uchun moslashuvchan bo‘lishi lozim. Kolesnikov ta’kidlaganidek, stilistik tahlil jurnalistik matnning ifodalilik darajasini, janr talablariga mosligini va tahrir madaniyatini aniqlash imkonini beradi [8]. Shu nuqtai nazardan, nutq

madaniyati kompetensiyalari strukturasida stilistik ong alohida metodologik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda kommunikativ-pragmatik yondashuv ham qo‘llanildi. Bu yondashuv nutqni faqat til birliklari majmuasi sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyatda amalga oshiriladigan maqsadli faoliyat sifatida ko‘rib chiqadi. Baranov va Parshin ta’kidlaganidek, ommaviy kommunikatsiyada til voqelikni interpretatsiya qilish vositasi bo‘lib, jurnalist nutqi orqali auditoriya ongida muayyan ma’no va baholar shakllanadi [1]. Shu sababli tadqiqotda jurnalist nutq madaniyatining pragmatik yuklamasi alohida tahlil qilindi.

Psixologik yondashuv metodologiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jurnalist nutqi har doim inson ongiga qaratilgan bo‘lib, u ishontirish, ta’sir ko‘rsatish va ba’zan manipulyatsiya mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Dotsenkoning manipulyatsiya psixologiyasiga oid tadqiqotlari jurnalist nutq madaniyatini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [7]. Bu yondashuv jurnalistning psixologik madaniyati, etik mas’uliyati va auditoriyaga nisbatan ongli munosabatini o‘rganish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ritorik yondashuv tadqiqot metodologiyasida markaziy o‘rin egallaydi. Rojdestvenskiy ta’kidlaganidek, ommaviy nutq har doim ishontirishga qaratilgan bo‘lib, unda argumentatsiya, obrazlilik va ta’sirchanlik muhim ahamiyat kasb etadi [10]. O‘rinboev va Soliev hamda Qung‘urov, Begmatov va Tojiev asarlarida notiqlik mahorati va nutq madaniyatining o‘zaro bog‘liqligi keng yoritilgan [5], [6]. Shu asosda jurnalist nutq madaniyati kompetensiyalarining ritorik komponenti alohida tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslama usul ham qo‘llanildi. U orqali rus va o‘zbek ilmiy an’anasida nutq madaniyati tushunchasining talqinlari solishtirildi va jurnalistik ta’lim uchun umumiy nazariy xulosalar ishlab chiqildi. Bu usul nutq madaniyati kompetensiyalarining universal va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Umuman olganda, mazkur metodologiya jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasini tizimli ravishda ochib berish, uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va keyingi tahlil bosqichlari uchun ilmiy asos yaratishga qaratilgan.

Natijalar. Olib borilgan nazariy va metodologik tahlillar jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarini yaxlit va iyerarxik tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Nutq madaniyati jurnalist kasbiy tayyorgarligining alohida elementi emas, balki uning professional identifikatsiyasini belgilaydigan markaziy kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nutq madaniyati kompetensiyalari bir nechta o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ularning har biri jurnalist faoliyatida muayyan funksional yuklamaga ega.

Jurnalist nutq madaniyatining asosiy poydevorini lingvistik kompetensiya tashkil etadi. Bu kompetensiya adabiy til normalariga rioya qilish, grammatik to‘g‘rilik, leksik aniqlik va nutqning mantiqiy izchilligi bilan xarakterlanadi. Belchikov ta’kidlaganidek, til me’yorlarini bilish va ularni ongli ravishda qo‘llay olish nutq madaniyatining eng asosiy belgisidir [3]. Jurnalistik nutqda bu talab yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi, chunki ommaviy axborot vositalari tili ko‘p millionli auditoriya uchun namunaviy til sifatida qabul qilinadi. Shu sababli jurnalist nutqidagi har qanday me’yoriy og‘ish jamiyatda til madaniyatining umumiy darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, lingvistik kompetensiya jurnalist uchun faqat texnik bilimlar majmuasi emas, balki kasbiy mas’uliyat shaklidir. Jurnalist nutqi orqali til me’yorlari ommalashadi, mustahkamlanadi yoki aksincha, zaiflashadi. Shu nuqtai nazardan, jurnalistik ta’limda lingvistik tayyorgarlik nutq madaniyati kompetensiyalarining boshlang‘ich bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Nutq madaniyati kompetensiyalarining keyingi muhim tarkibiy qismi stilistik kompetensiya hisoblanadi. Bu kompetensiya jurnalistning turli janrlarda, turli axborot formatlarida va turli auditoriyalar uchun nutqni moslashtirish qobiliyatini ifoda etadi. Kolesnikov ta’kidlaganidek, stilistik madaniyat jurnalistik matnning sifatini belgilaydigan asosiy omillardan biri bo‘lib, u janr talablari, ifodalilik va tahrir madaniyati bilan uzviy bog‘liq [8]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, stilistik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatida dinamik xarakterga ega bo‘lib, u vaziyatga qarab doimiy ravishda qayta konfiguratsiyalanib turadi.

Jurnalist nutqida stilistik kompetensiyaning yetarli darajada rivojlanmagani axborotning noaniqligi, janrlar o‘rtasidagi chegaralarning buzilishi va auditoriya bilan kommunikativ uzilishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli stilistik kompetensiya jurnalist nutq madaniyati strukturasida mustaqil, biroq lingvistik asosga tayangan holda shakllanadigan tarkibiy qism sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari ritorik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatining eng ta’sirchan va ijtimoiy ahamiyatga ega qismi ekanini ko‘rsatdi. Ritorik kompetensiya jurnalistning ishontirish, dalillash, auditoriya diqqatini jalb qilish va muayyan nuqtai nazarni shakllantirish qobiliyati bilan bog‘liq. Rojdestvenskiy ta’kidlaganidek, ommaviy nutq doimo ritorik xarakterga ega bo‘lib, u auditoriya ongiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan [10]. Jurnalist faoliyatida esa bu xususiyat markaziy o‘rinni egallaydi.

O‘rinboev va Soliev asarlarida notiqlik mahorati nutq madaniyatining amaliy ifodasi sifatida qaralib, notiq shaxsning ijtimoiy mas’uliyatiga alohida e’tibor qaratilgan [5]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ritorik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatida faqat texnik usullar bilan cheklanmaydi, balki axloqiy va ma’naviy omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ishontirish va ta’sir ko‘rsatish imkoniyati jurnalistdan yuqori darajadagi mas’uliyatni talab qiladi.

Kommunikativ-pragmatik kompetensiya nutq madaniyati strukturasida integrativ xarakterga ega bo‘lgan tarkibiy qism sifatida namoyon bo‘ladi. Bu kompetensiya nutq maqsadi, auditoriya xususiyatlari, ijtimoiy kontekst va kommunikatsiya sharoitlarini hisobga olgan holda nutqni tashkil etish qobiliyatini qamrab oladi. Vinogradov ta’kidlaganidek, nutq madaniyatining kommunikativ samaradorligi uning pragmatik mosligi bilan belgilanadi [4]. Jurnalist nutqi esa aynan pragmatik jihatdan eng yuqori yuklamaga ega bo‘lgan nutq turidir.

Baranov va Parshin tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaga ko‘ra, ommaviy kommunikatsiyada til voqelikni turlicha interpretatsiya qilish imkonini beradi va bu jarayon jurnalist nutqi orqali amalga oshadi [1]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ-pragmatik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatida markaziy bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi, chunki u lingvistik, stilistik va ritorik komponentlarni amaliy kommunikatsiyada birlashtiradi.

Nutq madaniyati kompetensiyalarining yana bir muhim tarkibiy qismi psixologik madaniyat bilan bog‘liq. Jurnalist nutqi inson ongiga qaratilgan bo‘lib, u har doim psixologik ta’sir elementlarini o‘z ichiga oladi. Dotsenko ta’kidlaganidek, manipulyatsiya inson ongiga

yashirin ta’sir ko‘rsatish shakli bo‘lib, u asosan til vositasida amalga oshiriladi [7]. Tadqiqot natijalari jurnalist nutq madaniyatida psixologik kompetensiyaning ahamiyati juda yuqori ekanini ko‘rsatdi.

Kuzin asarlarida jurnalist shaxsining psixologik madaniyati, uning kasbiy barqarorligi va auditoriya bilan munosabati alohida ta’kidlanadi [9]. Olingan natijalarga ko‘ra, psixologik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatining axloqiy va etik o‘lchovini belgilaydi. Bu kompetensiya jurnalistga o‘z nutqiy ta’sirining oqibatlarini anglash, auditoriyaga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lish va manipulyativ ta’sirni ongli ravishda cheklash imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasi ko‘p qatlamli, iyerarxik va dinamik tizim ekanini ko‘rsatdi. Bu strukturada lingvistik kompetensiya asos sifatida namoyon bo‘lsa, stilistik va ritorik kompetensiyalar nutqning ifodaliligi va ta’sirchanligini ta’minlaydi, kommunikativ-pragmatik kompetensiya esa ularni amaliy muloqotda birlashtiradi. Psixologik madaniyat esa butun tizim

Muhokama. Olingan natijalar jurnalistlarni tayyorlash tizimida nutq madaniyatiga bo‘lgan an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Amalda nutq madaniyati ko‘p hollarda adabiy til me’yorlarini bilish va yozma nutqda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik bilan cheklanib qoladi. Biroq tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, jurnalist nutq madaniyati bundan ancha kengroq mazmunga ega bo‘lib, u ijtimoiy ta’sir, kommunikativ strategiya va psixologik mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq kompleks kompetensiya sifatida shakllanadi.

Jurnalistik nutqning o‘ziga xosligi shundaki, u doimo ommaviy auditoriyaga qaratilgan bo‘ladi va uning ta’sir doirasi juda keng. Shu sababli nutq madaniyati jurnalist uchun faqat kasbiy mahorat ko‘rsatkichi emas, balki jamoatchilik oldidagi axloqiy majburiyat ham hisoblanadi. Vinogradov ta’kidlaganidek, nutq madaniyatining kommunikativ-pragmatik samaradorligi uning ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadi [4]. Jurnalist nutqi esa aynan shu ijtimoiy ahamiyat nuqtai nazaridan eng mas’uliyatli nutq turlaridan biri hisoblanadi.

Muhokama jarayonida aniqlandiki, nutq madaniyati kompetensiyalarining har biri jurnalist faoliyatida alohida funksiya bajarsa-da, ularni bir-biridan ajratilgan holda shakllantirish samara bermaydi. Lingvistik kompetensiya stilistik va ritorik kompetensiyalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, ammo u o‘z-o‘zidan ta’sirchan va ishonchli jurnalist nutqini ta’minlay olmaydi. Stilistik va ritorik kompetensiyalar esa kommunikativ-pragmatik ong bilan uyg‘unlashgandagina samarali ishlaydi.

Baranov va Parshin tomonidan asoslangan tilning variativ interpretatsiya mexanizmi jurnalist nutq madaniyati muhokamasida alohida ahamiyat kasb etadi [1]. Jurnalist voqelikni tasvirlar ekan, u har doim muayyan nuqtai nazarni tanlaydi, ayrim jihatlarni oldinga suradi, boshqalarini esa ikkinchi darajaga o‘tkazadi. Bu jarayon til vositasida amalga oshiriladi va aynan shu yerda nutq madaniyatining ta’sirchanlik va manipulyativ salohiyati namoyon bo‘ladi.

Dotsenko ta’kidlaganidek, manipulyatsiya har doim ochiq zo‘ravonlik shaklida emas, balki yashirin ta’sir sifatida amalga oshadi [7]. Jurnalist nutqida bunday ta’sir ko‘p hollarda uslubiy tanlov, baholovchi leksika, metaforalar va argumentatsiya orqali yuzaga keladi. Muhokama natijalari shuni ko‘rsatdiki, nutq madaniyatining yuqori darajasi jurnalistga manipulyativ mexanizmlarni anglash va ulardan ongli ravishda foydalanish yoki ularni cheklash imkonini beradi.

Bu holat jurnalistik ta’limda psixologik madaniyatni nutq madaniyati kompetensiyalarining ajralmas qismi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi. Kuzin ta’kidlaganidek, jurnalistning psixologik madaniyati uning kasbiy barqarorligi, auditoriya bilan munosabati va ijtimoiy mas’uliyatini belgilaydi [9]. Nutq madaniyatining psixologik komponenti jurnalistga o‘z ta’sirining oqibatlarini oldindan anglash, auditoriyaning emotsional holatini hisobga olish va ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirib yubormaslik imkonini beradi.

Muhokama jarayonida o‘zbek va rus ilmiy an’analarida nutq madaniyatiga bo‘lgan yondashuvlar o‘rtasidagi umumiylik va farqli jihatlar ham namoyon bo‘ldi. O‘rinboev va Soliev hamda Qung‘urov, Begmatov va Tojiev asarlarida nutq madaniyati notiqlik mahorati, ma’naviy yetuklik va jamoatchilik oldidagi mas’uliyat bilan bog‘lab talqin qilinadi [5], [6]. Bu yondashuv jurnalist nutq madaniyatining axloqiy o‘lchovini kuchli ravishda ta’kidlaydi.

O‘zbek tilida esa nutq madaniyati ko‘proq kommunikativ samaradorlik, stilistik moslik va pragmatik maqsadga yo‘naltirilganlik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi [3], [4], [8]. Muhokama natijalari shuni ko‘rsatdiki, jurnalistlarni tayyorlashda mazkur yondashuvlarni integratsiya qilish eng maqbul variant hisoblanadi. Chunki jurnalist faoliyatida ham axloqiy mas’uliyat, ham kommunikativ samaradorlik birdek muhimdir.

Shuningdek, muhokama jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarini shakllantirishning ta’limiy jihatlari ham tahlil qilindi. Boqieva va Teshaboeva ta’kidlaganidek, jurnalist nutq madaniyatini shakllantirish nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi, amaliy mashqlar, nutqiy tahlil va ritorik tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirilishi lozim [2]. Tadqiqot natijalari bu fikrni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko‘rsatadiki, jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalari tizimli, bosqichma-bosqich va integrativ yondashuv asosida shakllantirilishi zarur. Bu yondashuv jurnalist nutqini nafaqat to‘g‘ri va chiroyli, balki ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli va ta’sir oqibatlarini anglaydigan darajaga olib chiqadi.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqot jurnalistlarni tayyorlash jarayonida nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasi murakkab, ko‘p qatlamli va funksional jihatdan o‘zaro bog‘liq tizim ekanini ko‘rsatdi. Nutq madaniyati jurnalist kasbiy faoliyatida yordamchi ko‘nikma yoki ikkinchi darajali mahorat emas, balki uning professional identifikatsiyasini belgilaydigan asosiy kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Jurnalist nutqi orqali axborot nafaqat yetkaziladi, balki ijtimoiy ma’nolar shakllantiriladi, voqelik muayyan nuqtai nazardan talqin qilinadi va auditoriya ongiga ta’sir ko‘rsatiladi [1].

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, jurnalist nutq madaniyatining asosiy poydevorini lingvistik kompetensiya tashkil etadi. Adabiy til me’yorlarini puxta bilish, leksik aniqlik va grammatik to‘g‘rilik jurnalist nutqining ishonchliligi va jamoatchilik tomonidan qabul qilinishini ta’minlaydi. Belchikov ta’kidlaganidek, nutq madaniyati til tizimini ongli ravishda egallash va uni kommunikativ maqsadlarga muvofiq qo‘llay olish qobiliyati bilan belgilanadi [3]. Jurnalist uchun esa bu qobiliyat kasbiy mas’uliyat darajasiga ko‘tariladi.

Stilistik kompetensiya jurnalist nutq madaniyati strukturasida muhim funksional bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ladi. U jurnalistning turli janrlarda, turli axborot formatlarida va turli auditoriyalar uchun nutqni moslashtirish qobiliyatini ta’minlaydi. Kolesnikov ta’kidlaganidek, stilistik madaniyat jurnalistik matnning ifodaliligi, janrga mosligi va tahrir sifati bilan uzviy bog‘liq [8]. Tadqiqot natijalari stilistik kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmagani jurnalistik nutqda noaniqlik va kommunikativ uzilishlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Ritorik kompetensiya jurnalist nutq madaniyatining ijtimoiy ta’sirchanlik salohiyatini belgilaydigan asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Rojdestvenskiy ta’kidlaganidek, ommaviy nutq har doim ishontirishga qaratilgan bo‘lib, unda argumentatsiya, obrazlilik va ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari markaziy o‘rin tutadi [10]. O‘rinboev va Soliev hamda Qung‘urov, Begmatov va Tojiev asarlarida notiqlik mahorati jurnalist nutq madaniyatining amaliy ifodasi sifatida talqin qilinishi mazkur xulosani qo‘llab-quvvatlaydi [5], [6].

Kommunikativ-pragmatik kompetensiya nutq madaniyati strukturasida integrativ xarakterga ega bo‘lib, u barcha boshqa komponentlarni amaliy muloqot jarayonida birlashtiradi. Vinogradov ta’kidlaganidek, nutq madaniyatining samaradorligi uning kommunikativ maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi [4]. Jurnalist nutqi esa auditoriya xususiyatlari, ijtimoiy kontekst va axborot vaziyatini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina yuqori samara beradi.

Psixologik madaniyat jurnalist nutq madaniyati kompetensiyalarining axloqiy va ijtimoiy o‘lchovini belgilaydi. Dotsenko ta’kidlaganidek, til orqali amalga oshiriladigan manipulyativ ta’sir ko‘p hollarda yashirin xarakterga ega bo‘ladi [7]. Kuzin esa jurnalist shaxsining psixologik barqarorligi va auditoriya bilan munosabati kasbiy madaniyatning muhim ko‘rsatkichi ekanini ta’kidlaydi [9]. Tadqiqot natijalari psixologik kompetensiya jurnalistga o‘z nutqiy ta’sirining oqibatlarini anglash va ijtimoiy mas’uliyatni his etish imkonini berishini ko‘rsatdi.

Umumiy xulosa sifatida ta’kidlash joizki, jurnalistlarni tayyorlashda nutq madaniyati kompetensiyalarini alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllantirish zarur. Bunday yondashuv jurnalist nutqini to‘g‘ri, ifodali va ta’sirchan qilish bilan birga, uni ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli va axloqiy barqaror darajaga olib chiqadi. Boqieva va Teshaboeva ta’kidlaganidek, nutq madaniyati va notiqlik san’atini o‘qitish jurnalistik ta’limning ajralmas qismi bo‘lishi lozim [2].

Shu tariqa, mazkur tadqiqot jurnalistlarni tayyorlash tizimida nutq madaniyati kompetensiyalarining strukturasini ilmiy jihatdan asoslab, ularni shakllantirishning kompleks va integrativ modelini taklif qiladi. Bu model zamonaviy axborot makonida professional, mas’uliyatli va yuqori nutqiy madaniyatga ega jurnalistlarni tayyorlash uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Баранов А.Н. Языковые механизмы вариативной интерпретации действительности как средство воздействия на сознание / А.Н. Баранов, П.Б.Паршин // Роль языка в средствах массовой коммуникации. М.: ИНИОН, 1986.- С. 100-143.
2. Боқиева Г.Х., Тешабоева Д. М. Журналистнинг нутқ маданияти ва нотиқлик санъати (ўқув-методик ишланма)
3. Бельчиков Ю.А. Стилистика и культура речи / Ю.А. Бельчиков. -М.: УРАО, 2000. 160 с.
4. Виноградов С.И. Нормативный и коммуникативно-прагматический аспекты культуры речи / Отв. ред. Л.К. Граудина, Е.Н. Ширяев. // Культура русской речи и эффективность общения. М.: Наука, 1996. - 440 с.
5. Б.Ўринбоев, А С олиев. Нотиқлик маҳорати Т. 1984
6. И . Р.Қунгуров, Э.Бегматов, Ё.Тожиев. Нутқ маданияти ва услубияти асослари Т. 1992

7. Доценко Е. JI. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита/ Е.Л. Доценко. СПб.: Речь, 2003. - 304 с.
8. Колесников Н.П. Стилистика и литературное редактирование/ Н.П. Колесников. Ростов н/Д: МарТ, 2003. - 192с.
9. Кузин В.И. Психологическая культура журналиста/ В.И. Кузин. -СПб.: СПБГУ, 2004. 200 с.
10. Рождественский Ю.В. Теория риторики/ Ю.В. Рождественский. -М.: Добросвет, 1999. 482 с.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

ASSOCIATIVE EXPERIMENT AS A PSYCHOLINGUISTIC METHOD

Alimova Shakhnoza Yakhshiboyevna
Senior Lecturer at Termez State Pedagogical Institute
E-mail: alimova.shaxnoza@gmail.com

Abstract. This article mainly discusses the methods of free associative experiment and comparative analysis. These methods serve to reveal specific aspects of the structural and content structure of the concept under study. According to the terms of the associative experiment, at first glance, it is very simple, since subjects are asked to respond to a certain set of stimulus words with any word that comes to their mind as quickly as possible.

Keywords: «The Landscape of the World», A.R. Luria, associative experience, psycholinguist, D. Klein, nepotism, semantic differentiation, sociolinguistics, «bribe-taking», ethnopsycholinguistics, «conjugate motor technique», heuristic.

ASSOTSIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA

Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna
Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan erkin assotsiativ tajriba va qiyosiy tahlil metodlari yoritib o‘tilgan. Bu metodlar o‘rganilayotgan tushunchaning struktura va mazmuniy tuzilishining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Assotsiativ tajriba shartlariga ko‘ra, bir qarashda, bu juda oddiy, chunki subyektlardan ma’lum bir stimul so‘zlar to‘plamiga ularning xayoliga kelgan har qanday so‘z bilan imkon qadar tezroq javob berish so‘raladi.

Kalit so‘zlar: “Olam manzarasi”, A.R.Luriya, assotsiativ tajriba, psixolingvist, D.Klyayn, nepotizm, semantik differensiatsiya, sotsiolingvistik, “poraxo‘rlik”, etnopsixolingvistika, «konjugat motorika texnikasi», evristik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N30

Kirish. Til odamlarning hayoti, hayot tarzi, tafakkuri, his-tuyg‘ulari bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun ham qarindosh bo‘lmagan tillarning semantikasida namoyon bo‘ladigan dunyo lisoniy manzarasini o‘rganish yigirma birinchi asr tilshunosligining eng muhim istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Etnopsixolingvistika nuqtai nazaridan ingliz va o‘zbek madaniyatlaridagi antiqadriyat poraxo‘rlikning mazmuniy va struktura tuzilishi xususiyatlarini eksperimental tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotimizning asosan erkin assotsiativ tajriba va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar o‘rganilayotgan tushunchaning struktura va mazmuniy tuzilishining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Psixolingvistikaning assotsiativ tajriba, semantik differensiatsiya, integratsiyalash kabi metodlari orqali ma’lum bir leksemaning mental tarkibini bevosita o‘rganish mumkin. Mazkur usullar jamiyatning ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladigan poraxo‘rlikning har doim ham aniq bo‘lmagan munosabatini tashqaridan tashxislash imkonini beradi va shu bilan birga korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda obyektiv asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bu, birinchidan, tadqiqotimizning sotsiolingvistik ahamiyatini aniqlab beradi. Ikkinchidan, tajriba sinov ishlari natijalarini qiyoslash resipiyentlarning etnik o‘ziga xos xususiyatlari va subyektlarning qadriyatlar bo‘yicha yo‘nalishlarini baholashga imkon beradi.

Odamlarning psixologik hayotining o‘ziga xos xususiyatlari qarashlar, baholashlar, me’yorlar va tafakkur tizimi orqali ochib beriladi. Ma’lum bir jamiyatning bilim va e’tiqodlari, ehtiyojlari va arxetiplari bilan birgalikda qadriyatlar iyerarxiyasini belgilaydi, shuning uchun ma’lum bir jamiyat vakillariga xos bo‘lgan e’tiqodlar, ideallar, moyilliklar, manfaatlar va boshqa ijtimoiy munosabatlar bir jamoani boshqalardan ajratib turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. A.A.Leontev ta’rifiga ko‘ra etnopsixolingvistika nutqiy operatsiyalar va nutqiy aktlarda, nutq faoliyatining integral aktlarida, til va boshqa funksional ekvivalent belgilar tizimlaridan bilish vositasi sifatida foydalanilganda, nutqiy aloqalarni tashkil etish jarayonlaridagi (tashqi va ichki) milliy — madaniy o‘zgaruvchanlikni o‘rganadi [5]. Shu bois, zamonaviy etnopsixolingvistikaning asosiy muammolaridan biri bu shaxs dunyoqarashining milliy-madaniy o‘ziga xosligini o‘rganish va aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlarni etnik «olam manzarasi» konsepsiyasiga integratsiya qilish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ingliz va o‘zbekzabon xalqlarning assotsiativ aloqalarida antiqadriyat “poraxo‘rlik” konsepsiyasining milliy - madaniy o‘zgarishini o‘rganish, turli lingvomadaniyatlarning assotsiativ — verbal aloqalarida umumiy va farqli jihatlarini aniqlash dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy psixolingvistikada turli lingvomadaniyatlarga mansub xalqlarning dunyoqarashida umumiy va farqli tomonlarini aniqlashning eng samarali usuli – bu assotsiativ tajriba bo‘lib, u assotsiativ — verbal aloqalarga bevosita kira olish va o‘ziga xos xususiyatlarni baholash va assotsiativ me’yorlarni shakllantirish kabi imkoniyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Tadqiqotning ushbu yo‘nalishi samarali va yuqori darajada pragmatik va evristik deb topilgan.

Assotsiativ tajriba yigirmanchi asr boshlarida K.G.Yung, M.Vertxaymer va D.Klyayn kabi olimlar tomonidan deyarli bir vaqtda taklif etilgan tajriba o‘tkazish metodi bo‘lib, bu shaxsning oldingi tajribasida shakllangan assotsiatsiyalarni aniqlashga qaratilgan ilmiy usul hisoblanadi hamda shaxs motivatsiyasi va nutqning shakllanishi jarayonini o‘rganish imkonini beradi [5].

Muhokama va natijalar. Assotsiativ tajriba shartlariga ko‘ra, bir qarashda, bu juda oddiy, chunki subyektlardan ma’lum bir stimul so‘zlar to‘plamiga ularning xayoliga kelgan har qanday so‘z bilan imkon qadar tezroq javob berish so‘raladi. Tajribada paydo bo‘lgan assotsiatsiyalarning turi va semantik mazmuni, o‘xshash assotsiatsiyalarning chastotasi, yashirin davrlarining vaqtini (undovchi stimul) so‘z va subyektning javobi o‘rtasidagi vaqt), shaxsning xulq-atvor va fiziologik reaksiyalari va shaxs faoliyatining boshqa ko‘plab xususiyatlarini aniqlash mumkin. Tajriba orqali to‘plangan ma’lumotlarning tabiatiga ko‘ra, subyektning affekt holatlari, uning psixologik dunyoqarashi, munosabati, faoliyat motivlari, shu jumladan nutqiy faoliyat motivlari va boshqalarni baholash mumkin. Assotsiativ tajriba boshqa tajriba usullari bilan yaxshi uyg‘unlasha oladi. Masalan, 1920-yillarda A.R.Luriya assotsiativ tajribaning o‘zgartirilgan versiyasi, ya’ni affekt ta’sirida yuzaga keladigan yashirin izlarni tashxislash uchun «konjugat motorika texnikasi»ni tavsiya etadi. Respondentlar og‘zaki javob berish bilan bir vaqtda ikkala qo‘li bilan ham ma’lum harakatlarni bajarishi kerak edi (masalan, ikkala qo‘lning ko‘rsatkich barmoqlari bilan ikkita telegraf tugmachasini bosish kabi). Affektning «yashirin izlari»ni mavjudligi nafaqat og‘zaki javoblarni tahlil qilish asosida, balki

yuzaga keladigan motor reaksiyalari va ogʻzaki javoblar oʻrtasidagi bogʻliqlikning uygʻun yoki uygʻun kelmasligini (asosan, sinxronligini) aniqlashda ham qoʻllaniladi. Dastlab, ushbu usul sud amaliyotida yolgʻon guvohlikni aniqlashda, shuningdek psixiatriyada qoʻllanilgan va hozirgi vaqtda psixodiagnostika va tadqiqot maqsadlarida assotsiativ tajribaning turli xil modifikatsiyalarida qoʻllaniladi [4].

Assotsiativ tajribalarining bir necha turlari mavjud. Jumladan:

1. Erkin assotsiativ tajriba. Bu usulning birinchi versiyalari E.Krayepelin, K.Yung, M.Vertxaymer va boshqalar tomonidan tavsiya etilgan. Bu usul subyekt eksperimentator tomonidan taqdim etilgan ogohlantiruvchi soʻzga javob sifatida, imkon qadar tezroq javob beradi. «Aqlga keladigan birinchi soʻz.»

2. Yoʻnaltirilgan assotsiativ tajriba. Bu usulning erkin assotsiativ tajribadan farqi shundaki, subyektdan biror bir soʻz bilan emas, balki cheklangan hududdagi soʻz bilan javob berish soʻraladi (masalan, javob soʻzi sinonim, konkret tushuncha, sifat va hokazo boʻlishi kerak). Bunda verbal birliklar orasidagi bogʻlanishlarning ma’lum bir turi maqsadli oʻrganiladi.

3. Zanjirli assotsiativ tajriba. Bu usul yordamida subyekt ma’lum bir cheklangan vaqt ichida berilgan stimul soʻzga taalluqli bir qator assotsiatsiyalarni talaffuz qiladi yoki yozadi. Yoʻnaltirilgan zanjirli assotsiativ tajriba ham mavjud boʻlib, eksperimentator tomonidan assotsiatsiyalarning xususiyatlari (nutqda qoʻllanilish chastotasi, semantik doira, leksik-tematik guruh va boshqalar) kabilar alohida tanlab beriladi.

Erkin assotsiativ tajriba boshqa introspektiv usullar orqali aniqlab boʻlmaydigan shaxsning assotsiativ verbal tajribasini bevosita kuzatish imkonini beradi. Erkin assotsiativ tajribaning vazifalari subyektlar va eksperimentator oʻrtasidagi muloqotni, kognitiv muammolarni hal qilishni yoki tajriba natijalarini bevositalikdan uzoqlashtiradigan va ularning tushunish darajasini oshiradigan murakkab sun’iy kommunikativ vaziyatlarni yaratishni oʻz ichiga olmaydi, chunki bu shaxs dunyoqarashidagi assotsiativ tarmoq xususiyatini aniqlashga yordam bermaydi. Stimullar bilan chuqur semantik bogʻlanishni namoyish etadigan assotsiatsiyalar psixologiya, tilshunoslik, etnologiya, psixiatriya va boshqa ilmiy sohalarda erkin assotsiativ tajriba yordamida koʻplab muammolarni hal qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqotimizning maqsadi “poraxoʻrlik” konseptining struktura va mazmuniy tuzilishi xususiyatlarini aniqlashdan iborat boʻldi. Tadqiqotda erkin assotsiativ tajriba usulidan foydalanildi, chunki u aniq kommunikativ sharoitlarda qoʻllaniladigan nutqiy akt sifatida stimul – reaksiya javob munosabatlarini tahlil qilish orqali ushbu antiqadriyatni bildiruvchi soʻzning tub ma’nolarini ochish imkonini beradi [3].

Nutqiy aktning sodir boʻlish sharoitlari erkin assotsiativ tajribada oʻta umumiy tarzda koʻrsatilishi sababli, har bir sinalayotgan subyekt oʻziga tegishli boʻlgan va ma’lum individual ma’noni anglatuvchi, har doim ham invariant lugʻaviy leksema tarkibida ifodalanib boʻlmaydigan assotsiativ bogʻlanishni amalga oshiradi. Erkin assotsiativ tajriba soʻz — assotsiatsiyalarning potensial semantik aloqalarini ochib beradi hamda ularning takrorlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda soʻz ma’nosi dinamikasidagi tendensiyalarni, xususan, bilvosita – asosiy etnik qadriyatlar va antiqadriyatlarning evolyutsiyasini kuzatish imkonini beradi.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, turli xil tahlil usullarini uygʻunlashtirish orqali kutilgan natijalarga erishish mumkin. Shunday qilib, soʻzning yadroviy ma’nolarini aniqlashda subyektiv

definisiya usuli va til birligi semantikasi periferiyasini maksimal darajada to‘liq tavsiflashda assotsiativ tajriba usuli eng samarali hisoblanadi.

Erkin assotsiativ tajriba psixologik jihatdan muhim hisoblanadigan ma’nolarni aniqlash, va aytaylik, zamonaviy tilshunoslikka xos bo‘lmagan eskirgan ma’nolarni aniqlash, ya’ni leksikografik tahlilni amalga oshirishda samarali usul hisoblanadi. Bu esa mazmuniy struktura tuzish imkonini beradi, uning yadro va periferiyalarini hisobga olgan holda, bir vaqtning o‘zida assotsiatsiyalar chastotasini, so‘z ma’nosining dinamikasini namoyish etadi. Assotsiativ tajribalarda olingan javoblar asosida ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan ma’lum bir stimul so‘zlarning assotsiativ maydonlari modellashtiriladi [2].

Assotsiativ maydon bu – psixolingvistik konstruksiya bo‘lib, so‘zdagi assotsiativ-verbal aloqalarning struktur — semantik in’ikosidir. Ushbu termin olam manzarasining turli aspektlarini – psixologik, ijtimoiy, madaniy jihatlarini izohlash imkonini beradi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ma’lum bir yaqinlashish bilan ham, shaxsning olamni anglashi haqida xulosa chiqarish mumkin.

“Poraxo‘rlik” konseptining assotsiativ qatlamini aniqlash uchun ingliz va o‘zbek millatiga mansub odamlardan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomaga ko‘ra, ingliz tilida so‘zlashuvchilar (inglizlar 80, o‘zbeklar 110 nafar) o‘rtasida pora, poraxo‘rlik bo‘yicha assotsiativ tajriba o‘tkazdik. Tajribada turli yoshdagi respondentlar ishtirok etgan.

Tajribani olib borish sharoiti quyidagicha bo‘ldi: tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan “poraxo‘rlik” konsepti so‘rovnomada taqdim etildi, respondentlar «xayoliga kelgan birinchi so‘z bilan», ya’ni o‘ylamasdan javob berishlari so‘raldi. Respondentlarga anketani to‘ldirish uchun standart vaqt, ya’ni konsept haqida o‘ylamasdan javoblarni yozishlari uchun zarur bo‘lgan taxminiy vaqt berildi. To‘ldirilgan anketalarning umumiy soni 190 tani tashkil etdi.

So‘rovnomalar poraxo‘rlikka tegishli so‘zlarning assotsiativ qatlamlarini modellashtirish uchun asos bo‘ldi. Assotsiativ maydonlarning tarkibi uchinchi bobda yoritilgan assotsiativ tajribalar mezonlari yordamida o‘rganildi [1].

Shu o‘rinda inglizlarning olam manzarasida poraxo‘rlik antiqadriyatining struktura va mazmuniy tuzilishini tahlil qilish bo‘yicha olib borgan izlanishlarimiz natijalarini sharhlab o‘tamiz. Quyida havola etiladigan ma’lumotlar asosan ingliz va o‘zbek madaniyatida iqtisodiy, moliya, yuridik va tadbirkorlik faoliyatlarining yuritilishi misolida ko‘rsatilgan.

Ma’lumki, G‘arb dunyoqarashi universalistik xarakterga ega bo‘lib, bu mamlakatlar xalqlari nazarida har bir jamiyat xuddi shunday ish tutishi kerak deb hisoblaydilar. Bu mamlakatlarda biznes amaliyoti shaffoflik bilan ajralib turadigan va hamma uchun amal qiladigan qonunlar bilan tartibga solinadigan bozor tizimiga asoslanishi kerak degan tushuncha mavjud. Ushbu modelga mos kelmagan mamlakat kam rivojlangan yoki disfunksiyali deb hisoblanadi. Biroq, masala shundaki, turli madaniyatlar hayot tarzida, ish yuritishida bir — biridan tubdan farq qiladigan tizimlardan foydalanadilar. G‘arb madaniyatlari asosan qoidalarga bo‘ysunadi va hayot tarzlarida ham qonunlarga asoslanadi, dunyo madaniyatlarining aksariyati esa qarindoshchilik munosabatlariga asoslanib yashaydi. G‘arbliklar davlat tomonidan joriy etilgan tizimga ishonishadi, O‘rta Osiyo mamlakatlarida esa odamlar bizneslarini yo‘lga qo‘yishda va umuman hayotda o‘z do‘stlari va oilalariga ishonishadi. G‘arbliklar o‘z bizneslarini shartnomalar yoki kelishuvlar sifatida tuzilgan va huquqiy tizim tomonidan amalga oshiriladigan diskret bitimlar atrofida tashkil qiladilar. O‘zbek madaniyatida odamlar o‘z bizneslarini shaxsiy sharaf, farzandlik burchi, do‘stlik yoki uzoq

muddatli o‘zaro majburiyat bilan mustahkamlangan insoniy munosabatlar atrofida tashkil qilishi mumkin. Qarindoshlarga sodiqlik G‘arb madaniyatida shubhali xatti-harakatlar sifatida qabul qilingan, biroq dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bunday holat yuqori axloqiy xususiyatni ifodalaydi [4].

Qonun va qoidalarga asoslangan madaniyatlar universalist hisoblanadi, chunki ular davlatning qoidalariga tayanib ish ko‘radilar. Va aksincha, o‘zaro munosabatlarga asoslangan madaniyatlarda qarindoshchilik yoki boshqa o‘zaro aloqalar odamlarga katta obro‘ va hurmat keltiradi. Ushbu holatni G‘arb madaniyatida noto‘g‘ri deb hisoblansa-da, qoidalarga asoslangan madaniyatlar vakillari o‘z bizneslari ravnaqi manfaatlarini ko‘zlab bu holatga va xalqlarga hurmat ko‘rsatadilar. Davlat boshqaruvchilari o‘z vakolatlarini o‘zlari amalga oshiradigan qoidalardan oladilar va rahbarlar ham xalq tomonidan tanlanadi. Qoidalar tabiatan mantiqiy va oqilona deb ko‘rilganda, ushbu holatda odamlarga hurmat, obro‘- e’tibor keltirishi mumkin. Ammo mantiq universal bo‘lib, rioya qilinishi kerak bo‘lgan qoidalar shuning uchun umuminsoniy kuch sifatida qaraladi.

G‘arbda poraxo‘rlikni odamlarning axloqini buzadi deb hisoblanishiga sabab, u odamlarni belgilangan qoidalar va tartiblardan voz kechishga undaydi. Qolaversa, pora berish odatiy holga aylanib qolsa, odamlar umuman olganda, davlat tizimiga ishonchini yo‘qotishi va muntazam ravishda qoidalarni buzishi mumkin. Odatda poraxo‘rlik o‘zaro munosabatlarga asoslangan madaniyatlarda ham odamlarning axloqini buzadi, lekin boshqa sababga ko‘ra: bu jamiyat tayanadigan barqaror munosabatlarni o‘rnatishni qisqartiradi. Pora o‘zaro munosabatni «sotib oladi» va bu holat faqat keyingi pora talab qilingunga qadar davom etadigan munosabat bo‘lib qoladi [5].

Xulosa. Poraxo‘rlik o‘zaro munosabatlarga asoslangan madaniyatlarda ko‘proq tarqalgan, chunki o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish ko‘proq vaqt va kuch talab qiladi. Har doim qisqa yo‘ldan borish yoki shu tarzda yo‘l tutish vasvasasi mavjud. Shuningdek, qonuniy munosabatlar va poraxo‘rlik o‘rtasida nozik chiziq bo‘lishi mumkinki, bu biridan ikkinchisiga o‘tishni osonlashtiradi. G‘arb madaniyatida bu kabi hodisa sudlashish, nizolar yoki huquqiy tizimdan ortiqcha foydalanish tarzida namoyon bo‘ladi, chunki qonuniy munosabatlar va poraxo‘rlik o‘rtasidagi nozik chiziq qonuniy va noqonuniy da’volararo teng darajada hosil bo‘ladi. Boshqa tomondan, qoidalarga asoslangan tizimlar aldashga ayniqsa moyil bo‘ladi. Bunday xulq-atvorning shakllanishiga sabab qoidalar va odamlarga nisbatan hurmat ham tartibga solingan qoidalarga bo‘ysundirilganlidir. Davlat o‘rnatgan qonun va qoidalarga asoslangan madaniyatlar vakillarining dunyoqarashi faqat qoidalarning mavjudligi bilan ajralib turmasligini tushunish muhimdir. O‘zaro munosabatlarga asoslangan jamiyatlar ham ma’lum bir xil qoidalarga asoslanishi mumkin.

Qoidalarga asoslangan madaniyatlar ikkita asosiy jihatdan farqlanadi: a) qoidalar o‘ziga xos hokimiyatga ega; agar korrupsiya bilan qo‘lga tushganda, hokimiyatni ularni qo‘ygan shaxslardan olib qo‘yishdan va korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik nazorat qilinishidan qo‘rqishdan ko‘ra, b) ular asosan aybdorlikni his qilishga majburlanish va jazolanish qo‘rquvining borligidir. Qoidalarga asoslangan yondashuv, ayniqsa, Qo‘shma Shtatlarda aniq namoyon bo‘ladi. Aytish mumkinki, barcha huquqiy boshqaruv pirovardida konstitutsiyaga tayaniladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bo‘taev Sh. Inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha – inglizcha lug‘ati. – Toshkent. 2016. – 1040 b.
2. Ma’rufov Z.M. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent. 1981. – 500 b.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jildli. A.Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 900 b.
4. Raxmatullaev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 400 b.
5. Стариченок В.Д. Болшой лингвистический словарь. – Ростов-на-Дону “Feniks”, 2008. – 436 с.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

IMPROVING THE TEACHING METHODOLOGY OF NUMERAL AND ADJECTIVE WORD CLASSES IN UZBEK LANGUAGE BASED ON POS TAGGING

Khudaiberganov Nizomaddin Uktambay oglu
Teacher of the Department of Computer Linguistics and Digital Technologies, Tashkent State University of Languages and Literature

Mansurova Shakhinabonu Najmiddin qizi
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
2nd year master's student, Computer Linguistics

Abstract. This study analyzes the pedagogical possibilities of using POS (Part-of-Speech) tagging in teaching numerals and adjectives in Uzbek language lessons. The aim of the research is to develop a POS-tagging methodology to effectively explain the grammatical features of numerals and adjectives to learners and ensure their correct application in texts.

Within the scope of the study, a text corpus was prepared using POS-tagging tools, and learners' grammatical errors and comprehension levels were assessed through pre-test and post-test methods. The methodology includes integrating automatic tagging tools with manual verification. The results of the experiment indicate that teaching numerals and adjectives based on POS tagging is more effective than traditional methods and significantly enhances learners' metalinguistic awareness and their ability to identify errors.

The thesis provides practical recommendations such as interactive lessons, digital exercises, and error analysis. Based on the research findings, a practical guide for teachers and educational institutions on teaching numerals and adjectives using POS tagging has been developed.

Keywords: Uzbek language, numeral, adjective, POS tagging, pedagogical methodology, grammatical understanding.

O‘ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO‘Z TURKUMLARINI POS TEGLASH ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI

Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o‘g‘li
ToshDO‘TAU Kompyuter lingvistikasi va
raqamli texnologiyalar kafedrasi o‘qituvchisi
http://www.orcid.org/0000-0002-6213-3015
E-mail: nizomaddin@navoiy-uni.uz

Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 2-kurs magistranti
E-mail: tiladabiyot@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tili darslarida son va sifatlarni o‘rgatishda POS (Part-of-Speech) teglashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – o‘quvchilarga son va sifatlarning grammatik xususiyatlarini samarali tushuntirish va ularni matnda to‘g‘ri qo‘llashni ta’minlash uchun POS-teglash metodikasini ishlab chiqishdir.

Tadqiqot doirasida POS-teglash vositalaridan foydalangan holda matn bazasi tayyorlandi va o‘quvchilarning grammatik xatolari hamda tushunish darajasi pre-test va post-test usullari orqali baholandi. Metodologiya avtomatik teglash vositalari bilan qo‘lda tekshirishni integratsiyalashni o‘z ichiga oladi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, POS-teglash asosida son va sifatlarni o‘rgatish an’anaviy metodlarga nisbatan samaradorligi yuqoriroq bo‘lib, o‘quvchilarning metalingvistik ongini rivojlantirish va xatolarni aniqlash imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.
Maqolada interaktiv darslar, raqamli mashqlar va xatolar tahlili kabi amaliy tavsiyalar keltiriladi. Tadqiqot natijalari asosida o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari uchun POS-teglash asosida son va sifatlarni o‘rgatish bo‘yicha amaliy yo‘riqnoma ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, son, sifat, POS-teglash, pedagogik metodika, grammatik tushunish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N31

Kirish. O‘zbek tili darslarida son va sifatlarni o‘rgatish o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi bilan birga, murakkab pedagogik jarayonlardan biridir. Bu so‘z turkumlari o‘zining morfologik va sintaktik xususiyatlari, turli shakllari va kontekstga bog‘liqligi bilan ajralib turadi. An’anaviy metodlar ko‘pincha faqat grammatik qoidalarni yodlatish va misol orqali tushuntirishga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning metalingvistik ongini yetarlicha rivojlantira olmaydi va xatolarni aniqlashda samaradorligi past bo‘ladi. Shu sababli, son va sifatlarni o‘rgatishda innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj mavjud.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So‘nggi yillarda tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi sohalarida POS (Part-of-Speech) teglash texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda [1(Manning et al., 2014; Jurafsky & Martin, 2021)]. POS-teglash yordamida matndagi so‘zlar o‘z turkumiga qarab avtomatik belgilanishi, ularning sintaktik va morfologik xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu o‘quvchilarga son va sifatlarni tushunish va ishlatish jarayonini soddalashtirishga, grammatik xatolarni tezkor aniqlash imkonini yaratadi [2 Kudryavtsev, 2017; Xolmatov, 2020]. Shu bilan birga, POS-teglash interaktiv darslar, raqamli mashqlar va xatolar tahlili orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash

Ushbu tadqiqotning maqsadi – o‘zbek tili darslarida son va sifatlarni POS-teglash yordamida o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholashdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat(1-rasm).



1-rasm. POS teglash vazifalari.

POS teglash (Parts-of-Speech tagging) — bu matndagi har bir so‘zni uning **so‘z turkumi** bo‘yicha aniqlab belgilash jarayonidir.

Muhokama va natijalar. Bu jarayon tilshunoslikda hamda kompyuter lingvistikasi (NLP)da tilni aniqlash, tahlil qilish va avtomatlashtirish uchun asosiy qadam hisoblanadi. POS teglash so‘zning morfologik-sintaktik xususiyatlariga qarab unga teg (masalan, Num — son, Adj — sifat) berishni anglatadi. Matndagi har bir so‘zning to‘g‘ri **so‘z turkumini** aniqlab, unga *grammatik teg (label)* biriktirishdir. Masalan: “kitob” — ot, “yaxshi” — sifat, “uch”— son. O‘quvchilarda tilshunoslik fikrini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanib kelmoqda. So‘z turkumlarini to‘g‘ri ajratib, grammatik savollarga javob topish ko‘nikmasini yaratish. POS teglash jarayoni til materialini chuqur lingvistik tahlil qilishni talab qiladi. O‘zbek tilida bu jarayon murakkab, chunki til agglyutinasiyaga ega bo‘lib, so‘z shakllari ko‘plab qo‘shimchalarga bog‘liq. Shuning uchun so‘z turkumini aniqlashda nafaqat leksik, balki morfologik va sintaktik kontekstlar ham hisobga olinadi [3 Mansurova, Shaxinabonu. “SON SO ’Z TURKUMINI GRAMMATIK POS TEGLASHNING LINGVISTIK MODELLARI. “ *Uzbekistan: Language and Culture* 2.2 (2024)]. POS-teglash jarayonida sonlar NUM tegi bilan belgilanadi. Biroq o‘zbek tilida sonlar turli grammatik shakllarda qo‘llanilishi sababli ularni avtomatik aniqlash murakkab hisoblanadi. Sonlarni POS teglashda qator muammolarga duch kelishimiz mumkin. Quyidagi shulardan bir nechtasini misol tariqasida keltirib o‘tamiz. Sonlar otlashganda gapdagi sintaktik vazifasi o‘zgaradi va teglanganda NUM sifatida nomlanadi. Masalan: Bu *ikkisi* kechikdi. Ushbu gapda ikki son so‘z turkumiga oid birlik bo‘lib, sintaktik jihatdan ega vazifasida kelmoqda ammo POS jihatdan NUM bo‘lib qoladi. POS teglash — bu matndagi har bir so‘zga uning grammatik toifasini (masalan ot, fe’l, sifat) belgilangan tag bilan belgilash jarayonidir. Grammatik teglar so‘zning funksiyasini va sintaktik rolini aniqlashga yordam beradi, bu esa tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va lingvistik tahlilda muhimdir. POS teglash yordamida so‘zlarning morfologik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Amaliy NLP tizimlarida sifatlarni noto‘g‘ri teglash bir qator yuqori darajali vazifalarda muammolarga olib keladi. Masalan, avtomatik tarjimada sifat noto‘g‘ri aniqlansa, tarjima tilida otga nisbatan kelishuv buziladi. Axborotni ajratib olishda esa “katta korxona” iborasidagi “katta” sifati tushib qolsa, obyektning muhim xususiyati yo‘qoladi. Shuningdek, savol-javob tizimlarida “eng muhim muammo” iborasida “eng muhim” konstruksiyasining buzilishi javobning aniqligini pasaytiradi. Statistik jihatdan qaralganda, sifatlar boshqa so‘z turkumlariga nisbatan ko‘proq adashiladi, chunki ular ravish, ot va fe’l bilan formal jihatdan o‘xshash shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, “tez” so‘zi “tez mashina”da sifat, “tez yugurdi”da ravish, “tez yordam”da esa otlashgan birlik sifatida chiqadi[4 Sharipov, Maksud, et al. “UzbekTagger: The rule-based POS tagger for Uzbek ’language.“ *arXiv preprint arXiv:2301.12711* (2023)].

Shuning uchun sifatlar uchun alohida baholash ko‘rsatkichlari — precision, recall va F1 alohida hisoblanishi kerak. Daraja kategoriyasi (qisq. OK) «sifatda belgi darajasi» UG Msiga ega. Daraja turli (geterogen) shakl yordamida hosil qilinadi: (chiroyli) — (chiroyliroq) — (juda chiroyli). Asliy sifatda belgining darajasini ifodalashga ko‘ra uch daraja ajratiladi: a) oddiy daraja; b) orttirma daraja; v) ozaytirma daraja. Oddiy daraja hech qanday vositasiz yuzaga chiqadi. Unda OK UGMsi «belgining oltiq-kamligiga munosabat bildirmaslik») tarzida yuzaga chiqadi: (yaxshi) , (qattiq), (semiz) , (keng), (baland), (to ’g‘ri). (yumshoq) kabi. Orttirma daraja belgining me’yoriy holatdan ortiqligi, kuchliligini ifodalab, OK UGMsini «belgining me’yordan ortiqligini ifodalash,) tarzida xususiylashtiradi. Orttirma daraja maxsus morfologik shaklga ega

emas. OK ifodalovchisining geterogenligi ushbu darajada yaqqol koʻzga tashlanadi. Orttirma daraja quyidagi usullar bilan hosil qilinadi: 1.Fonetik usul. Uning bir necha koʻrinishi bor: a) (qop-qora) , (yap-yapaloq), (dum-dumaloq); b) urgʻuli tovushning choʻzilishi: (u ’zun), (bala ’nd), (chiro ’yll). 2. Leksik usul: (juda kuchlL) , (gʻoyatda qoʻrqinchli), (nihoyatda baland). Belgining ortiq darajasi analitik shaklda ham ifodalanadi. Bu shakl ikki uzvli, birinchi uzvini chiqish kelishigi shaklida qoʻlIash orqali hosil qilinadi: (uzundan uzoq), (shirindan shirin). Ozaytirma daraja OK UGMsini «belgining me’yordan kamligini ifodalash,) koʻrinishida xususiylashtiradi. Bu ma’no ikki usul bilan yuzaga chiqadi: I. Leksik usul: (sal durust), (bir oz yaxshi), (xiyolochiq). 2. Morfologik usul: (kattaroq), (ko ’proq), (ozroq). Eslatma. Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatda qoʻlIanuvchi [-(i)sh],[-(i)mtir] affikslari beIgining kuchsiz darajasini bildirmaydi.[5. Bobojonova, L., Axundjanova, A., Ostheimer, PS, & Fellenz, S. (2025, yanvar). BBPOS: Oʻzbek tili uchun BERT asosidagi nutq qismlarini teglash. *Kam manbali tillar uchun til modellari boʻyicha birinchi seminar materiallarida* (287-293-betlar)].

Masalan, (oqish) soʻzi oq rangning, (qoramtir) soʻzi qora rangning kuchsiz darajasi emas, balki oq, qora boʻlmagan, ularga oʻxshash boʻlgan rang turlari.

Sifatni teglash umumiy grammatik ma’noni belgilashdan boshlanadi. Sifat belgining xususiyatini ifodalashiga koʻra ikkiga boʻlingan: 1) asliy sifat; 2) nisbiy sifat. Sifat turkumida sintaktik kategoriya keng boʻlmagan voqelanishga ega. Sifat turkumi egalik kategoriyasi UGMsini “keyingi sifatni oldingi soʻzga bogʻlash, mansublik, xoslik ma’nosini ifodalash” tarzida xususiylashtiradi. Kesimlik kategoriyasi esa sifat turkumida oʻz mohiyatini cheklangan darajada namoyon qiladi. Koʻp hollarda sifat turkumida kesimlik kategoriyasi bogʻlama vositasida yuzaga chiqadi.

Tadqiqot natijalari lingvistik kompetensiyani rivojlantirish va oʻquvchilarning metalingvistik ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega boʻladi. Shu bilan birga, POS-teglash asosidagi metodika an’anaviy yondashuvlarni toʻldirib, raqamli va interaktiv resurslardan foydalangan holda oʻquv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Sifatni teglashdagi muammolar — tilshunoslik, ta’lim va texnologik (NLP) sohalar uchun ham dolzarb masala. Agar til foydalanuvchilari, mutaxassislar va texnologiya mutaxassislari birgalikda ishlasa, bu muammolarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Shu asosda, maqola tavsiyalar boʻyicha amaliy qadamlar taklif etadi va kelajakda faol tadqiqotlar olib borish zarurligini koʻrsatadi. Shunday soʻzlar borki, ular ikki turkum doirasida omonimlik hosil qiladi va avtomatik teglash jarayonida muammolarni yuzaga chiqaradi**.** Masalan: Yosh oʻqituvchi dars bermoqda, bu yerda *“yosh”*— sifat (qanday oʻqituvchi?). Yosh oʻzini sezdiradi, bu yerda *“yosh*”— ot (nima seziladi? yosh).(1-jadval).

T/r	So‘zlar	Sifatda ishlatilishi	Otda ishlatilishi
1	*Keksa*	Keksa ayol- qarigan	Keksa-katta yoshdagi odam
2	*Kasal*	Kasal bola-betob	Kasal-bemor inson
3	*Boy*	Boy odam-mol-dunyosi ko‘p	Boy-badavlat inson
4	*Yaxshi*	Yaxshi gap-chiroyli	Yaxshi-yaxshilik timsoli
5	*Yomon*	Yomon odat-salbiy	Yomon-salbiylik ifodasi
6	*Jasur*	Jasur yigir-qo‘rqmas	Jasur- jasoratli odam
7	*Donishmand*	Donishmand-aqlli	Donishmand-dono inson
8	*Aqlli*	Aqlli-xususiyat sifati	Aqlli-otlashganda
9	*Yosh*	Yosh-xususiyat sifati	Yosh-otlashganda
10	*Mehribon*	Mehribon-xususiyat sifati	Mehribon-ism ma’nosida

1-jadval omonim so‘zlar

Ba’zan bir so‘z bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq turli ma’nolarni ifodalashi mumkin, bu esa gapda leksik noaniqlik (omonimlik yoki polisemiya) hosil qilib, so‘zning ma’nosini faqat kontekst orqali aniqlashni talab qiladi. Masalan: Ana, keksa qayrag‘och, uning tunuka tom ustiga engashgan azamat shoxi qurib qolibdi. Bu jumlasida *keksa* so‘zi predmetning xususiyatini bildiruvchisi sifatida ishlatilgan. Boshqa tomondan, *Keksalar o‘g‘iti* misolida esa *keksalar* so‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ot sifatida — bu yerda inson yoshiga nisbatan nom — vazifasini bajaryapti. Bu holat tilshunoslikda bir xil shakldagi so‘zlarning turli kontekstlarda turli so‘z turkumiga mansub bo‘lishi, ya’ni leksik omonimlik yoki polisemiya hodisasi sifatida qaraladi, va uni aniqlashda kontekstga e’tibor qaratish zarur. Masalan, *Biror yomon xabar bo‘lsa, bizga ham aytishardi* jumlasida *yomon* so‘zi *xabar* lemmasiga bog‘lanib, uning salbiy belgisini bildiruvchi sifat sifatida ishlaydi va gap tuzilishida predmetning xususiyatini aniqlovchi leksik-grammatik funksiya bajaradi.[6. Eshankulova Shohista Xayitmuratovna “ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z TURKUMLARI MAVZUNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY O‘QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH”.]

Boshqa tomondan, *Hech qayerim jiddiy lat yemagan bo‘lsa ham, o‘zimni yomon his qildim* misolida esa *yomon* so‘zi *his qildim* fe’liga sintaktik tarzda bog‘lanib, subyektning holat-hissiyotini ifodalovchi grammatik hol (predikativ sifat) vazifasini bajaradi. Shu sababli, bir xil so‘z shakli grammatik kontekstga qarab turli sintaktik va semantik rollarga ega bo‘lib, u o‘zbek tilining leksik-morfologik xususiyatlarini aks ettiradi. Adjektivlar odatda otni aniqlovchi funksiya bilan keladi, biroq ular ba’zan fe’l bilan birikib predikativ (gapdagi hol) vazifasini ham bajara oladi, bu esa sifat so‘z turkumining kengaytirilgan sintaktik funksiyalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda POS (Part-of-Speech) teglashning o‘zbek tili darslarida son va sifatlarni o‘rgatishda pedagogik samaradorligi batafsil o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, POS-teglash vositalaridan foydalangan holda tashkil etilgan darslar an’anaviy metodikalarga nisbatan o‘quvchilarning grammatik tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, o‘quvchilar matndagi son va sifatlarni aniqlash hamda ularning sintaktik funksiyalarini to‘g‘ri tushunish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishdilar.

POS-teglashni qo‘llash orqali o‘quvchi metalingvistik ongini rivojlantiradi va xatolarni mustaqil aniqlash qobiliyati yaxshilanadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan matn bazasi va testlar orqali olingan natijalar pedagogik metodikaning samaradorligini ilmiy asosda

tasdiqladi. Shuningdek, interaktiv darslar, raqamli mashqlar va xatolar tahlili kabi amaliy tavsiyalar oʻquv jarayonini yanada qiziqarli va natijali qiladi.

Yuqoridagi yondashuv asosida tayyorlangan amaliy yoʻriqnoma oʻqituvchilarga dars jarayonida POS-teglash metodikasini samarali joriy etishga xizmat qiladi. Kelajakda mazkur metodikaning boshqa grammatik toifalar — ot, fe’l, olmosh va boshqalar bilan qoʻllanilishi hamda raqamli didaktik materiallar bilan boyitilishi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Manning et al., 2014; Jurafsky & Martin
2. Kudryavtsev, 2017; Xolmatov, 2020
3. Mansurova, Shaxinabonu. "SON SO ‘Z TURKUMINI GRAMMATIK POS TEGLASHNING LINGVISTIK MODELLARI." *Uzbekistan: Language and Culture* 2.2 (2024).
4. Sharipov, Maksud, et al. "UzbekTagger: The rule-based POS tagger for Uzbek ‘language." *arXiv preprint arXiv:2301.12711* (2023).
5. Bobojonova, L., Axundjanova, A., Ostheimer, PS, & Fellenz, S. (2025, yanvar). BBPOS: Oʻzbek tili uchun BERT asosidagi nutq qismlarini teglash. *Kam manbali tillar uchun til modellari boʻyicha birinchi seminar materiallarida* (287-293-betlar).
6. Eshankulova Shohista Xayitmuratovna “ONA TILI DARSLARIDA SOʻZ TURKUMLARI MAVZUNI O`QITISHDA ZAMONAVIY O`QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH”.
7. SON SOʻZ TURKUMINI OʻQITISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR. (2025). *Modern Education and Development*, *27*(3), 59-63.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

LEGAL REGULATION OF INVESTMENT ACTIVITY IN STARTUP PROJECTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: THE CASE OF ACCELERATORS AND INCUBATORS

Abdullayeva Dildora Elmurodovna
Lecturer, Department of Civil Law
Tashkent State University of Law

Abstract. The article explores the peculiarities of civil-law regulation of investment activities in startup projects, with a particular focus on the functioning of incubators and accelerators in the field of information technologies. The legal status of investors and startup teams, mechanisms of attracting investments, and the process of concluding financing agreements are examined, as well as the legal regime of intellectual property created within projects. The author highlights issues of legal uncertainty in venture financing, insufficient regulation of contractual models (SAFE agreements, option contracts, convertible loans), and the need to improve national legislation to ensure transparency and protection of the rights of investment participants. Based on comparative legal analysis of foreign models, possible directions for the development of the regulatory framework in Uzbekistan are proposed, including the creation of special legal regimes for startups and the stimulation of innovative investments.

Keywords: investments, startup, IT product, incubator, accelerator, venture financing, civil-law regulation, investment agreement, intellectual property.

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ

Абдуллаева Дильдора Эльмурадовна
Преподаватель кафедры «Гражданское право»
Ташкентского государственного юридического университета
E-mail: dildoraelmuradovna@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-7514-5568

Аннотация. В статье рассматриваются особенности гражданско-правового регулирования инвестиционной деятельности в стартап-проекты, уделяя особое внимание функционированию инкубаторов и акселераторов в сфере информационных технологий. Анализируется правовой статус инвестора и стартап-команды, механизмы привлечения инвестиций и заключения договоров финансирования, интеллектуально-правовой режим результатов деятельности. Автор отмечает существующие проблемы правовой неопределенности в сфере венчурного финансирования, недостаточную регламентацию договорных моделей (safe-контракты, опционные соглашения, конвертируемые займы) и необходимость совершенствования национального законодательства для обеспечения прозрачности и защиты прав участников инвестиционного процесса. На основе сравнительно-правового анализа зарубежных моделей предложены возможные направления развития нормативной базы в Узбекистане, включая создание специальных правовых режимов для стартапов и стимулирование инновационных инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, стартап, IT-продукт, инкубатор, акселератор, венчурное финансирование, гражданско-правовое регулирование, инвестиционный договор, интеллектуальная собственность.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N32

Цифровизация экономики и развитие инновационного предпринимательства обусловили появление новых форм инвестиционной деятельности, ключевое место среди которых занимают стартап-проекты в сфере информационных технологий. Существенную роль в их становлении и коммерциализации играют инкубаторы и акселераторы ИТ-продуктов, обеспечивающие не только финансовую поддержку, но и комплекс организационных, консультационных и менторских услуг. Вместе с тем правовая природа инвестиционных отношений, складывающихся в рамках таких структур, остается недостаточно определенной.

Отсутствие специального гражданско-правового регулирования инвестиционной деятельности в стартап-проектах приводит к использованию смешанных и нетипичных договорных конструкций, что порождает сложности их правовой квалификации и повышает риски нарушения прав участников инвестиционного процесса. В этой связи исследование гражданско-правовых механизмов регулирования инвестиционной деятельности в рамках инкубаторов и акселераторов ИТ-продуктов приобретает особую актуальность. Целью настоящей статьи является анализ гражданско-правовых основ инвестиционной деятельности в стартап-проектах, выявление особенностей правового статуса инкубаторов и акселераторов, а также определение ключевых проблем и направлений совершенствования правового регулирования.

Цивилистическое представление о стартапах, стартап-проектах, стартапной деятельности находится на начальном этапе теоретического осмысления. В частности, к числу остро дискуссионных вопросов, не укладывающихся в канву теории юридических лиц, относится отождествление стартапов с юридическими лицами, что характерно для экономической науки. В настоящее время наблюдается явное противоречие между социально-экономической значимостью стартапной деятельности и потребностями в ее правовом регулировании. Современное развитие науки гражданского и предпринимательского права нуждается в формировании теоретических основ стартапной деятельности в качестве нового правового феномена. Правовой предпосылкой к появлению бизнес-акселераторов в Республике Узбекистан стало принятие Указа Президента Республики Узбекистан от 06.07.2022 г. № УП-165 [1], согласно которому была утверждена Стратегия инновационного развития Республики Узбекистан на 2022 — 2026 годы [2]. Именно в этой стратегии среди задач по развитию отрасли информационных технологий Республики Узбекистан указано развитие механизмов поддержки малого бизнеса, включая акселераторы, бизнес-инкубаторы, технопарки и институты, необходимые для улучшения инвестиционного климата.

Положение о порядке организации деятельности Технологического парка программных продуктов и информационных технологий (далее — Положение) [3], утверждённое Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 июля 2019 года № 589 [4], представляет собой нормативно-правовой акт, регламентирующий правовые, организационные и экономические основы функционирования Технологического парка (Технопарка) в сфере информационных технологий и программного обеспечения. Положение устанавливает комплекс правил и

процедур, направленных на создание благоприятной инновационной среды для резидентов Технопарка, включая юридические лица, осуществляющие деятельность в области разработки программных продуктов, информационных технологий, мультимедиа, киберспорта, венчурного финансирования и сопутствующих направлений. Основными задачами являются, помимо организации деятельности Технопарка, также отбор и финансирование перспективных стартап-проектов.

В гражданско-правовой доктрине инвестиционная деятельность традиционно рассматривается как деятельность по вложению капитала с целью получения прибыли или иного экономического эффекта при принятии соответствующего риска. Применительно к стартап-проектам данное определение требует уточнения, поскольку объектом инвестирования нередко выступают нематериальные блага — программное обеспечение, технологии, бизнес-модели, а также человеческий капитал (статья 97 Гражданского Кодекса).

Инвестиции в стартапы характеризуются высокой степенью неопределенности и долгосрочным горизонтом окупаемости. Это обуславливает необходимость гибких правовых механизмов, способных учитывать специфику инновационных проектов и балансировать интересы инвесторов и основателей стартапов. Традиционно, под Стартапом (от англ. *startup company* от start up дословно — «запускать») понимаются компании с короткой историей операционной деятельности и анализа рынка[5]. В Положении дается определение понятию «стартап-проект», согласно которому под ним следует понимать проект, предполагающий создание нового продукта или услуги в сфере программных продуктов и информационных технологий в условиях неопределенности прибыли и высоких финансовых рисков. Также положение предусматривает механизм отбора перспективных стартап-проектов с целью их финансирования и поддержки, и в соответствии с ним отбор стартапов осуществляется на конкурсной основе с участием Экспертного совета, что обеспечивает объективность и качество отбора инновационных инициатив[6].

Инкубаторы и акселераторы ИТ-продуктов не образуют самостоятельной категории субъектов гражданского права (статья 2 Гражданского Кодекса Республики Узбекистан [7]), однако в инвестиционных правоотношениях они могут выступать в различных правовых ролях. Так, инкубаторы чаще всего функционируют как организации, оказывающие комплекс услуг по сопровождению стартапов на ранних стадиях развития, тогда как акселераторы ориентированы на ускоренное масштабирование проектов, нередко в обмен на долю в уставном капитале.

С гражданско-правовой точки зрения инкубаторы и акселераторы могут одновременно выступать инвесторами, участниками корпоративных отношений, исполнителями по договорам возмездного оказания услуг, организаторами инвестиционного процесса. Такая многофункциональность усложняет правовую квалификацию возникающих отношений и требует комплексного применения норм обязательственного и корпоративного права.

Агентство инновационного развития Республики Узбекистан выступает ключевым институтом государственной поддержки инновационной экосистемы и является самостоятельным субъектом инвестиционно-правовых отношений. Его деятельность направлена на формирование условий для развития стартап-проектов,

внедрение высокотехнологичных решений, поддержку научных разработок и трансфер технологий. В контексте инвестиционных процессов в сфере ИТ-продуктов Агентство выполняет функцию связующего звена между инвесторами, инкубаторами и акселераторами, обеспечивая правовую, организационную и финансовую инфраструктуру для эффективного запуска и масштабирования стартапов. Агентство инновационного развития функционирует в качестве центрального координирующего органа, ответственного за реализацию государственной политики в сфере инноваций, научно-технического прогресса и коммерциализации научных разработок. В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 21 декабря 2022 года № УФ-269[8], Агентство призвано обеспечить системное внедрение передовых технологий и инновационных идей, а также повышение интеллектуального и технологического потенциала страны. Агентство выполняет ключевые функции для поддержания стартап проектов: разработку и реализацию государственных программ и стратегий инновационного развития для создания благоприятной среды; создание и поддержку инновационной инфраструктуры — бизнес-инкубаторов, акселераторов, технопарков и венчурных фондов; проведение экспертной оценки и отбора перспективных проектов для эффективного распределения ресурсов; посредничество в привлечении государственных и международных инвестиций и грантов; развитие международного сотрудничества для интеграции национальной системы в глобальное научно-техническое пространство; а также мониторинг и анализ инновационной деятельности для адаптации поддержки стартапов к меняющимся условиям [9].

Практика инвестирования в стартапы демонстрирует широкое использование различных договорных конструкций, среди которых особое место занимают договоры о внесении вклада в уставный капитал, инвестиционные договоры смешанного характера, конвертируемые займы, опционы на приобретение доли, договоры оказания услуг с инвестиционным элементом. Отсутствие легального закрепления большинства указанных инструментов в контексте стартап-деятельности обуславливает необходимость их квалификации на основе общих положений гражданского законодательства, что повышает значение доктринальных подходов и судебной практики. Одной из ключевых проблем гражданско-правового регулирования инвестиционной деятельности в стартап-проектах является риск признания инвестиционных сделок мнимыми или притворными. Формальное использование инвестиционных конструкций при отсутствии реального вложения капитала, принятия инвестиционного риска либо экономической цели может повлечь признание сделки недействительной и отказ в судебной защите. Дополнительные правовые риски связаны с различными факторами, в частности неопределенностью статуса инвестора, конфликтом договорных и корпоративных механизмов регулирования, возможной переквалификацией инвестиционных отношений в заемные или сервисные, нарушением принципа добросовестности участников гражданского оборота[10]. С научно-правовой точки зрения дальнейшее развитие инвестиционной деятельности в стартап-проектах требует:

- уточнения доктринальных признаков инвестиции применительно к инновационной сфере;
- выработки единых критериев квалификации инвестиционных договоров;

- нормативного признания гибких инвестиционных инструментов;
- усиления роли принципов добросовестности и правовой определенности.

Реализация указанных направлений позволит повысить уровень защиты прав участников инвестиционных правоотношений и создать благоприятные условия для развития стартап-экосистемы. Инвестиционная деятельность в стартап-проектах, реализуемая посредством инкубаторов и акселераторов ИТ-продуктов, представляет собой сложный комплекс гражданско-правовых отношений, не сводимых к традиционным инвестиционным моделям. Отсутствие специальных норм и единообразных подходов к их правовой квалификации обуславливает необходимость дальнейшего доктринального осмысления и совершенствования гражданско-правового регулирования. Системный анализ правовой природы инвестиционных отношений в стартап-проектах позволяет сделать вывод о целесообразности формирования гибкой и предсказуемой правовой среды, обеспечивающей баланс интересов инвесторов и инновационных предпринимателей.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 06.07.2022 г. № УП-165
2. Стратегия инновационного развития Республики Узбекистан на 2022 — 2026 годы;
3. Положение о порядке организации деятельности Технологического парка программных продуктов и информационных технологий.
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 июля 2019 года № 589;
5. John Simpson and Edmund Weiner. The Oxford English Dictionary. — United Kingdom: Oxford University Press, 1989. — 21730 с.
6. Хаирова Э.А. Пустовит А.В. Венчурное инвестирование США: становление и развитие / Э.А. Хаирова, А.В. Пустовит // Учебные записки КИПУ. - 2021. – С
7. Гражданский кодекс Республики Узбекистан;
8. Указ Президента Республики Узбекистан от 21 декабря 2022 года № УФ-269;
9. Мингазова А.М. Особенности договорного регулирования инвестиционной деятельности ll ВЭПС. 2015. №2. URL: https:llcyberleninka.ru (Дата обращения: 28.11.2025).
10. Нилаб Т. Анализ венчурного инвестирования в зарубежных странах / Т. Нилаб // XXXV INTERNATIONAL PLEKHANOV READINGS. -25.05.2022.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE

Fayzullayeva Shaxlo Jumaniyoz qizi
Lecturer, Department of International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law

Abstract. This paper provides insight into the theoretical foundations and legal frameworks that guide the inclusion of copyright objects in international trade. It reviews the relationship between intellectual property rights and global commerce, considering protection and regulations which apply to copyrighted materials—such as literature, art, and digital products—across borders. Highlighted are key international treaties, challenges in enforcement, and policy considerations that frame the trade in goods protected by copyright. The findings affirm the need for a coherent legal standard that would balance the rights holder's interest with the imperatives for equitable international trade practices.

Keywords: copyright objects, international trade, intellectual property rights, legal frameworks, international treaties, enforcement, global commerce.

XALQARO SAVDOGA MUALLIFLIK HUQUQI OBYEKTLARINI QO'SHISHNING NAZARIY VA HUQUQIY JIHATLARI

Fayzullayeva Shaxlo Jumaniyoz qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqaro savdoga mualliflik huquqi ob'ektlarini kiritishga yo'naltiruvchi nazariy asoslar va huquqiy asoslarni o'rganish imkonini beradi. Unda intellektual mulk huquqlari va global tijorat o'rtasidagi munosabatlar ko'rib chiqiladi, chegaralar orqali mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallarga - masalan, adabiyot, san'at va raqamli mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladigan himoya va qoidalar ko'rib chiqiladi. Asosiy xalqaro shartnomalar, ijro etishdagi qiyinchiliklar va mualliflik huquqi bilan himoyalangan tovarlar savdosini belgilovchi siyosat mulohazalari ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari huquq egasining manfaatlarini adolatli xalqaro savdo amaliyoti uchun zarur bo'lgan shartlar bilan muvozanatlashtiradigan izchil huquqiy standartga ehtiyoj borligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: mualliflik huquqi obyektlari, xalqaro savdo, intellektual mulk huquqlari, huquqiy asoslar, xalqaro shartnomalar, ijro etish, global tijorat.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N33

Introduction. Considering the rapid globalization process, international trade involves copyright objects of major importance. Materials protected by copyright, such as literary, artistic, musical, and digital works, represent intellectual values that generate great interest and encourage innovation, the development of human relationships, and cultural diversity. The transborder situation of the trade commodity places in front, at both theoretical and legal levels, multifarious problems regarding the correlation between the protection of copyright object against unlawful use and its lawful circulation. The purpose of this paper is to turn to theoretical and legal aspects related to international protection of copyright and to focus

attention on international legal acts (the Berne Convention, TRIPS Agreement, and WIPO treaties) in the light of which it is possible to trace what rights and obligations attach to the subjects participating in international trade. Without knowledge of these frameworks, the very object of copyright cannot be fully integrated into international trade without the failure of one side in the person of creators or the failure of another side in the form of consumer interests.

Main part. The incorporation of copyright objects into international trade represents a sophisticated junction of intellectual property law, economics, and global commerce. Copyright objects, ranging from literary works and films to software and digital content, have turned into pivotal assets in the global marketplace. The theoretical debates rest on the intrinsic nature of these intangible goods and how their distinctive features challenge conventional trade frameworks. Unlike physical goods, copyright objects exhibit unique intangibility, non-rivalrous consumption, and potential for infinite reproduction, which complicates their classification and regulation within international trade systems. Such characteristics require specialized legal mechanisms that balance the protection of creators' rights with enabling the free flow of cultural and commercial goods across borders. One notable example is the Warhol Foundation v. Goldsmith case decided by the U.S. Supreme Court in 2023. This dispute revolved around whether Andy Warhol's use of Lynn Goldsmith's photograph of Prince constituted fair use. The Court ruled against Warhol's foundation, emphasizing that transformative use must be carefully assessed in light of market substitution. This decision has significant implications for international trade because it underscores how copyright objects—such as photographs and derivative artworks—can affect licensing markets across borders, influencing how creative works are valued and traded globally [1]. Another important case is Jack Daniel's Properties v. VIP Products, also decided in 2023. Although primarily a trademark case, it intersected with copyright principles by addressing parody and commercial use. The Court clarified that intellectual property rights cannot be easily bypassed under the guise of humor when the disputed object is part of international trade. This ruling highlights the theoretical tension between freedom of expression and the protection of copyright objects, especially when such goods circulate in international markets where parody and satire may be treated differently under local laws [2].

At the international level, disputes under the World Trade Organization (WTO) framework have also shaped the inclusion of copyright objects in trade. For instance, conflicts over software piracy and unauthorized distribution of audiovisual works have led to WTO panels reinforcing the obligations of member states under the TRIPS Agreement. These cases demonstrate the legal aspect of harmonizing national copyright enforcement with global trade rules, ensuring that copyright objects—whether software, films, or music—are protected consistently across jurisdictions. In summary, case law from national courts and international trade bodies reveals the complex interplay between copyright protection and global commerce [3]. Theoretical debates focus on balancing creativity, market access, and fair use, while legal rulings establish precedents that directly affect how copyright objects are licensed, distributed, and enforced in international trade [4].

The theoretical discourse revolves around a delicate balance between incentivizing creativity and promoting access to cultural goods. Intellectual property rights, and in particular copyright, have traditionally been considered an essential incentive that provides rewards for authors' creative work, therefore motivating innovation and cultural progress. On the other

hand, overprotection may hinder competition, reduce access, and even cause monopolistic barriers in international markets. From a trade viewpoint, this duality poses a policy challenge: how to pursue legal regimes that are respectful of creators' rights without undermining the principles of trade liberalization and consumer interests. The underlying theoretical frameworks often draw from economic theories of intellectual property, which stress the need for limited exclusivity as a tool to promote innovation while avoiding inefficiencies from overprotection. Thus, including copyright objects in international trade from a legal perspective comes under a very complicated network of treaties, agreements, and national laws [5]. Central among these is the Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works, establishing minimum standards for the protection of copyright across its member countries. In turn, the Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights, commonly called TRIPS, administered by the World Trade Organization, or WTO, provides enforceable standards in its linkage between intellectual property rights and international trade obligations. These legal instruments try to harmonize protection regimes in order to cut down conflicts between different national laws, ensuring that copyrighted works enjoy predictable protection and may be traded internationally with reduced legal uncertainty [6]. But the existence of these treaties alone does not solve problems. Enforcement is, in fact, one of the key barriers to the international trade of copyright objects. Most countries struggle to fight piracy, unauthorized distribution, and even counterfeiting in the digital realm. The transboundary nature of the internet has so facilitated the rapid spread of copyrighted information without permission that it has rendered traditional enforcement mechanisms very difficult [7]. Furthermore, differences in the ability to enforce and in priorities among countries extend uneven protection, leading to trade distortions and tensions in the marketplace [8]. The enforcement challenge requires more than legal harmonization but involves international cooperation, technological solutions, and capacity building as well.

Another serious legal issue relates to the definition and categorization of copyright objects in customs and trade legislation. Unlike physical goods, they do not fit into conventional tariff schedules and customs procedures. Thus, there has been ambiguity over which forms and types of control are required in the case of trade documentation. For customs administrations, identification and valuation expertise may be non-existent or very limited. This makes the efforts to regulate their cross-border movement suitably quite complicated. For these reasons, initiatives aimed at developing customs training for the enforcement of intellectual property rights have emerged, together with the establishment of special regimes for digital products, with the hope of finding the right balance between facilitating trade and preventing infringement [9]. New theoretical and legal problems arise with the revolutionary development of digital technology and the internet, which turned upside down the established structure of trade in copyright objects. Thus, this might change the traditional approach to the analysis of trade flow, as for the first time in history it is possible to distribute digital goods around the world at almost zero cost without transportation of physical goods. Thus, the regulation of licensing, DRM, territoriality of rights, and protection of digital content against unauthorized copying should be addressed by the legal frameworks [10]. Theoretical models have to take into account the complexity of cyberspace, where several jurisdictional overlaps and enforcements limit the protection of copyright objects in trade. Policy-wise, the representation of copyright objects in international trade requires states to strongly negotiate their position.

Generally speaking, developing countries want flexible intellectual property rules that should establish a proper balance between the development of creative industries and access to knowledge and technology. On the other side, countries with developed creative sectors seek strong protection against the cannibalization of their economic interests [11]. This is what can be seen in all ongoing debates in the WTO, WIPO, and even in a variety of free trade agreements, which have been continuously shaping trade relations through intellectual property chapters. These negotiations reveal the political nature of the copyright law in international commerce and the need to craft balanced agreements that recognize diverse developmental needs.

Economic studies confirm that the objects of copyright constitute one of the most dynamic elements of the global economy, as creative industries become increasingly significant sources of trade revenue and employment both nationally and worldwide [12]. Their inclusion within international trade frameworks thus supports economic growth, cultural exchange, and technological innovation. These benefits, however, are predicated upon effective legal regimes that balance appropriate protection for the rights holders with fair market access. Economic theories stress that optimal duration and scope of copyright protection would maximize society's welfare and point out that international trade law must remain flexible in order to balance private incentives with public interest. Paul Goldstein, in his seminal work International Copyright: Principles, Law, and Practice, emphasizes that the inclusion of copyright objects in international trade requires harmonization of national laws under frameworks such as the Berne Convention and TRIPS Agreement. He argues that copyright objects—whether books, films, or software—are increasingly traded across borders, and inconsistent national rules create barriers to commerce. Goldstein highlights that the theoretical foundation of copyright in trade lies in balancing creators' exclusive rights with the free flow of cultural goods. Legally, he stresses that international treaties provide a baseline but leave significant discretion to national courts, which can lead to fragmentation in enforcement. This tension underscores the need for stronger global mechanisms to ensure that copyright objects are treated consistently in international trade [13]. Dr. Simone Schroff, writing in the Journal of Intellectual Property Law & Practice, critiques the assumption that copyright law effectively supports creative industries in international trade. She argues that the theoretical rationale for copyright—encouraging creativity by granting exclusive rights—has been politicized and often fails to deliver equitable results in global commerce. Schroff points out that reforms stagnate because stakeholders disagree on whether copyright should primarily serve economic or cultural functions. Legally, she notes that copyright objects in trade often face disputes over licensing, fair use, and digital distribution, which complicate enforcement across jurisdictions. Her perspective suggests that copyright, while central to international trade, may not always be the most efficient instrument for promoting cultural exchange and economic growth [14]. Ge Chen, in his WIPO paper Fragmentation of International Law: the Impact on Access to Knowledge in International Copyright Law, examines how the fragmented nature of international law affects the inclusion of copyright objects in trade. He argues that copyright sits at the intersection of intellectual property, trade, and human rights law, creating overlapping obligations and conflicts. Theoretically, Chen highlights that copyright objects are not just commodities but carriers of cultural welfare, and trade rules must account for access to knowledge. Legally, he warns that the fragmented regime leads to inconsistent enforcement, undermining both creators' rights and consumers' access. His analysis underscores the need

for institutional reforms under the WIPO Development Agenda to better integrate copyright into international trade while safeguarding public interests [15]. Chelsea Bodimeade and Felicity Deane, in their article Evolving Theory of IP Rights: Promoting Human Rights in TRIPS, argue that the inclusion of copyright objects in international trade must be understood through the lens of human rights. They contend that copyright law, when embedded in trade agreements like TRIPS, risks prioritizing commercial interests over cultural and educational access. Theoretically, they propose that copyright objects should be treated not only as tradable goods but also as vehicles for human development. Legally, they highlight that TRIPS obligations often clash with national policies aimed at ensuring access to knowledge, particularly in developing countries. Their perspective calls for a rethinking of trade law to balance intellectual property enforcement with broader social and cultural rights [16].

Conclusion. In sum, the theoretical and legal questions of inserting copyright objects into international trade are multidimensional and mutually influencing, reflecting the peculiar character of intellectual property as a traded commodity. International legal regimes, such as the Berne Convention and TRIPS, establish a framework for harmonization; however, enforcement and finding answers to new challenges in the digital era remain currently unresolved problems. The balance between protection and access needs permanent dialogue and cooperation among nations, underpinning both legal innovation and technological development. If these factors are taken properly into consideration, copyright objects will be fairly positioned within international trade to contribute to creativity, economic growth, and cultural variety worldwide. In the long run, future legal approaches will have to take into consideration the rise of artificial intelligence, blockchain for copyright management, and changing consumer behaviors if international copyright trade regimes are to remain relevant and effective. Meeting legal norms with technological realities and fair policy objectives will be crucial in maintaining the integrity of copyright objects as viable commodities in international trade for the 21st century. Continued development in both theoretical comprehension and legal tools is necessary to traverse the dynamic nature of intellectual property in international commerce. Summary/Conclusion The international trade of copyright objects poses various theoretical and legal problems; hence, coherent regulatory solutions are in high demand. International treaties set a general framework for protecting copyright on an international scale. However, the very essence of na-tional laws and enforcement mechanisms has not yet been fully harmonized. Yet, harmonization could improve the balance between protection of intellectual property rights and the promotion of free and fair trade. A more co-operative attitude from states and their adaptation to changing technologies are crucial to further improve the regulatory environment for copyright objects in international trade. After all, coming to a better consensus between rights holders and traders ensures conditions in which innovation, cultural diversity, and economic development within the international market will flourish more precisely.

References/Adabiyotlar/Литература:

1. https://practiceguides.chambers.com/practice-guides/trade-marks-copyright-2025/.
2. https://jurisposts.com/copyright-law-and-international-trade-disputes/.
3. Dinwoodie, G. B. (2001). The development and incorporation of international norms in the formation of copyright law. Ohio St. LJ, 62, 733.

4. Okediji, R. G. (1999). Copyright and public welfare in global perspective. Indiana Journal of Global Legal Studies, 117-189.
5. Евстафьева, И. В. (2012). Правовое регулирование международного оборота имущественных авторских прав (Doctoral dissertation, ИВ Евстафьева).
6. Macmillan, F. (2014). Cultural diversity, copyright, and international trade. In Handbook of the economics of art and culture (Vol. 2, pp. 411-437). Elsevier.
7. Kreiss, R. A. (1995). Accessibility and commercialization in copyright theory. UCLA L. Rev., 43, 1.
8. Иванов, А. А. (2016). Международно-правовая охрана смежных прав (Doctoral dissertation, Саратов).
9. Wright, C. (2008). Reconciling cultural diversity and free trade in the digital age: a cultural analysis of the international trade in content items. Akron L. Rev., 41, 399.
10. Lombardi, E. M. (2024). Digitization, Copyright and the Law: Copyleft and the Future of Intellectual Property. Routledge.
11. Guan, Y. (2025). A Study on Three Dimensions of Legal Protection of Intellectual Property Rights. Frontiers L. China, 20, 265.
12. Лукаш, А. А., Сиваков, В. В., Чернышев, О. Н., & Шевелева, Е. В. (2023). Теоретические аспекты правового регулирования и обеспечения интеллектуальной собственности.
13. https://law.stanford.edu/paul-goldstein/books/international-copyright/.
14. https://academic.oup.com/jiplp/article/16/11/1262/6444323.
15. https://www.wipo.int/edocs/mdocs/sme/en/wipo_smes_ge_10/wipo_smes_ge_10_ref_topic10_1.pdf.
16. https://academic.oup.com/jiplp/article/18/8/603/7191028.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE LEGAL NATURE AND REGULATION OF THE AFFILIATED PERSONS INSTITUTE IN CORPORATIONS

Kalandarov Aminjon Amondullayevich
Tashkent State University of Law
Acting Associate Professor of the Department of Business and Corporate Law
E-mail: aminjonqalandarov9@gmail.com

Abstract. The affiliated persons (related parties) institute is one of the central mechanisms of corporate law and is directly connected with conflicts of interest, interested-party (related party) transactions, disclosure, the fiduciary duties of directors and supervisory bodies, and the protection of minority shareholders. In Uzbekistan, the term "affiliated person" and related concepts appear in various legal sources; however, a unified conceptual model, a consistent approach to maintaining the register, disclosure standards, and an integrated liability framework have not yet been sufficiently consolidated. This article explains the legal nature of affiliation, analyzes the fragmented regulation in Uzbekistan's legal framework, provides a comparative review of the approaches of the EU (SRD II), the United Kingdom (the Companies Act and Listing Rules), and Germany (ARUG II), and substantiates proposals for normative and institutional improvements for Uzbekistan.

Keywords: affiliated person, interested-party transaction, tunnelling, conflict of interest, disclosure, register, minority shareholders.

KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI

Qalandarov Aminjon Amondullayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti
Tadbirkorlik va korporativ huquq sho'basi dotsenti v.b.

Annotatsiya. Affillangan shaxslar instituti korporativ huquqning markaziy mexanizmlaridan biri bo'lib, u manfaatlar to'qnashuvi, tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlar (related party transactions), oshkoralik, direktorlar va nazorat organlarining fidutsiar majburiyatlari hamda minoritar aksiyadorlar (ishtirokchilar) himoyasi bilan bevosita bog'liq. O'zbekistonda "affillangan shaxs" atamasi va unga tutash institutlar turli normativ manbalarda mavjud bo'lsa-da, ularning yagona konseptual modeli, reyestrni yuritish yondashuvi, oshkor etish standartlari hamda javobgarlik mexanizmlarining tizimliligi yetarli darajada mustahkamlanmagan. Mazkur maqola affillanganlikning huquqiy tabiatini yoritadi, O'zbekiston normativ bazasida institutning fragmentatsiyalashgan holatini tahlil qiladi, YI (SRD II), Buyuk Britaniya (Companies Act va Listing Rules) hamda Germaniya (ARUG II) yondashuvlarini qiyosiy ko'rib chiqadi va O'zbekiston uchun normativ hamda institutsional takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha takliflarni asoslaydi.

Kalit so'zlar: affillangan shaxs, manfaatdorlik bo'lgan bitim, tunnelling, manfaatlar to'qnashuvi, oshkoralik, reyestr, minoritar aksiyadorlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N34

Korporatsiya ichidagi iqtisodiy kuch muvozanati har doim ham teng bo'lmaydi: nazorat paketiga ega aksiyadorlar, ijro organi, kuzatuv kengashi a'zolari, yirik kontragentlar yoki ular bilan bog'liq shaxslar kompaniya resurslari ustidan real ta'sirga ega bo'ladi. Bu holat "klassik" agentlik muammosini (*manager–shareholder*) ham, "zamonaviy" muammoni — nazorat

qiluvchi aksiyador (*controller*) bilan minoritar aksiyadorlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ham kuchaytiradi. Raqobatbardosh bozorlar sharoitida affillangan shaxslar bilan bitimlar ba’zan iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin, biroq aynan shu bitimlar orqali qiymatni “tashqariga chiqarish” (*tunneling*) xavfi ham eng yuqori bo‘ladi. Tunneling fenomeni korporativ boshqaruv va huquqiy himoya zaif bo‘lgan yurisdiksiyalarda ayniqsa dolzarb ekani ilmiy adabiyotda ko‘p bor asoslangan.

Shu nuqtada olimlar “tunnelling”ni aynan nazorat qiluvchi shaxs(lar) tomonidan kompaniyadan qiymatni o‘z foydasiga “sug‘urib olish” mexanizmi sifatida tushuntiradi. *Johnson* tunnellingni “firmadan aktivlar va foydani nazorat qiluvchi aksiyador manfaatiga ko‘chirish” sifatida izohlaydi. [1] Bu hodisa ko‘pincha yashirin yoki murakkab bitimlar orqali sodir bo‘lgani uchun, u oddiy boshqaruv xatolari (masalan, sust menejment, samarasiz investitsiya)dan farq qiladi: tunnellingning markazida **manfaatlar to‘qnashuvi** va nazorat qiluvchi shaxsning **o‘z manfaatini ustun qo‘yishi** turadi.

Tunnelling qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi? Olimlar odatda uni ikki asosiy turga ajratadi. Birinchisi — ***self-dealing*** (o‘ziga qulay bitimlar) orqali resurslarni chiqarish: masalan, aktivlarni “arzon” sotish yoki “qimmat” sotib olish, transfer narxlash (*transfer pricing*), nazorat qiluvchiga foydali shartnomalar, haddan tashqari top-menejer kompensatsiyasi, kredit kafolatlari, korporativ imkoniyatlarni (*corporate opportunities*) o‘ziga olib qo‘yish va sh.k. Ikkinchisi esa aktivlarni bevosita chiqarmasdan ham nazorat qiluvchining ulushini oshirish — ***dilution***: suyultiruvchi emissiyalar (*dilutive issuance*)*, minoritar ishtirokchini siqib chiqarish (*freezeout*), Insayder axborotidan foydalanib savdo qilish (*insider trading*), “sekin-asta” nazoratni to‘plash (*creeping acquisitions*) kabi moliyaviy operatsiyalar orqali minoritar ishtirokchilar ulushini iqtisodiy jihatdan qadrsizlantirish. Natijada nazorat qiluvchi shaxs nazoratni mustahkamlaydi, minoritar esa qiymat yo‘qotadi.

Tunnelling faqat “rivojlanayotgan bozorlar muammosi” emas: u huquqni qo‘llash kuchli bo‘lgan davlatlarda ham uchrashi mumkin, hatto ayrim holatlarda sudlar tomonidan ma’lum huquqiy mantiq asosida “oqlanib” ketishi ham ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun huquqiy nazorat, ayniqsa sud nazorati, bunday bitimlarni baholashda qaysi standartlar qo‘llanishiga bog‘liq. Bu yerda sudlar odatda ikki tayanch tamoyilga tayanishini mumkin: **“*duty of care*”** (ehtiyotkorlik majburiyati) va **“*duty of loyalty / fiduciary duty*”** (sadoqat/fidutsiar majburiyat). [2] Ehtiyotkorlik majburiyati doirasida ko‘plab tizimlarda “*business judgment rule*”ga o‘xshash yondashuv ishlaydi — manfaatlar to‘qnashuvi yo‘q deb qaralsa, sudlar direktor qaroriga “katta ehtimol bilan aralashmaydi”. [3] Fidutsiar/sadoqat majburiyati esa aksincha, aynan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan vaziyatda “insayderning o‘z foydasini kompaniya yoki aksiyadorlar hisobidan ko‘rishi”ni keskinroq nazorat qiladi va bitimning adolatliligini tekshirishga undaydi.

Shu sababli rivojlangan yurisdiksiyalar affillanganlik/manfaatdor shaxslar konsepsiyasini ikki tayanch yo‘nalishda tartibga soladi:

1. **Oldini olish va protsessual himoya**: manfaatdor shaxsning ovoz berishda cheklanishi, mustaqil direktorlar/qo‘mitalar ekspertizasi, “*majority of the minority*” kabi mexanizmlar; [4]
2. **Oshkoralik va *ex post* javobgarlik**: reyestr, e’lon qilish, bozorni xabardor etish, zararlarni qoplash, bitimni haqiqiy emas deb topish yoki fidutsiar majburiyat buzilishi uchun sanksiya. [5]

O‘zbekistonda ham korporativ boshqaruv standartlarini modernizatsiya qilish siyosati mavjud bo‘lib, xususan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etish bo‘yicha davlat darajasida chora-tadbirlar belgilangan. [6] Biroq affillangan shaxslar instituti aynan “tizim” sifatida (ta’rif → reestr → oshkor etish → protsedura → javobgarlik) izchil ishlashi masalasi hanuz konseptual va texnik jihatdan takomillashtirishni talab qiladi.

Affillangan shaxs: huquqiy tabiat va konseptual model

“Afillangan shaxs” odatda quyidagi hollarda kompaniyaga nisbatan “yaqinlik” yoki “bog‘liqlik”ni bildiradi: **(i) nazorat *(control)*** — ulush/ovoz orqali yoki shartnomaviy ta’sir orqali qarorlarni belgilash; **(ii) boshqaruvga daxldorlik *(management/board)***: direktorlar, ijro organi, kuzatuv kengashi; **(iii) Oila/yaqin aloqalar**: qarindoshlik yoki manfaat birligi; **(iv) korporativ guruh (group)**: shu’ba, tobe, bog‘liq jamiyatlar.

Xalqaro amaliyotda affillangan shaxs g‘oyasi, avvalo, korporatsiyaga nisbatan “yaqinlik”ning huquqiy-me’yoriy indikatorlarini belgilashga xizmat qiladi: bunday yaqinlik nazorat (ulush/ovoz yoki shartnomaviy ta’sir orqali qarorlarni belgilash), boshqaruvga daxldorlik (direktorlar va ijro organi, shuningdek kalit menejment), yaqin oila aloqalari hamda korporativ guruh (parent–subsidiary, fellow subsidiary, associate/joint venture va h.k.) doirasidagi bog‘liqlik orqali namoyon bo‘ladi. Shu yondashuv “related party” konsepsiyasining ***International Financial Reporting Standards (IFRS)*** tizimidagi ***IAS 24 (International Accounting Standard 24)*** talqinida aniq ko‘rinadi: standart “bog‘liq tomon”ni kim deb tan olish kerakligini ta’riflaydi va bu bog‘liqlik aniqlanganida, u bilan bo‘lgan munosabatlar hamda bitimlar bo‘yicha oshkor etish (disclosure) talablarini buxgalteriya hisobi standartlari orqali belgilaydi. [7]

Mazkur yondashuv affillangan shaxs institutining konseptual modelini ham izohlashga imkon beradi: tizim “kim bog‘liq?” degan identifikatsiyadan boshlanib, so‘ng “qaysi bitim muhim (material)?” degan mezonlar, “qanday tartib orqali tasdiqlanadi?” degan mexanizmlari hamda yakunda “qanday oshkor etiladi va buzilganda qanday javobgarlik yuzaga keladi?” degan oshkoralik – *enforcement* (huquqni qo‘llash va javobgarlik mexanizmlari) bloklari bilan yakunlanadi. Aynan shu to‘rt bo‘g‘inli mantiq ***SRD II (Shareholder Rights Directive II – Aksiyadorlar huquqlari to‘g‘risidagi direktiva (II))*** doirasida related party transactions bo‘yicha umumiy Yevropa modelida ham aks etadi: muhim (material) bitimlarni belgilash, ularni ommaga e’lon qilish, tasdiqlash tartibini joriy etish va affillangan shaxsning protsedurada o‘z manfaatini o‘tkazib yuborishini cheklash kabi talablar 9c-modda orqali minimal standart sifatida mustahkamlangan. [8]

Buyuk Britaniyada ham manfaatlar to‘qnashuvi va bog‘liq tomonlar bilan munosabatlarni boshqarish ikki darajada “tizimlashtiriladi”. Birinchi daraja — kompaniya ichidagi fidutsiar intizom: ***Companies Act 2006*** (Kompaniyalar to‘g‘risida 2006) direktorlar zimmasiga manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan qochish majburiyatini (*s.175*) [9] hamda rejalashtirilayotgan bitim/kelishuvdagi manfaatni e’lon qilish majburiyatini (*s.177*) [10] yuklaydi. Ikkinchi daraja — bozor intizomi va investor himoyasi: birjada kotirovka qilinadigan emitentlar uchun ***FCA Listing Rules*** manfaatdor shaxslar bilan tuziladigan bitim bo‘yicha qo‘shimcha shaffoflik va ma’qullash talablarini (masalan, ayrim holatlarda aksiyadorlar roziligi, mustaqil baholash/“fairness” elementlari, bozorga xabar berish) kuchaytiradi. [11] Shu orqali Buyuk Britaniya modeli “kompaniya ichidagi fidutsiar

majburiyatlar”ni “kapital bozori qoidalari” bilan bog‘lab, affillanganlik xavfini nafaqat ichki boshqaruv, balki bozor oshkoraligi orqali ham jilovlashga urinadi.

Shu bilan birga, 2024-yildan boshlab FCA yangi UK listing rejimiga o‘tishda manfaatdor shaxslar bilan tuziladigan bitimlar bo‘yicha **yanada “** axborotni oshkor etishga asoslangan**” yondashuv**ni kuchaytirib, ko‘plab holatlarda aksiyadorlardan majburiy ravishda ovoz berishni talab qilmaslik yo‘lini tanlaganini ham ochiq qayd etadi (bunda kengroq oshkoralik, direktorlarning fidutsiar majburiyatlari, “***fair and reasonable***” yondashuvi va listing bo‘yicha vakolatli maslahatchi (***sponsor***) ishtiroki kabi kafolatlar saqlanishi ta’kidlanadi). [12] Ilmiy adabiyotda esa, masalan **Paul Davies** UK modelini aynan “umumiy korporativ huquq + listing qoidalari” kombinatsiyasi sifatida tushuntiradi va bozorning bitim adolatliligini baholashi uchun oshkor qilish sifati va “adolatlilik” haqidagi axborot yetarliligi masalasini muhokama qiladi. [13]

Germaniya SRD II’ni implementatsiya qilish jarayonida ushbu konseptual modelni milliy korporativ huquq instrumentlariga “o‘tkazdi”: birjada kotirovka qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari uchun “*nahestehende Personen*” (yaqin/aloqador shaxslar) tushunchasi xalqaro hisobot standartlariga, xususan IAS 24 (hamda ayrim holatlarda IAS 28) mezonlariga havola qilish orqali belgilandi; natijada bog‘liq shaxslarni aniqlash (identifikatsiya) masalasi IFRS mantiqi bilan uyg‘unlashdi. [14] Shuningdek, Germaniya modelida “materiallik”ni chetlab o‘tishni oldini oluvchi texnik mexanizmlar (jumladan bitimlarni bir yil ichida jamlab baholash) ham nazarda tutilib, muhim bitimlar bo‘yicha ikki asosiy kafolat — tasdiqlash (kuzatuv kengashining roziligi) va oshkoralik (bitim haqida e’lon qilish) tizimi shakllantirildi; bu yondashuv amaliy izohlarda ham “approval + publication” yondashuvi sifatida izohlanadi. [15] ***ARUG II (Aksiyadorlar huquqlari to‘g‘risidagi direktiva (II) ni (SRD II) amalga oshirish to‘g‘risidagi qonun)*** doirasidagi islohotlarning siyosiy-huquqiy fonida ham “*nahestehenden Personen*” bilan bitimlar bo‘yicha yangi talablar Germaniya korporativ boshqaruv tizimini minoritarlar manfaatini himoya qiluvchi va bozor shaffofligini kuchaytiruvchi standartlarga yaqinlashtirishga qaratilgani ta’kidlanadi. [16]

Affillanganlikning o‘zi “yomon” emas; u **xatar indikatoridir**. Huquqning vazifasi — affillanganlik mavjud bo‘lgan joyda:

- qaror qabul qilish jarayonini “tozalash” (*conflict cleansing*),
- ma’lumot assimetriyasini kamaytirish (*disclosure*),
- minoritarlarning iqtisodiy manfaatini himoya qilish (*fairness*),
- bozor ishonchini saqlash (*market integrity*).

OECD/G20 Korporativ boshqaruv prinsiplari ham aynan oshkoralik, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishni barqaror boshqaruvning tayanch elementlari sifatida ko‘rsatadi. [17]

O‘zbekiston qonunchiligida affillangan shaxslar: mavjud holat va muammolar

O‘zbekistonda “affillangan shaxs” instituti **yagona kodifikatsiyalashgan model** sifatida (masalan, Fuqarolik kodeksida “universal” ta’rif ko‘rinishida) mustahkamlanmagan. Natijada affillanganlik mezonlari turli sohalarda **turlicha vazifa** bajaradi: korporativ boshqaruvda — fidutsiar majburiyatlar buzilishi xavflarini (manfaatlar to‘qnashuvi, manfaatdor bitimlar) jilovlash; raqobatda esa — nazorat/konsentratsiya va “ta’sir o‘tkazish” holatlarini aniqlash.

Masalan, aksiyadorlik jamiyatlari doirasida affillangan shaxslar alohida toifalar kesimida sanab o‘tiladi: kuzatuv kengashi a’zolari, ijroiya organi, jamiyatning 20% va undan

ortiq ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi shaxs(lar), shuningdek yuqoridagi shaxslarning yaqin qarindoshlari va ayrim boshqa bog‘liqliklar (ta’sischi/rahbarlik va h.k.). [18]

Shu bilan birga, raqobat (antimonopoliya) kontekstida affillanganlik **davlat ishtirokidagi korxonalar** bilan bog‘liq alohida normalar orqali yoritiladi: masalan, “davlat ishtirokidagi korxonaning affillangan shaxsi” deganda ustav fondida (kapitalida) 20% va undan ortiq ulushga egalik bevosita yoxud bilvosita davlat ishtirokidagi korxonalar ham ko‘rsatiladi. [19]

Demak, bugungi holatda affillanganlik:

- bir tomondan, AJlar bo‘yicha **korporativ-komplayens** instrumenti (ro‘yxat, oshkoralik, tuzilishidan manfaatdorlik bo‘lgan bitimlar);
- ikkinchi tomondan, raqobat huquqida **nazorat va ta’sir** (konsentratsiya, “shaxslar guruhi” yondashuvi) bilan tutash institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Fragmentatsiya muammosi shundaki, “affillanganlik” atamasi turli normativ-huquqiy hujjatlarda turlicha maqsadlarda va turli qo‘llash shartlari (triggerlari) bilan ishlatiladi; natijada korporativ munosabatlarga mos, yagona, universal hamda amaliyotda qo‘llashga qulay ta’rifni shakllantirish qiyinlashadi.

Amaldagi tartibda AJlar affillangan shaxslar hisobini yuritishi, hisobot berishi va ro‘yxatni e’lon qilishi kerak. Xususan:

- affillanganlik asoslari vujudga kelganidan so‘ng affillangan shaxs **3 ish kunidan kechiktirmay** jamiyatni yozma xabardor qilishi shart;
- axborot o‘z vaqtida taqdim etilmasa va jamiyatga zarar yetsa, affillangan shaxs **yetkazilgan zarar miqdorida javobgar** bo‘lishi mumkin;
- jamiyat affillangan shaxslar ro‘yxatini vakolatli organ belgilagan tartib va muddatlarda **har yili e’lon qilishi** shart.

Bundan tashqari, Jamiyat o‘zi va affillangan shaxs o‘rtasida tuzilgan bitim haqidagi axborotni bitim tuzilgan paytdan e’tiboran 72 soat ichida Korporativ axborotning yagona portalida oshkor etishi shart. [20]

Lekin “reyestr bor” degani “reyestr standartlashgan” degani emas. Amaldagi tartibga ko‘ra, aksiyadorlik jamiyatlari affillangan shaxslar haqidagi ma’lumotlarni belgilangan tartibda oshkor qiladi (jumladan, korporativ axborot portalida va jamiyatning rasmiy veb-saytida). Biroq amaliy muammo shundaki, bu oshkor etishning mavjudligi reyestrning **yagona va majburiy standart** asosida yuritilayotganini avtomatik anglatmaydi: ko‘p hollarda reyestrning minimal atributlari (identifikatorlar, bog‘liqlik turi, manfaatdorlik manbai, nazorat darajasi), ma’lumotlarni verifikatsiya qilish (tasdiqlovchi hujjatlar, benefitsiar egalikni aniqlash), yangilashga sabab bo‘luvchi holatlar va muddatlari, ma’lumotni taqdim etish formatlari (strukturaviy va mashinada o‘qiladigan ko‘rinish), shuningdek mas’ul shaxslar va sanksiyalar zanjiri bitta izchil tizimga jamlanmagan bo‘ladi. Natijada ma’lumot ko‘pincha korporativ oshkoralik hujjatlarida parchalanib qoladi, reyestr ayrim hollarda formallikka aylanadi, minoritar aksiyadorlar hamda investorlar uchun esa affillanganlikdan kelib chiqadigan xatarlar “oldindan ko‘rinadigan” va tez tahlil qilinadigan darajada ochilmaydi.

Affillangan/manfaatdor shaxs bilan bitimlar korporativ boshqaruvda manfaatlar to‘qnashuvi eng ko‘p yuzaga chiqadigan nuqtadir. Shu bois qonunchilik bunday bitimlar bo‘yicha “oshkor etish → ichki tekshiruv → xolis tasdiqlash → keyingi oshkoralik va nizolashish” ketma-ketligini belgilaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida affillangan shaxs bitim tuzishdan oldin jamiyatni yozma ravishda xabardor qiladi (affillanganlik fakti va bitimning muhim shartlari ko‘rsatiladi), bitim ijroiya organ hamda ichki audit tomonidan qisqa muddatda o‘rganilib bayonnoma rasmiylashtiriladi, so‘ng kuzatuv kengashi belgilangan muddatda qaror qiladi; agar kuzatuv kengashida ikki va undan ortiq affillangan a’zo bo‘lsa, masala umumiy yig‘ilishga chiqariladi. Affillangan shaxs muhokama va ovoz berishda qatnashmaydi; yirikroq bitimlarda (sof aktivlarning 10% va undan ko‘pi) bozor qiymati va tashqi auditor xulosasi kabi qo‘shimcha talablar qo‘yiladi; shuningdek aksiyadorlar bitim yuzasidan axborot olish va nizolashish huquqiga ega.[21]

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda ham manfaatdorlik bo‘lgan bitimlar bo‘yicha umumiy qoida shuki, manfaatdor shaxslar doirasi (jumladan 20%+ ulushga ega ishtirokchi, ijro organi, kuzatuv kengashi a’zolari, ularning yaqin qarindoshlari va bog‘liq tuzilmalar) belgilangan hamda bunday bitimlar ishtirokchilar umumiy yig‘ilishining roziligisiz tuzilmasligi nazarda tutiladi. [22]

Amaliy muammo esa qoidalarning mavjudligida emas, balki ularning bir xil sifatda bajarilishida: yozma bildirishlar mazmuni, manfaatlar to‘qnashuvini real ochish, baholash/auditning mustaqilligi va minoritarlar uchun axborotni qulay formatda berish doim ham barqaror standartda ishlamaydi.

Qiyosiy tahlil nuqtai nazaridan qaralganda, O‘zbekiston uchun “ishlaydigan model”ni tanlash masalasi aslida bitta yadro savolga borib taqaladi: *korporatsiya ichida iqtisodiy kuch notekis taqsimlangan sharoitda nazorat paketiga ega aksiyadorlar, boshqaruv organlari yoki ular bilan bog‘liq shaxslarning ta’siri kompaniya resurslari hisobidan minoritar aksiyadorlar manfaatiga zid yo‘nalishga burilib ketmasligi uchun qanday huquqiy arxitektura kerak?* Yuqorida ta’kidlanganidek, affillanganlikning o‘zi “yomon” emas — u xatar indikatoridir. Huquqning vazifasi esa affillanganlik mavjud bo‘lgan joyda qaror qabul qilish jarayonini xolislashtirish, axborot assimetriyasini kamaytirish, adolatlilikni ta’minlash va bozor ishonchini saqlashdan iborat. Shu sabab ham rivojlangan yurisdiksiyalarda (YI, Buyuk Britaniya, Germaniya) yondashuv birgina instrumentga tayanmaydi; aksincha, “kim bog‘liq?” degan identifikatsiya, “qaysi bitim muhim?” degan materiallik mezoni, “qanday ma’qullanadi?” degan qaror qabul qilish talablari, “nima va qayerda e’lon qilinadi?” degan oshkoralik hamda “buzilsa nima bo‘ladi?” degan javobgarlik bloklari bitta zanjirga ulangan bo‘ladi. O‘zbekiston amaliyotida esa institutning ayrim elementlari mavjud bo‘lsa-da, aynan shu zanjirning bir joyga jamlanmaganligi va bir xil ishlamasligi sababli natija ko‘pincha kutilgan darajada chiqmaydi. Turli huquqiy hujjatlarda “affillanganlik” atamasi turlicha vazifa bilan ishlatiladi, reyestr mavjudligi doim ham uni standartlashgan, tekshiriladigan va bozor uchun qulay formatda ishlaydigan tizimga aylantirmaydi, muhim bitimlar bo‘yicha qaror qabul qilishning xolisligini ta’minlaydigan talablar esa barcha subyektlarda bir xil komplayens madaniyati bilan bajarilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston uchun eng yaxshi ishlaydigan model — affillangan shaxslar institutini alohida normalar yig‘indisi sifatida emas, balki yagona korporativ-komplayens tizimi sifatida kodifikatsiya qilishdir; bunda ta’rifning aniqligi, reyestrning standartlashuvi va tekshirilishi, muhim bitimlar bo‘yicha xolis qaror qabul qilish talablari, oshkoralikning bozor uchun qulay shakli va javobgarlikning izchil mexanizmi bir paketda ishlaydi. Bunday paketni real amaliy mexanizmga aylantirishda esa texnologik yechimlar,

xususan ***InterestRegistry*** kabi tizimlar alohida ahamiyatga ega: ular deklaratsiyalarni markazlashgan tarzda yig‘ish, bog‘liqlik indikatorlarini avtomatik aniqlash, muhim bitimlarni belgilangan tartib bo‘yicha ichki ko‘rib chiqish va ma’qullash jarayoniga yo‘naltirish, audit izini saqlash hamda oshkoralik uchun tayyor hisobotlar chiqarish orqali qonun matnini ishlaydigan boshqaruv amaliyotiga aylantiradi. Shu tariqa, affillangan shaxslar instituti minoritarlar uchun faqat keyin e’tiroz qilish vositasi bo‘lib qolmasdan, xatarlarni oldindan ko‘radigan, adolatlilikni ta’minlaydigan va bozor ishonchini mustahkamlaydigan zamonaviy korporativ boshqaruv tayanchiga aylanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Johnson, S., La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2000, February). *Tunnelling* (NBER Working Paper No. 7523). National Bureau of Economic Research. https://www.nber.org/system/files/working_papers/w7523/w7523.pdf
2. Companies Act 2006, c. 46, § 175 (UK). https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/section/175
3. Companies Act 2006, c. 46, § 177 (UK). https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/section/177
4. European Parliament & Council of the European Union. (2007, July 11). *Directive 2007/36/EC of the European Parliament and of the Council of 11 July 2007 on the exercise of certain rights of shareholders in listed companies* (Article 9c: Transparency and approval of related party transactions). Legislation.gov.uk. https://www.legislation.gov.uk/eudr/2007/36/article/9c/data.html
5. Davies, P. L., et al. (2020). Implementation of the SRD II provisions on related party transactions (ECGI Law Working Paper No. 543/2020). European Corporate Governance Institute. https://www.ecgi.global/sites/default/files/working_papers/documents/ecledavieseta lfinal_0.pdf
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-2635197
7. IFRS Foundation. (n.d.). *IAS 24 Related Party Disclosures*. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-24-related-party-disclosures/
8. European Parliament, & Council of the European Union. (2017, May 17). Directive (EU) 2017/828 of the European Parliament and of the Council of 17 May 2017 amending Directive 2007/36/EC as regards the encouragement of long-term shareholder engagement. Official Journal of the European Union, L 132. http://data.europa.eu/eli/dir/2017/828/oj/eng
9. Legislation.gov.uk. (2006). *Companies Act 2006, c. 46, s. 175 (Duty to avoid conflicts of interest).*
10. Legislation.gov.uk. (2006). *Companies Act 2006, c. 46, s. 177 (Duty to declare interest in proposed transaction or arrangement).*
11. Financial Conduct Authority. (n.d.). *Listing Rules (LR) 11: Related party transactions* (FCA Handbook)
12. Financial Conduct Authority. (2024). *PS24/6: Primary Markets Effectiveness Review: Feedback to CP23/31 and final UK Listing Rules.* https://www.fca.org.uk/publication/policy/ps24-6.pdf
13. Davies, P. (2022). *Related Party Transactions on the London Stock Exchange* (working paper/article). https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4022486

14. Noerr. (2020, January 2). ARUG II in Kraft getreten: Die nun geltenden Vorgaben für Related Party Transactions. https://www.noerr.com/de/insights/arug-ii-in-kraft-getreten-die-nun-geltenden-vorgaben-fur-related-party-transactions
15. Deloitte Legal. (2020). ARUG II und mögliche Berührungspunkte zu Transfer Pricing. https://www.deloitte.com/dl/de/services/legal/perspectives/ARUG-II-transfer-pricing.html
16. PwC Legal. (2019). Gesetz zur Umsetzung der zweiten Aktionärsrechterichtlinie (ARUG II) passiert den Bundesrat. https://legal.pwc.de/de/news/fachbeitraege/gesetz-zur-umsetzung-der-zweiten-aktionaersrechterichtlinie-arug-ii-passiert-den-bundesrat
17. OECD. (2023). *G20/OECD principles of corporate governance 2023*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/ed750b30-en
18. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 85-modda. https://lex.uz/docs/-2382409#-2383232
19. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni, 4-modda. https://lex.uz/docs/-6518381
20. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 106-modda. https://lex.uz/docs/-2382409#-2383232
21. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
22. O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 43-modda. https://lex.uz/docs/-22525#-23230

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

GENERAL CONDITIONS FOR REGULATING INVESTIGATIVE ACTIONS THROUGH VIDEOCONFERENCING IN CRIMINAL PROCEDURE LEGISLATION

Uralov Sarbon Sardorovich
Tashkent State University of Law
Department of Criminal Procedure Law
Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy in Law (PhD)
E-mail: richmond0770@gmail.com

Abstract. The article examines the general conditions and legal foundations for conducting investigative actions (interrogation, confrontation, identification of persons and objects, etc.) via videoconferencing in accordance with the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. Particular attention is paid to the provisions of Articles 91^1–91^4 of the CPC of Uzbekistan, introduced by Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU-542 dated May 23, 2019. The study analyzes the grounds for the application of videoconferencing, as well as provides a detailed examination of the procedural requirements governing its use. Special emphasis is placed on practical application issues, including technical security and reliability of communication, guarantees of participants' rights, authenticity of evidence obtained remotely, and compliance with the principles of immediacy and adversarial proceedings in criminal procedure. In addition, the author formulates proposals and recommendations for further improvement of the normative regulation of videoconferencing in criminal proceedings.

Keywords: videoconferencing, investigative actions, remote interrogation, Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, digitalization of criminal procedure, procedural guarantees, electronic fixation of evidence, videoconferencing mode.

JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI

Uralov Sarbon Sardorovich
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi sho‘basi
dotsenti v.b., yu.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlarini (so‘roq, yuzlashtirish, shaxslar va narsalarni tanib olish va boshqalar) o‘tkazishning umumiy shartlari va huquqiy asoslari o‘rganiladi. Alohida e’tibor 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-son Qonun bilan JPKga kiritilgan 91^1–91^4-moddalarga qaratilgan. Maqolada videokonferensaloqadan foydalanishning asoslari tahlil qilinadi. Ishda protsessual talablar tahlil qilinadi. Maqolada amaliy qo‘llashdagi muammolarni aniqlaydi, masalan: aloqa texnikalarining xavfsizligi, ishonchliligi, ishtirokchilar huquqlarining kafolatlanishi, masofadan olingan dalillarning haqiqiyligi, bevositalik va tortishuv tamoyillariga rioya qilishlar nazarda tutilgan. Bundan tashqari, taklif va tavsiyalar ham nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: videokonferensaloqa, tergov harakatlari, masofaviy so‘roq, Jinoyat-protsessual kodeksi, raqamli jinoyat protsessi, protsessual kafolatlar, dalillarni elektron qayd etish, videokonferensiya rejimi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N35

Kirish. “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta’minlash bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-sonli Qonuni qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra, Jinoyat-protsessual kodeksiga bir qator qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksi 91^1 – 91^4-moddalar bilan to‘ldirildi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borar ekan, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida ham innovatsion yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy aloqa vositalarining ahamiyati yanada oshdi. Videokonferensaloqa orqali tergov harakatlarini tartibga solish ham ana shunday zamonaviy tendensiyalardan biri bo‘lib, u bir qator afzalliklar bilan birga o‘ziga xos muammolarni ham keltirib chiqaradi. Videokonferensaloqa orqali tergov qilish – bu jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida tergov harakatlarini (so‘roq qilish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko‘rsatish) masofadan turib, ikki yoki undan ortiq geografik jihatdan uzoqda joylashgan ishtirokchilar o‘rtasida real vaqt rejimida audio va video aloqa vositalari orqali amalga oshirishga yo‘naltirilgan, protsessual qonunchilik bilan tartibga solinadigan maxsus tergov usuli hisoblanadi.

Ushbu usul tergovning tezkorligini ta’minlash, ishtirokchilarning xarajatlarini kamaytirish, ayrim hollarda xavfsizlikni ta’minlash kabi maqsadlarga xizmat qiladi hamda olingan ma’lumotlar belgilangan tartibda dalil sifatida ishlatilishi mumkin.So‘roq qilish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakatlari videokonferensaloqa rejimida o‘tkaziladi. Joriy etilgan yangiliklardan biri – Respublika sudlarida videokonferensiya tizimidir. Bu barcha tomonlar uchun katta qulaylik yaratgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolani yozishda milliy olimlarimizdan U.A. Tuxtasheva, I.R. Astanov, D.B. Bazarova, S.M. Raxmonova, D.J. Suyunova, M.H. Kadirova, S.S. Uralovlarning jinoyat ishi yurituvida tergov harakatlari va unda raqamli texnologiyalardan foydalanishga doir bir necha ilmiy ishlari o‘rganildi, shuningdek mazkur tadqiqot ishida aks ettirildi. Tadqiqotda tarixiy, empirik, mantiqiy, tizimli hamda qiyosiy-tahlil usulidan foydalanilgan.

Muhokama. O.Mireshnichenkoning fikricha, “sud xonalarida va qamoqxonalarda videokonferensaloqa faqat qulaylik uchungina emas”, deyiladi. Muammoning asl sababi sud tizimlarining aksariyati ishlarning og‘ir hodisalari va boshqa narsalarning yuki bilan bog‘liq[1]. Ishni tezlashtirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan har qanday narsa hukumatning ushbu sohasi uchun nishonadir. Shu sababli videokonferensiya bu qadar katta farq qildi — mahbuslarni yoki boshqa partiyalarni eshitish yoki sud ishlarini olib borish uchun politsiya xodimlari mavjud bo‘lgan ma’lum bir sana yoki vaqtni kutish o‘rniga, “Tenveo” kabi uzoq aloqa texnologiyalari kesish uchun ishlatilishi mumkin transport muddati butunlay. Natijada, sutkalik kunlardagi ishlarni tezroq va samarali tarzda olib boradigan sud tizimi mavjud. Mahbuslar o‘z hayotlari bilan tezroq uchrashib, kelajakka bo‘lgan vaqtida muddatidan oldin pensiya, sinov muddati yoki boshqa yechimlarni izlaydilar. Videokonferensaloqa oddiy tinglash va amaliyotlar o‘rtasidagi oylik kutish vaqtining to‘siqlarini yechish imkoniyatiga ega deb umid qilamiz.

Guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar ishtirokidagi tergov harakatlari (so‘roq, shaxslarni va narsalarni tanib olish, yuzlashtirish) mazkur shaxslarni ular turgan joydagi yoki yashash joyidagi viloyatning yoki tumanning yoxud shaharning huquqni muhofaza qiluvchi organiga yoki sudiga chaqirgan, texnik vositalardan foydalangan holda

videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilishi mumkin. Videokonferensaloqa jarayonida tergov harakati ishtirokchilari tergov harakati jarayoni va natijalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri translyatsiya orqali bevosita kuzatib boradi.

D.Suyunovaning fikricha, “tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan o‘z tashabbusi bilan yoxud jinoyat protsessi ishtirokchilarining iltimosnomasiga ko‘ra qabul qilinadi”[2].

Tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazishda foydalaniladigan texnik vositalar va uskunalar quyidagi minimal talablarga javob berishi zarur.

Tergov harakatlari quyidagi hollarda videokonferensaloqa rejimida o‘tkaziladi:

– shaxsning jinoyat ishini tergov qilayotgan organga yoki tergov harakati o‘tkazilayotgan joyga sog‘lig‘ining holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra bevosita kelish imkoniyati bo‘lmaganda;

– jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash zarurati tug‘ilganda;

– kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari o‘tkazilganda;

– tergov harakatini o‘tkazish qiyinlashishi yoki ortiqcha xarajatlar keltirib chiqarishi mumkinligi haqida asosli sabablar mavjud bo‘lganda.

Videokonferensaloqa (VKS) orqali tergov harakatini o’tkazish amaliyotida samaradorlikni oshirish, protsessual talablarga rioya qilish va yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni minimallashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

VKS seansini boshlashdan oldin barcha zarur texnik vositalarning (kamera, mikrofon, karnay, internet aloqasi, dasturiy ta’minot) ish holatini sinovdan o‘tkazish lozim. Aloqa barqarorligi ayrim hududlarda qoniqarsiz holatda qayd etilishi kuzatilmoqda. Tergovchi va so‘roq qilinayotgan shaxs joylashgan xonalar tartibli bo‘lishi, ortiqcha shovqin bo‘lmasligi va yetarli yorug‘lik bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Fon diqqatni chalg‘itmasligi lozim.

VKS orqali tergov harakati o‘tkazilishi haqida ishtirokchilarni oldindan xabardor qilish lozim. BU esa amaliyotda shaxslarni ishtirokini ta’minlash imkonini cheklamoqda[3].

Tergov harakati davomida zarur bo‘ladigan barcha hujjatlar (qarorlar, blankalar, ko‘rsatuv varaqalari va boshqalar) elektron yoki bosma shaklda tayyorlab qo‘yilishi kerak. Elektron shakldagi hujjatlarni almashish imkoniyatini tekshirish lozim. Biroq bunday amaliyot hali to‘laqonli ish uslubiga singib bormaganligi bilan izohlanadi.

Aloqa uzilishi yoki boshqa texnik nosozliklar yuzaga kelgan taqdirda harakat qilish bo‘yicha zaxira rejasini (masalan, telefon orqali aloqa, boshqa platformadan foydalanish) ishlab chiqish lozim. Biroq amaliyotda bunga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti.

VKS seansining boshida tergovchi o‘zini tanishtirishi, ish bo‘yicha ma’lumot berishi va ishtirokchilarning shaxsini aniqlashi (hujjatlarini ko‘rsatish orqali) zarur.

So‘roq qilinayotgan shaxsga uning protsessual huquqlari (jim turish huquqi, himoyachidan foydalanish huquqi va boshqalar) tushunarli tilda to‘liq tushuntirilishi kerak. Buni video tasvirga qayd etish tavsiya etiladi.

Tergov harakatining borishi va natijalari batafsil bayonnomada aks ettirilishi kerak. Bayonnomada VKS orqali o‘tkazilganligi, texnik vositalar haqida ma’lumot, aloqa uzilishlari bo‘lganligi (agar bo‘lsa) qayd etilishi lozim. Zarurat tug‘ilganda video-yozuv materiallari bayonnomaga ilova qilinishi mumkin.

Hujjatlarni ko‘rsatish yoki taqdim etish zarur bo‘lganda, ularni video kamera orqali aniq ko‘rsating yoki elektron shaklda almashish mumkin[4]. Elektron shaklda taqdim etilgan

hujjatlarning olinganligi faktini tasdiqlab qo‘yish lozim. Sud majlislarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazishning zaruriy sharti ishda ishtirok etuvchi shaxslardan loaqal bittasi boshqa ma’muriy-hududiy birlik (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) hududida, ya’ni ishni ko‘rayotgan sud joylashgan hududdan tashqarida joylashgan bo‘lishi lozimligi hisoblanadi.

Hozirda butun respublika bo‘ylab 321 ta sud majlisi zali ushbu tizim bilan to‘liq ta’minlangan. Videokonferensiya aloqa orqali tomonlar sud zaliga kelishi shart emas. Bu orqali tomonlar shu kungacha 21,4 milliard so‘m mablag‘ tejab qolgan. Shu bilan birga endilikda ushbu tizim tufayli chet eldan turib ham sud ishida qatnashish mumkin. Keyingi bosqichda sud majlisida videokonferensiya aloqa tizimi bo‘yicha maxsus mobil dasturni ishlab chiqish rejalashtirilgan. Shu bilan birga tizim orqali jazoni ijro etish muassasalaridagi shaxslarni sudyalar bilan bevosita bog‘lash maqsad qilingan. Shu kungacha sud qarorlarini olish juda muammoli vazifa edi[5]. Lekin tizimni raqamlashtirish doirasida public.sud.uz platformasi yaratildi. Shu kungacha platforma orqali 1 million 700 mingdan ziyod qonuniy kuchga kirgan qarorlar e’lon qilingan.

Oliy sudning boshqa davlat organlari axborot tizimlari bilan jadal integratsiyasi ketmoqda. Avvallari 25 kungacha cho‘ziladigan ma’lumot to‘plash hozirda bir necha kundan oshmaydi. Buning sababi, Oliy Sudning “E-XSUD” tarmog‘i 28 davlat organlari axborot tizimlaridan onlayn ma’lumotlarni olish imkoniga ega. Bularning barchasi ko‘rilayotgan ishlarning tez va samarali yakunlashiga sabab bo‘ladi. Sud tizimidagi byurokratiyaning keskin kamayishiga yordam beradi.

Natijalar. Videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlarini o‘tkazish bosqichlari ishlab chiqildi:

tayyorgarlik bosqichi;

tergov olib borish bosqichi;

protsessual bayonnomalarni rasmiylashtirish bosqichi;

bayonnomani jinoyat ishiga qo‘shish uchun yetkazish bosqichi.

Texnik vositalar tarkibiy tarmoq sifatida aniq ajratib tahlil qilindi va aniqlashtirildi:

– videokonferensaloqa tizimlari: audio va video aloqani ta’minlaydigan qurilmalar, dasturiy ta’minot va tarmoq uskunalari;

– audio aloqa vositalari: telefonlar, diktofonlar, audio yozuv qurilmalari;

– internet va onlayn platformalar: ma’lumot almashinuvi, hujjatlarni yuborish va qabul qilish, masofaviy hamkorlik uchun ishlatiladigan dasturiy ta’minot va platformalar;

– video yozuv kameralari: tergov harakatlarini (so‘roq, yuzlashtirish va tanib olish uchun ko‘rsatish) video tasvirga olish uchun ishlatiladi;

– audio yozuv qurilmalari (diktofonlar): so‘roq va boshqa protsessual harakatlarning audio yozuvini olib borish uchun qo‘llaniladi;

– barmoq izlarini olish va tahlil qilish uskunalari.

Jinoyat-protsessual kodeksining 911-moddasida nazarda tutilgan mavhum bo‘lgan “texnik vositalar” jumlasi ilmiy-nazariy jihatdan aniqlashtirildi:

Texnik vositalar *– tergov harakatlari yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda qo‘llaniladigan, insonning fizik yoki aqliy imkoniyatlarini kengaytirish, jarayonni osonlashtirish, tezlashtirish, aniqlashtirish yoki xavfsizroq qilish uchun mo‘ljallangan turli xil qurilmalar, asbob-uskunalar, tizimlar va dasturiy ta’minotlar tushuniladi.*

Xulosa. Masofaviy tergov harakatlari (masofaviy shaklda dalillarni to‘plash) – ayrim tergov harakatlarini videokonferensaloqa orqali olib borilishi natijasida dalillarni to‘plashga qaratilgan tergov shakli hisoblanadi. So‘roq qilish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko‘rsatish kabilar shular jumlasidandir.

Videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlarini o‘tkazish bosqichlari:

tayyorgarlik bosqichi;

tergov olib borish bosqichi;

protsessual bayonnomalarni rasmiylashtirish bosqichi;

bayonnomani jinoyat ishiga qo‘shish uchun yetkazish bosqichi.

Texnik vositalar – *tergov harakatlari yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda qo‘llaniladigan, insonning fizik yoki aqliy imkoniyatlarini kengaytirish, jarayonni osonlashtirish, tezlashtirish, aniqlashtirish yoki xavfsizroq qilish uchun mo‘ljallangan turli xil qurilmalar, asbob-uskunalar, tizimlar va dasturiy ta’minotlar tushuniladi*.

Jinoyat-protsessual qonunchiligida videokonferensaloqadan foydalanishning bir qator ish yuritish tartiblari nazarda tutilgan. Quyida mazkur holatlarni yoritib o‘tamiz.

Videokonferensaloqa davomida uzatilayotgan audio va video ma’lumotlar, shuningdek, almashinayotgan fayllar kuchli shifrlash algoritmlari yordamida himoyalanishi zarur. Bu ma’lumotlarning uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ravishda qo‘lga kiritilishining oldini oladi. Standartlashtirilgan va xalqaro miqyosda tan olingan shifrlash protokollaridan (masalan, AES, TLS/SSL) foydalanish muhimdir[6].

Videokonferensaloqa tizimiga kirish faqat vakolatli shaxslar uchun ta’minlanishi kerak. Kuchli autentifikatsiya usullari (masalan, ikki faktorli autentifikatsiya, biometrik autentifikatsiya) va rollarga asoslangan avtorizatsiya mexanizmlari orqali har bir foydalanuvchining tizimdagi harakatlari nazorat qilinadi va ruxsat etilgan funksiyalargina taqdim etiladi.

Yig‘ilgan shaxsiy ma’lumotlar faqat tergov maqsadlarida foydalanilishi va boshqa maqsadlarda ishlatilmasligi kerak.

Shaxsiy ma’lumotlarni saqlash muddatlari qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq bo‘lishi kerak. Tergov yakunlangandan so‘ng ortiqcha ma’lumotlar belgilangan tartibda yo‘q qilinishi zarur.

Shaxsiy ma’lumotlarning buzilishi (data breach) holatlari yuzaga kelganda tezkor javob berish, zararni minimallashtirish va tegishli organlarni xabardor qilish bo‘yicha aniq tartib ishlab chiqilishi kerak.

Videokonferensaloqa rejimida tergov harakati o’tkazilayotganda protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini real vaqt rejimida aniq va to’liq tushuntirib berish hamda bu videokamera yozuvida qayd etilishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024-y. – 648 bet. (M.X.Rustamboyevning umumiy tahriri ostida).
2. Mirenskiy B.A., O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessi. Darslik. Toshkent – 2012.
3. Tulaganova G.Z., Bazarova D.B., Uralov S.S., Maxmudov S.A. “Jinoyat-protsessual huquqi” fanidan o‘quv qo‘llanma.- Toshkent: TDYU nashriyoti.. 2021 y.-342 bet.
4. Khamitovna K. M. Criminal procedural terms in the republic of Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 2. – C. 280-287. Toshkent – 2020. – 15 b.

5. Короленко И.И. Актуальные проблемы уголовного процесса. –Ростов-наДону. 2017. – С. 20
6. Наумов К.А. Сущность и построение досудебного производства в уголовном процессе России. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Омск 2021. –С.39
7. Уралов S. 2024. Некоторые вопросы реализации института преюдиции в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан. Общество и инновации. 5, 2/S (фев. 2024), 62–65. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp62-65.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

POSSIBILITIES OF USING THE ADVANTAGES OF EXACT SCIENCES AND INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN CRIMINAL FORECASTING

Kholmirzaev Mukhsin Shavqiddin o‘g‘li
Senior Assistant to the Prosecutor of the City of Karshi
Lawyer, 2nd Degree
Independent Research Fellow
Academy of Law Enforcement Agencies

Abstract. Crime forecasting is a pressing issue in social and legal fields today. This process involves scientific analysis of the future state of crime, dangerous areas, types and forms using modern mathematics, statistics, probability theory and information and communication technologies (ICT). Predictive policing systems, GIS, CCTV, AI, big data and video/sensor monitoring platforms allow for real-time crime detection, patrol targeting and efficient resource allocation.

Keywords: criminological forecasting, crime, Predictive policing, GIS (Geographic Information System), CCTV, Artificial Intelligence (AI), Big data, Mathematical modeling, Statistical analysis, Hot-spot, RTCC, DAS (Domain Awareness System), Probability theory, Time-series models, criminogenic factors.

KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o‘g‘li
Qarshi shahar prokurorining
katta yordamchisi 2-darajali yurist
Huquqni muhofaza qiluvchi organlar
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Jinoyatchilikni kriminologik prognozlash bugungi kunda ijtimoiy va huquqiy sohalarda dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu jarayon zamonaviy matematik, statistika, ehtimollik nazariyasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida jinoyatlarning kelajakdagi holati, xavfli hududlar, tur va shakllari bo‘yicha ilmiy tahlilni o‘z ichiga oladi. Predictive policing tizimlari, GIS, CCTV, AI, big data va video/sensorli monitoring platformalari jinoyatchilikni real vaqt rejimida aniqlash, patrullarni yo‘naltirish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: kriminologik prognozlash, jinoyatchilik, Predictive policing, GIS (Geografik axborot tizimi), CCTV, Sun’iy intellekt (AI), Big data, Matematik modellashtirish, Statistik tahlil, Hot-spot, RTCC, DAS (Domain Awareness System) Ehtimollik nazariyasi, Time-series modellar, kriminogen omillar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N36

Jinoyatchilikni oldini olish va uning kelajakdagi holatini prognozlash bugungi kunda ijtimoiy va huquqiy sohalarda dolzarb masala hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot davrida huquqni muhofaza qiluvchi organlar nafaqat jinoyat sodir bo‘lishini aniqlash, balki xavfli hududlarni

oldindan belgilash, jinoyatning tur va shakllarini prognoz qilish imkoniga ega bo‘lishlari zarur. Bunda aniq fanlar (matematika, statistika, ehtimollik nazariyasi, informatika) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yutuqlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchilikning kelajakdagi holati, tendensiyalari va xavfli zonalarini oldindan aniqlashga qaratilgan ilmiy faoliyatdir.

Internetning mavjudligi bilan OAV dunyoda yangiliklarning (to‘g‘ri yoki soxta bo‘lsin), o‘yin-kulgining, dam olishning asosiy manbaiga aylandi. Televideniye, bosma nashrlar, Facebook, Twitter, bloglar va onlayn forumlarda mavjud bo‘lgan boshqa maqolalar bu dunyoda sodir bo‘layotgan jinoyatlar haqidagi jamoatchilik fikri va tushunishiga katta ta’sir ko‘rsatdi [1; 63 b.].

Jinoyatchilikning umumiy ahvolini va tendensiyalarni bilishda, kriminologik rivojlanish qonunlari va jinoyatlarni kriminologik prognozlashda raqamli kriminologiya alohida o‘rin tutadi.

I.V.Bestujev-Ladaning fikricha, prognozlash kelajak haqidagi bayonot emas, balki zamonaviy ilmiy vositalardan foydalangan holda muayyan hodisa yoki jarayonning rivojlanish istiqbollarini tizimli o‘rganishdir [2;14 b.].

Rossiyalik olim V.A.Oleynikning fikricha, jinoyatchilikni prognozlashda matematik modellar va statistik metodlardan foydalanish jinoyatchilik darajasining o‘zgarishini aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. U matematik usullar yordamida jinoyatlarni tahlil qilish va kelajakda ularning ehtimolini baholashni taklif qiladi [3;15 b.].

E.G.Babayev jinoyatchilikni prognozlashda matematik statistika va ehtimollik nazariyasidan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi [4;18 b.].

L.A.Levin kriminologiyada matematik modellashtirishni ilgari surib, jinoyatlarning paydo bo‘lish mexanizmini o‘rganishda matematik usullar muhim ekanligini aytadi. Shuningdek, u jinoyatchilikni kamaytirishga yo‘naltirilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda matematik prognozlashning ahamiyatini qayd etadi [5;11.].

Amerikalik M.Friedmanning tadqiqotlarida matematik usullar yordamida jinoyatchilikni oldindan ko‘rish va uning o‘sishini bashorat qilish mumkinligi ko‘rsatib berilgan. U kriminologik ma’lumotlarni modellashtirishda statistik tahlil va kompyuter algoritmlaridan keng foydalanishni taklif qiladi [6;25 b.].

Matematika jinoyatchilikni tahlil qilish va prognozlashda asosan ehtimollik, statistik modellar va optimallashtirish metodlari orqali qo‘llaniladi. Hodisalar ehtimolligini hisoblash imkoniyati orqali turli jinoyatlarning kelgusi davrlarda sodir bo‘lish ehtimolini aniqlash mumkin. Shuningdek, matematik modellar yordamida jinoyat tarmoqlari, patrullar soni yoki resurslarni samarali taqsimlash kabi masalalarni optimallashtirish mumkin. Misol uchun, o‘tgan besh yil davomida ma’lum hududda sodir bo‘lgan o‘g‘riliklar, talonchilik yoki boshqa jinoyat turlari soni asosida ehtimollik modellarini qurish va kelgusi oylar yoki choraklar uchun prognoz ishlab chiqish mumkin.

Agar biz yil davomida sodir etilgan jinoyatlarning (huquqbuzarlarning) umumiy sonini asos sifatida (100%) oladigan bo‘lsak, u holda bizni qiziqtirgan har bir kriminogen omil foizda (qism yoki ball) ifodalangan nisbatan barqaror o‘lchovni oladi. Turli kriminogen omillarning o‘ziga xos og‘irliklari tasodifiy o‘zgaruvchilar taqsimotining universal qonunini aks ettiradi. Natijada, shaxsning keyingi jinoiy xatti-harakati haqida taxmin qilish mumkin [7; 312 b.].

R.Buranova ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini tahlil qilish natijasida, tahliliy faoliyat bilan shug‘ullanadigan ichki ishlar organlari xodimlarining prognoz qilish amaliyotiga Microsoft Excel dasturiy ta’minoti rejimida kompyuter prognozidan foydalanishni kiritishni taklif etgan [8; 155 b.].

Biroq, prognoz qilish amaliyotiga Microsoft Excel dasturiy ta’minoti rejimida kompyuter prognozidan foydalanish muayyan natija berishi mumkin emas. Unda jinoyatchilikning mavjud statistik ko‘rsatkichlarini kiritish orqali kelgusi yillardagi taxminiy ko‘rsatkichlarni berish mumkin. Bu ko‘rsatkichlar matematik qoidalar asosida bo‘lib, unda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va boshqa bir qator asosiy omillar nazarda tutilmaydi.

XX asrning 50-yillarda o‘tgan atoqli kibernetikachisi N.Viner ta’kidlaganidek, “agar matematika uning tayanchi bo‘lib xizmat qilmasa, u holda kibernetika ham sotsiologiya ham boshqa ijtimoiy fanlarning rivojlanishi murakkabdir [9; 10 b.].

Kriminologiya shaxs, uning alohida turlari va guruhlari, jinoyatchining shaxsiyati, jabrlanuvchining portretini yaratish, jinoyatlar va xavfli guruhlarni aniqlash, ularning ommaviy statistik kuzatishlarida jinoyatni belgilovchi omillarni o‘rganishi sir emas. Ushbu omillarni tahlil qilish, umumlashtirish va talqin qilishni statistik va matematik tadqiqot usullarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Matematik prognozlash usullari o‘zining obyektivligi, ishonchliligi va olingan natijalarning aniqligi bilan ajralib turadi. Garchi, yuridik fanda matematikani o‘rganish g‘ayritabiiy ko‘rinsa-da, kriminologiyada, kriminologik prognozlashda matematik modellashtirish yangilik emas, shunga qaramay, vaqt o‘tishi bilan kuzatilgan obyektning ishlashidagi chizgilarini aniqlash imkoni mavjud.

Matematik usullaridan foydalanish muayyan hududdagi jinoyatchilik darajasini pasaytirish uchun bilvosita chora-tadbirlar imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Jinoyatni prognozlashda matematik modellashtirish uning mintaqadagi rivojlanishini va unga qarshi kurash usullarini kriminogen va ant-kriminogen jarayonlar va hodisalar majmuasini hisobga olgan holda tizimli ravishda ko‘rish imkonini berdi.

Jinoyatchilikni kriminologik prognozlash jarayonida stoxastik, Regressiya tahlili, Time-series, Markov zanjirlari, Bayes usullari, Optimallashtirish va integer programming kabi modellardan keng foydalaniladi.

Jinoyatchilikni kriminologik prognozlashda ehtimollik nazariyasi va stoxastik modellar hududlar bo‘yicha jinoyat sodir bo‘lish ehtimolini aniqlash va resurslarni taqsimlashda asosiy vosita hisoblanadi. Regressiya tahlili jinoyat ko‘rsatkichlari bilan hududiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi, vaqt qatorlari modellar esa (ARIMA, SARIMA) jinoyatlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi va mavsumiy tendensiyalarni aniqlashda qo‘llaniladi. Markov zanjirlari jinoyatlarning hududiy tarqalish ketma-ketligini modellashtirsa, Bayes usullari yangi ma’lumotlar asosida prognozlarni dinamik yangilash imkonini beradi. Optimallashtirish va integer programming metodlari esa patrullar marshrutlari va resurslarni maksimal samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

Fizika jinoyatchilik hodisalarini tarqalish va dinamik tizim sifatida modellashtirishga yordam beradi. Masalan, diffuziya yoki propagatsiya nazariyalari orqali jinoyat hodisalari qanday hududlarda tez tarqalishini, jinoyatchilik tarmoqlari va ularning o‘zaro aloqalarini aniqlash mumkin. Bu usul jinoyatchilikning “harakat yo‘nalishi” va “tezligi”ni tahlil qilish

imkonini beradi. Masalan, talonchilik yoki narkotik tarmoqlarining hududiy tarqalishini fizika modellaridan foydalangan holda prognozlash mumkin.

Geometriya va fazoviy tahlil hududiy xavfni aniqlash va kartografik ko‘rinishda aks ettirish imkonini beradi. Masofa, qamrov, zonal analiz va GIS (Geografik Axborot Tizimlari) yordamida jinoyatlarning markazlari, xavfli zonalari va optimal patrul marshrutlarini aniqlash mumkin. Masalan, o‘g‘rilik yoki talonchilik ko‘p sodir bo‘lgan hududlar atrofidagi xavfli zonalarni kartada belgilanadi.

Statistika katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va hodisalar orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashda eng qulay vosita hisoblanadi. Parametrik va no-parametrik metodlar yordamida jinoyatlarning turli xil xususiyatlari va ular orasidagi o‘zaro ta’sirlarni o‘rganish mumkin. Shu bilan birga regressiya va korrelyatsion tahlillar orqali kelgusidagi jinoyat ko‘rsatkichlarini bashorat qilish imkoniyati mavjud. Asosan jinoyat turlari va hududlar orasidagi korrelyatsiyani aniqlash, masalan, qaysi hududlarda o‘g‘rilik, talonchilik yoki boshqa jinoyatlar ko‘proq sodir bo‘lishini tahlil qilishda keng foydalaniladi.

Shuningdek, jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishda **Predictive analytics tizimlari** (PredPol/Geolitica, CompStat, PRECOBS va CAS), **Ma’lumotlarni tahlil va vizualizatsiya vositalari** (Visual Analytics for Sense-making in Criminal Intelligence, CrimeView), **Sun’iy intellekt va mashina o‘rganish tizimlari**, **Video va sensorli kuzatuv tizimlari** (CCTV, gunshot detectors), **Kiberxavfsizlik va axborot tarmoqlarini monitoring qilish tizimlari (**IEM (Security Information and Event Management), IDS/IPS (Intrusion Detection/Prevention Systems), Dark Web Monitoring, SOC (Security Operations Centers), Social Media Intelligence (SOCMINT), AI & Machine Learning Cyber Analytics, Big Data Network Traffic Analysis**)**, **Ijtimoiy tarmoqlar va ochiq manbalarni tahlil qilish (**Palantir Gotham, Dataminr, HunchLab, SOCMINT Tools, Talkwalker, Meltwater, Digimind, Brandwatch, Weibo, WeChat Monitoring**)** va **Real-time Monitoring va Domain Awareness** tizimlari (Real-Time Crime Centers, Domain Awareness System (DAS), ShotSpotter Integration, CAS (Crime Anticipation System), Domain Awareness, Smart Nation Domain Awareness, Urban Real-Time Monitoring Platforms Skynet, Sharp Eyes) kabi axborot komunikatsiya vositalari va texnologiyalaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Predictive policing (bashorat qiluvchi politsiya) tizimlari AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Niderlandiyada eng rivojlangan bo‘lib, PredPol, CompStat, PRECOBS va CAS kabi dasturlar jinoyatlarni vaqt va makon bo‘yicha prognozlashda keng qo‘llaniladi. Ushbu tizimlar ehtimollik modellariga, vaqt qatorlari tahliliga, GIS va sun’iy intellektga asoslanib, patrullarni rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi [10; 14-15 b.]. Yevropa davlatlarida bu texnologiyalar qat’iy huquqiy va etik cheklovlar ostida joriy etilgan bo‘lsa, Osiyo mamlakatlarida (Singapur, Yaponiya, Xitoy) real-time va AI asosidagi prognozlash tizimlari ustuvor hisoblanadi.

Kriminologik prognozlashda ma’lumotlarni tahlil va vizualizatsiya qilish vositalari jinoyatchilikning vaqt va makon bo‘yicha qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. AQShda CrimeView va CrimeStat dasturlari jinoyatlarni GIS asosida xaritalash, hot-spotlarni aniqlash va statistik tahlil qilishda keng qo‘llaniladi [11]. Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlarida ESRI CrimeAnalyst va SaTScan kabi vositalar fazoviy-vaqtli klasterlarni aniqlash hamda hududiy xavfni baholashda qo‘llaniladi [12]. Kanada va Yevropa amaliyotida Rigel geografik profiling dasturi seriyali jinoyatlarni vizual tahlil qilishda qo‘llaniladi [13].

Shuningdek, global miqyosda Tableau va Power BI kabi biznes-intellekt platformalari jinoyat statistikasi va prognoz natijalarini interaktiv vizual shaklda taqdim etish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirmoqda [14].

Kriminologik prognozlashda video va sensorli kuzatuv tizimlari AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur va Xitoyda keng rivojlangan bo‘lib, CCTV, akustik sensorlar, ANPR va AI video-analitika jinoyat xavfini real vaqt rejimida aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu tizimlar sun’iy intellekt va GIS platformalari bilan integratsiyalangan holda jinoyatlarning vaqt va makon bo‘yicha prognozini aniqlashtiradi hamda patrullarni tezkor va maqsadli joylashtirish imkonini beradi.

Kriminologik prognozlashda kiberxavfsizlik va axborot tarmoqlarini monitoring qilish tizimlari AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya va Singapurda keng rivojlangan bo‘lib, SIEM, IDS/IPS, SOC va sun’iy intellekt asosidagi kiberanalitika vositalari orqali jinoyatlarning raqamli makondagi dinamikasi prognoz qilinadi. Ushbu tizimlar kiberjinoyatlarning oldini olish, ekstremizm va moliyaviy jinoyatlarni erta aniqlash hamda davlat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Jinoyatchilikni kriminologik prognozlashda ijtimoiy tarmoqlar va ochiq manbalarni tahlil qilish tizimlari AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Germaniyada keng qo‘llaniladi. Palantir Gotham, Dataminr, HunchLab va SOCMINT platformalari ijtimoiy media va boshqa ochiq manbalardan ma’lumot yig‘ib, AI va NLP algoritmlari yordamida jinoyat xavfini real-time prognoz qiladi [15]. Shu bilan birga, Singapur va Yaponiya kabi mamlakatlar Smart City va SNS monitoring tizimlari orqali xavfni oldindan aniqlash imkoniyatiga ega. Xitoyda Weibo va WeChat monitoring tizimlari davlat nazorati ostida ishlaydi va keng qamrovli OSINT tahlilini ta’minlaydi [16].

Real-time Monitoring va Domain Awareness tizimlari AQSh, Niderlandiya, Germaniya, Singapur va Xitoyda jinoyatchilikni kriminologik prognozlashda keng joriy etilgan. AQShda RTCC va DAS tizimlari CCTV, 911 chaqiruvlari, patrul va GPS ma’lumotlarini real-time integratsiyalaydi, hot-spot va risk asosida patrullarni boshqaradi [17]. Niderlandiya va Germaniyada tizimlar urban surveillance va AI alertlar bilan to‘ldirilgan. Singapur va Yaponiya Smart City konsepsiyasi doirasida real-time monitoring platformalarini ishlatadi, Xitoy esa Skynet va Sharp Eyes tizimlari orqali keng qamrovli video va sensor monitoringni amalga oshiradi. Ushbu tizimlar jinoyat xavfini real vaqt rejimida aniqlash, resurslarni optimallashtirish va profilaktika choralarini rejalashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, geografik axborot tizimlari tegishli statistik dasturiy ta’minot jinoyatchilikda yuqori texnologiya yutuqlaridan foydalanish uchun talablardan biridir. Geografik axborot tizimi (GIS) – bu qoniqarli natijalarga erishish uchun professional xodimlar tomonidan qo‘llanilishi kerak bo‘lgan kompyuterga asoslangan texnologiyadir [18; 12 b.].

Jinoyatni tahlil qilishda axborot texnologiyalaridan birinchi marta Qo‘shma Shtatlarida 40 yildan ortiq vaqt davomida jinoyat ma’lumotlari tahlili yordamida amalga oshirilgan [19; 4 b.].

Aksariyat kriminologlar tomonidan geografik axborot tizimi vositalari shunchaki tarixiy proyeksiya ma’lumotlarini xaritaga kiritish va ularni turli vaqt o‘lchovlari bo‘yicha xavfli hududlarga klasterlash sifatida tavsiflanadi.

R.Buranova hududlarning elektron “kriminogen vaziyat xaritalari”ni joriy etish va xodimlarning jinoyat joyiga o‘z vaqtida yetib borishini, jinoyat haqida to‘liq zarur

ma’lumotlarni olish, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsning xususiyatlari, shuningdek harakatlar algoritmi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, kuchlar va vositalarning to‘g‘ri taqsimlanishini (operativ boshqaruv) ta’minlash uchun maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanish taklif qilingan [20; 155 b.].

Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni prognoz qilish va oldini olishning zamonaviy strategiyasi, bizning fikrimizcha, quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni amalga oshirish orqali erishiladi.

Birinchidan, jinoyatga qarshi kurashishda iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyotni rivojlantirish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash barobarida zamonaviy texnologiyalar yordamida vaziyatni prognozlash va oldini olish davlatning ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, belgilangan maqsadlarga erishish maqsadida jinoyatchilikka qarshi kurashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ma’naviy-axloqiy va huquqiy jihatlari yuzasidan jamoatchilik muhokamasini boshlash, zamonaviy dasturiy yechimlarning fuqarolarning shaxsiy va jamoat hayotiga tajovuz qilish chegaralari bo‘yicha jamoatchilik konsensusini shakllantirish lozim.

Uchinchidan, eng yangi texnologik yutuqlarni joriy etishda qonunchilik bazasini shakllantirish.

To‘rtinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni prognoz qilish va oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish sohasida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish va joriy etish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt yordamida jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni prognoz qilish va oldini olishning zamonaviy modellarini ishlab chiqish lozim.

Beshinchidan, davlat, ta’lim tashkilotlari imkoniyatlarini birlashtirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni prognozlash va oldini olishga qaratilgan mahalliy dasturiy yechimlarni ishlab chiqishni rag‘batlantirish, tegishli taktik qarorlarni amalga oshirishda ilmiy muassasalar va xususiy sektor bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kerak.

Oltinchidan, barcha darajadagi ichki ishlar organlari xodimlari foydalanishi mumkin bo‘lgan, texnik va dasturiy ta’minotga qo‘yiladigan talablarning yagona standartiga asoslangan kuchli ma’lumotlar bazalarini yaratish, to‘ldirish va integratsiyalash, katta ma’lumotlar tahlili sohasidagi mutaxassislarni xodimlar tarkibiga keng joriy etish.

Yettinchidan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha o‘quv kurslari orqali ichki ishlar organlari xodimlarining malakasini to‘liq oshirish.

Sakkizinchidan, “Raqamli kriminologiya” kurslarini jinoyat huquqi mutaxassisligi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlariga kiritish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Игорь Васильевич Бестужев-Лада. “Окно в будущее: Современные проблемы социального прогнозирования /Москва : Мысль, 1970”. 14 с.
2. Олейник В.А. «Методы криминологического прогнозирования» — Россия, 2008. 15 с.
3. Бабаев Э.Г. «Статистически-математические методы в криминологии» — Ташкент, 2015. 18 с.
4. Левин Л.А. «Основы криминологического моделирования» — Москва, 2012. 11 с.
5. Friedman M. “Mathematical approaches in criminology” — New York, 2010. Page 25.
6. Лунеев В. В. Мотивация преступного поведения. М.: Наука, 1991. 383 с. Стр 312.

7. Buranova R. “O‘zbekiston Respublikasidagi jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish” — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, DSc.31/30.12.2019.Yu.25.01 2025. — 155 bet.
8. Criminality prediction Bc. Veronika Maurerová Ing. Pavel Kordík, Ph.D. Czech technical university in Prague faculty of information Technolog assignment of master’s thesis-page 10.
9. Big data policing: The use of big data and algorithms by the Netherlands Police Open Acces Marc Schuilenburg , Melvin Soudijn Policing: A Journal of Policy and Practice, Volume 17, 2023, page 14-15. 1
10. “Real-Time Analytics Dashboards for Decision-Making Using Tableau in Public Sector and Business Intelligence Applications” (Journal of Frontiers in Multidisciplinary Research, 2022).
11. Asit Kumar Das Professor Department of Computer Science and Technology, Indian Institute of Engineering Science and Technology, Crime Prediction Models using Intelligent Com putational Approaches- Shibpur, Howrah, India- PhD/R/2017 page 63
12. В.Ингилевич, С.Иванов, Прогнозирование уровня преступности в городской среде с использованием социальных факторов.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

SCIENTIFIC AND THEORETICAL CHARACTERIZATION OF THE CONCEPTS OF FOREIGN (EXTERNAL) AND DOMESTIC (NATIONAL) INVESTMENT, AND THEIR ROLE AND SIGNIFICANCE IN A MARKET ECONOMY

Dilboboev Nozimbek
Lecturer of the Department of Private International Law,
Tashkent State University of Law
E-mail: dilboboyevnozimbek@gmail.com

Abstract. This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the concepts of foreign and domestic investment and their significance in a market economy. It examines the economic and legal nature of investment, distinguishes between investors and entrepreneurs, and considers key aspects of investment relations. Based on international legal instruments and bilateral investment treaties, the study highlights the role of foreign investment as a source of external financing. The findings contribute to the theoretical development of investment law and the improvement of legal regulation of investment activities.

Keywords: investment, foreign investment, domestic investment, investor, market economy.

XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Dilboboyev Nozimbek
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Xalqaro xususiy huquq kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xorijiy (chet el) va mahalliy (milliy) investitsiya tushunchalarining ilmiy-nazariy mazmuni hamda ularning bozor iqtisodiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Investitsiya tushunchasining iqtisodiy va huquqiy mohiyati, investor va tadbirkor kategoriyalarining farqi, shuningdek, investitsiya munosabatlarining subyektlari va obyektlari yoritiladi. Xalqaro huquqiy hujjatlar va ikki tomonlama investitsiya bitimlari asosida xorijiy investitsiyalarning tashqi moliyalashtirish manbai sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari investitsiya huquqini nazariy jihatdan rivojlantirish va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish uchun ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: investitsiya, xorijiy investitsiya, milliy investitsiya, investor, bozor iqtisodiyoti.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N37

Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi kapitalning va moliyaviy resurslarning global miqyosda integratsiyalashuviga olib keldi. Albatta, bu holat o‘ziga xos munosabatlar tizimini vujudga kelishi va uning atrofida bir qator ilmiy muhokamalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Ayni paytda bu sof iqtisodiy munosabat bo‘libgina qolmay, huquqiy tartibga solish masalalarini ham qamrab olardi. Shu sababli investitsiya faoliyati iqtisodchi olimlar bilan bir qatorda huquqshunoslar orasidagi tadqiqotchilar uchun ham dolzarb mavzuga aylandi.

“Investitsiyalar” ingliz tilidan (investments) tarjima qilinganda “kapital qo‘yish” ma’nosini anglatadi. Investitsiyani ayni paytda kapital deyish mumkin. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida mashhur fransuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832) “Siyosiy iqtisod risolasi” kitobida (1803) tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarishning uch klassik omillari – yer, kapital, mehnatning yaxlitligi deb ta’riflagan edi. Demak, investitsiyaviy munosabatlarni tadbirkorlik faoliyatidan ajratib bo‘lmaydi.

Investorning huquqiy maqomini to‘g‘ri belgilash, ushbu tushunchaning mohiyatini anglash uchun, avvalambor, “investitsiya” atamasining mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratish lozim. Investitsiyaga doir ko‘plab ta’riflar mavjud. Investsiya – tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tarafning va mulkchilik shaklidan qat’i nazar, jismoniy, yuridik shaxs yoki davlatning iqtisodiy foyda yoki ijtimoiy samara olish maqsadida qonunda nazarda tutilgan tadbirkorlik faoliyatining har qanday obyektlariga o‘zining moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarni jalb qilishi sanaladi [1]. William F. Sharpning fikriga ko‘ra investitsiyalar kelgusida ko‘proq qimmatliklarni olish maqsadida muayyan qimmatliklardan hozirgi vaqtda voz kechish sanaladi [2]. Shunga o‘xshash fikr K.K. Isayeva tomonidan keltirib o‘tilgan. Ushbu fikrga binoan investitsiyalash kelajakda ko‘proq mablag‘ olish uchun pulidan bugungi kunda ayrilishni anglatadi [3].

Bundan tashqari, ko‘plab huquqiy va iqtisodiy nashrlar “investitsiya”so‘ziga turli ta’riflar beradi. Misol uchun, R. Dolzer, S. Shcreuerlarning fikricha, investitsiya – iqtisodiy foyda yoki ijtimoiy foyda olish maqsadida qonun bilan nazarda tutilgan tadbirkorlik faoliyatida har qanday obyektdan har qanday moliyaviy, moddiy yoki intellektual mulk jalb etish hisoblanadi [4].

R. Bozorovning fikriga ko‘ra, investitsiyalar investitsiya faoliyati obyektidan foyda olish yoki muayyan vaqt va boshqa ijobiy ta’sirlarga erishish uchun mo‘ljallangan moddiy va intellektual mulkdir [5]. Shu bilan birga, olimlar fikriga asoslanib, investitsiyalar iqtisodiy kategoriya va belgilangan maqsadlarga erishish vositasidir degan umumiy fikrni o‘rtaga tashlashimiz mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda olimlar tomonidan taqdim etilgan va qonun normalarida aks ettirilgan investitsiyalarning ta’riflari haqida ma’lumot beriladi. Masalan, V.V. Bocharov o‘zining quyidagi fikrlarini keltirib o‘tadi: “Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati – bu asosiy va aylanma kapitalni korxonani tashkil etish, rekonstruksiya yoki texnik qayta qurollantirishga sarflash; moliyaviy investitsiya bo‘yicha – investorni moliyaviy kapitalini oshirish maqsadida uning instrumentlaridan foydalanib, mablag‘larni aksiya, obligatsiya, bank depozitlariga va boshqa qimmatli qog‘ozlarga qo‘yishdir. Investitsiya keng ma’noda yuritilib, bu investitsion jarayondagi hudud yoki mamlakatdagi moliya tizimini evolyutsion jarayonining hozirgi holati bilan izohlanadi. Investitsiya deganda AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiyada fond bozorlariga ko‘proq e’tibor qaratilib, investitsiyalash qimmatli qog‘ozlar yordamida amalga oshiriladi degan tushunchalari mavjud. Boshqacha so‘z bilan aytilganda, portfel investitsiya so‘zi bilan yuritiladi” [6]. V.V. Bocharov o‘zining yana bir fikrida: “Investitsiya – bu barcha turdagi tadbirkorlik hamda boshqa turdagi biznesning mulkiy va intelektual mulki bo‘lib, natijasi foyda yoki ijtimoiy samaradir”, – deb qayd etgan [7].

Peter Muchlinskiy, Federiko Ortino va Kristof Schreuerk investitsiyalarning milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, mamlakat yoki chet elda, foyda olish maqsadida davlat yoki xususiy kapitalning uzoq muddatli investitsiyasi ekanligini ta’kidlashadi [8].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining bir qator ikki tomonlama bitimlari va kelishuvlarida aks ettirilgan investitsiya atamasi sifatida tasvirlangan obyektlar investitsiyalarni “kapital-transfer” deb belgilash to‘g‘riligini isbotlaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida 2011-yil 19-aprelda Pekinda imzolangan “Investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risida”gi Bitim (2011-yil 30-dekabrda kuchga kirgan)ning 1-moddasida belgilanishicha, “Investitsiya” atamasi bir Ahdlashuvchi Tomon investori boshqa Ahdlashuvchi Tomon davlati hududida shu Ahdlashuvchi Tomonning qonun va normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq investitsiya qilgan aktivlarining barcha turlarini anglatadi [9].

Ma’lum bo‘lishicha, investitsiyalar qaysi tarmoqqa yo‘naltirilganligiga va huquqning bir turiga qarab o‘z nomiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, bir qator tadqiqotchilar va olimlar investitsiya turlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini o‘tkazadilar va ularni muayyan mezonlarga muvofiq guruhlashadilar. Misol uchun, A. Sobirovning fikriga ko‘ra, quyidagi turdagi investitsiyalar mavjud:

- ko‘chmas mulk va moliyaviy investitsiyalar;
- investitsiya jarayonida ishtirok etish imkoniyati bo‘yicha: *to‘g‘ridan-to‘g‘ri*;
- ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligiga qarab: *yalpi, yangilangan va toza*;
- investorga qarab: *ichki va tashqi*;
- sotish muddati bo‘yicha: *qisqa muddatli va uzoq muddatli*;
- rentabellik darajasi bo‘yicha: *yuqori daromad, o‘rtacha daromad va kam daromad*;
- xavf darajasi bo‘yicha: *xavfsiz, past xavfli, mo‘tadil va yuqori xavfli*;
- likvidlik darajasi bo‘yicha: *yuqori likvidlik, o‘rtacha likvidlik, past likvidlik va o‘zgaruvchanlik*;
- investitsiya qilingan kapitalning mulk turi bo‘yicha: *xususiy, davlat va aralash*;
- investitsiya jarayonida kapitaldan foydalanishning tabiati bo‘yicha: *asosiy reinvestitsiya*;
- investitsiya kapitalining mintaqaviy yo‘nalishi bo‘yicha: *ichki bozorda investitsiyalar va tashqi bozorlardagi investitsiyalar*;
- tarmoqqa yo‘naltirilgan investitsiyalar: *investitsiya tasnifiga mos keladigan tarmoqlar va tarmoqlarga investitsiyalar* [10].

Yuqoridagi shaklda investitsiyalarni klassifikatsiyalashda uning o‘ziga xos xususiyatlarini, ya’ni investitsiya obyekti, subyekti va maqsadi kabi muhim faktorlar inobatga olinadi. Mazkur investitsiyalar klassifikatorida investorga, ya’ni investitsiya subyektiga qarab tasniflash alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga ajratiladi. Bulardan tashqi investitsiyalar xorijiy investitsiya yoki chet el investitsiyalari deb ham yuritilsa, ichki investitsiyalar esa adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi, jumladan, milliy investitsiyalar yoki mahalliy investitsiyalar kabi.

Xo‘sh, shu o‘rinda savol tug‘iladi. Xorijiy investitsiyalar nima, investitsiya qanday turlari amalda mavjud va kimlar xorijiy investorlar bo‘lishi mumkin? Bu savollarga yetakchi yuridik fanlar olimlarining asarlarini tahlil qilish orqali javob olish mumkin.

Mamlakatimiz ilm-fanida “investitsiyalar” atamasi mamlakatimizda bozor munosabatlari rivoji munosabati bilan keng tarqaldi. “Investitsiya” atamasi lotin “investire” dan kelib chiqqan va “kiyinish” degan ma’noni anglatadi. Feodalizm davrida investor feodal mulkka kirish jarayoni deb atalgan [11].

Amerikalik olim Alan Markus “investitsiya”ni sarmoyani daromaddan ajratish sifatida belgilaydi [12]. Haqiqatan ham investitsiya qanday maqsadda kiritilishidan qat’iy nazar muayyan sarmoyadan moddiy yoki nomoddiy manfaat ko‘rishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining yuridik fanlar sohasidagi yetakchi olimlaridan biri o‘z ishida “xorijiy investitsiyalar” tushunchasini nafaqat quyidagicha belgilashni, balki uni qonun bilan mustahkamlashni taklif qilgan – chet davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turli xil turdagi aktivlar (ko‘char, ko‘chmas mulk, intellektual mulk va boshqalar) va ularning daromadlari (foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va komissiya to‘lovlari, texnik yordam, texnik xizmat ko‘rsatish va boshqa to‘lov shakllari uchun to‘lovlar) qabul qiluvchi mamlakatning turli sohalariga, asosan, pirovard natijada daromad olish maqsadida qilinadigan investitsiya [13].

N.N. Voznesenskaya chet el investitsiyalarining quyidagi ta’riflarini beradi: “Investitsiyalarni xorijiy investor tomonidan mablag‘ bilan ta’minlash deb tushunish kerak, unda iqtisodiy faoliyat majburiy bo‘lib, ushbu mablag‘lardan kelishilgan maqsadli foydalanishga yo‘naltirilgan xorijiy elementning ishlab chiqarish faoliyati, ushbu faoliyat (mahalliy kapitalning ishtiroki yoki ishtirokisiz) iqtisodiy yosh davlatning rivojlanishiga, uning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradigan shartli ishlab chiqarish obyektini yaratishga olib keladi” [14].

Stenford professori Sharpe Williamning so‘zlariga ko‘ra, odatda ikkita omil investitsiya jarayoni bilan bog‘liq – vaqt va xavf. Biz hozir va ma’lum miqdorda pul berishimiz kerak. Kompensatsiya keyinchalik umuman olinadi va uning qiymati oldindan ma’lum emas [15]. Ushbu fikrlar asosida investitsiya riski masalasi yotganligini bir qarashda anglash mumkin.

Yuridik adabiyotlarda xorijiy investitsiyalarning ta’rifi fuqarolik huquqlari obyektlari ro‘yxatini ko‘rsatish orqali beriladi. Xususiy xalqaro huquqning taniqli olimi M.M. Boguslavskiy xorijiy investitsiyalar moddiy va nomoddiy buyumlarning egasi tomonidan ularning qiymatini oshirish maqsadida bir davlatdan ikkinchisiga o‘tkazilishini va ulardan foydalanish ustidan to‘liq yoki qisman nazoratni o‘z ichiga olganligini ta’kidlaydi [16].

Bundan tashqari, biz xalqaro huquqiy hujjatlarda va mamlakatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama bitimlarda keltirilgan xorijiy investitsiyalarning turli tushunchalarini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, xorijiy investitsiyalarni ta’riflashda yangi yondashuv 1985-yil 11-oktyabrdagi “Investitsiyalar kafolatlari bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik (MIGA)ni tashkil etish to‘g‘risida”gi Seul konvensiyasida qabul qilindi. Seul konvensiyasining 12-moddasida investitsiyalar tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Investitsiyalar kafolat ostida bo‘lgan o‘rta va uzoq muddatli kreditlar, shu jumladan, aksiyadorlik ishtirokini, aksiyalar egalari tomonidan manfaatdor korxonaga taqdim etilgan yoki ular tomonidan kafolatlangan, shuningdek, direktorlar Kengashi tomonidan belgilanishi mumkin bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital qo‘yilmalarning bunday shakllarini o‘z ichiga oladi” [17]. Konvensiyada berilgan chet el investitsiyalarining ta’rifidan kelib chiqqan holda, MIGA direktorlar kengashi tasdiqlash tizimi asosida xorijiy investor tomonidan chet el investitsiyalari sifatida amalga oshiriladigan ishlarni malakali qiladi, bu ularga ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan xalqaro sug‘urta tizimini qo‘llash imkonini beradi [18].

Investitsiya tushunchasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Shvetsiya hukumati o‘rtasida tuzilgan 2001-yil 29-maydagi “Investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish to‘g‘risida”gi bitimda ham mavjud bo‘lib, “investitsiya” atamasi boshqa

Ahdlashuvchi tomon hududida bir Ahdlashuvchi tomon tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita investor tomonidan investitsiya qilingan yoki nazorat ostida bo‘lgan aktivlarning har qanday turini anglatadi, agar investitsiya boshqa Ahdlashuvchi tomonning qonunlari va qoidalariga muvofiq amalga oshirilgan bo‘lsa [19].

Investitsiya turlari investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiya qilish yoki investitsiya qilish uchun mo‘ljallangan moddiy va nomoddiy manfaatlarga asos bo‘ladi. Xususan, I.Z. Farhutdinov ilmiy ishlaridan xorijiy investitsiyalar quyidagi turlarga ajratgan:

1. Maqsad obyekti bo‘yicha:

a) kapital; b) innovatsion; v) ijtimoiy.

2. Investitsiya manbalari egalari tomonidan:

a) davlat mulki – davlat kapitali;

b) xususiy mulk – xususiy kapital, investitsiyalar.

3. Investitsiya shaklida:

a) kredit shakli, ya’ni kredit mablag‘lari va kreditlar va kreditlar shaklida investitsiyalar;

b) tadbirkorlik shakli – to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari shaklidagi tadbirkorlik kapitali [20].

N.N. Voznesenskayaning fikricha esa davlat chet el investitsiyalari xalqaro qarzlar, kreditlar va hokazo, qoida tariqasida, mezbon davlatning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasida amalga oshiriladi. Bunday holda, xalqaro investitsiya huquqi subyektlari (davlatlar va xalqaro tashkilotlar – investitsiya va boshqa banklar va ularning institutlari, masalan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki va uning institutlari) o‘rtasidagi munosabatlar vujudga keladi [21]. Bu fikr yuqorida I.Z. Farhutdinovning investitsiya manbalari egalari toifasiga ko‘ra tasniflash haqidagi qarashining o‘zginasi desak, xato bo‘lmaydi. Ammo xalqaro huquq subyektlari o‘rtasidagi har qanday kredit munosabatlari ham investitsiyaviy munosabat bo‘lmasligi mumkin, chunki bu holatda Ba’zi kreditlar investitsion maqsadda amalga oshirilmasligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Amerikalik olim F. Xenius o‘zining 1947-yil AQSHda chop etilgan tashqi savdo lug‘atining 2- nashrida quyidagicha ta’riflaydi: “Xorijiy investitsiyalar – bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar” [22].

Demak, biz yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin bo‘ladi. Xorijiy investitsiyalar — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklar bo‘lib, chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbai sifatida milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag‘batlantirgan holda jalb qilinadi.

Shu o‘rinda investitsiyalarni subyektiga ko‘ra tasniflashda ichki investitsiyalar, ya’ni mahalliy (milliy) investitsiyalar tushunchasiga ilmiy-nazariy jihatdan alohida to‘xtalib o‘tsak.

Amaliyotda “investor” tushunchasi “tadbirkor” tushunchasiga tenglashtiriladi. Ko‘plab normativ huquqiy hujjatlarda mahalliy investorlar deganda aynan mahalliy tadbirkorlar tushuniladi. Biroq, investor bu aynan tadbirkor emas. Shu bilan birga tadbirkor investor bo‘lishi mumkin. Investor tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etmasligi ham mumkin. Tadbirkor xoh u jismoniy shaxs bo‘lsin, xoh u yuridik shaxs bo‘lsin foyda olishga qaratilgan faoliyati bilan shaxsan o‘zi shug‘ullanadi. Mahsulot ishlab chiqaradi, shartnomalar tuzadi. O‘zi ishlab chiqargan mahsulotlari uchun bozor izlaydi. Korxonada operativ boshqaruvni amalga oshiradi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun shaxs muayyan talablarga javob berishi lozim. Investor bo‘lish uchun esa maxsus talab mavjud emas. Shaxsning Fuqarolik kodeksi bo‘yicha muomala layoqatiga ega bo‘lishi unga huquqiy munosabatlarda ishtirok etish uchun imkon beradi. Asosiy masala shaxsda investor bo‘lishi mol-mulk mavjudligidir. Moliyaviy resurslarning qancha ekanligini esa investitsion munosabatlarda muhim emas. Tadbirkorlik muayyan tashkiliy-huquqiy shaklda amalga oshiriladi. Barcha tashkiliy huquqiy shakllar mohiyatan sarmoyani yoki sa’y-harakatni yoki sarmoya va sa’y-harakatni birlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Demak, sarmoya yoki sarmoya va sa’y-harakatni birlashtirishi mumkin bo‘lgan har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda investor ishtirok etishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyati, mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat, kommandit shirkat, oilaviy korxona kabi tashkiliy-huquqiy shakllarda investor huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

Shaxsning qarz munosabatlarida qarz beruvchi sifatida ishtirok etishi esa uning investorga aylanishiga olib kelmaydi. Chunki qarz masalalarida moliya resurslar harakatga keltirilsa-da, qarz beruvchi bunday foyda olishni nazarda tutmaydi. Ammo bu masala juda tortishuvli. Lekin qarz majburiyatini boshqa majburiyatga almashtirish mumkin. Demak, bu holatda ham ikki tomonlama yondashish lozim.

Shaxs aksiya, obligatsiya, umuman olganda, barcha turdagi qimmatli qog‘ozlarni sotib olishi orqali investorga aylanadi. Fuqarolarning banklarga omonat qo‘yishi investitsiya munosabatlarimi degan masala ham jiddiy e’tiborga muhtoj.

AQShlik olimlarning fikricha investor va tadbirkorning bir-biridan yaqqol ajralishi korxonada mulkchilik va boshqaruvning ajralishi bilan bog‘liq [23]. Bu mulohaza esa korporativ huquq subyektlarining o‘ziga xos belgilaridan birni nazarda tutmoqda.

Umuman olganda, milliy investitsiyalar tushunchasi nazariy jihatda keng qamrovga ega. Har bir yurisdiksiyada milliy investitsiyalar va investorlarning o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, jalb qilish shakliga ko‘ra farqlanuvchi holatlar bo‘lishi mumkin. Biroq barcha holatlarda mahalliy rezidentlarning korporativ huquqiy munosabatlarda ishtirok etish jarayonida milliy investitsiyalar harakatga kelishi namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2003. – B. 14.
2. William Sh. Fundamental textbook on investments. Moscow. Infra 2001, pp. 1020.
3. Исаева К.К. Инвестиционное право Кыргызской Республики. – Бишкек, КНУ, 2012. – С.18-19.
4. Dolzer R. Shcreuer C. Princeples of international investment law. Textbook. Second edition. 2012. Great Clarendon Street, Oxford, OX2. United Kingdom. – P. 23.
5. Бозоров Р.Б. Инвестиционное право: Учебник. – Душанбе: ТГНУ, 2008. – С. 63.
6. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник - 2 - е издании – СПб: – Питер, 2009. – С. 348.
7. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник - 2 - е издании – СПб: – Питер, 2009. – С. 349.
8. Muchlinski P., Ortino F. and Schreue Ch. The Oxford Handbook of International Investment Law. Published online: Sep 2012. – P. 527.
9. O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida 2011-yil 19-aprelda Pekinda imzolangan “Investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risida”gi Bitim (2011-yil 30-dekabrda kuchga kirgan). // O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to‘plami, 2011-yil, 3-4-son.

10. Sobirov A. “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilishning davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish” disser. ishi. – T.: 2010. – B. 25.
11. Финансово-кредитный словарь // Под ред. Гарбузова В.С. – Т. 1. – М.: 2012. – С. 128.
12. Зви Боди, Алекс Кейн, Алан Маркус. Принципы инвестиций. – М.: «Вильямс», 2004. – С. 984.
13. Самарходжаев Б.Б. Проблемы правового регулирования отношений по инвестициям в Республике Узбекистан (международно-частноправовой аспект), диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Т.: 2003. – С. 22.
14. Вознесенская Н.Н. Иностранные инвестиций и смешанные предприятия в странах Африки. М.: 1975. – С. 26-27.
15. Sharpe William F. Bailey Jeffery V. Investments. Fifth edition. – Prentice Hall International, Inc. N.Y. 1998. – P. 1.
16. Богуславский М.М. Иностранные инвестиции. – М.: 1996. – С. 54.
17. Convention establishing the Multilateral Investment Guarantee Agency (with annexes and schedules). Concluded at Seoul on 11 October 1985. [Electronic resource] is available at: https://treaties.un.org/doc/Publication/UNTS/Volume%201508/volume-1508-I-26012-English.pdf.
18. Гулямов С.С. Правовое регулирования иностранных инвестиций в республике Узбекистан. Диссертация на соискание ученной степени кандидата юридических наук. – Т.: 2001. – С. 29.
19. Agreement between the Government of the Republic of Uzbekistan and the Government of the Kingdom of Sweden on the Promotion and Reciprocal Protection of Investments (May 29, in the year 2001). [Electronic resource] is available at: http://invest.gov.uz/wp-content/uploads/agreement/Sweden.pdf.
20. Рахмонкулов Х.Р. Гулямов С.С. Корпоративное право: учебник. – Т.: 2004. – С. 205.
21. Вознесенская Н.Н. Иностранные инвестиции и смешанные предприятия в странах Африки. М.: 1975. – С. 56.
22. Henius F., Dictionary of Foreign Trade (New York, 1947). Sec / Ed. N4., 1947. – P. 387.
23. Investments. Zvi Bodie, Alex Kane, Alan J. Marcus. The 6th edition. The McGraw-Hill. Singapur. 2005. – P. 7.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

INTERNATIONAL LEGAL FRAMEWORK FOR ENSURING THE SAFETY OF NUCLEAR ENERGY

Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o‘g‘li
Tashkent State Law University Teacher
of the "Environmental Law" department

Abstract. In the article, ensuring the Safety of nuclear energy, its wide promotion among countries, its international legal basis, as well as its impact on the processes of globalization, a number of suggestions are given. Also, while talking about the extent of the impact of nuclear energy, which is being used in developing countries, on the life of the society, its benefits and harms to the growth of the population, urbanization, and technological development are mentioned. Within the framework of the topic, the issue of nuclear energy security was covered using the opinions, research, and scientific works of various scientists and the legal documents of foreign countries in this article.

Keywords: IAEA, nuclear, energy, atom, legal basis, radioactive waste, safety.

ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Ekologiya huquqi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada atom energiyasi xavfsizligini ta’minlash, davlatlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish, uning xalqaro huquqiy asoslari shuningdek globallashuv jarayonlariga ta’siri va qator takliflar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, hozirgi tobora rivojlanib borayotgan mamlakatlar o‘rtasida foydalanilayotgan atom energiyalarining jamiyat hayotiga qay darajada ta’siri haqida so‘z yuritilar ekan uning aholining o‘sishiga, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyotga keltirayotgan foydalari hamda uning zararlari haqida keltirib o‘tilgan. Mavzu doirasida ushbu yechimlar va turli xil olimlarning fikrlari, qilgan tadqiqotlari hamda ilmiy ishlaridan va xorijiy mamlakatlar qonun hujjatlaridan foydalangan holda atom energiyasi xavfsizligini ta’minlash masalasi ushbu maqolada yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: MAGATE, yadro, energiya, atom, huquqiy asos, radioaktiv chiqindi, xavfsizlik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N38

Hozirgi rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarning jahon hamjamiyatidagi o’rnini taraqqiyot jihatdan belgilab berish shu davlatning o’zini o’zi energiya bilan ta’minlash darajasiga bog’liq bo’lib bormoqda. Davlat xalqaro hamjamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun o‘zi boshqa davlatlarga investitsiya chiqarishi bilan birga o‘z hududiga ham chet davlatlarning investitsiyalarini kirgizishga harakat qilishi kerak. O‘sha jarayonda energiyaning qanchalik muhimligini ko‘rishimiz mumkin. Vaholanki, investitsiya kiritayotgan davlat keyingi istiqboli uchun albatta, investitsiya kiritmoqchi bo‘lgan davlatning energiya ta’minotiga birinchi o‘rinda e’tibor qaratadi. O‘sha jarayonda biz atomdan energiya olishning qanchalik muhim ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Sababi atomdan energiya olish boshqa energiya manbalariga qaraganda

ko‘proq energiya ta’minotini beradi. Ammo hozirgi kunda hamma davlatlar ham atomdan energiya olishni yo‘lga qo‘ymagan.

Buning sababi o‘laroq atom elektrostansiyalarini qurish hamda ularni xavfsizligini ta’minlash boshqa energiya ta’minotlarini qurishga hamda ulardan foydalanishga qaraganda anchagina murakkab hamda xavflidir. Agar unda qandaydir nosozliklar yuz beradigan bo‘lsa o‘sha stansiya joylashgan davlatga nafaqat uning yonidagi boshqa davlatlarga ham katta talafot yetishi mumkin. Shuning uchun AESlarni qurish hamda undan foydalanishdagi xavfsizlikni ta’minlash uchun xalqaro-huquqiy asoslar hamda milliy davlatlar ham ularga og‘ishmasdan amal qilishi uchun maslahat qo‘llanmalari barcha davlatlarga imperativ ahamiyat kasb etishi kerak.

Yadro energiyasi, shuningdek, atom energiyasi, yadro tuzilishi o‘zgarganda ajralib chiqadigan energiyani anglatadi. Atom energiyasi insoniyat jamiyati hamda sanoat rivojlanishiga juda katta inqilobiy o‘zgarishlar olib keldi. Yadro parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan ulkan energiya nafaqat inson hayotiga foyda keltiradi balki jiddiy xavf va qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Birinchi xavf- bu yadro xavfsizligi. 1986-yilda Chernobil va 2011-yilda Fukusimadagi avariyalar jiddiy radioaktiv ifloslanishga olib keldi, aholining hayoti va sog‘lig‘iga, mamlakatlar va ularga qo‘shni davlatlarning ekologik muhitiga xavf tug‘dirdi, shuningdek, butun dunyoda atom energetikasi rivojlanishini sekinlashtirdi. Ikkinchisi- yadro xavfsizligi bilan bog‘liq.

Hozirgi vaqtda xalqaro vaziyatning murakkabligi, muhim noan’anaviy xavfsizlik muammolari va yadroviy terrorizmning potensial tahdidini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Yadro yoki boshqa radioaktiv materiallarning terrorchilar qo‘liga tushib qolish ehtimoli xalqaro xavfsizlikka katta muammo tug‘diradi. Uchinchisi, yadroviy tarqalish bilan bog‘liq. Xalqaro yadroviy huquqiy baza butun dunyoda atom energetikasining rivojlanishi bilan vujudga keldi. Atom energetikasini rivojlantirish bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy masalalarni hal etishda u doimiy ravishda takomillashtirildi, bu atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishning xavfsiz va barqaror rivojlanishiga yordam berdi. Ushbu holatlardan kelib chiqib hamda hozirda juda ko‘plab davlatlar atom elektrostansiyalarini qurishni rejalashtirayotganligini inobatga olib, maqolamizda atom energiyasining xalqaro-huquqiy asoslarini tahlil qilamiz.

Atom energiyasidan tinch va xavfsiz foydalanishni ta’minlash hamisha xalqaro hamjamiyatning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Yondashuv milliy va xalqaro chora-tadbirlarning kompleks tarmog‘i bilan belgilanadi. Chunki atom energiyasidan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha asosiy mas’uliyat milliy hokimiyat organlari zimmasiga yuklanishi qabul qilingan bo‘lsa-da, boshqa davlatlarga ham ta’sir qilishi mumkinligini e’tirof etgan. Binobarin, yadro energetikasini tartibga solish, insonning potensial transchegaraviy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa ko‘plab faoliyatlari singari, xalqaro hamjamiyatga standartlarning bir xilligini, muvofiqlashtirishni ta’minlash uchun ma’lum bir chegaradagi javobgarlikni yoki ba’zi hollarda to‘liq javobgarlikni ta’minlashni talab qiladi.

Atomdan xavfsiz va tinch maqsadlarda foydalanish bo‘yicha global huquqiy tartibni ta’minlashda MAGATE — dunyoning yadro sohasidagi hamkorlik markazining rolini o‘rganib chiqishni o‘rinli deb topdik. MAGATE yadro texnologiyalaridan xavfsiz va tinch maqsadlarda foydalanishni rag‘batlantirishga intiladi. MAGATE xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar Ichida atom energiyasining xalqaro-huquqiy tartibini belgilashda hamda davlatlar bilan o‘zaro

hamkorlik qilishda eng muhim bo‘lgan tashkilot hisoblanadi. MAGATE nizomining II moddasida “Agentlik atom energiyasining butun dunyoda tinchlik, salomatlik va farovonlikka qo‘shayotgan hissasini jadallashtirish va kengaytirishga intiladi” degan qoidaning mustahkamlab qo‘yilgani hamda buni amalda namoyon etmoqda. Bundan tashqari Xalqaro Radiologik Himoya Komissiyasi (ICRP), Atom radiatsiya ta’siri (UNSCEAR), Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (VOZ), va Xalqaro mehnat idorasi (XMT) atom energiyasi sohasida turli xil shartnoma va bitimlar bilan xavfsizlikni ta’minlashga MAGATE bilan birga harakat qilmoqda. Ushbu tashkilotlarning faoliyati yadro energetikasi xavfsizligini ta’minlashga g‘amxo‘rlik qilish, qo‘shimcha mahsulot yadrosi energiyasini va radioaktiv moddalarni tibbiy, sanoat, va boshqa sohalarda ishlatish bo‘yicha faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Xavfsizlik maqsadi tirik mavjudotlarni, jamiyatni va atrof-muhitni radiatsiyaning salbiy ta’siridan himoya qilishga intiladi. Bu sohadagi xalqaro harakatlar 1928-yilda boshlangan radiatsiyadan himoya qilish bo‘yicha tavsiyanomalar chiqargan ICRPning tashkil etilishi bilan boshlandi. 1955-yilda Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi dozalar, ta’sirlar va butun dunyo bo‘ylab radiatsiya xavfini baholash uchun UNSCEAR tashkil etdi. Ushbu ikki organning ishi boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar uchun asoslarni ta’minlaydi.[1]

Yadro energetikasi xavfsizligini ta’minlash uchun tegishli standartlarni ishlab chiqish zarurati bunday tashkilotlarning tashkiliy vositalarini aks ettiradi. Xalqaro asbob-uskunalar asosida ishlab chiqiladigan xavfsizlik standartlarining bog‘lanish tabiati turlicha bo‘ladi. Shunday qilib, Yevroratom (Atom energiyasi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati Yevropa Ittifoqi a’zolarining xalqaro tashkilotidir. Atom energiyasi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati 1957-yilda Rim kelishuvining imzolanishi bilan tuzilgan.) tomonidan xavfsizlik standartlari ishlab chiqildi va ular majburiydir. UNSCEAR tadqiqotlarini hisobga olgan ICRP tomonidan radiatsiyadan himoya qilish bo‘yicha ilmiy asoslar standart bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va vaqti-vaqti bilan qayta ko‘rib chiqiladi. Bu ish Ionlashtiruvchi nurlanishdan himoya qilish va radiatsiya manbalarining xavfsizligi bo‘yicha Xalqaro asosiy xavfsizlik standartlari (BSS) asosida yotadi, ular orqali MAGATE, XMT, JSST va SHM butun dunyo bo‘ylab uyg‘unlashtirish uchun asoslarni taqdim etadi.[1].

1994-yil sentyabr oyida Yadroviy Xavfsizlik bo‘yicha xalqaro konvensiya MAGATEning umumiy konferensiyasida imzolanish uchun ochildi. Shundan so‘ng, 58 ta davlat konvensiyani imzoladi va Konvensiyaning a’zosi bo‘ldi. Konvensiya a’zolari ushbu davlat nomidan ishtirok etish majburiyatini oldi. Shunday qilib bu konvensiya ham yadroviy xavfsizlikni ta’minlash uchun xalqaro huquqiy asoslardan biri bo‘ldi. Va keyinchalik a’zolar soni ko‘payishiga olib keldi.

1979-yilda Qo‘shma Shtatlarda uchta Mile orol (TMI) yadroviy avariya sodir bo‘lganidan so‘ng, yadroviy avariyalar bo‘yicha hisobot berish va o‘zaro yordam berish uchun asos yaratish kerak degan xulosaga keldi. Bu esa xalqaro hamjamiyatni ham tashvishga solmay qo‘ymadi. IAEA homiyligida davlatlar uchun yo‘riqnomani belgilovchi ikkita hujjat TMIdan keyin ishlab chiqiladi. 1986-yilgi Chernobil avariyasidan so‘ng, ikki konvensiya — Yadro avariyasi to‘g‘risidagi Konvensiya va Yordamchi bo‘lmagan yadroviy avariyalar to‘g‘risida MAGATE doirasida ishlab chiqildi va qabul qilindi. 1986-yil 27-oktyabr va 26-fevral 1987-yillarda Konvensiyalar kuchga kirdi. Yetmish to‘rtta shtat konvensiyaning birinchi xabarnomasiga a’zo bo‘ldi va yetmishta shtat yordamchi konvensiyaga a’zo bo‘ldi. Ushbu konvensiyalar boshqa

davlatlarning ham a’zo bo‘lishi bilan yakunlandi. Bu konvensiyalar xalqaro-huquqiy hujjatlar bo‘lib atomdan foydalanishning xavfsizligini huquqiy asosini yaratdi.[2].

Yadro energiyasidan foydalanishda yuzaga keladigan radioaktiv chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmasligini ta’minlovchi xalqaro-huquqiy tartibga soluvchi hujjatlar.

IAEA radioaktiv chiqindilarni boshqarish uchun xavfsizlik maqsadlarini ishlab chiqdi. Bir necha IAEA hujjati radioaktiv chiqindilarni boshqarish va utilizatsiya qilish mezonlarini belgilab berdi. Xalqaro miqyosda radioaktiv chiqindilarni xavfsiz boshqarishga yondashuvni uyg‘unlashtirish uchun 1991-yilda IAEA radioaktiv chiqindilarni xavfsizligi standarti (RADWASS) dasturini yaratdi. RADWAS Hujjatning iyerarxiyasini tashkil etadi.

1990-yilda IAEA umumiy konferensiyasi Radioaktiv va chiqindilar bilan bog‘liq xalqaro transchegaraviy va transchegaraviy ko‘chirish amaliyotini qabul qildi. Ushbu Kodeksning maqsadi har qanday nazoratsiz xalqaro harakatga va chiqindilarni utilizatsiya qilishga qarshi profilaktika choralarini ko‘rishni ta’minlaydi. Davlat va xalqaro tashkilotlar radioaktiv chiqindilarni tartibga solish bilan shug‘ullanadilar. Ikkita misol keltirish mumkin. Antarktida shartnomasi (eV-modda) Antarktida mintaqasida radioaktiv chiqindilarni yo‘q qilishni taqiqlaydi.[3]

Xuddi shunday, 1972-yilgi London Konvensiyasining IV moddasi radioaktiv chiqindilarni tashlab yuborishni tartibga soladi. 1994-yil fevral oyida London Konvensiyasiga kiritilgan o‘zgartirish ham dengizga gof l turdagi radioaktiv chiqindilarni tashlashni taqiqladi. Bundan tashqari, Konvensiyaning 5-moddasi Dengizlarning ifloslanishining oldini olish to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbalari a’zolar tomonidan dengiz ifloslanishini bartaraf etish bo‘yicha choratadbirlarni qo‘llash majburiyatini oladi. O‘rta yer dengizining ifloslanishi bo‘yicha konvensiya, 1976- va 1980-yilgi Protokolning boshqa mintaqaviy hujjatlari misolida; Boltiqbo‘yi mintaqasining dengiz atrof-muhitini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya, 1974-yil va Janubiy Tinch okeani mintaqasining tabiiy resurslarni va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha konvensiyasi, 1986-yilgi konvensiyalar chiqindilarni atrof muhitga ziyon yetkazishini oldini olish va bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning radioaktiv chiqindilar o‘z hududiga tashlanmasligi haqidagi tashvishini yo‘qotish uchun 1989-yilda qabul qilingan konvensiya mas’ul bo‘ldi. 39-moddasida Afrika, Karib dengizi va Tinch okeani davlatlari va Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga a’zo bo‘lgan hamjamiyat o‘rtasida bunday chiqindilarni uning a’zosi bo‘lgan hududdan eksport qilishni taqiqlash to‘g‘risida qoidani mustahkamladi.[4]

Boshqa tomondan, Afrika, Karib va Tinch okeani davlati radioaktiv chiqindilarni hamjamiyatdan yoki boshqa biron bir mamlakatdan olib kirishni taqiqlash majburiyatini oladi. Davlatlar yadro energiyasidan foydalanar ekan, yaxshi tomonlari bilan birga salbiy tomonlarini ham aytib o‘tishimiz kerak.

Yadro energiyasidan foydalanishda juda katta miqdorda chiqindi ajralib chiqishi sir emas. Undan ajralib chiqadigan chiqindilarni ikki turga bo‘lish mumkin. Birinchi tur inson uchun xavfli bo‘lmagan radioaktiv xususiyat kasb etmaydigan chiqindilar. Ikkinchisi esa radioaktiv xususiyat kasb etadigan chiqindilardir. Energiyadan davlatni o‘zi foydalanar ekan, chiqindilarni ham o‘z hududida xavf tug‘dirmaydigan qilib yo‘qotish choralarini ko‘rishi lozim. O‘tgan yillarda ba’zi davlatlar o‘z chiqindilari bilan boshqa davlatlarning atrof muhiti, aholi

so‘g‘lig‘iga ziyon yetkazishi natijasida bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilingani va huquqiy tartibga solinganligini ko‘rib o‘tdik.

Harbiy harakatlar ta’siridan atom elektr stansiyalarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari.

Atom elektr stansiyasining xavfsizligi haqida gap ketar ekan, nafaqat stansiya joylashgan davlat balki butun hamjamiyat xavfsizligi ko‘z o‘ngimizga keladi. Sababi, stansiyaning foydasi bilan birga agar xavfsizlik masalasi bo‘yicha biror holat vujudga kelsa, yetkazadigan ziyoni ham shu qadardir. Hozirgi paytda dunyo hamjamiyatini o‘ylantirayotgan holatlardan biri, Rossiya hamda Ukraina urishi bo‘lib turgan davrda Ukrainaning Zaporojye shahrida joylashgan AESning xavfsizlik holatidir. Bu urishning favqulodda holatlari natijasida AESning katta halokati bo‘lishi mumkinligi hech kimga sir emas.

Yadro reaktorining shikastlanishi gamma-nurlanishning halokatli konsentratsiyasiga va havodagi radioaktiv zarrachalarni inhalatsiyalash orqali radioaktiv ifloslanishga darhol ta’sir qilishi, inson salomatligi va atrof-muhitga qisqa va uzoq muddatli jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Reaktor yoki ishlatilgan yonilg‘i baklarining portlashi parchalanadigan materiallardan va parchalanish mahsulotlaridan radioaktiv zarralar shamoldan pastga, potensial katta masofalarga va meteorologik sharoitga qarab oldindan aytib bo‘lmaydigan tarzda olib o‘tishini anglatadi. Ammo portlash bo‘lmasa ham, sizib chiqqan radioaktiv moddalar, masalan, zavodning saqlash tanklari yoki saqlash tizimining shikastlanishi natijasida tuproq va yer osti suvlariga kirib, yuzlab kilometrlarga cho‘zilgan katta radiusdagi o‘simlik va hayvonot dunyosini zaharlaydi.[4]. Vaholanki atom elektr stansiyasini vaqtda va makonda nazorat qilib bo‘lmaydi. Bunday holatlarda ushbu masala bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar hamda davlatlardan qattiq ehtiyotkorlik qilishlari talab etiladi.

Shu bilan birgalikda, AES Xavfli kuchlarni o‘z ichiga olishdan tashqari, tinch aholi uchun, xususan, shahar markazlarida muhim xizmat bo‘lgan elektr energiyasini ommaviy ishlab chiqaradi. Odatda, atom elektr stansiyasi yuz minglab uy xo‘jaliklarini elektr energiyasi bilan ta’minlaydi, eng yiriklari uchun esa bu ko‘rsatkich millionlab bo‘lishi mumkin.[6] Zavodning shikastlanishi yoki ishining buzilishi katta hududlarni elektr energiyasidan mahrum qilish, isitish, ichimlik suvi va chiqindilarni boshqarish kabi boshqa muhim xizmatlarga va yuz minglab, balki millionlab fuqarolarning farovonligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bularni inobatga olgan holda shu masala bilan shug‘ullanuvchi tashkilot va davlatlar tomonidan harbiy harakatlar bo‘layotgan davrda AESning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ko‘plab huquqiy tartibga soluvchi hujjatlar qabul qilingan. Ularni ko‘rib chiqsak:

- 1977-yilgi Birinchi qo‘shimcha protokolda (AP I) mavjud, ammo ular 1977-yilgi Ikkinchi qo‘shimcha protokol (AP II) va xalqaro va xalqaro bo‘lmagan qurolli mojarolarda qo‘llaniladigan odatiy CIHL ostida ham himoyalangan.
- Yadro qurolini tarqatmaslik to‘g‘risidagi shartnomaning IV va V moddalarida barcha davlatlar atom energiyasidan tinch maqsadlarda, shu jumladan elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun foydalanish huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan.[7]
- API 48-modda hamda CIHL 7-qoidasida Atom elektr stansiyalari fuqarolik ob’ektlari bo‘lib, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujum va repressiyalardan himoyalanganligi belgilab qo‘yilgan.
- (API 56-modda , APII 15-modda va CIHL qoidalarida Barcha fuqarolik ob’ektlari uchun qo‘llaniladigan qoidalar tomonidan taqdim etilgan himoyadan tashqari, atom elektr

stansiyalari quyida batafsilroq muhokama qilinganidek, o‘ziga xos, kuchaytirilgan himoyaga ega ekanligi aytib o‘tiladi.[8]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, AESlarni xavfsizligi xalqaro-huquqiy tashkilot va davlatlar tomonidan huquqiy tartibga solingan.

Atom energiyasi undan xavfsiz foydalanish masalasi ayni bir davlat yoki tashkilotning tegishincha huquqi bo‘lmay u ayni vaqtda transchegaraviy va xalqaro huquqiy masaladir.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi 2018-yildan keyin Atom energiyasidan foydalanish, AES qurilishiga oid bir qancha hujjatlar qabul qilindi. Bu hujjatlar qabul qilinishiga sabab O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi prezidentlari Sh.Mirziyoyev va V.P o‘rtasidagi O‘zbekistonda AES qurish bo‘yicha kelishuv edi. Unga ko‘ra RosAtom O‘zbekistonda AES har birining quvvati 1 ming 200 MVt bo‘lgan ikkita energoblokdan iborat bo‘ladi. AES qurilishi uchun Jizzax viloyatidagi Tuzkon ko‘li yaqinidagi maydon tanlandi. Xo‘sh ishni amaliy, moliyaviy – iqtisodiy jihatlari yuqoridagi va boshqalardan iborat bo‘lsa huquqiy taraflama bu sohada qandday o‘zgarishlar bo‘ldi? Bilamizki 2017-yil dekabriga qadar milliy qonunchiligimizda Atom energiyasidan foydalanishga oid normativ huquqiy hujjatlar ularga ehtiyoj yo‘q edi bu o‘z o‘rnida bizda shu vaqtga qadar bu sohaga oid munosabatlar bo‘lmaganligi bilan oqlanadi.

Milliy qonunchiligimizda yuqoridagi voqealardan bir qancha hujjatlar qabul qilindi. Jumladan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-iyuldagi PF-5484-son Farmonini.

2. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi to‘g‘risidagi nizomi tasdiqlash to‘g‘risida 2018-yil 13-avgust, 653-sonli VMQ https://lex.uz/acts/-3864609

3. Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida 2019-yil 9-sentyabr O‘RQ – 565 – son https://lex.uz/ru/docs/-4506940

4. “Atom energiyasidan foydalanuvchi obyektlar va (yoki) atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyat (ish) xavfsizligini asoslash yuzasidan ekspertiza o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” nizom 2020 – yil 17 – iyun 390 – son qarori https://lex.uz/docs/4859455

5. Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga soluvchi vakolatli organlarning atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida 2020 – yil 10 – iyundagi 368 – son qarori https://lex.uz/docs/4850303

6. Atom energiyasidan tinchlik yo‘lida foydalanish sohasidagi xalqaro shartnomalar bo‘yicha O‘zbekiston respublikasining majburiyatlarini bajarish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi 2009-yil 25-iyun 179-sonli VMQ https://www.lex.uz/docs/1494600

Yuqoridagi normativ huquqiy-hujjatlarning asosiylaridan biri bo‘lmish Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida qonuning asosiy prinsiplarida shunday deyilgan “Atom energiyasidan foydalanishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini, jismoniy hamda yuridik shaxslarning mol-mulkini himoya qilish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish ustuvorligi;

xavfsizlikning ta’minlanishi; axborotning ochiqligi;

yadroviy qurol va boshqa yadroviy portlovchi qurilmalar ishlab chiqarishning taqiqlanishi”.

Keltirilgan modda qonuning 4-moddasidan bo‘lib bu prinsiplarni o‘z ichiga nimalarni olishi qonunda alohida modda qilib berilmagan ya’ni sharhlanmagan va boshqacha tarzda ham izoh berilmagan ammo xalqaro standartlar xavfsizlik borasidagi barcha hujjatlar shartnomalar va amaliy jihatdan olib qaralgandagi barcha harakat va hodisalar imkon qadar aniq nazarda tutilishini talab qiladi chunki AESda energiya ishlab chiqargungacha va undan energiya olib zarur tarzda yo‘naltirilgungacha bo‘lgan barcha bosqichlarda xavfsizlikka rioya etilishi lozim.

Qonunda sohaga tegishli obyektlar davlat mulki ekanligi nazarda tutilgan jumladan qurilishi rejalashtirilgan AESlari ham va bu sohani bir qancha vakolatli organlar nazorat qilishi aytib o‘tilgan Vazirlar Mahkamasi, Energitika vazirligi va uni huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi ya’ni O‘zAtom va boshqa organlar vakolatli hisoblanadi.

Atom energiyasidan foydalanish transchegaraviy munosabatligi xalqaro munosabatlarda barcha davlatlar va tashkilotlar xalqaro shartnoma va boshqa xalqaro normativ huquqiy hujjatlar orqali majburiyatlar olishini yuqorida eslab o‘tgan edik aynan shu sohada 179-sonli VMQ mavjud bizni amaldagi qonunchiligimizda quyidagilar nazarda tutilgan “O‘zbekiston Respublikasi va Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlik o‘rtasidagi Yadroviy qurolni tarqatmaslik to‘g‘risidagi 1994-yil 8-oktyabrdagi shartnoma bilan bog‘liq bo‘lgan kafolatlarni qo‘llash to‘g‘risidagi Bitim hamda Bitimga 1998-yil 22-sentyabrda Toshkent shahrida imzolangan Qo‘shimcha protokol bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Atom energiyasi bo‘yicha Yevropa Hamjamiyati (Yevratom) o‘rtasida atom energiyasidan tinchlik yo‘lida foydalanish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida 2003-yil 6-oktyabrda Brussel shahrida imzolangan Bitim bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining majburiyatlari bajarilishini ta’minlash bo‘yicha vakolatli organ etib belgilansin.

2. Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlikka (MAGATE) va Yevratomga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda axborotlar tayyorlash va ularni (bayonot, hisobotlar, xabarnomalar, hisobotlarga qo‘shimcha va tushuntirishlar) taqdim etish O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasiga yuklansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi MAGATE va Yevratomni O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi ushbu qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan Bitimlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash bo‘yicha vakolatli organ etib belgilanganligi to‘g‘risida belgilangan tartibda xabardor qilsin.

E’tiborli jihatlari ya’ni bizni mavzumizga aloqador qismi 1994-yilgi va 2003-yilga hujjatlarga qo‘shilishimiz va xalqaro hamjamiyat oldida majburiyat olayotganligimizdir.

Yuqoridagi xalqaro va qonunchiligimizdagi normalar, kelishuvlar shartnomalar va boshqa hujjatlardan kelib chiqib xulosa o‘rnida bir qancha takliflarni ilgari surmoqchimiz. Yuqorida bir qancha milliy qonunchilik hujjatlarida kelgan atom energiyasidan foydalanish xavfsizlik prinsiplarini qonunchilik hujjatlarimizda, hujjatlarni tahrirlash orqali sharhlash. Jamoatchilikni atom energiyasi bilan bog‘liq xavotirlardan xalos qilish va uni foydali jihatlarini tanishtirish uchun hukumat vakillari, mas’ullar, soha mutaxassislar bilan oflayn va onlayn television uchrashuvlar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edik. Xalqaro doirada atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanishga oid xalqaro huquqiy hujjatlar,

shartnomalarga to‘liq qo‘shilish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasidagi milliy huquqiy asoslarni shakllantirishdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. “THE INTERNATIONAL LEGAL FRAMEWORK FOR NUCLEAR SECURITY" INTERNATIONAL ATOMIC ENERGY AGENCY VIENNA, 2011
2. by Mohamed ElBaradei, Edwin Nwogugu and John Rames “International law and nuclear energy: Overview of the legal framework” 2005, p-2
3. by Mohamed ElBaradei, Edwin Nwogugu and John Rames “International law and nuclear energy: Overview of the legal framework” 2005, p-2
4. "The Role of the IAEA in the Development of International Law", by Dr. Hans Blix, Nordic Journal of International Law, 58 (1989).
5. Mr. ElBaradei is Assistant Director General and Director of the IAEA Division of External Relations. Messrs. Nwogugu and Rames are senior staff members in the IAEA Legal Division. This article is based upon more comprehensive information in the two-volume book, The International Law of Nuclear Energy: Basic Documents, which the authors edited and was published in 1993 by Martinus Nijhoff Publishers, P.O. Box 163, 3300 AD Dordrecht, The Netherlands.
6. Eirini Giorgou Legal Adviser, ICRC “Dangerous forces: the protection of nuclear power plants in armed conflict”
7. The history of Nuclear Energy. U.S. Department of Energy Office of Nuclear Energy, Science and Technology Washington, D.C. 20585
8. Nuclear Law. The Global Debate. International Atomatic Energy Agency. ISBN 978-94-6265-495-2 (eBook) https://doi.org/10.1007/978-94-6265-495-2

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

LEGAL NATURE OF SERVICES IN CIVIL LAW: ON THE EXAMPLE OF CONSULTING SERVICES

Asadov Shahriddin Fakhriddin oglu
Teacher of Tashkent State Law University

Abstract. This article explores the legal nature and specific characteristics of consulting services as an object of civil rights. Drawing on the scholarly views of prominent experts such as D.I. Stepanov and E.G. Shablova, the study analyzes the features of consulting as a "pure" service, the will-forming role of information, and the issues of the performer's liability. Based on the experience of foreign jurisdictions such as Germany and Japan, the distinction between the "obligation of means" and the "obligation of result" is revealed within the consulting sphere. Finally, scientific and practical proposals for improving national legislation are put forward.

Keywords: consulting services, civil law, non-material result, "pure" services, information factor, professional liability.

FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA

Asadov Shahriddin Faxriddin o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi
E-mail: shahriddinasadov@gmail.com
http://www.orcid.org/0000-0002-1603-266X

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik huquqi obyekti sifatida konsalting xizmatlarining huquqiy tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda D.I. Stepanov va E.G. Shablova kabi yetuk olimlarning ilmiy qarashlariga tayanilgan holda, konsalting xizmatlarining “toza” xizmat sifatidagi xususiyatlari, axborotning iroda shakllantiruvchi roli hamda ijrochining javobgarligi masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Germaniya va Yaponiya kabi xorijiy davlatlar tajribasi asosida “vazifa majburiyati” va “natija majburiyati” tushunchalari o‘rtasidagi farqlar konsalting sohasi misolida ochib beriladi. Yakunda milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: konsalting xizmatlari, fuqarolik huquqi, nomoddiy natija, “toza” xizmatlar, axborot omili, professional javobgarlik, vazifa majburiyati, natija majburiyati.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N39

Kirish. Zamonaviy fuqarolik muomalasida konsalting xizmatlari intellektual faoliyatning o‘ziga xos shakli sifatida namoyon bo‘ladi va D.I. Stepanov tasnifiga ko‘ra “toza” xizmatlar (pure services) toifasiga kiradi. Stepanov ta’kidlashicha, konsalting xizmatlarining asosiy xususiyati ularning ashyoviy natijaga ega emasligida bo‘lib, xizmatning samarasi bevosita ijrochining intellektual harakatlari va maslahat berish jarayonining o‘zida mujassamlashgan. Ushbu xizmatlar moddiy shaklga ega bo‘lmasligi (neosyazaemost) va manbaidan ajralmasligi bilan boshqa fuqarolik huquqi obyektlaridan farqlanadi. N.S. Normatov konsalting xizmatlarini professional tadbirkorlik faoliyatining muhim segmenti sifatida baholab, ularni nomoddiy natija bilan bog‘liq bo‘lgan va manfaatdor shaxs ehtiyojlarini

qondirishga qaratilgan faoliyat deb ta’riflaydi. Bu yerda konsalting jarayonida taqdim etiladigan ma’lumot yoki tavsiya ashyo emas, balki huquqiy yoki iqtisodiy samara beruvchi intellektual mahsulot sifatida ko‘riladi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tahliliy va sintetik usullar qo‘llanilgan. Nazariy materiallar tahlil qilingan va amaliy misollar bilan tasdiqlangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu masala turli davrlarda turli sivilistlar tomonidan o‘rganilgan, jumladan, Normatov N.S., Wagatsuma S, Larenz K. va Shablova E.G. xizmat tushunchasining turli jihatlarini o‘rgangan [1, 2, 3]. Ularning tadqiqotlari xizmatning faoliyat bilan uzviy bog‘liqligi va nomoddiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Wagatsuma S va Ariizumi T. larning ishlari huquqiy xizmatlar sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ular xizmatning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga hissa qo‘shgan [4, 5].

Muhokama. Elena Shablova konsalting xizmatlarini tadqiq etar ekan, “axborot” omilini ushbu munosabatlarning iroda shakllantiruvchi markaziy elementi deb hisoblaydi. Shablova nazariyasiga ko‘ra, konsalting xizmatining nomoddiy tabiati sababli, iste’molchi xizmat sifatini oldindan baholay olmaydi, bu esa professional ijrochiga xizmat haqida to‘liq va shaffof axborot berish majburiyatini yuklaydi. Konsalting xizmatlari ko‘pincha ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari (muhandislik, marketing, boshqaruv konsaltingi) shaklida namoyon bo‘lib, ular xo‘jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, konsalting xizmatlarida faoliyat jarayoni va uning foydali samarasi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, mijozning ehtiyoji faqatgina ijrochining yuqori professional malakasi orqaligina qondirilishi mumkin.

Konsalting xizmatlarining huquqiy tabiatini belgilashda eng bahsli masala bu ijrochining muayyan natija uchun javobgarligi hisoblanadi. D.I. Stepanov va kontinental huquq doktrinasi, xususan, Germaniya BGB tizimi bo‘yicha konsalting shartnomalari asosan “maksimal harakat qilish majburiyati” (obligation of means) hisoblanadi. Bunda ijrochi o‘z bilim va tajribasini ishga solishga mas’ul, biroq maslahat natijasida kutilayotgan iqtisodiy samaraning, masalan foyda ko‘payishi yoki sud ishi yutilishining yuzaga kelishini kafolatlay olmaydi. Aksincha, N.S. Normatov professional konsalting xizmatlarida, agar ijrochi o‘z zimmasiga aniq nomoddiy natijaga erishish majburiyatini olsa, u holda javobgarlik natijaga qarab belgilanishi lozimligini ilgari suradi. Ushbu polemikaga Elena Shablova “iste’molchi kutilmasi” nuqtai nazaridan yondashib, professional konsaltingda ijrochi o‘z tavsiyalarining aniqligi va huquqiy asoslanganligi uchun natija majburiyatini (obligation of result) o‘z zimmasiga olishi kerakligini ta’kidlaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasi, xususan Germaniya fuqarolik ulojheniyesi (BGB) konsalting xizmatlarini “professional xizmat ko‘rsatish” (Dienstvertrag) sifatida tushunishni rivojlantirgan va bunda “diligentlik” (sorgfalt) darajasi markaziy o‘rin tutadi. Yaponiya fuqarolik huquqida esa Sakae Vagatsuma tahlillariga ko‘ra, konsalting xizmatlari ko‘p hollarda “ishonch munosabatlari” (trust relationship) va uzoq muddatli hamkorlikka tayanadi, bu esa shartnomaning qat’iy matnidan ko‘ra tomonlarning o‘zaro hamkorlik darajasini ustun qo‘yadi. Yapon huquqshunoslari konsalting jarayonida ijrochining “xolislik” va “mijoz manfaatini ustun qo‘yish” majburiyatini fundamental tamoyil sifatida e’tirof etadilar. O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish borasida N.S. Normatov va boshqa tadqiqotchilar Fuqarolik kodeksining 38-bobiga konsalting xizmatlarining o‘ziga xosligini hisobga oluvchi maxsus normalar kiritishni taklif qiladilar.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar yakuni sifatida shuni aytish mumkinki, konsalting xizmatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishda UNIDROIT prinsiplari va xalqaro professional standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zarur. Shuningdek, Elena Shablova taklif etganidek, axborot taqdim etishni professional ijrochi uchun majburiy shart sifatida belgilash hamda “konsalting xizmatlari to‘g‘risida”gi maxsus qonunni qabul qilish tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirishga va xizmatlar bozorining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Konsalting xizmatlarida ijrochining professional mas’uliyati uning xizmat ko‘rsatish standartlariga qanchalik rioya qilganligi va taqdim etilgan axborotning ishonchliligi bilan o‘lchanishi adolatli huquqiy muvozanatni ta’minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Normatov N.S. Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini fuqaroviy-huquqiy tartibga solish muammolari: Yurid. fan. dokt.... dis. – Toshkent, 2009.
2. Stepanov D.I. Uslugi kak obyekt grajdanskix prav: Avtoref. dis.... kand. yurid. nauk. – Moskva, 2004.
3. Shablova E.G. Grajdansko-pravovoe regulirovanie otnosheniy vozmezdnogo okazaniya uslug: Avtoref. dis.... dokt. yurid. nauk. – Ekaterinburg, 2002.
4. Larenz K. Lehrbuch des Schuldrechts. – 14. Aufl. – München, 1987.
5. Wagatsuma S., Ariizumi T. Commentary on Civil Code. – 6th ed. – Tokyo, 2019.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

UNAUTHORIZED ACCESS AND THEFT OF FUNDS FROM PAYMENT CARDS: THREATS, CRIME MODELS AND COMPREHENSIVE COUNTERMEASURES

Abdujapporov Shahboz Muzaffar o‘g‘li
Senior Operative Officer, Lieutenant,
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
E-mail: shaxboz19113005@gmail.com

Abstract. The article examines the problem of unauthorized access to payment infrastructure and theft of funds from payment cards in the context of digital financial services. Modern card-related crimes are characterized by technological sophistication, extensive use of social engineering, and exploitation of both technical and organizational vulnerabilities. The study analyzes major crime models, data compromise channels, and key factors contributing to the growth of card fraud. A comprehensive countermeasure framework is proposed, combining legal, organizational, and technical measures, as well as early detection and incident response mechanisms. The results can be applied by financial institutions and law enforcement agencies to improve payment security.

Keywords: unauthorized access, payment cards, financial fraud, cybercrime, payment security, banking systems.

НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ

Абдужаппоров Шаҳбоз Музаффар ўғли,
Старший оперативный сотрудник, лейтенант
Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы несанкционированного доступа к платёжной инфраструктуре и хищения денежных средств с пластиковых карт в условиях цифровизации финансовых услуг. Отмечается, что современные преступления в сфере карточных расчётов характеризуются высокой технологичностью, использованием социальной инженерии и комбинированием технических и организационных уязвимостей. Проанализированы основные модели преступных посягательств, каналы компрометации платёжных данных и факторы, влияющие на рост финансового мошенничества. Предложен комплексный подход к противодействию, включающий правовые, организационные и технические меры, а также механизмы раннего выявления и реагирования на инциденты. Практическая значимость исследования заключается в возможности использования результатов в деятельности финансовых организаций и правоохранительных органов.

Ключевые слова: несанкционированный доступ, пластиковые карты, финансовое мошенничество, киберпреступность, защита платёжных данных, банковская безопасность.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N40

Введение. В условиях стремительного развития цифровой экономики и расширения сферы безналичных расчётов платёжные карты стали одним из ключевых инструментов финансовых операций как для физических лиц, так и для организаций. Использование пластиковых карт обеспечивает удобство, скорость и доступность платежей, однако одновременно формирует новые угрозы экономической и

информационной безопасности. Одной из наиболее опасных и социально значимых проблем в данной сфере является несанкционированный доступ к платёжной инфраструктуре и хищение денежных средств с банковских карт.[1]

Современные преступления, связанные с карточными операциями, отличаются высокой степенью технологичности, трансграничным характером и сложной структурой. В отличие от традиционных форм имущественных преступлений, хищения денежных средств с использованием платёжных карт зачастую совершаются дистанционно, без физического контакта с потерпевшим, с применением специализированного программного обеспечения, вредоносных кодов и методов социальной инженерии. Это существенно осложняет процессы выявления, расследования и доказывания таких преступлений.[2]

Несанкционированный доступ к платёжным данным может осуществляться на различных этапах обработки финансовых операций — от компрометации реквизитов карты и персональных данных клиента до вмешательства в процессы авторизации и клиринга транзакций.[3] При этом злоумышленники нередко используют комбинированные схемы, сочетающие технические атаки с манипуляцией поведением пользователей, сотрудников банков и торговых организаций. В результате даже наличие современных технических средств защиты не всегда позволяет предотвратить противоправные действия.

Особую актуальность проблема приобретает в связи с ростом объёма дистанционных банковских услуг, мобильных платежей и электронных коммерческих платформ. Расширение цифровых каналов обслуживания неизбежно увеличивает поверхность атаки и создаёт дополнительные уязвимости, связанные с человеческим фактором, недостаточной киберграмотностью пользователей и несвоевременным обновлением защитных механизмов.[4] В этих условиях хищения денежных средств с пластиковых карт приобретают массовый характер и наносят значительный ущерб как гражданам, так и финансовым институтам.

С правовой точки зрения преступления, связанные с несанкционированным доступом и карточным мошенничеством, представляют собой сложный объект квалификации. Они нередко включают признаки сразу нескольких составов правонарушений, таких как незаконный доступ к информации, мошенничество, злоупотребление доверием и использование вредоносных программ. Это требует выработки системного подхода к их правовой оценке и разработке эффективных механизмов противодействия.[5]

Таким образом, исследование проблем несанкционированного доступа и хищения денежных средств с пластиковых карт является актуальной научной и практической задачей. Комплексный анализ причин, условий и механизмов совершения данных преступлений, а также разработка мер их предупреждения имеют важное значение для повышения уровня платёжной безопасности, защиты прав граждан и обеспечения устойчивости финансовой системы в целом.[6]

Методология. В процессе проведения исследования применялся комплекс общенаучных и специальных методов познания, обеспечивающих системный и междисциплинарный анализ проблемы несанкционированного доступа и хищения денежных средств с пластиковых карт. Методологическая основа работы сформирована

с учётом особенностей правового регулирования, технической природы платёжных систем и криминологических характеристик современных финансовых преступлений.[7]

В качестве базового методологического подхода использован системный анализ, позволивший рассмотреть преступления, связанные с карточными операциями, как сложное социально-правовое и технико-организационное явление. Данный подход обеспечил изучение взаимосвязи между правовыми нормами, организацией платёжной инфраструктуры, поведением пользователей и действиями преступных субъектов.

В рамках исследования применялся формально-юридический метод, с помощью которого были проанализированы нормы национального законодательства Республики Узбекистан, а также международные правовые акты и рекомендации, регулирующие вопросы защиты платёжных данных, противодействия мошенничеству и ответственности за несанкционированный доступ к информации. Это позволило выявить особенности правовой квалификации преступлений, связанных с использованием пластиковых карт, и определить проблемные аспекты правоприменительной практики.[8]

Для выявления закономерностей и типовых признаков карточных преступлений использовался криминологический анализ, включающий изучение распространённых способов совершения хищений, профилей преступников, а также факторов, способствующих росту финансового мошенничества. В рамках данного анализа особое внимание уделялось методам социальной инженерии, дистанционным схемам обмана и комбинированным моделям преступных посягательств.

Существенное значение в исследовании имел сравнительно-правовой метод, позволивший сопоставить подходы к противодействию карточному мошенничеству, применяемые в зарубежных государствах и международной практике, с действующими механизмами в национальной правовой системе. Это дало возможность определить перспективные направления заимствования эффективных организационно-правовых решений.[9]

В ходе работы также применялись аналитический и логический методы, направленные на обобщение научных позиций, формирование авторских выводов и выстраивание причинно-следственных связей между технологическими уязвимостями платёжных систем и ростом преступности в данной сфере. Использование индукции и дедукции позволило перейти от анализа частных случаев к формированию общих выводов и рекомендаций.

Эмпирическую основу исследования составили материалы открытых источников, аналитические отчёты банковских и платёжных организаций, статистические данные правоохранительных органов, а также обобщённые сведения о практике выявления и расследования преступлений, связанных с хищением денежных средств с пластиковых карт. Анализ практических материалов позволил повысить прикладную значимость исследования и обеспечить его ориентированность на реальные условия правоприменения.

Кроме того, в исследовании использовался междисциплинарный подход, объединяющий правовые, информационно-технические и организационные аспекты платёжной безопасности. Это позволило рассматривать проблему

несанкционированного доступа не только как юридическое правонарушение, но и как результат совокупного воздействия технологических, управленческих и человеческих факторов.

Применение указанных методов в совокупности обеспечило комплексность исследования, объективность полученных выводов и возможность разработки практико-ориентированных мер противодействия несанкционированному доступу и хищению денежных средств с пластиковых карт.[10]

Результаты исследования. Проведённый анализ показал, что преступления, связанные с несанкционированным доступом к платёжной инфраструктуре и хищением средств с пластиковых карт, формируют самостоятельный сегмент киберпреступности, где ключевую роль играет не единичная «уязвимость», а совокупность факторов: цифровые каналы обслуживания, поведенческие ошибки пользователей, недостатки организационного контроля и технологические пробелы в отдельных компонентах платёжной экосистемы. В ходе исследования установлено, что подавляющее число успешных хищений реализуется через многошаговые сценарии, в которых злоумышленник последовательно решает три задачи: (1) получает платёжные или идентификационные сведения, (2) обходят или подменяют механизм подтверждения операции, (3) обеспечивает вывод похищенных средств и сокрытие следов.

1. Выявленные модели преступных посягательств

В результате систематизации практико-ориентированных источников и типовых сценариев выделены основные модели преступлений, характерные для карточных операций.

1) Социально-инженерные модели (контактные и дистанционные). Установлено, что наибольший объём хищений связан с психологическим воздействием на владельца карты. Преступник стремится не «взломать банк», а заставить клиента самостоятельно раскрыть реквизиты, одноразовые коды или выполнить действия, приводящие к списанию средств.[11] Наиболее часто используются:

- имитация звонка/сообщения от банка (легенды о «подозрительной операции», «блокировке», «проверке безопасности»);

- «ложные службы доставки/маркетплейсы» (ввод данных карты на поддельной странице, «подтверждение получения»);

- «инвестиционные» и «кредитные» схемы, где карта используется как инструмент перевода/квази-подтверждения личности.

2) Фишинг и подмена цифровых каналов. Зафиксировано, что злоумышленники системно используют поддельные сайты и интерфейсы, визуально копирующие банковские сервисы, платёжные шлюзы или страницы 3-D Secure. Существенная часть сценариев ориентирована на сбор не только номера карты и срока действия, но и данных, необходимых для входа в интернет-банк, восстановления пароля, привязки устройства либо подтверждения транзакции.

3) Вредоносное ПО на мобильных устройствах (mobile malware). В ходе исследования установлено, что мобильная среда выступает критически важной точкой риска: заражённое устройство позволяет преступнику перехватывать уведомления, одноразовые коды, push-подтверждения, а иногда — управлять приложением удалённо. На практике встречаются сценарии, где преступник одновременно получает:

- доступ к перепискам (мессенджеры),
- контроль над SMS/уведомлениями,
- возможность навязать установку «служебного» приложения (под видом обновления или защиты).

4) Компрометация SIM-карты (SIM-swap / перевыпуск). Выявлено, что в ряде случаев ключевой целью является не карта, а номер телефона как фактор идентификации. При успешной подмене SIM злоумышленник получает контроль над SMS/звонками, затем инициирует вход в банк, восстановление доступа и подтверждение операций. Особая опасность этой модели заключается в том, что атакуемая цепочка может обходить часть защит, если подтверждение транзакций опирается на SMS. [12]

5) Компрометация данных в торгово-сервисной сети и при оплате. Отмечено, что определённый массив инцидентов связан с утечками данных в точках, где карта используется как платёжный инструмент: торговые организации, сервисные точки, терминальная инфраструктура, посредники. Преступные действия могут быть обусловлены:

- недобросовестными сотрудниками,
- слабым контролем доступа к терминальному оборудованию,
- использованием несертифицированных устройств,
- нарушением процедур обработки платёжных реквизитов.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida kadrlar bilan ishlash siyosatida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni va ahamiyati hamda ushbu jarayonlarning ichki ishlar organlari tizimi faoliyatiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, axloqiy fazilatlari, huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida xizmat intizomini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlarning vatanparvarlik ruhini oshirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligi yoritiladi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, sohadagi islohotlar va ularning amaliy natijalari tahlil qilinib, kadrlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: kadrlar siyosati, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ichki ishlar organlari, huquqiy ong, xizmat intizomi, kasbiy kompetensiya, ma’naviy tarbiya, davlat siyosati.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N47

Kirish. Jahonda yuz berayotgan globallashuv, xalqaro aloqalardagi integratsiya jarayonlari, qadriyatlar evolyutsiyasi va ulardagi transformatsiya holatlari davlatlar, siyosiy partiyalar qarashlari, insonlar dunyoqarashiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Yer yuzida yalpi tinchlikni saqlash, urushlar oldini olish, adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o‘rnatish, aholi soni

va tarkibi bilan moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratilishi o‘rtasida mutanosiblikka erishish kabi umuminsoniy muammolar hajmi oshib bormoqda. Insonlarning tafakkuri, ongi va dunyo qarashini egallashga urinishlar aynan ma’naviyat maydonida sodir bo‘lmoqda. Endilikda boshqa hudud va xalqlarni o‘ziga qaram qilish uchun ochiq ko‘rish va sezish murakkab bo‘lgan usul va vositalar, xususan ma’naviy buzg‘unchilik metodlaridan foydalanilmoqda.

Jahondagi ko‘plab ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ichki ishlar organlari ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘limlarining faoliyatini tashkiliy-huquqiy ta’minlash, ichki ishlar idoralari xodimlarining qadriyatlariga qarshi qaratilgan ma’naviy tahdidlar muammolarini o‘rganish bo‘yicha izchil tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday jiddiy global muammolar qatorida ayniqsa, barqaror tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda insoniyat ma’naviy muhiti sofligini saqlash masalalari ustuvor muammo sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Ichki ishlar idoralari xodimlarining joylarda mafkuraviy kurashlar, ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan murakkab, tahlikali bir davrda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talabi asosida tashkil etishi va uning targ‘ibotida faol ishtirok etishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1,5]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kadrlar siyosati – bu davlat, tashkilot yoki muassasaning inson resurslarini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha olib boriladigan uzluksiz, tizimli faoliyatidir. U jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlaydigan, yuqori malakali, fidoyi va mas’uliyatli mutaxassislarni tayyorlash, joy-joyiga qo‘yish hamda ularning malakasini oshirishni ko‘zda tutadi. Kadrlar siyosatining mohiyati – inson omilini boshqaruv jarayonining markaziga qo‘yish, ya’ni “inson resurslari” ni strategik kapital sifatida shakllantirishdan iborat.Ta’kidlash lozimki, davlat boshqaruvi tizimida kadrlar siyosati markaziy o‘rinni egallaydi, chunki har qanday islohot, dastur yoki qarorlarni amalga oshiruvchi kuch – bu inson resurslari, ya’ni kadrlarning o‘zidir. Kadrlar siyosati o‘z navbatida davlat boshqaruvida quyidagi vazifalarni bajaradi, ya’ni malakali va halol kadrlar orqali samarali boshqaruvning ta’minlanishi davlat organlari faoliyati sifatini oshiradi, davlat xizmatining barqarorligini ta’minlanishi tizimda professionalizm, sadoqat va barqarorlikni mustahkamlaydi, islohotlarning muvaffaqiyatini kafolatlaydi, chunki kadrlar tayyor bo‘lmasa, eng yaxshi islohot ham samara bermaydi, davlat imijini shakllantiradi – davlat xizmatchilarining madaniyati, odobi va malakasi bevosita davlat nufuzi bilan bog‘liq. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ichki ishlar idoralariga yuksak malakali, professional kadrlar tayyorlash bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari ichida o‘ziga xos o‘ringa ega. Eslatib o‘tish o‘rinliki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 1994 yil 2 sentyabrdagi 447-sonli Qarori bilan ichki ishlar organlari va bo‘linmalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash va boshliqlar tarkibi xodimlarining malakasini oshirish maqsadida ushbu Akademiya tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikdan so‘ng bu yo‘nalishda mamlakatimizda bir qator muhim hujjatlar va dasturlar qabul qilindi. Xalqimizning milliy mentalitetidan kelib chiqib, yoshlarni buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari etib tarbiyalash maqsadida 1997 yilning 29 avgustida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur noyob hujjatlarda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslari belgilanib, har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqi ta’minlanishi nazarda tutildi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – ta’lim tizimini tubdan isloh qilish orqali zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Milliy dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ydi.

Aytish joizki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida yurtimizda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi shaklidagi noyob tizim shakllantirildi. Qonun qabul qilingandan so‘ng respublikamizda yangi tipdagi 1537 ta o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasasi qurilib ishga tushirildi. Birgina 1998-2011 yillar mobaynida o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi dargohlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy o‘quv-laboratoriya jihozlari va kompyuter texnikalari bilan ta’minlashga davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan 132, 1 mlrd. so‘mga yaqin mablag‘ ajratildi. Keyingi o‘n yil davomida xorijiy investitsiya loyihalari doirasida salkam 234 mln. 600 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ o‘quv-laboratoriya va ustaxona jihozlarini xarid qilishga yo‘naltirildi. Natijada 1616 nomdagi 7 mln. nusxada nashr etilgan darslik va qo‘llanmalar, 131 nomdagi elektron darslik o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi bazasida tashkil etilgan axborot-resurs markazlariga yetkazib berildi.

Natijalar. Jaholatning har qanday diniy, siyosiy, dunyoviy yoki dahriylik ko‘rinishlariga qarshi ma’rifat – “ilm orqali ma’rifat” tamoyili asosida kurash olib borish g‘oyasiga aytiladi. Ta’kidlash lozimki, necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o‘zligimizning ajralmas qismi bo‘lgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizdan qolgan bebaho ma’naviy-ma’rifiy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish davlatimiz uchun o‘ta dolzarb vazifa hisoblanadi. Globallashuv davrida mustaqil O‘zbekistonning “Jaholatga qarshi – ma’rifat” g‘oyasi asosida dunyoda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, islom dinining insonparvarlik mohiyatini xalqimiz va jahon ahliga etkazish borasidagi tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda.

Jadidchilik harakatining buyuk namoyandasi Abdulla Avloniyning, “Ma’rifatli xalq shijoatli bo‘lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iboratdir. Maorifdan, funundan va madaniyatdan mahrum bo‘lgan xalq jaholat panjalarining orasida xamir kabi ezilgandek, af’oli zamirida ham o‘z nafsining yoqasini bo‘shata olmas...Zeroki, jaholat eng qo‘rqinch, faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatliroq bir musibatdir”, degan dono fikrlari bor.

Huquq – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, huquqiy, huquqiy asoslanganlik, adolat va qonuniylikka oid kabi ma’nolarni anglatadi. Huquq shaxsga tabiat, jamiyat, davlat tomonidan beriladigan o‘z harakatining turi va me’yorini tanlab olish imkoniyatidir.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilishda rivojlangan davlatlar konstitutsiyashunosligining ilg‘or tajriba va yutuqlaridan keng foydalanildi. Natijada bu usul uning jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish barobarida sifat darajasini ham yanada oshirdi. Uni yaratishda xalqaro huquqning umum e’tirof etgan normalariga qat’iy asoslanilgan. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, – degan edi taniqli professor R.Qayumov, – xalqaro huquq qoidalari va prinsiplarining ustunligini tan oladi. Shu asosda O‘zbekiston boshqa mamlakatlar bilan to‘la ishonchli negizda ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama tashqi siyosiy hamda iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatmoqda”. Asosiy qonunimiz dunyoning ilg‘or tajribasi bilan birgalikda, o‘zbek xalqining boy tarixiy va milliy, ma’naviy va huquqiy qadriyatlarini mujassam uyg‘unlashtirgan. Uning har bir moddasida asrlar mobaynida shakllangan ma’naviy merosimiz, milliy g‘oya va sharqona qadriyatlar aks etgan.

Shu o‘rinda inson va uning hayoti oliy konstitutsiyaviy-huquqiy qadriyat ekanligiga e’tibor qaratishimiz joizdir. Yashash huquqi insonning barcha huquq va erkinliklarining poydevorini, dastlabki asosini tashkil qiladi. Ushbu huquq insonning eng asosiy huquqi, hayot kechirishining kafolatidir. Inson hayoti benazirdir. Konstitutsiyamizga ko‘ra, davlat inson yashashi uchun munosib shart-sharoitni yaratib berishi zarur. Davlat shaxs hayoti va qadr-qimmatini muhofaza qilishi shart. Yashash huquqini ta’minlash uchun davlat idoralari va jamiyat strukturalarining keng ko‘lamli, serqirra faoliyati talab qilinadi.

Bugun Yer yuzining qaysidir burchagida urush olovi yonib, yana qayerdadir terrorchilik harakati avj olgani, yana bir joyda o‘zaro nizolar qurolli to‘qnashuvga aylanayotgani haqida tahlikali xabarlar kelib turibdi. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlaridan yurtimizda barqarorlikni mustahkamlash, xalqimiz tinch-totuv yashashi, ishlashi uchun kecha-yu kunduz hushyorlik bilan xizmat qilishlarini, har qanday tajovuz, nojo‘ya harakatlarning oldini olishga tayyor turishlarini talab etadi.

Ma’lumki, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yurt ravnaqi va rivojiga munosib hissa qo‘shish uchun olib borayotgan harakatlarimiz izchil davom etmoqda. Jumladan, ichki ishlar organlarida ham xizmat samaradorligini oshirish, qonun ustuvorligiga erishishda xalqimizning ishonchli qalqoniga aylanish uchun amaliy harakatlar ketmoqda.

Ichki ishlar organlarining ma’naviy-ma’rifiy faoliyati organ xodimlari orasida ularning ruhiy va ma’naviy holatini oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Bu faoliyat turi IIO xodimlarining motivatsiyasini oshirish, xodimlarning qarashlarini tahlil qilish hamda ularning zamonaviy muammolarga qarshi turishi uchun xizmat ko‘rsatish kabi vazifalarni bajaradi.[3,10]

Muhokama. Adolat ustuvorligi ayniqsa ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Odillik, masalaga qonun ustuvorligi nuqtai nazaridan xolis yondashish, haqiqatni bosh mezon deb bilish, shu yo‘lda beminnat xizmat qilish adolat tamoyilining asosini tashkil qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda inson, uning huquq va manfaatlarini oliy qadriyat sifatida ro‘yobga chiqarish borasida, shu jumladan, ichki ishlar idoralarining sohaviy xizmatlarida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki, ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyatida adolatsizlikka yo‘l qo‘yilishi, ijtimoiy muhitning buzilishiga va aholining adolatga bo‘lgan ishonchi yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Ma’naviyat borasida amalga oshiriladigan ishlar xodimlar qalbida mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab xislat va fazilatlar uzviy, mushtarak holda shakllantirsa, ma’rifiy ishlar ularning ongiga muayyan bilimlar, g‘oyalar, e’tiqod va iymon, axloq va odob normalarini singdiradi, ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtiradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhini tarkib toptiradi.

Xodimlarning ish faoliyatidan tashqari holatda ham olib borgan ma’naviy-ma’rifiy ishlari ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy bilimlari va o‘z faoliyatlari samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Zero, ma’naviy — ma’rifiy ishlarini amalga oshirishda malakali xodimlar bilan bir qatorda yosh xodimlar murabbiylarining ishtiroki ta’minlanadi. Ichki ishlar organlari tashkiliy-huquqiy ta’minot bilan birgalikda ma’naviy — ma’rifiy ishlar bo‘linmalarini ham tashkil etishlari lozim bo‘ladi. Bunday sa’y-harakatlar organ xodimlarining o‘zaro aloqalarini kuchaytiradi, ularning ma’lumot va ko‘nikmalar almashishiga imkon beradi. Faoliyatni tashkiliy-huquqiy ta’minlash ichki ishlar organlari faoliyatining qonuniy asosini

ta’minlaydi. Shu asosda ichki qoidalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amallar bo‘yicha amalga oshiriladigan jarayonlar belgilanadi.

Bunday qoidalar va amallar xodimlar uchun yagona qonuniylik ramzi hisoblanadi. Ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘linmalarini tashkil etish esa xodimlarning ruhiy holatini kuchaytiradi. Bu esa bo‘linmada xodimlarga yangi bilimlar olib kelish, ochiq muloqotda bo‘lish va rag‘batlantiruvchi tadbirlarda ishtirok etish imkoniyatini tuhfa qiladi. Bunday usullar ichki ishlar organlari xodimlarining ijobiy tomonlarini kuchaytirishi mumkin. Ushbu faoliyatning hammasi qonuniy asosda amalga oshirilishi kerak, shuningdek, xodimlarning ruhiy holatini kuchaytirish maqsad qilib olinishi lozim. Bunday yondashuv ichki ishlar organlarining tashkiliy tarzdagi faoliyatini samarali ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida kadrlar bilan ishlash siyosatini izchil amalga oshirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlar muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar organlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni samarali tashkil etish xodimlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish, shuningdek, xizmat intizomini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Maqolada tahlil qilinganidek, ma’naviy-ma’rifiy ishlar ichki ishlar organlari xodimlarida vatanparvarlik, sadoqat, mas’uliyat va halollik kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, huquqbuzarliklarning oldini olish, aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, kadrlar bilan ishlash jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, xodimlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash zarurligi asoslab berildi. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ushbu yo‘nalishda tizimli monitoring olib borish ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy-ma’rifiy ishlar O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ichki ishlar organlari tizimida professional, mas’uliyatli va yuksak ma’naviyatga ega kadrlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish soha rivojiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov O. Kadrlar siyosati va ma’naviy-ma’rifiy ishlar: ilmiy tahlil. – Toshkent: Fan, 2015. – 120-b.
2. Rasulov Sh. Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish. – Toshkent: Huquq, 2018. – 95-b.
3. Abdullayeva N. Ma’naviy tarbiya va kasbiy kompetensiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 150-b.
4. Mirzaev A. Ichki ishlar organlarida xodimlarni tayyorlash tizimi. – Jizzax: IIB nashriyoti, 2017. – 80-b.
5. Sultonov T. Kadrlar bilan ishlash siyosati va davlat boshqaruvi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2016. – 110-b.
6. Islomov R. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning pedagogik asoslari. – Toshkent: Pedagogika, 2019. – 130-b.

7. Petrov V. Moral and ethical education in law enforcement agencies // Journal of Public Administration. – 2018. – Vol. 5, №2. – P. 45–52.
8. Ivanova L. Professional competence and spiritual education in internal affairs systems // International Journal of Law and Society. – 2020. – Vol. 12, №3. – P. 112–120.
9. Smith J. Personnel policy and moral education in law enforcement: global perspectives. – London: Routledge, 2021. – 200-p.
10. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Kadrlar bilan ishlash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy yo‘riqnoma. – Toshkent: IIV, 2022. – 75-b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

VICTIMS OF DOMESTIC CRIME VICTIMS AND ITS PREVENTIVE IMPORTANCE

Allashova Shiyrinay Tursynbaevna
Tashkent State Law University
Lecturer, Department of Theory of State and Law

Karimova Madina Mirzadzhonovna
Academic Lyceum at Tashkent State Law University
Senior Lecturer, Department of Legal Disciplines

Abstract. This article examines the theoretical and applied aspects of victimization in domestic crime. Based on an analysis of contemporary victimology and criminology, the concepts of victimization and victimization are explored, as well as their role in the development of domestic crime. Particular attention is paid to the behavioral characteristics of victims, the socio-environmental conditions of their formation, and the relationship between the social environment of the offender and the victim. It is substantiated that victimization in the domestic sphere is predominantly patterned and determined by a combination of personal, behavioral, and socio-structural factors. The article analyzes the main forms of victimization (persistent and situational, active and passive), revealing their criminological significance and preventive potential. A conclusion is drawn regarding the need to integrate victimization prevention into the overall system of domestic crime prevention and the development of targeted preventive measures focused on both the social environment and the behavioral characteristics of potential victims.

Keywords: victimology, victimization, victim behavior, domestic crime, victim, social environment, crime prevention, victimological prevention.

ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аллашова Шийринай Турсынбаевна
Ташкентский государственный юридический университет
Преподаватель кафедры «Теория государства и права»

Каримова Мадина Мирзаджоновна
Академический лицей при Ташкентском государственном юридическом университете
Старший преподаватель кафедры «Правовые дисциплины»

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и прикладные аспекты виктимного поведения потерпевших в сфере бытовой преступности. На основе анализа положений современной виктимологии и криминологии раскрывается содержание понятий виктимности и виктимизации, а также их роль в механизме формирования бытовых преступлений. Особое внимание уделяется поведенческим характеристикам потерпевших, социально-средовым условиям их формирования и взаимосвязи между социальным окружением преступника и жертвы. Обосновывается положение о том, что виктимизация в бытовой сфере носит преимущественно закономерный характер и детерминируется совокупностью личностных, поведенческих и социально-структурных факторов. В статье анализируются основные формы виктимного поведения (устойчивое и ситуативное, активное и пассивное), раскрывается их криминологическое значение и профилактический потенциал. Делается вывод о необходимости интеграции виктимологической профилактики в общую систему предупреждения бытовой преступности

и разработки адресных превентивных мер, ориентированных как на социальную среду, так и на поведенческие особенности потенциальных жертв.

Ключевые слова: виктимология, виктимность, виктимизация, виктимное поведение, бытовая преступность, потерпевший, социальная среда, профилактика преступлений, виктимологическая профилактика.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N48

В современной криминологии виктимология рассматривается как самостоятельное научное направление, изучающее потерпевших от преступлений, особенности их личности и поведения, а также специфику взаимодействия «преступник - жертва». Предметом виктимологии являются процессы виктимизации, предрасположенность к становлению жертвой и условия, способствующие этому явлению, а также механизмы предупреждения виктимного поведения и преступности в целом. Выявление факторов виктимности и их коррекция являются важнейшим элементом комплексной системы предупреждения преступлений и формирования эффективной профилактики.

Для бытовой преступности характерно постепенное формирование преступных мотивов на основе повторяющихся конфликтов бытового характера, в которых будущие потерпевшие проявляют неосмотрительность и рискованное, а порой провокационное поведение. Поведенческие характеристики потерпевших, полученные в ходе виктимологических исследований, позволяют выявлять субъекты ранней профилактики бытовой преступности. Так, исследователи И. В.Горшков и Р. М.Зулкарнеев [Горшков И.В., Зулкарнеев Р.М., 1997, 14-16 с.] отмечают, что из общего числа проанализированных бытовых преступлений лишь 23,8 % случаев сопровождалось правомерным поведением потерпевшего, тогда как в остальных случаях наблюдались неосторожное (36,3 %), аморальное (28,0 %) или даже противоправное поведение (11,9 %). Эти данные свидетельствуют о значительной роли поведения потерпевшего в процессе виктимизации.

Вопрос о том, является ли виктимность случайным эпизодом биографии или закономерным результатом конфликта, остаётся предметом научных дискуссий. Однако эмпирические данные показывают, что лишь небольшой процент потерпевших (около 14 %) демонстрируют эпизодическое виктимное поведение, резко отличающееся от остальных их поступков, тогда как у подавляющего большинства (по нашим данным, 91 %) выявляется устойчивое злостное виктимное поведение. Такое устойчивое виктимное поведение характеризуется активной, настойчивой, а порой требовательной манерой решения проблем и существенно повышает вероятность совершения преступления.

Случайное виктимное поведение чаще обусловлено неосмотрительностью, доверчивостью, неопытностью или неумеренным употреблением спиртного, тогда как злостное поведение является устойчивой характеристикой личности, формирующей условия для виктимизации. Виктимность как предрасположенность становиться жертвой определяется не только внешними обстоятельствами, но и социально-психологическими и нравственными качествами личности, взаимодействующими с конкретной ситуацией.

Важным аспектом изучения виктимности в бытовой сфере является анализ социального окружения преступника и потерпевшего. Эмпирические и теоретические исследования показывают, что социальные и средовые факторы существенно влияют на вероятность того, что индивид станет жертвой преступления. В частности, в условиях социальной дезорганизации, экономической нестабильности, бедности и маргинальности создаются условия, которые одновременно повышают риск преступности и виктимности. Соответственно, преступники и их жертвы часто принадлежат к одним и тем же социальным подсистемам с ограниченными социальными возможностями, низким уровнем образования, высоким уровнем безработицы и стойкими девиантными моделями поведения, что усиливает риск преступного взаимодействия и способствует воспроизводству криминальной ситуации.

Такая взаимосвязь между социальными детерминантами и виктимностью поддерживается рядом научных подходов виктимологии и криминологии. Теория взаимосвязи «*жертва-правонарушитель*» (victim-offender overlap), подтверждаемая современными исследованиями, показывает, что лица с определёнными социально-культурными и поведенческими характеристиками часто выступают и как жертвы, и как правонарушители, что указывает на общие детерминанты, включающие воздействие социальной среды, стрессы, рискованное поведение, и пр. [Полубинский В.И., 2010, №2].

Социологические модели объясняют такие связи через структурные неравенства и наличие криминогенных обстоятельств, воздействующих на жителей неблагополучных районов, где высокая плотность преступлений, низкий социальный контроль и ограниченный доступ к ресурсам способствуют формированию как преступности, так и высоких уровней виктимизации. Эти условия часто пересекаются с маргинальной принадлежностью субъектов: длительная экономическая нестабильность, отсутствие социальной поддержки, низкий уровень формальной занятости и дефицит социальных институтов, обеспечивающих безопасность — все это усиливает риск вовлечения в криминальные конфликты как со стороны правонарушителей, так и потенциальных жертв [Тимина Т.Н., 2015, 64-68 с.].

В отечественной виктимологической традиции подчёркивается, что виктимность определяется не только индивидуально-поведенческими характеристиками потерпевшего, но и социально-психологическими свойствами социальной среды, в которой он живёт. Психологические, социально-ролевые и поведенческие параметры личности взаимодействуют с социальными факторами, формируя устойчивые модели поведения, повышающие риск столкновения с преступниками. Эти положения соответствуют классическим определениям виктимологии как учения о социальных, психологических и правовых характеристиках жертв преступлений и их взаимосвязи с криминальной ситуацией в целом.

Кроме того, социальные экосистемные модели в виктимологии и криминологии подчёркивают важность изучения контекста - социальных сетей, групповых взаимодействий и общинных условий - которые влияют на формирование преступной и виктимогенной динамики. Это согласуется с выводами исследований, демонстрирующих, что жертвы и правонарушители часто происходят из аналогичных

социальных условий и имеют сходные модели поведения - что подтверждает взаимосвязь социальных детерминант и виктимности как феномена.

В совокупности эти данные свидетельствуют о том, что социальные условия, процессы маргинализации и неблагополучие социальной среды выступают не фоновыми, а активными детерминантами, влияющими как на формирование преступного поведения, так и на вероятность виктимизации. Их учет позволяет глубже раскрыть механизмы бытовой преступности и обосновать необходимость профилактических мер, ориентированных не только на индивидуальные характеристики преступника или потерпевшего, но и на социально-структурные преобразования. Вместе с тем анализ социально-средовых факторов не может быть полным без обращения к поведенческим и личностным особенностям самих потерпевших, что обусловливает необходимость классификации виктимного поведения и выявления его основных форм.

Классификация виктимного поведения потерпевших предполагает выделение его различных форм, позволяющих глубже понять механизмы взаимодействия жертвы с преступником и условия, способствующие виктимизации. Наиболее распространённой в отечественной и зарубежной виктимологической литературе является дихотомия *устойчивого* (личностного) и *неустойчивого* (ситуативного) виктимного поведения.

Устойчивая виктимность рассматривается как стабильный тип поведения, отражающий устойчивые личностные и поведенческие характеристики, которые многократно воспроизводятся в различных жизненных ситуациях и повышают вероятность становления индивида жертвой преступления [Огурцов А.В., 2018; Франк Л.В., 2009]. Подобные модели поведения связаны с более глубокими личностными установками и социальными стратегиями, которые систематически приводят к вовлечению в рискованное взаимодействие и конфликтные ситуации.

Ситуативная виктимность, напротив, обусловлена конкретными обстоятельствами и представляет собой реакцию на определённую ситуацию, в которой лицо оказывается вовлечённым впервые или эпизодически. Эта форма виктимного поведения не является устойчивой характеристикой личности, а возникает под влиянием внешних факторов, контекста конфликта и специфики ситуации [Санников В.А., 2014].

Помимо устойчивости и неустойчивости, в литературе принято различать *активное* и *пассивное* виктимное поведение потерпевших.

Активное виктимное поведение проявляется тогда, когда потерпевший своим поведением инициирует или эскалирует конфликт, не только вступая в него, но и создавая условия, благоприятные для преступного посягательства. Такая активность может выражаться в провокационных словах, действиях, игнорировании норм предосторожности, что создаёт ситуации повышенного риска [Горшков И.В., Зулкарнеев Р.М., 2016].

Пассивное виктимное поведение, напротив, характеризуется недостаточной защитной реакцией потерпевшего, его неспособностью или нежеланием предпринимать меры предосторожности, сопротивления или ухода из опасной ситуации. Пассивность проявляется в бездействии, доверчивости, излишней

уступчивости, что также может способствовать реализации преступного намерения со стороны правонарушителя (Евдокимов, 2020).

Таким образом, устойчивость виктимного поведения отражает степень интеграции виктимных стратегий в личностную структуру индивида, тогда как активность или пассивность характеризует особенности его реакции на конкретные угрозы, конфликтные ситуации и криминогенные воздействия. Совокупный анализ указанных характеристик позволяет не только выделять типы виктимного поведения, но и выходить за рамки их описательного изучения, рассматривая данные типы как диагностический инструмент для прогнозирования риска виктимизации, планирования профилактического вмешательства и разработки адресных превентивных программ в сфере бытовых отношений.

Именно в этом контексте особое значение приобретает *виктимологическая профилактика* как самостоятельное и в то же время интегрированное направление предупреждения преступности. Содержание виктимологической профилактики заключается в формировании у населения устойчивых представлений о недопустимости провокационного и виктимного поведения, а также в развитии навыков адекватной ориентации в криминогенных ситуациях и выбора безопасных моделей поведения. Виктимологическая профилактика представляет собой многоуровневую и многосубъектную деятельность государственных органов, правоохранительных структур и институтов гражданского общества, направленную на выявление, снижение и нейтрализацию факторов, способствующих виктимному поведению, а также на разработку и реализацию мер защиты потенциальных жертв. При этом её эффективность возможна лишь при условии органичного включения в общую систему профилактики преступности, реализуемую в единстве и взаимосвязи с традиционными криминологическими и социально-правовыми подходами к предупреждению противоправного поведения.

Проведённый анализ подтверждает, что виктимологический подход является необходимым элементом комплексного изучения бытовой преступности и её предупреждения. Рассмотрение преступного поведения исключительно через призму личности правонарушителя не позволяет в полной мере раскрыть механизм формирования криминальной ситуации, тогда как включение фигуры потерпевшего, его поведения и социального окружения существенно расширяет аналитические и профилактические возможности криминологии.

Исследование показало, что виктимизация в бытовой сфере носит преимущественно закономерный, а не случайный характер и формируется в результате взаимодействия личностных, поведенческих и социально-средовых факторов. Поведение потерпевших — от неосмотрительного и рискованного до аморального и провокационного — нередко выступает значимым элементом криминогенной ситуации, способствуя эскалации бытовых конфликтов и реализации преступного умысла. Особую опасность представляют устойчивые формы виктимного поведения, закреплённые в структуре личности и воспроизводимые в различных жизненных обстоятельствах.

Существенное влияние на процессы виктимизации оказывают социальные условия: маргинализация, неблагополучие среды, экономическая нестабильность и

ослабление механизмов социального контроля. В этих условиях преступники и потерпевшие часто принадлежат к одной социальной среде и разделяют сходные модели поведения, что подтверждает наличие общих детерминант преступности и виктимности и обусловливает их взаимосвязанный характер.

Классификация виктимного поведения по критериям устойчивости и активности/пассивности позволяет более точно выявлять группы повышенного виктимного риска и использовать полученные данные для прогнозирования и профилактического воздействия. В этой связи виктимологическая профилактика приобретает особое значение как направление, ориентированное на предупреждение не только преступного, но и виктимного поведения, формирование навыков безопасного взаимодействия и снижение влияния виктимогенных факторов.

Таким образом, учёт личности и поведения потерпевшего, а также социального контекста их формирования является объективно необходимым условием повышения эффективности профилактики бытовой преступности и разработки более адекватных и адресных мер предупреждения противоправных деяний.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Горшков И.В., Зулкарнеев Р.М. Тяжкие преступления в семье: Учебное пособие/ Под ред. Ю М. Антоняна. М., 1997. С. 14-16.
2. Полубинский В. И. Криминальная виктимология и виктимность // Научный портал МВД России. 2010. № 2.
3. Уголовное право и криминология. Виктимность и виктимизация как основные категории криминальной виктимологии. Тимина Т. Н., 2015. Электронный ресурс. Режим доступа: file:///C:/Users/HP/Downloads/viktimnost-i-viktimizatsiya-kak-osnovnye-kategorii-kriminalnoy-viktimologii.pdf
4. Франк Л. В. Виктимология: учение о жертве преступления. — М.: Юристъ, 2009. - классический отечественный учебник по виктимологии, включающий модель устойчивой и ситуативной виктимности.
5. Огурцов А. В. Введение в виктимологию: учебное пособие. — М.: Норма, 2018. — современный учебник с описанием типов виктимного поведения и механизмов его формирования.
6. Санников В. А. Виктимология и профилактика преступлений. — Казань: Изд-во КГУ, 2014. — подробный анализ типов виктимного поведения и роли личностных и ситуационных факторов.
7. Горшков И. В., Зулкарнеев Р. М. Виктимология и преступность в России. — СПб.: Питер, 2016. — эмпирическое исследование поведения потерпевших в бытовых преступлениях с анализом активного/пассивного поведения.
8. Евдокимов В. Ю. Виктимологическая профилактика: теория и практика // Уголовное право, 2020. — статья с обсуждением практических аспектов активного и пассивного виктимного поведения.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

MODERN THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF THE RULE OF LAW

Lutfullayeva Feruza Boboqulovna
Lecturer of Law at the Academic Lyceum named after
M.S.Vosiqova under the Tashkent State University of Law,
Independent Researcher

Abstract. The article analyzes modern theoretical approaches to the concept of the rule of law. Classical philosophical and legal foundations, as well as liberal-legal, normativist, sociological-communicative, and global approaches, are examined. Based on the ideas of John Rawls, Friedrich Hayek, Robert Alexy, Joseph Raz, Jürgen Habermas, and David Held, the study reveals the relationship between the rule of law and principles of justice, individual freedom, supremacy of law, accountability of power, and global legal integration. Particular attention is paid to the contemporary interpretation of the rule of law in Uzbekistan.

Keywords: rule of law, supremacy of law, justice, human rights, accountability of power, civil society, global law.

HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI

Lutfullayeva Feruza Boboqulovna
TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning huquq fani o‘qituvchisi,
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: flutfullayeva578@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqiy davlat konsepsiyasining zamonaviy nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy davlat tushunchasining klassik falsafiy-huquqiy asoslari hamda liberal-huquqiy, normativistik, sotsiologik-kommunikativ va global yondashuvlar ilmiy jihatdan yoritilgan. John Rawls, Friedrich Hayek, Robert Alexy, Joseph Raz, Jürgen Habermas va David Held qarashlari asosida huquqiy davlatning adolat, shaxs erkinligi, qonun ustuvorligi, hokimiyatning javobgarligi va global huquqiy integratsiya bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda huquqiy davlat konsepsiyasining zamonaviy talqini inson huquqlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, adolat, inson huquqlari, hokimiyat javobgarligi, fuqarolik jamiyati, global huquq.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N49

XXI asrda huquqiy davlat (Rechtsstaat, Rule of Law) konsepsiyasi nafaqat konstitutsiyaviy boshqaruv tamoyili, balki global huquqiy tartibning markaziy paradigmasi sifatida qaralmoqda. Bugungi huquqiy tafakkurda huquqiy davlat tushunchasi an’anaviy – klassik nazariyadan (Kant, Monteskye, Lokk) farqli ravishda, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat va xalqaro huquqiy integratsiya g‘oyalari bilan boyitilgan.

1. Liberal-huquqiy yondashuv

Liberal an’anaga ko‘ra, huquqiy davlatning markazida shaxs erkinligi va hokimiyatning cheklanishi turadi. Bu yondashuv Jon Rols, Fridrix Hayek, Ronald Dvorkin kabi zamonaviy faylasuflar tomonidan rivojlantirilgan.

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida shaxs erkinligi va qonun ustuvorligidan tashqari, adolat, tenglik va ijtimoiy muvozanat tamoyillari ham markaziy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, amerikalik faylasuf Jon Rols huquqiy davlatni adolatga asoslangan ijtimoiy tizim sifatida talqin qiladi va ijtimoiy institutlarning asosiy fazilati adolat ekanligini ta’kidlaydi, xuddi fikrlash tizimlaridagi haqiqat kabi. Rolsning nazariyasiga ko‘ra, huquqiy davlat faqat qonuniylikni ta’minlab qolmasdan, jamiyatdagi tenglikni va resurslarning muvozanatli taqsimlanishini ham nazorat qilishi kerak, shuningdek, fuqarolar o‘rtasidagi nizolarni adolatli va shaffof mexanizmlar orqali hal qilish imkonini beradi. Shu tarzda, huquqiy davlat nafaqat konstitutsiyaviy tartibni, balki fuqarolarning huquqlari va ijtimoiy manfaatlarini muvozanatlaydigan kompleks tizim sifatida talqin qilinadi, bu yondashuv esa zamonaviy demokratik davlat konsepsiyasining ilmiy asosini tashkil etadi. [4; Б.360.].

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida iqtisodiy erkinlik masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Avstriyalik faylasuf va iqtisodchi Fridrix Hayek o‘zining “*Erkinlik konstitutsiyasi”* (*The Constitution of Liberty*, 1960) asarida huquqiy davlatni iqtisodiy erkinlik bilan bog‘laydi. Hayek fikricha, qonun oldida tenglik va shaxsiy tashabbus erkinligi huquqiy davlatning eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. U ta’kidlaydiki, huquq hukmron bo‘lgan davlat hech qachon ixtiyoriy hokimiyat quroliga aylana olmaydi, ya’ni hokimiyatning shaxsiy yoki guruh manfaatlariga bo‘ysunish xavfi mavjud emas.

Shu nuqtai nazardan, huquqiy davlat nafaqat siyosiy va huquqiy barqarorlikni, balki ijtimoiy va iqtisodiy erkinliklarni ham ta’minlovchi institut sifatida talqin qilinadi. Hayekning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, huquqiy davlatni shakllantirishda faqat qonuniylik yetarli emas; u shuningdek shaxslarning erkinligini, iqtisodiy faoliyatdagi teng imkoniyatlarni va jamiyatdagi adolatni ham kafolatlashi lozim. [6; Б.314.].

2. Normativistik yondashuv

Huquqiy davlatning normativistik talqini Hans Kelsenning “sof huquq nazariyasi”dan kelib chiqadi. Kelsencha, davlat huquqiy tizim sifatida mavjud bo‘ladi, demak, huquq ustuvorligi – davlatning o‘zini saqlash sharti. Bugungi kunda bu yondashuv *Robert Alexy* (Germaniya) va *Joseph Raz* (Buyuk Britaniya) tomonidan rivojlantirilgan.

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida huquqiy tizimni faqat formal me’yorlar to‘plami sifatida emas, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq normativ tizim sifatida talqin qilish muhim o‘rin egallaydi. Nemis huquqshunosi Robert Aleksi o‘zining “*Konstitutsiyaviy huquqlar nazariyasi”* asarida huquq hukmronligi konsepsiyasini aynan shu nuqtai nazardan tushuntiradi. Aleksi fikricha, huquq hukmronligi g‘oyasi — bu huquqiy tartibni axloqiylashtirishga urinishdir. Shu yondashuv huquqiy davlatni nafaqat qonuniylikni ta’minlovchi institut, balki ijtimoiy adolat va axloqiy prinsiplar asosida shakllangan tizim sifatida tushunishga imkon beradi. [3; Б.246.].

Aleksi ta’kidlaydiki, qonunlar faqat qog‘ozda qolmasligi, balki jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar va huquqiy adolat bilan uyg‘unlashishi lozim. Shu nuqtai nazardan, huquqiy davlat tamoyillari shaxs erkinligi, tenglik, hokimiyatlarning bo‘linishi va qonun ustuvorligi bilan birgalikda axloqiy va ijtimoiy majburiyatlarni ham qamrab oladi. Bu yondashuv zamonaviy

konstitutsiyaviy tizimlarda huquqiy barqarorlikni ta’minlash va jamiyatda adolatni mustahkamlashning asosiy ilmiy poydevorini tashkil qiladi. [1; Б.450.].

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida hokimiyatning institutsional javobgarligi va ixtiyoriy hukmronlikning oldini olish markaziy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, ingliz huquqshunosi Jozeff Raz huquq hukmronligini hokimiyatni cheklash va ixtiyoriy qarorlar xavfini minimallashtirish vositasi sifatida talqin qiladi. U o‘zining “*Huquq hukmronligi va uning fazilatlari”* maqolasida ta’kidlaydiki, huquq hukmronligi ixtiyoriy hokimiyat xavfini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, davlat organlari va mansabdor shaxslar o‘z faoliyatida qonuniy me’yorlarga bo‘ysunishi lozim. [2; Б.117.].

Shu yondashuv huquqiy davlatni nafaqat qonuniylikni ta’minlovchi, balki hokimiyatning javobgarligini va fuqarolar huquqlarini kafolatlashi lozim bo‘lgan institutsional tizim sifatida tushunishga imkon beradi.

Razning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, huquqiy davlat faqat hokimiyatning bo‘linishi va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan cheklanmaydi, balki davlat institutlarining o‘z faoliyati uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi va harakatlarining qonuniyligiga sud nazoratini o‘rnatishi ham zarur. Shu tariqa, huquqiy davlatning barqarorligi va shaxs huquqlarining himoyasi ixtiyoriy qarorlar xavfini cheklash bilan mustahkamlanadi.

3. Sotsiologik va kommunikativ yondashuv

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Yurgen Habermas va boshqa zamonaviy faylasuflar huquqiy davlatni “kommunikativ faoliyat nazariyasi” orqali tahlil qilishdi. Habermasga ko‘ra, huquqiy davlat — bu ijtimoiy muloqot va kelishuv asosida shakllanadigan tizim, ya’ni huquq – ijtimoiy kommunikatsiyaning shakli.

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalarida qonuniylik nafaqat me’yoriy normativlar bilan, balki jamiyatning axloqiy va ijtimoiy roziligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, nemis faylasufi Y. Habermas o‘zining “*Between Facts and Norms”* asarida qonuniylikni fuqarolar orasidagi oqilona diskurs orqali tasdiqlanishi bilan bog‘laydi. U ta’kidlaydiki, qonuniy deb faqat barcha fuqarolar oqilona muloqotda kelishib qabul qilgan qonunlar hisoblanadi.

Habermas nazariyasi huquqiy davlatni shaffof, demokratik va fuqarolar ishtirokidagi ijtimoiy institutlar orqali shakllangan tizim sifatida tushuntiradi. Shu yondashuvga ko‘ra, qonunlar faqat hokimiyatning buyruqlari emas, balki jamiyat a’zolarining axloqiy va ratsional roziligi bilan qo‘llab-quvvatlangan me’yorlar bo‘lishi kerak. Bu tamoyil huquqiy davlatda fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini rag‘batlantiradi, hokimiyatning ixtiyoriy qarorlar xavfini kamaytiradi va jamiyatda adolat hamda huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Demak, zamonaviy yondashuvga ko‘ra, huquqiy davlat — bu faqat qonuniylik tizimi emas, balki ijtimoiy ishtirok, axloqiy muloqot va demokratik konsensusga asoslangan huquqiy tartibdir.

4. Postmodern va global yondashuvlar

Bugungi kunda huquqiy davlat konsepsiyasi global boshqaruv, inson huquqlari, raqamli jamiyat va ekologik xavfsizlik kabi yangi sohalar bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinmoqda.

Masalan, Devid Held o‘zining *Global Covenant* asarida “global huquqiy davlat” konsepsiyasini ilgari suradi. Held fikricha, XXI asrda huquqiy davlat milliy chegaralardan tashqariga chiqib, transmilliy adolat, xalqaro javobgarlik va global huquqiy me’yorlarni o‘z ichiga olishi lozim. Bu yondashuv, huquqiy davlat nazariyasini faqat milliy hukumatlar darajasida emas, balki global siyosiy va huquqiy tizimlarda ham tatbiq etish zaruratini

ko‘rsatadi. Shunday qilib, huquqiy davlat nafaqat milliy, balki xalqaro hamjamiyatdagi adolat va shaffoflikni ta’minlovchi institut sifatida talqin qilinadi. [5; Б.118.].

O‘zbekistonda huquqiy davlatning zamonaviy talqini nafaqat qonun ustuvorligini, balki inson huquqlarini ustuvor deb bilish, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, sud mustaqilligini ta’minlash va raqamli boshqaruvni joriy etish orqali namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zining *Yangi O‘zbekiston strategiyasi* asarida ta’kidlaydiki, huquq ustuvorligi va inson qadr-qimmati yangi O‘zbekistonning asosiy g‘oyaviy tayanchlaridir.

Bu yondashuv huquqiy davlatni nafaqat normativ va institutsional tizim sifatida, balki jamiyatdagi shaffoflik, adolat va fuqarolarning asosiy huquqlarini himoya qiluvchi kompleks tizim sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shu tariqa, O‘zbekiston tajribasi zamonaviy huquqiy davlat kontsepsiyasining demokratik, insonparvar va texnologik jihatdan rivojlangan modelini namoyish etadi.

Zamonaviy huquqiy davlat nazariyalari bir qator umumiy xususiyatlar bilan ajralib turadi. Birinchidan, huquqning axloqiy va ijtimoiy tabiatini e’tirof etish muhim omil hisoblanadi. Masalan, Robert Alexy huquqni faqat formal tizim sifatida emas, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq normativ tizim sifatida talqin qiladi, shuningdek, Jürgen Habermas qonuniylikni fuqarolar orasidagi oqilona diskurs orqali shakllanishi bilan bog‘laydi.

Ikkinchidan, zamonaviy nazariyalar shaxs erkinligi va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanatni ta’kidlaydi. Jon Rolsning fikricha, huquqiy davlat qonuniylikdan tashqari adolat, tenglik va ijtimoiy muvozanatni ham ta’minlashi lozim.

Uchinchidan, hokimiyatning javobgarligi va shaffofligi tamoyili huquqiy davlatning barqarorligi va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda markaziy ahamiyatga ega. Joseph Raz va Ronald Dworkin bu tamoyilni hokimiyatning ixtiyoriy qarorlar xavfini kamaytirish va sud nazorati orqali amalga oshirish bilan bog‘laydi.

Shuningdek, zamonaviy talqinlarda global miqyosdagi huquqiy integratsiya ham e’tiborga olinadi, bu davlatlarning xalqaro normativ me’yorlar va huquqiy standartlarga bo‘ysunishini ta’minlaydi.

Nihoyat, O‘zbekistonda huquqiy davlat konsepsiyasi fuqarolik ishtiroki va raqamli boshqaruvning huquqiy asoslari bilan mustahkamlanadi. Prezident Sh. M. Mirziyoyevning ta’kidlashicha, huquq ustuvorligi va inson qadr-qimmati yangi O‘zbekistonning asosiy g‘oyaviy tayanchlaridir.

Shunday qilib, zamonaviy huquqiy davlat nazariyalari nafaqat qonuniylik va hokimiyat bo‘linishini, balki ijtimoiy adolat, shaxs erkinligi, fuqarolik ishtiroki va axloqiy prinsiplarni ham birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida shakllangan.

Xulosa. Maqolada huquqiy davlat nazariyasining nazariy-huquqiy asoslari, uning tarixiy-falsafiy ildizlari, klassik tamoyillari va zamonaviy yondashuvlari batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, huquqiy davlat konsepsiyasi insoniyat fikr tarixi davomida shakllangan muhim falsafiy va huquqiy tamoyillarga tayangan. Antik davr falsafasida Aristotel va Platon tomonidan ilgari surilgan “qonun hukmronligi” g‘oyasi, Rim huquqi va tsitseron tafakkuri orqali tizimlashtirilib, keyinchalik O‘rta asrda tabiiy huquq maktablari tomonidan rivojlantirildi. Sharqiy va g‘arbiy falsafiy an’analar, jumladan, Hindiston, Xitoy va Yevropa maktablarida qonun va axloqiy prinsiplarning uyg‘unligi huquqiy davlatning konseptual poydevorini tashkil etdi.

Klassik davrda huquqiy davlat nazariyasining shakllanishida John Lokk, Monteskye, Immanuel Kant, A. V. Daisi va Robert von Mohl kabi olimlarning hissasi muhim bo‘ldi. Ularning ilmiy izlanishlari hokimiyatning cheklanishi, qonunning ustuvorligi, sud mustaqilligi va shaxs erkinligi kabi asosiy tamoyillarni nazariy jihatdan mustahkamladi. Ayniqsa, Daisi nazariyasi huquqiy davlatning uch asosiy poydevorini belgilab, ularni milliy va keyinchalik xalqaro huquq tizimida qo‘llash imkonini berdi.

Zamonaviy yondashuvlar esa huquqiy davlat tushunchasini kengaytirib, uni axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tamoyillar bilan bog‘lashga e’tibor qaratadi. Robert Aleksi, Joseph Raz, John Rawls, Fridrix Hayek va Devid Held kabi olimlar huquqiy davlatni nafaqat qonuniylikni ta’minlovchi institut, balki adolat, shaffoflik, shaxs erkinligi, iqtisodiy erkinlik va xalqaro javobgarlikni amalga oshiruvchi tizim sifatida talqin qiladilar. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida huquqiy davlat zamonaviy talqinida inson huquqlari ustuvorligi, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, sud mustaqilligi va raqamli boshqaruvni joriy etish asosiy yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Umuman olganda, maqolada tahlil qilingan nazariy manbalar va ilmiy tadqiqotlar huquqiy davlatning nazariy-huquqiy poydevorini shakllantirganini ko‘rsatadi. U klassik va zamonaviy tamoyillarni uyg‘unlashtirgan holda, fuqarolar erkinligini himoya qiluvchi, hokimiyatning javobgarligini ta’minlovchi va milliy hamda xalqaro kontekstda tatbiq etiladigan tizim sifatida konseptual asosini belgilaydi. Shu jihatdan, huquqiy davlat nazariyasi nafaqat tarixiy va falsafiy ahamiyatga ega, balki amaliy boshqaruv va huquqni rivojlantirish strategiyalarining nazariy asosini ham tashkil etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Alexy, R. The Argument from Injustice: A Reply to Legal Positivism. — Oxford: Clarendon Press, 2002. — 450 -b.
2. Jozeff Raz, Huquq hukmronligi va uning fazilatlari, 1977. – 117-b.
3. Robert Aleksi, Konstitutsiyaviy huquqlar nazariyasi, 1985. – 246-b.
4. Rawls, J. A Theory of Justice. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1971. — 360-b
5. Devid Held, Global Covenant, 2004. – 118-b.
6. Hayek, F. A. The Road to Serfdom. — Chicago: University of Chicago Press, 1944. — 314-b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

EFFECTIVE PARLIAMENTARY OVERSIGHT OF TREATY IMPLEMENTATION: STRENGTHENING PARTY AUTONOMY IN INTERNATIONAL COMMERCIAL CONTRACTS IN UZBEKISTAN

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli
PhD student, Tashkent State University of Law
E-mail: davronbekabdugaffarov@gmail.com

Abstract. This article examines the critical link between effective parliamentary oversight and the practical application of international treaties governing party autonomy in Uzbekistan's international commercial contracts. While Uzbekistan has established a robust de jure framework prioritizing international law, particularly through the Constitution and the 2021 "On International Commercial Arbitration" Law, a thorough analysis of its actual implementation in national courts is necessary. This paper argues that the Oliy Majlis has a crucial, yet underutilized, oversight role in monitoring the judicial and executive implementation of ratified treaties, such as the Chisinau Convention (2002). The research analyzes existing oversight mechanisms and proposes practical recommendations, including specialized committee reviews and mandatory reporting from the judiciary, to ensure that ratified treaties effectively strengthen party autonomy, thereby improving the nation's investment climate and rule of law.

Keywords: parliamentary oversight, treaty implementation, party autonomy, private international law, international commercial contracts, Chisinau Convention, choice of law.

SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O‘ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH

Abdugaffarov Davronbek Dilshod o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada parlament nazorati samaradorligi bilan O‘zbekistonda xalqaro tijorat shartnomalarida taraflarning erk muxtoriyatini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarning amalda qo‘llanilishi o‘rtasidagi muhim bog‘liqlik o‘rganiladi. Garchi O‘zbekistonda xalqaro huquq ustuvorligini ta’minlovchi mustahkam de-yure baza, xususan, Konstitutsiya va 2021-yilgi “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonun orqali yaratilgan bo‘lsa-da, uning milliy sudlarda amalda qo‘llanilishini chuqur tahlil qilish zarur. Ushbu maqolada Oliy Majlis ratifikatsiya qilingan shartnomalarning, masalan, Kishinyov konvensiyasining (2002) sud va ijro hokimiyati tomonidan bajarilishini nazorat qilishda hal qiluvchi, ammo yetarlicha foydalanilmayotgan nazorat rolini o‘ynashi lozimligi ta’kidlanadi. Tadqiqotda mavjud nazorat mexanizmlari tahlil qilinib, ratifikatsiya qilingan shartnomalar taraflarning erk muxtoriyatini samarali kuchaytirishini ta’minlash va shu orqali mamlakatning investitsiya muhiti va huquq ustuvorligini yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar, jumladan, ixtisoslashtirilgan qo‘mita tekshiruvlari va sud hokimiyatining majburiy hisobot berish tizimini joriy etish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: parlament nazorati, shartnomalar ijrosi, taraflarning erk muxtoriyati, xalqaro xususiy huquq, xalqaro tijorat shartnomalari, Kishinyov konvensiyasi, huquqni tanlash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N50

Introduction. The integration of the Republic of Uzbekistan into the global economy is contingent upon a predictable, modern, and reliable legal framework for international

commerce. A cornerstone of this framework is the principle of party autonomy, which grants parties to an international commercial contract the freedom to choose the law governing their agreement. This principle is fundamental to the dissertation topic, "Principles of choice of law in international commercial contracts and prospects for their further improvement." However, the de jure recognition of this principle, both in national legislation and ratified international treaties, does not automatically guarantee its de facto application by national courts.

This article argues that a significant gap in the "prospects for further improvement" of choice of law rules lies not in the laws themselves, but in the lack of effective parliamentary oversight of their implementation. The Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan holds the constitutional power to ratify international treaties, transforming them into national law. This paper posits that this power implies a corresponding duty of oversight to ensure that ratified treaties are correctly interpreted and applied by the judiciary and executive branches. The central argument is that strengthening parliamentary oversight is the key mechanism to close the gap between Uzbekistan's international commitments to party autonomy and its domestic legal practice, thereby enhancing the nation's investment climate. The topicality of this issue is paramount as Uzbekistan seeks to increase foreign direct investment, which relies heavily on legal predictability.

Literature Review and Methodology. The legal framework governing party autonomy in Uzbekistan is multifaceted. At the national level, it is anchored in the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, which outlines the core principles of private international law (PIL), and the Economic Procedure Code, which governs commercial disputes [1; 3]. A significant legislative advancement was the adoption of the Law "On International Commercial Arbitration" (ICA Law) in 2021, which largely aligns with the UNCITRAL Model Law and robustly supports party autonomy [4].

On the international level, Uzbekistan is a party to numerous treaties that impact PIL. Most notable are the regional conventions on legal assistance, primarily the Convention on Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Cases (Chisinau Convention, 2002), which entered into force for Uzbekistan in 2020 [2]. These treaties contain specific provisions on the recognition of law and judgments that directly impact commercial contracts.

However, a review of existing literature reveals a significant gap. While legal scholars have analyzed the provisions of the Civil Code and the new ICA Law, and separate literature exists on the constitutional functions of the Oliy Majlis [5], there is a dearth of academic analysis connecting these two fields. Little research has been dedicated to the practical oversight by the Oliy Majlis concerning the judicial implementation of ratified commercial treaties. Studies have noted a "tension" between Uzbekistan's monist legal theory—where international law is supreme (Article 15, Constitution)—and the practical reluctance of domestic courts to apply international norms directly, often citing a lack of awareness or guidance [7]. This paper aims to fill this specific gap by focusing on parliamentary oversight as a solution.

This research employs a qualitative, doctrinal, and comparative legal methodology. The primary method is a doctrinal analysis of Uzbekistan's legal framework. This includes a textual analysis of Constitutional and Legislative Norms (The Constitution, Law "On the Oliy Majlis", Law "On Parliamentary Control"), Substantive Laws (Civil Code, Economic Procedure Code, ICA Law), and International Legal Instruments (Chisinau Convention). This analysis is supplemented by a comparative review of "foreign experience," briefly drawing on oversight

practices from other jurisdictions that monitor treaty compliance to distill best practices and formulate practical recommendations.

Results. The analysis reveals a robust de jure framework coupled with a significant de facto implementation deficit, a problem that parliamentary oversight is uniquely positioned to solve.

1. The De Jure Framework for Parliamentary Control: The Oliy Majlis is not merely a legislative body; it is the ratifying authority for key international treaties. The Law of the Republic of Uzbekistan "On International Treaties" (2019) stipulates that treaties requiring amendments to existing laws or establishing rules different from national law are subject to ratification by the Oliy Majlis (Article 18) [6]. Once ratified, these treaties "constitute an integral part of the legal system" and hold primacy over conflicting national legislation. This power of ratification is the foundation of the oversight duty. The Oliy Majlis, in passing a law to ratify a treaty, essentially creates new domestic law. Its oversight function, therefore, must extend to ensuring the executive and judicial branches faithfully execute this law. Current oversight mechanisms, such as parliamentary inquiries and committee hearings, are legally available but appear to be seldom used in the specific technical domain of private international law.

2. The De Facto Implementation Gap: Despite this clear legal hierarchy, the practical application of international treaties in commercial disputes is inconsistent. As noted in the literature, there is a documented tendency for national courts to prioritize domestic codes over conflicting or more specific rules in ratified treaties like the Chisinau Convention. This may stem from a lack of judicial training, insufficient guidance from the Supreme Court, or a simple lack of awareness that these treaty provisions are directly applicable and superior law. This is where party autonomy is weakened. For example, if parties to a contract (e.g., from Uzbekistan and Kazakhstan) choose English law to govern their dispute, their choice should be respected under the principles of the ICA Law and international norms. However, if a domestic court disregards this choice and applies Uzbek law by default, citing domestic procedural habits, it directly violates the ratified international legal standards. This creates legal uncertainty and undermines the investment climate. This failure of the judiciary to apply the law (the treaty) as ratified by parliament is, by definition, a failure of implementation that demands oversight.

Discussion. The analysis demonstrates that the "prospects for further improvement" of choice of law in Uzbekistan lie in ensuring the effectiveness of existing laws, which is an oversight function. To bridge the implementation gap, this paper proposes the following practical recommendations for the Oliy Majlis:

- **Mandatory Judicial Reporting on Treaty Application:** The Oliy Majlis should exercise its oversight powers by amending relevant laws (e.g., "On Courts") to require the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan to submit an annual report to parliament. This report should detail the frequency and manner in which international treaties (specifically the Chisinau Convention and the New York Convention) and the ICA Law have been applied in commercial disputes, highlighting cases where treaty provisions superseded national law. This would create transparency and provide a concrete basis for oversight.
- **Specialized Committee Hearings:** The relevant committees of the Oliy Majlis (e.g., the Committee on International Affairs or Committee on Judicial-Legal Issues) should conduct regular oversight hearings. These hearings should summon officials from the

Ministry of Justice and the Supreme Court to report on the measures taken to disseminate knowledge and ensure judicial compliance with ratified commercial treaties. This directly addresses the "lack of awareness" problem.

- **Post-Ratification Impact Assessments (PRIAs):** When the Oliy Majlis ratifies a major commercial treaty, it should mandate a PRIA to be conducted after a set period (e.g., 3-5 years). This assessment would analyze judicial data to determine if the treaty is being implemented correctly and if it is achieving its intended policy goal (i.e., strengthening party autonomy and improving the business climate). The findings would allow parliament to take corrective action, either through legislative clarification or by demanding accountability from implementation bodies.

Conclusion. The principles of choice of law in international commercial contracts are a cornerstone of a state's economic competitiveness. Uzbekistan has made commendable strides in modernizing its legislative framework, particularly with the 2021 ICA Law. However, this article argues that the "further improvement" required is not necessarily more legislation, but the effective implementation of the laws and treaties already in place. The Oliy Majlis, in its capacity as the ratifying body, has both the power and the responsibility to ensure that international treaties strengthening party autonomy are not just legal symbols, but practical realities in the nation's courtrooms. By adopting proactive oversight mechanisms such as mandatory judicial reporting and specialized hearings, parliament can close the de jure/de facto gap, secure the principle of party autonomy, and provide the legal predictability that international commerce demands.

References/Adabiyotlar/Литература:

1. Azizov, A. & Partners. Public Policy of Uzbekistan. – 2023. – [Electronic resource]. URL: https://azizovpartners.uz/en/memos/public-policy-of-uzbekistan/ (Accessed: 20.10.2025).
2. The Convention for Uzbekistan on legal assistance and legal relations in civil, family and criminal cases enters into force // UzDaily.uz. – 16 July 2020. – [Electronic resource]. URL: https://www.uzdaily.uz/en/the-convention-for-uzbekistan-on-legal-assistance-and-legal-relations-in-civil-family-and-criminal-cases-enters-into-force/ (Accessed: 20.10.2025).
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi [Civil Code of the Republic of Uzbekistan] // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1996. – № 11-12.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.02.2021 yildagi O‘RQ-674-son "Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida" [Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-674 of 16.02.2021 "On International Commercial Arbitration"] // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.02.2021 y., 03/21/674/0121-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2016 yildagi O‘RQ-403-son "Parlament nazorati to‘g‘risida" [Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-403 of 11.04.2016 "On Parliamentary Control"] // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2016. – № 15. – 140-mod.
6. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.02.2019 yildagi O‘RQ-518-son "O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida" [Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-518 of 06.02.2019 "On International Treaties of the Republic of Uzbekistan"] // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2019 y., 03/19/518/2573-son.
7. Tensions between Domestic and International Law for Supremacy in Uzbekistan // ResearchGate. – Publication 348391118. – 2021. – [Electronic resource]. URL:

https://www.researchgate.net/publication/348391118_Tensions_between_Domestic_and_International_Law_for_Supremacy_in_Uzbekistan (Accessed: 20.10.2025).

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

ILLEGAL TRAFFICKING IN HUMAN ORGANS AND TISSUES: A CRIMINAL LAW AND COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS

Jalilov Ravshanjon
Master's student
Academy of Law Enforcement
E-mail: j.ravshan82@gmail.com

Abstract. This article provides a criminal law and comparative legal analysis of crimes related to the sale and purchase of human organs and tissues, as well as their illegal export beyond the territory of the Republic of Uzbekistan, as предусмотрено in Articles 133^1 and 133^2 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The object, subject matter, and the objective and subjective elements of these offences are examined. Based on a comparative analysis of the legislation of CIS member states and other foreign countries, proposals aimed at improving national criminal legislation are put forward.

Keywords: human organs; human tissues; illegal trafficking; sale and purchase; transplantation; criminal liability; comparative legal analysis.

INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL

Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133^1 va 133^2-moddalarida nazarda tutilgan inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisi hamda ularni mamlakat hududidan tashqariga noqonuniy olib chiqish bilan bog'liq jinoyatlar jinoiy-huquqiy va qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur jinoyat tarkiblarining obyekti, predmeti, obyektiv va subyektiv belgilari ochib berilgan. MDH va boshqa xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil asosida milliy jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: inson a'zolari; inson to'qimalari; noqonuniy aylanma; oldi-sotdi; transplantatsiya; jinoiy javobgarlik; qiyosiy-huquqiy tahlil.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N51

Kirish. Inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy aylanmasi zamonaviy jinoyatchilikning eng xavfli va latent ko'rinishlaridan biri bo'lib, u inson qadri, shaxsiy daxlsizlik va axloqiy qadriyatlarga bevosita tajovuz qiladi. Jahonda transplantatsiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishi ushbu sohada tijoratlashtirish, transchegaraviy noqonuniy aylanma va uyushgan jinoyatchilik xavfini kuchaytirmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasida inson a'zolari va to'qimalari savdosi hamda ularni mamlakat hududidan tashqariga noqonuniy olib chiqish uchun alohida jinoiy javobgarlikning belgilanishi mazkur sohada jinoyat-huquqiy muhofazani kuchaytirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133^1 va 133^2-moddalari jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, ularning mazmuni, qo‘llanish xususiyatlari, shuningdek MDH va boshqa xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil asosida qonunchilikni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-mayda qabul qilingan “Inson a’zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasiga muvofiq, inson a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini transplantatsiya qilish sohasida jismoniy hamda yuridik shaxslar tomonidan inson a’zolarining va (yoki) to‘qimalarining oldi-sotdisini amalga oshirish, shuningdek transplantatsiya qilinadigan inson a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqish qat’iyan taqiqlangan. Mazkur taqiqlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida, 2022-yil 23-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga yangi 133^1-modda (Inson a’zolarining va (yoki) to‘qimalarining oldi-sotdisi) hamda 133^2-modda (Insonning transplantatsiya qilinadigan a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish) kiritildi.

Tadqiqot usullari. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133^1 va 133^2-moddalari dispozitsiya va sanksiyalarini o‘rganishda formal-huquqiy tahlil, MDH va boshqa xorijiy davlatlar (Moldova, Armaniston, Gruziya, Germaniya, Ispaniya va boshqalar) qonunchiligini solishtirishda qiyosiy-huquqiy usul, milliy sud qarorlarini o‘rganish asosida sud amaliyoti tahlili, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirish orqali doktrinal tahlil kabi ilmiy usullar qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133^1 va 133^2-moddalari “Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar” bo‘limiga joylashtirilgan bo‘lib, mazkur holat qonun chiqaruvchining ushbu jinoiy qilmishlarni **avvalo axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarga qarshi jinoyatlar** sifatida baholaganini anglatadi. Ushbu jinoyatlarning asosiy obyekti sifatida jamiyatda inson a’zolari va to‘qimalarining tovarga aylantirilishini inkor etuvchi axloqiy me’yorlarga rioya qilinishi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar namoyon bo‘ladi.

Inson a’zolari va to‘qimalarining oldi-sotdisi yoki ularni mamlakat hududidan tashqariga noqonuniy olib chiqish jamiyatda shakllangan **axloqiy, gumanistik va insonparvarlik tamoyillariga zid** hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur jinoyatlarda **qo‘shimcha obyektlar** ham mavjud. Jumladan, insonning sog‘lig‘i va fiziologik daxlsizligi, oilaviy qadriyatlar (ayniqsa, qarindoshlardan organ olish holatlarida), sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat boshqaruvi tartibi, jumladan, inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarini transplantatsiya qilishning qonuniy shartlari va tartibini amalga oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar.

V.V.Shavlovskayaning ta’kidlashicha, “Agar tajovuz tirik insonga qaratilgan bo‘lsa, jinoyat obyekti sifatida, shubhasiz, insonning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar namoyon bo‘ladi. Ikkinchi holatda tajovuz murdaga qaratilganida esa, jinoyat obyekti jamoat axloqini muhofaza qilish sohasida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlarda ifodalanadi. Mazkur jinoiy tajovuzlarning predmeti sifatida insonning a’zolari, to‘qimalari, hujayralari, shuningdek embrion hamda insonga tegishli biologik materiallar yoki suyuqliklar namoyon bo‘lishi mumkin” [1; 5-b.].

Mazkur toifadagi jinoyat ishlari bo‘yicha aybdor shaxslarning harakatlarini to‘g‘ri malakalashda **jinoyat predmeti**ni aniqlab olish katta ahamiyatga ega. O‘rganilayotgan

moddaning dispozitsiyasiga koʻra, jinoyat tajovuzi bevosita inson a’zolari va toʻqimalariga qaratilgan.

“Inson a’zolari va toʻqimalarining transplantatsiyasi toʻgʻrisida”gi Qonunga koʻra, **inson a’zosi** — inson organizmida muayyan vazifani bajaruvchi turli xil hujayralar va toʻqimalarning alohida majmui, **inson toʻqimasi** — umumiy kelib chiqishi, tuzilishi va inson organizmida bajaradigan vazifalariga koʻra birlashgan hujayralar hamda hujayralararo moddalar majmui hisoblanadi.

Biroq mazkur holatda oʻrinli savol tugʻiladi: ushbu jinoyatning predmeti sifatida faqat vafot etgan shaxsning a’zolari va toʻqimalari nazarda tutiladimi yoki tirik insonning kelgusida oldi-sotdi predmetiga aylanishi mumkin boʻlgan a’zolari va toʻqimalari ham jinoyat predmeti sifatida baholanishi kerakmi?

Ta’kidlash joizki, amaldagi jinoyat qonunchiligida mazkur jinoyat predmetiga oid aniq va batafsil ta’rif mavjud emasligi huquqni qoʻllovchi organlar tomonidan uni mustaqil talqin qilish holatlariga sabab boʻlmoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyati jinoyat ishlari boʻyicha sudlov hay’ati apellyatsiya instansiyasining 1-1807-2501/93-sonli jinoyat ishi yuzasidan 17.11.2025-yilda chiqarilgan ajrimida [2] inson a’zolari va (yoki) toʻqimalarining oldi-sotdisi deganda, tirik donordan yoki insonning murdasidan olingan a’zolar va (yoki) toʻqimalar uchinchi shaxslarga pul yoxud boshqa moddiy boyliklar (mulk) koʻrinishida, mulkiy xizmatlar evaziga yoki qarzidan voz kechish evaziga berishga qaratilgan ogʻzaki yoki yozma bitim tushunilishi lozimligi qayd etilgan. Mazkur sud amaliyoti jinoyat predmeti doirasi nafaqat murdaga tegishli a’zolar, balki tirik insonga tegishli, kelgusida aylanmaga kiritilishi mumkin boʻlgan a’zolar va toʻqimalarni ham qamrab olishi mumkinligini koʻrsatadi.

JK 133^1-moddasida nazarda tutilgan jinoyat (Inson a’zolarining va (yoki) toʻqimalarining oldi-sotdisi)ning **obyektiv tomoni** inson a’zolari va (yoki) toʻqimalarini qonunga xilof ravishda sotish, sotib olish yoki bunday bitimlarda vositachilik qilish kabi harakatlar orqali ifodalanadi.

Mazkur harakatlarning mazmunini ochib berishda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi “Odam savdosiga oid ishlar boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida”gi qarorida berilgan huquqiy tushunchalar [3; 1-b.] muhim metodologik ahamiyatga ega boʻlib, unga muvofiq, **oldi-sotdi** deganda muayyan obyektni (odam yoki boshqa qonun bilan muhofaza qilinadigan qadriyatni) pul, boshqa moddiy qimmatliklar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar, qarzdan voz kechish yoki shu kabi manfaatlar evaziga berilishi haqida ogʻzaki yoki yozma bitim tuzilishi nazarda tutilgan.

Yuqorida keltirilgan sud ajrimi tahlili shuni koʻrsatadiki, amalda sud amaliyotida inson a’zolari va (yoki) toʻqimalarining oldi-sotdisi tushunchasini talqin qilishda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi qarorida bayon etilgan huquqiy yondashuvlar asos qilib olinmoqda.

Ayrim olimlar ushbu jinoyatning obyektiv tomoni inson a’zolari va toʻqimalarini sotib olish, realizatsiya qilish, saqlash, transportirovka qilish yoki yetkazib berish kabi harakatlarda namoyon boʻladi, deb hisoblashadi [4; 6-b.].

Bizning nazarimizda, inson a’zolari va (yoki) toʻqimalarining oldi-sotdisi deganda, a’zoni yoki toʻqimani muayyan haq evaziga topshirish, uni qabul qilib olish yoki ushbu jarayonni tashkil etish va vositachilik qilishni tushunish toʻgʻri hisoblanadi. Bunda bitimning yozma yoki ogʻzaki shaklda tuzilgani, shuningdek haqning toʻliq yoki qisman berilgani jinoyat tarkibining

mavjudligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Muhim jihat shundaki, aybdor tomonlar o‘rtasida moddiy manfaatga asoslangan kelishuv mavjud bo‘lishi yetarli hisoblanadi.

Bu holatda jinoyat **formal tarkib**ga ega bo‘lib, ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqqan-chiqmaganidan, a’zo yoki to‘qima amalda olingan-olinmagani, transplantatsiya amalga oshirilgan-oshirilmaganidan qat’i nazar, harakat sodir etilgan paytdan boshlab tugallangan deb hisoblanadi. Oldi-sotdiga qaratilgan kelishuvning o‘zi jinoyat tarkibini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, Internet tarmog‘ida joylashtirilgan sud qarorlari elektron platformasidagi ma’lumotlarga ko‘ra, sudlarda inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarining oldi-sotdisi bilan bog‘liq jinoyat ishlari 2024-yilda 5 ta, 2025-yilda esa 2 ta holatda ko‘rib chiqilgan. Mazkur ishlar bo‘yicha barcha holatlarda tirik shaxsga tegishli, kelgusida noqonuniy aylanmaga kiritilishi mumkin bo‘lgan buyrak a’zosi jinoyat predmeti sifatida o‘tgan. Shu sababli, sudlar tomonidan aybdor shaxslarning harakatlari jinoyatning tamom bo‘lgan tarkibi sifatida emas, balki suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilingan, chunki amalda inson a’zosini ajratib olish va uni uchinchi shaxsga topshirish bilan bog‘liq harakatlar oxiriga yetkazilmagan. Ya’ni, aybdorlar o‘z qasdlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlarni boshlagan bo‘lsalar-da, jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi asosiy harakat — inson a’zosini real ravishda olish va uni oldi-sotdi obyektiga aylantirish davlat organlari tomonidan barvaqt fosh etilishi yoki boshqa obyektiv sabablar tufayli amalga oshmagan. Sudlar ushbu holatlarda aybdor shaxslarning harakatlarini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 25-moddasi orqali JKning 133^1-moddasi bilan malakalashgan [5].

Shuningdek, Plenum qaroridagi yondashuv mazmunidan kelib chiqib, inson a’zolari va to‘qimalarining oldi-sotdisida transplantatsiya qilish, ilmiy tadqiqotlarda foydalanish yoki yana qanday boshqa maqsadlar bo‘lganligi jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’sir etmaydi. Asosiy belgisi — inson a’zolari va to‘qimalarini tovar sifatida muomalaga kiritish fakti hisoblanadi.

Plenum qarorida vositachilik harakatlari (topshirish, qabul qilish, tashkil etish) ga ham alohida to‘xtalib o‘tilganligidan kelib chiqib, inson a’zolari va to‘qimalarining oldi-sotdisida donor bilan xaridorni bog‘lash, pul ayirboshlashni tashkil etish, tibbiy muassasalar bilan noqonuniy kelishuvlar tuzish kabi harakatlar obyektiv tomonning tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

A.S.Yakimenkoning fikricha, “Vositachilik harakatlarini amalga oshiruvchi shaxslar jinoyat sodir etish holatlariga qarab mazkur jinoyatda dalolatchi yoki yordamchi sifatida e’tirof etilishi mumkin. Vositachilik harakatlari bo‘lajak bitim tomonlarini izlash, ularni o‘zaro tanishtirish, shuningdek bo‘lajak bitimni rasmiylashtirish va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning butun majmuasini o‘z ichiga oladi hamda vositachining ushbu “xizmatlari” uchun haq olishi yoki olmasligidan qat’i nazar, uning harakatlari jinoiy-huquqiy baholanadi” [6; 19-b.].

Bundan tashqari, shuni qayd etish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi “Odam savdosiga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 3-bandi mazmuniga tayanilgan [7; 1-b.] holda, agar shaxs inson a’zolari va to‘qimalarini muayyan haq evaziga topshirishga va’da berib, biroq azaldan uning qasdi bitim shartlarini bajarishga emas, balki moddiy qimmatliklarni egallashga qaratilgan bo‘lsa, bunday harakatlar firibgarlik jinoyati tarkibini tashkil etishligi, bunda esa, haq to‘lash orqali inson a’zolari va to‘qimalarini qo‘lga kiritishga urinayotgan oluvchining harakatlari inson a’zolari va

to‘qimalarining oldi-sotdisi jinoyatiga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozimligi to‘g‘ri hisoblanadi.

Sud amaliyotida aybdor shaxslar tomonidan inson a’zosini sotish niyati bo‘lmagani, balki jabrlanuvchini aldash yo‘li bilan pul mablag‘larini qo‘lga kiritish maqsad qilingani haqida vajlar tez-tez ilgari suriladi. Bunday holatlar yuqoridagi huquqiy pozitsiyaning amaliy ahamiyatini oshiradi hamda jinoyat tarkiblarini to‘g‘ri chegaralash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, inson a’zolari va to‘qimalari bilan bog‘liq muomala faqat mamlakat ichki hududi doirasi bilan cheklanib qolmasdan, ularni mamlakat hududidan tashqariga olib chiqish orqali transchegaraviy xususiyat kasb etishi ham mumkin. Ana shu holatlarni jinoyat-huquqiy jihatdan qamrab olish, jinoyatning xalqaro xususiyat kasb etish xavfini kamaytirish hamda transplantatsion turizmning oldini olish maqsadida qonun chiqaruvchi Jinoyat kodeksining 133^2-moddasida alohida jinoyat tarkibini belgilagan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133^2-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining **obyektiv tomoni**ni talqin qilishda mazkur norma insonning transplantatsiya qilinadigan a’zolari va (yoki) to‘qimalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqishning o‘zi qonunga xilof ekanini nazarda tutadi, xususan, qonun chiqaruvchi mazkur modda dispozitsiyasida bojxona tartibini buzish, kontrabanda yoki chegaradan noqonuniy o‘tish kabi belgilarni maxsus ko‘rsatmagani, jinoiy javobgarlikni harakatning shakliga emas, balki inson a’zolari va to‘qimalarining qonunga muvofiq mulkiy muomala predmeti hisoblanmasligiga bog‘laganidan dalolat beradi.

Biroq bizning fikrimizcha, bunday yondashuvni to‘liq maqbul deb aytib bo‘lmaydi. Chunki mazkur modda dispozitsiyasida insonning transplantatsiya qilinadigan a’zolari va (yoki) to‘qimalarini O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqish qonunchilik bilan taqiqlanganligi sababli uning qonunga xilof ekanligi alohida ifodalanishi lozim. Shuningdek, amalda qonunchilikda mavjud bo‘lgan bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga noqonuniy olib kirish uchun ham jinoiy javobgarlikni nazarda tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu borada xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida (jumladan, Moldova, Gruziya va Qirg‘izistonda) inson a’zolari va to‘qimalarining noqonuniy eksporti bilan bir qatorda importi uchun ham teng darajada jinoiy javobgarlik belgilangani transchegaraviy noqonuniy aylanmaning barcha shakllarini qamrab olishga xizmat qiladi.

JKning 133^1 va 133^2-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning **subyekti** umumiy subyekt hisoblanadi, ya’ni jinoyatni 16 yoshga yetgan, aqli raso jismoniy shaxslar sodir etishi mumkin, ayrim hollarda maxsus subyekt (tibbiyot xodimlari, mansabdor shaxslar) ham bo‘lishi mumkin.

Amaliyot va kriminologik tahlil ushbu jinoyatlarning muayyan tipik subyektlar guruhi mavjudligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, subyektlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) Bevosita ijrochi subyektlar — inson a’zolari va to‘qimalarini oldi-sotdisida bevosita ishtirok etuvchi yoki ularni mamlakat hududidan tashqariga chiqaruvchi shaxslar (donor, retsipiyent, tashuvchi, topshiruvchi).

2) Vositachi subyektlar — donor, xaridor va tibbiy muassasalar o‘rtasida aloqa o‘rnatuvchi, kelishuvni tashkil etuvchi yoki moliyaviy operatsiyalarni muvofiqlashtiruvchi shaxslar (brokerlar, yordamchilar).

3) Tibbiyot sohasidagi maxsus subyektlar — tibbiyot xodimlari, laboratoriya mutaxassislari, klinika xodimlari bo‘lib, ular o‘z kasbiy bilim va imkoniyatlaridan qonunga xilof ravishda foydalangan holda jinoyatga ko‘maklashishi mumkin.

4) Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a’zolari — ushbu qilmishlarni tizimli, rejali va daromad olish maqsadida sodir etuvchi shaxslar guruhi.

Ushbu jinoyatlar **to‘g‘ridan-to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor shaxs o‘z harakatlarining qonunga xilof ekanini va ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi, ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqish ehtimoli yoki muqarrarligini oldindan biladi hamda ularning yuz berishini istaydi yoki ularga ongli ravishda yo‘l qo‘yadi.

JK 133^1 va 133^2-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda aksariyat holatlarda **moddiy manfaatdorlik** jinoyatning rag‘batlantiruvchi motivi sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa uning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradi. Inson a’zolari va to‘qimalarining oldi-sotdisi yoki ularni mamlakat hududidan tashqariga chiqarish ko‘p hollarda pul mablag‘lari, boshqa mulkiy qimmatliklar yoki iqtisodiy foyda olishga qaratilgan bo‘lib, inson tanasini tovar sifatida muomalaga kiritishga urinish bilan ifodalanadi. Ushbu jinoiy qilmishlar **xizmat yoki kasbiy manfaat** motivi bilan ham sodir etilishi mumkin. Xususan, tibbiy xodimlar yoki sohaga aloqador shaxslar o‘z kasbiy bilimlari va imkoniyatlaridan foydalangan holda noqonuniy transplantatsiya zanjirida ishtirok etishi mumkin.

Mazkur yo‘nalishda MDH va boshqa xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilish bir qator umumiy va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekiston singari MDH mamlakatlari bir qismining jinoyat qonunchiligida inson a’zolarining va (yoki) to‘qimalarining oldi-sotdisi uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lsa (masalan, Gruziya, Moldovada), ayrimlarida ushbu jinoyat inson a’zolarining va (yoki) to‘qimalarini olish va transplantatsiya qilish tartibini buzish, inson roziligini olishga majburlash bilan bog‘liq boshqa jinoyat tarkiblari ichida keltirilgan (masalan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Armaniston, Ukraina), MDHning qolgan mamlakatlarida (Rossiya, Tojikiston, Belarus va h.q.) esa ushbu turdagi jinoyat uchun umuman jinoiy javobgarlik belgilanmagan.

Shu bilan birga, Moldova va Armaniston jinoyat kodekslarida inson a’zolari va to‘qimalarining noqonuniy muomalasi “oldi-sotdi” tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, unga keng qamrovli mazmunda ta’rif berilgan. Xususan, Moldova Respublikasining Jinoyat kodeksida inson a’zolari va to‘qimalarini sotish va sotib olishdan tashqari, ularni talon-toroj qilish, noqonuniy foydalanish, saqlash, egalik qilish, o‘tkazish, olish, import va eksport qilish hamda transportirovka qilish kabi harakatlar ham “oldi-sotdi” mazmuniga kiritilgan. Armaniston jinoyat qonunchiligida esa inson a’zolari va to‘qimalarini egallash, realizatsiya qilish, saqlash va transportirovka qilish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladigan harakatlar sifatida belgilangan bo‘lib, oldi-sotdi predmeti doirasi faqat organ va to‘qimalar bilan cheklanmasdan, biologik materiallar, biologik suyuqliklar hamda inson organizmining boshqa fragmentlarini ham qamrab olgan.

Qirg‘iziston qonunchiligida esa inson a’zolari va to‘qimalarining savdosi va ularni chet elga olib chiqish jinoyatning **og‘irlashtiruvchi belgisi** sifatida baholanadi, ammo alohida modda darajasida belgilanmagan.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining o‘ziga xos xususiyati inson a’zolari va to‘qimalarining oldi-sotdisini (133^1-modda) hamda ularni

mamlakat hududidan tashqariga noqonuniy olib chiqishni (133^2-modda) ikki mustaqil jinoyat tarkibi sifatida alohida normalarda mustahkamlaganida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv inson a’zolari va to‘qimalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishda jinoiy-huquqiy muhofazaning profilaktik va preventiv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yana shuni qayd qilish kerakki, MDH mamlakatlari ichida faqat Moldovada inson a’zolari, to‘qimalari va (yoki) hujayralarini noqonuniy olish maqsadida reklama qilish, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali inson a’zolari, to‘qimalari va (yoki) hujayralarining noqonuniy donorligiga oid e’lonlar berish yoki tarqatish uchun jinoiy javobgarlik (JK 213^1-moddasi) belgilangan.

Sud amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida ham inson a’zolari, to‘qimalari va (yoki) hujayralarini noqonuniy olish maqsadida reklama qilish, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali ularning noqonuniy donorligiga oid e’lonlar berish yoki tarqatish holatlari mavjud. Ayniqsa, bu kabi qonunga xilof faoliyatning “Telegram” ijtimoiy tarmog‘i orqali fuqarolar orasida keng avj olgani tashvish uyg‘otadi. Xususan, “Buyrak pochka”, “Zagran bor +1”, “Buyrak.uz”, “Buyrak sotish pochka sotish”, “Buyrak jigar sotish sotib olish”, “Pochka buyrak transplantologiya”, “Buyrak sotish va sotib olish” kabi guruhlarning mavjudligi qayd etilib, jinoiy guruh unsurlari aynan shunday elektron platformalar orqali mijozlar topib, inson a’zolari savdosi bilan shug‘ullanish holatlari aniqlangan.

Bundan tashqari, inson tanasidan tijorat maqsadlarida foydalanishning oldini olish maqsadida xalqaro huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Masalan, 2002-yil 24-yanvar kuni Strasburg shahrida Inson huquqlari va biomeditsina to‘g‘risidagi Konvensiyaga inson a’zolari va to‘qimalarini transplantatsiya qilishga oid 186-sonli Qo‘shimcha protokol qabul qilingan. Ushbu protokolning 6-bobi 21-moddasida moliyaviy foyda olish taqiqlanishi belgilangan. Xususan, unda “inson tanasi va uning qismlari moliyaviy foyda yoki unga tenglashtirilgan boshqa manfaatlarni olish maqsadida qo‘llanilishi mumkin emas. Moliyaviy foyda yoki unga tenglashtirilgan manfaatlarni taklif qilish yoki olish maqsadida a’zolar yoki to‘qimalarga ehtiyoj mavjudligi yoxud ularning mavjudligi haqida e’lonlar berish taqiqlanadi”, deb belgilangan [8; 137-b.].

Protokolning 22-moddasiga muvofiq esa “inson a’zolari va to‘qimalari bilan savdo qilish taqiqlanadi” [9].

Inson a’zolari savdosi korrupsiyani qo‘llab-quvvatlovchi va katta moliyaviy daromad keltiradigan omillardan biri hisoblanadi, shu bilan birga u yuqori darajada latent xarakterga ega. Bunday jinoiy faoliyat, qoida tariqasida, yakka tartibda emas, balki uyushgan jinoiy guruhlar tarkibida amalga oshiriladi [10; 108-b.].

Inson a’zolarini transplantatsiya qilishni tartibga soluvchi yana asosiy xalqaro hujjatlardan biri — “Inson a’zolari savdosi va transplantatsion turizm to‘g‘risidagi Istanbul deklaratsiyasi” (Istanbul Declaration on Organ Trafficking and Transplant Tourism) hisoblanadi. Ushbu deklaratsiya 2008-yilda qabul qilingan bo‘lib, organlar savdosining barcha shakllarini qoralaydi hamda davlatlarni ushbu noqonuniy harakatlarning oldini olishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishga da’vat etadi.

Shuningdek, inson a’zolari savdosining global tahdidiga qarshi samarali kurashish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida 2015-yilda Yevropa Kengashi doirasida birinchi xalqaro shartnoma — Inson a’zolari savdosiga qarshi Yevropa Kengashi Konvensiyasi

(Santyago-de-Kompostela, 25.03.2015) qabul qilindi. Ushbu Konvensiyada ilk bor inson a'zolarini har qanday shaklda tijoratlashtirish qat'iy taqiqlangan bo'lib, ularni oldi-sotdisi, moliyaviy foyda olish, shu jumladan donor yoki uchinchi shaxslar manfaati uchun haq olish mumkin emasligi mustahkamlangan.

Santyago-de-Kompostela Konvensiyasi milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy javobgarlik belgilash masalasini ko'rib chiqishni taklif etib, inson a'zolarining noqonuniy aylanmasining barcha asosiy shakllarini qamrab oladi. Xususan, noqonuniy olingan a'zolardan transplantatsiya maqsadida foydalanish, milliy transplantatsiya tizimidan tashqari yoki asosiy qoidalarni buzgan holda implantatsiya qilish, noqonuniy xizmatlarni majburlab taklif etish yoki verbovka qilish, shuningdek inson a'zolarini dastlabki tayyorlash, konservatsiyalash, saqlash, transportirovka qilish, o'tkazish, olish, import va eksport qilish kabi harakatlar jinoiy javobgarlik doirasiga kiritilgan (Konvensiyaning 4-modda 1-qismi, 5, 7, 8 va 9-moddalari) [11].

Shundan kelib chiqib, "inson a'zolari savdosi" tushunchasi mazmunan inson a'zolarining noqonuniy aylanmasi tushunchasiga teng ekani xulosa qilinadi. Bunday aylanmani huquqiy kvalifikatsiya qilishda inson a'zolarining huquqiy maqomi, ularning muomalasiga oid huquqiy jihatlar hamda belgilangan tartib-qoidalarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi [12; 100-101-b.].

Deyarli barcha xorijiy mamlakatlarda (Erondan tashqari [13; 275-b.]) inson a'zolaridan noqonuniy va tijorat maqsadlarida foydalanish uchun javobgarlik belgilangan.

Masalan, **Ispaniya** Jinoyat kodeksining 156-moddasiga muvofiq, inson a'zolari savdosi deganda, inson a'zolarini noqonuniy olish; noqonuniy olingan inson a'zolarini saqlash, transportirovka qilish, eksport va import qilish; shuningdek noqonuniy olingan inson a'zolaridan foydalanish kabi harakatlar tushuniladi. Shu bilan birga, Ispaniya qonunchiligida hanuzgacha transplantatsiya obyekti hisoblangan inson a'zolarining to'liq ro'yxati mustahkamlanmaganligi, Jinoyat kodeksida inson a'zolaridan tashqari inson to'qimalari hamda organizmning turli fiziologik suyuqliklari savdosi uchun jinoiy javobgarlik belgilanmaganligi kabi bo'shliqlar aniqlangan [14; 216-b.].

Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksida inson a'zolari savdosi uchun jinoiy javobgarlik 1997-yil 5-noyabrda qabul qilingan "Inson a'zolari va to'qimalarini donorlik, olish va transplantatsiya qilish to'g'risida"gi Qonunga asoslangan holda belgilangan, Xitoy Xalq Respublikasining 1979-yilgi (1997-yildagi tahririda) Jinoyat kodeksi 234-moddasida inson a'zolarini sotishni tashkil etish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Yoki Shveysariyada 2004-yilgi "Inson a'zolari, to'qimalari va hujayralarini transplantatsiya qilish to'g'risida"gi Federal qonun qabul qilinib, unda inson a'zolari, to'qimalari va hujayralari savdosiga taqiq belgilangan bo'lsada, ushbu taqiqni ta'minlash uchun yetarli darajada jinoyat-huquqiy asoslar nazarda tutilmagan [15; 194-196-b.].

Bundan tashqari, qonun chiqaruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133^1-moddasi ikkinchi qismida inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisi jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradigan ayrim og'irlashtiruvchi holatlar belgilangan bo'lib, mazkur qilmish takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, shuningdek bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan taqdirda, aybdor shaxslarning harakatlari jinoyatning og'irlashtirilgan tarkibi sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, MDH davlatlari jinoyat qonunchiligining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova va boshqa ayrim mamlakatlar jinoyat

kodekslarida inson a’zolari va to‘qimalari oldi-sotdisi bilan bog‘liq jinoyatlarda og‘irlashtiruvchi holatlar ancha keng va detallashtirilgan tarzda nazarda tutilgan. Xususan, mazkur jinoyatning voyaga yetmagan shaxsga nisbatan, homiladorligi aybdorga oldindan ma’lum bo‘lgan shaxsga nisbatan, mansab mavqeyini suiiste’mol qilish yo‘li bilan yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilishi alohida og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu yondashuv jinoyatning yuqori ijtimoiy xavfliligini to‘laroq aks ettirishga qaratilgan.

A.Binakulovning fikricha, inson a’zolari va to‘qimalarining oldi-sotdisi jinoyatining og‘irlashtiruvchi holatlari sifatida jinoyatning g‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlarda, xizmat mavqeyidan foydalangan holda, takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilishini, shuningdek, o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan, o‘ta xavfli retsidivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilganini kiritishni taklif qilgan [16; 110-b.].

Shu tariqa, MDH davlatlari jinoyat qonunchiligining qiyosiy tahlili inson a’zolari va (yoki) to‘qimalarining oldi-sotdisi bilan bog‘liq jinoyatlarda og‘irlashtiruvchi holatlarni keng va tizimli tarzda belgilash jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqroq differensiatsiya qilish, aybdor shaxsning qilmishiga adolatli huquqiy baho berish shaxsni kuchliroq muhofaza qilish imkonini yaratishini ko‘rsatadi. Mazkur ilg‘or tajribani O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga joriy etish inson a’zolari va to‘qimalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga hamda ushbu jinoyat tarkibini yanada takomillashtirishga imkon beradi.

Muhokama. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida inson a’zolari va to‘qimalarining noqonuniy muomalasi jinoyat tarkibi keng va kompleks tarzda shakllantirilgan bo‘lib, unda faqat oldi-sotdi emas, balki saqlash, tashish, import va eksport, shuningdek vositachilik va noqonuniy donorlikka oid reklama qilish kabi harakatlar ham mustaqil jinoiy ahamiyatga ega deb e’tirof etilgan. Milliy qonunchilikda esa ushbu jinoyatlarning og‘irlashtiruvchi holatlari va zamonaviy shakllari cheklangan tarzda ifodalangani sababli, voyaga yetmaganlar yoki ojiz ahvoldagi shaxslar manfaatlarini himoya qilish, xizmat mavqeyini suiiste’mol qilish, uyushgan guruh faoliyati, shuningdek transplantatsion turizm, internet orqali reklama va vositachilik kabi ijtimoiy xavfli ko‘rinishlarni to‘liq qamrab olish imkoniyati yetarli emas, bu esa milliy jinoyat qonunchiligini qiyosiy tajriba asosida yanada takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, bizning fikrimizga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133^1 va 133^2-moddalarini yangi tahrirda quyidagicha bayon etish hamda Jinoyat kodeksiga yangi tahrirdagi 133^3-moddasini qo‘shimcha kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

«133^1-modda. Inson a’zolarini, to‘qimalarini, hujayralarini va (yoki) inson organizmining boshqa qismlarining oldi-sotdisi

Inson a’zolari, to‘qimalari, hujayralari va (yoki) inson organizmining boshqa qismlarini qonunga xilof ravishda pul yoki boshqacha moddiy manfaat evaziga sotib olish, sotish (realizatsiya qilish) yoki bunda vositachilik qilish, shuningdek, ularni qabul qilish, topshirish, ularni tashish, olib yurish, jo‘natish, saqlash, yashirish yohud ularning oldi-sotdisi xususidagi kelishuvga erishish bilan bog‘liq har qanday faoliyat, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan;

b) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan;

v) o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa;

g) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

d) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;

ye) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan yoxud ilgari ushbu Kodeksning 115[1], 133, 133[2], 135, 137-моддаларида nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —

sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi»;

«133[2]-modda. Insonning transplantatsiya qilinadigan a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish

Insonning transplantatsiya qilinadigan a’zolarini va (yoki) to‘qimalarini qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi»;

Furthermore, Article 2 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Prosecutor's Office" [12] defines the core functions of prosecutorial bodies as ensuring the supremacy of law, strengthening legality, protecting the rights and freedoms of citizens, safeguarding the legally protected interests of society and the state, defending the constitutional order, and preventing offenses.

It should be noted that enforcement measures represent the final stage of supervision. At the initial stage, it is essential to study and analyze the mechanisms, causes, and conditions that give rise to violations, improve legislation accordingly, and enhance legal awareness among all participants in land relations to prevent future offenses.

Analytical data show that as a result of reforms implemented in recent years, more than 3 thousand criminal cases have been initiated for violations of land legislation, the majority of which relate to unauthorized occupation of land plots. In order to eliminate such violations and ensure their prevention, as well as to raise public legal awareness in land use matters, it appears appropriate to introduce relevant amendments and additions to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

In particular, Laws No. URQ-526 [13] of March 4, 2019, and No. URQ-708 [14] of August 16, 2021, introduced separate criminal provisions into the Criminal Code [15] establishing liability for failure to prevent the unauthorized occupation of irrigated land *(Article 197^1)* and for the sale or other unlawful transfer of rights to irrigated land plots or parts thereof *(Article 229^6).* Additionally, Articles 196, 197, 229^1, 229^4, and 229^5 of the Criminal Code establish criminal liability for land pollution, violations of land and subsoil use conditions, unauthorized occupation of land plots, violations of land allocation procedures, and unlawful seizure of land.

However, despite the strategic importance of agricultural land plots, specific criminal liability for violations involving agricultural land as a distinct category has not been established, which warrants critical consideration. Given this, and taking into account the strategic significance of such land, it is proposed to strengthen liability not only in respect of irrigated land, but also for violations of legislation aimed at protecting land plots originally designated for agricultural purposes, through amendments to Articles 197^1, 229^6, as well as Part 2 of Article 229^1 and subparagraph "b" of Part 2 of Article 229^4 of the Criminal Code.

In conclusion, we believe that eliminating these problems through further improvement of legislation will contribute to the preservation and protection of agricultural land plots, enhance legal awareness among land users, prevent future violations, and ultimately ensure the effective organization of prosecutorial supervision in this field.

References/Adabiyotlar/Литература:

1. Абдухакимов М.Т. Ўзбекистон Республикасида ер тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ижроси устидан прокурор назоратининг ҳуқуқий тартибга солиниши // “Узбекистан-2030: наука, образование и экономика в развитии”, https://inlibrary.uz/index.php/uzbekistan-science-education/article/view/24417, - 2023., -№1. -3–19
2. Electronic source: www.lex.uz
3. Пўлатов Б., Шеркулова Т., Мирзокиров Ш. “Қонунлар ижроси устидан прокурор назоратини ташкил қилиш ва прокурор назоратининг наъмунавий ҳужжатлар тўплами”, Амалий-услубий қўлланма, Тошкент – 2013.
4. The Constitution of the Republic of Uzbekistan // National Database of Legislation, 01.05.2023, No. 03/23/837/0241
5. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 11.03.2004, No. DP-3406 "On Additional Measures to Ensure the Implementation of Laws Aimed at Reforming the Agricultural Sector” // National Database of Legal Acts, 28.09.2020, No. 06/20/6075/1330
6. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 24, 2014, No. UP-4636 “On Measures to Further Improve the System of Ensuring the Implementation of Legislation” // Collection of Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan, 2016, No. 32, Art. 387.
7. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated 18.03.2020, No. RP-4643 “On Measures to Further Improve the Management System of the Agricultural and Food Sectors” // National Database of Legal Acts, 19.03.2020, No. 07/20/4643/0332
8. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated 21.02.2022, No. RP-138 "On Measures to Increase the Effectiveness of State Control Over the Use of Land Parcels" // National Database of Legislation, 22.02.2022, No. 07/22/138/0153
9. Summary Report of the Department for the Prevention of Misappropriation of Land Resources
10. The Constitution of the Republic of Uzbekistan // National Database of Legislation, 01.05.2023, No. 03/23/837/0241
11. Land Code of the Republic of Uzbekistan // National Database of Legislation, 05.05.2025, No. 03/25/1062/0410
12. Ашиткова Т.В. Прокурорский надзор за исполнением земельного законодательства // Диссертация. Спец. 12.00.11. Москва. 2008. -С. 175
13. Law of the Republic of Uzbekistan “On the Prosecutor's Office” // National Database of Legislation, 15.08.2025, No. 03/25/1081/0738
14. Law of the Republic of Uzbekistan dated 04.03.2019, No. LRU-526 “On Amending and Supplementing Certain Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan in Connection with the Strengthening of Liability for Violations of Land Legislation” // National Database of Legal Acts, 08.01.2020, No. 03/20/601/0025
15. Law of the Republic of Uzbekistan dated 16.08.2021, No. LRU-708 “On Amending and Supplementing Certain Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan in Connection with the Improvement of the System of Allocation and Utilization of Land Parcels, as well as Land Accounting and Maintenance of the State Land Cadastre” // National Database of Legislation, 16.11.2021, No. 03/21/728/1046
16. Criminal Code of the Republic of Uzbekistan // National Database of Legislation, 28.11.2025, No. 03/25/1098/1103

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

HOST SECURITY ASSESSMENT BASED ON MACHINE LEARNING METHODS: DEVELOPMENT OF MODELS AND ALGORITHMS

Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o‘g‘li,
Senior Specialist at the Cybersecurity Center,
Operational-Search Department,
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
E-mail: m3331313m@gmail.com

Abstract. The article proposes a machine learning–based approach for assessing host-level cybersecurity. Traditional signature-based and rule-based protection mechanisms are limited in detecting new and unknown threats. The proposed model analyzes system logs, resource usage metrics, and network activity to evaluate the cybersecurity state of a host. Classification and anomaly detection methods are used to automatically determine the cyber risk level, improving the effectiveness of information security systems.

Keywords: cybersecurity, host security, machine learning, anomaly detection, information systems.

MASHINALI O‘QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH

Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. Maqolada xost darajasidagi axborot tizimlarining kiberxavfsizlik holatini baholash uchun mashinali o‘qitish usullariga asoslangan yondashuv taklif etilgan. An’anaviy qoidalarga va signaturalarga asoslangan himoya vositalari yangi va noma’lum tahdidlarni aniqlashda samarasiz bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, tizim jurnallari, resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari va tarmoq faoliyati ma’lumotlari asosida intellektual baholash modeli ishlab chiqildi. Klassifikatsiya va anomaliyalarni aniqlash algoritmlari yordamida xostning kiberxavf darajasini avtomatik baholash imkoniyati yaratildi. Taklif etilgan yondashuv amaldagi kiberhimoya tizimlarini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: kiberxavfsizlik, xost xavfsizligi, mashinali o‘qitish, anomaliyalarni aniqlash, axborot tizimlari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N54

Kirish. Raqamli transformatsiya sharoitida axborot tizimlarining barqaror va ishonchli ishlashi kiberxavfsizlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy axborot infratuzilmalarida xost darajasidagi resurslar ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatishning asosiy nuqtasi sifatida shakllanib, kiberhujumlarning ustuvor obyektiga aylanmoqda. Xostlarga yo‘naltirilgan kiberhujumlar tizimlarning izdan chiqishiga, maxfiy axborotning buzilishi yoki oshkor bo‘lishiga hamda sezilarli iqtisodiy zararlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda.[1]

Amaliyotda xost kiberxavfsizligini ta’minlashda qo‘llanilayotgan an’anaviy himoya mexanizmlari asosan signatura va qoidalarga asoslangan yondashuvlarga tayangan holda faoliyat yuritadi. Mazkur yondashuvlar ma’lum tahdidlarni aniqlashda muayyan

samaradorlikka ega bo‘lsa-da, kiberxavflarning tezkor evolyutsiyasi va hujum usullarining doimiy modifikatsiyalanishi ularning imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo‘ymoqda. Natijada yangi, noma’lum va nol kunlik hujumlarni aniqlashda mavjud tizimlar yetarli aniqlikni ta’minlay olmayapti. [2]

Shu munosabat bilan xost kiberxavfsizligini baholashda katta hajmdagi geterogen ma’lumotlarni tahlil qilish, yashirin bog‘lanishlarni aniqlash va xavf darajasini prognozlash imkonini beruvchi intellektual yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Mashinali o‘qitish usullari ushbu vazifalarni amalga oshirish imkonini beruvchi istiqbolli vosita sifatida namoyon bo‘lib, kiberxavfsizlikni ta’minlashda reaktiv yondashuvdan proaktiv yondashuvga o‘tish uchun metodologik asos yaratadi [3].

Mazkur tadqiqotning maqsadi mashinali o‘qitish usullariga asoslangan holda xost darajasidagi kiberxavfsizlik holatini baholash modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida xost darajasidagi axborot tizimlarining kiberxavfsizlik holati tanlangan bo‘lsa, tadqiqot predmeti mashinali o‘qitish usullari yordamida xost xavfsizligini baholash modellari va algoritmlarini tashkil etadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy axborot tizimlarida xost kiberxavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi xost darajasidagi kiberxavfsizlikni baholashda nazoratli va nazoratsiz mashinali o‘qitish usullarini integratsiyalashgan holda qo‘llash, shuningdek, tizim jurnallari, resurslardan foydalanish va tarmoq faoliyati ma’lumotlarini yagona baholash modeli doirasida kompleks tahlil qilish yondashuvini taklif etishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida xost kiberxavfsizligini baholashga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli va funksional yondashuvlar tashkil etib, ular xost darajasidagi kiberxavfsizlikni yaxlit jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi.

Xost kiberxavfsizligini baholashda mashinali o‘qitish usullari asosiy metodik vosita sifatida qo‘llanildi. Tadqiqot doirasida nazoratli va nazoratsiz mashinali o‘qitish usullaridan foydalanilib, ular orqali xost faoliyatini tavsiflovchi ma’lumotlar klassifikatsiya va anomaliyalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Bu yondashuv xost holatini xavfsiz va xavfli holatlarga ajratish hamda noma’lum tahdidlarni aniqlash imkonini berdi. [4]

Tahlil jarayonida operatsion tizim jurnallari, resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari hamda tarmoq faoliyatiga oid parametrlar ma’lumotlar bazasi sifatida tanlandi. Ma’lumotlarni qayta ishlash bosqichida ularni tozalash, normallashtirish va strukturaviy moslashtirish usullaridan foydalanildi, bu esa baholash modelining aniqligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi. [5]

Shuningdek, tadqiqotda mantiqiy tahlil, taqqosiy tahlil va umumlashtirish usullari yordamida taklif etilayotgan baholash modelining funksional imkoniyatlari va amaliy samaradorligi asoslab berildi. Olingan natijalar xost darajasidagi kiberxavfsizlikni baholashda mashinali o‘qitish usullarini qo‘llashning maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari mashinali o‘qitish usullariga asoslangan yondashuv xost darajasidagi kiberxavfsizlik holatini baholashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. [6] Taklif etilgan model xost faoliyatini tavsiflovchi turli manbalardan olingan ma’lumotlarni — operatsion tizim jurnallari, resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari hamda

tarmoq faoliyatiga oid parametrlarni kompleks tahlil qilish orqali xavf darajasini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ma’lumotlarni kompleks va integratsiyalashgan holda tahlil qilish xost kiberxavfsizligini baholash aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Alohida olingan ma’lumot manbalari xost holatini to‘liq tavsiflab bera olmasligi aniqlangan bo‘lsa, ularni birlashtirish orqali xost faoliyatidagi normal va noodatiy holatlar o‘rtasidagi farq aniqroq namoyon bo‘ldi. Bu holat baholash modelining ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida nazoratli va nazoratsiz mashinali o‘qitish usullarini birgalikda qo‘llash xost faoliyatidagi xavfli holatlarni aniqlash samaradorligini oshirishi aniqlandi. Nazoratli mashinali o‘qitish usullari yordamida xost holatini xavfsiz va xavfli sinflarga ajratish imkoniyati yaratildi. Bu esa xavfsizlik mutaxassislariga xostning joriy holatini tezkor baholash va ustuvor choralarni belgilash imkonini berdi.

Nazoratsiz mashinali o‘qitish usullari asosida esa xostning normal faoliyat profili shakllantirildi va undan og‘ish holatlari anomaliya sifatida aniqlanishi ta’minlandi. Mazkur yondashuv oldindan ma’lum bo‘lmagan va nol kunlik hujumlarni aniqlashda ayniqsa samarali hisoblanadi.[7] Bu holat an’anaviy signatura va qoidalarga asoslangan tizimlar uchun muhim cheklov bo‘lib kelgan muammoni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Klassifikatsiya usullarini qo‘llash orqali xost holatini bir nechta xavf darajalariga ajratish imkoniyati yaratildi. Bu natija xost kiberxavfsizligini baholashni faqat ikkilik (“xavfsiz” yoki “xavfli”) yondashuvdan chiqarib, ko‘p darajali baholash tizimini shakllantirish imkonini berdi. Natijada xavf darajasiga mos ravishda himoya choralarini differensial tarzda qo‘llash imkoniyati yuzaga keldi.

Modelning muhim natijalaridan yana biri uning dinamik xususiyatga egaligidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, model yangi kiruvchi ma’lumotlar asosida muntazam ravishda qayta o‘qitilishi mumkin bo‘lib, muhitdagi o‘zgarishlarga tez moslashadi. Bu esa xost kiberxavfsizligini baholash jarayonini statik emas, balki dinamik holga keltiradi va uzoq muddatli qo‘llash imkonini beradi.

Shuningdek, real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati modelning amaliy ahamiyatini oshirdi. Xost faoliyatidagi resurslardan foydalanishdagi keskin o‘zgarishlar yoki tarmoq trafigidagi noodatiy faollik xavfli holatlarning dastlabki belgisi sifatida aniqlanishi mumkin. Bu esa xavfsizlik insidentlariga ularning yuzaga kelishidan oldin yoki dastlabki bosqichида javob berish imkonini yaratadi.

Model natijalarini interpretatsiya qilishga oid yondashuv ham tadqiqot natijalari qatorida muhim o‘rin egalladi. Xavf darajalarini tushunarli kategoriyalar orqali ifodalash axborot xavfsizligi mutaxassislariga model chiqargan xulosalarni tez va aniq qabul qilish imkonini berdi. Bu holat avtomatlashtirilgan baholash mexanizmlariga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qildi.

Taklif etilgan mashinali o‘qitishga asoslangan yondashuv an’anaviy himoya vositalari bilan integratsiya qilingan holda qo‘llanilganda yanada yuqori samaradorlikka erishiladi.[8] Bunday integratsiya natijasida kompleks kiberhimoya tizimi shakllanib, ma’lum va noma’lum tahdidlarni aniqlash imkoniyatlari kengayadi.

Olingan natijalar amaliy jihatdan axborot xavfsizligi mutaxassislari tomonidan xost darajasidagi kiberxavflarni monitoring qilish, xavf darajasini baholash va ustuvor himoya choralarini belgilash jarayonlarida qo‘llanishi mumkin. Taklif etilgan model korporativ va

davlat axborot tizimlarida mavjud kiberhimoya vositalarini to‘ldiruvchi intellektual komponent sifatida foydalanish imkonini beradi.

Muhokama. Olingan natijalar xost darajasidagi kiberxavfsizlikni baholashda mashinali o‘qitish usullarining nazariy va amaliy ustunliklarini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, an’anaviy signatura va qoidalarga asoslangan himoya mexanizmlari ma’lum tahdidlarni aniqlashda samarali bo‘lsa-da, kiberxavflarning tezkor evolyutsiyasi sharoitida ularning moslashuvchanligi yetarli darajada emas. Mashinali o‘qitishga asoslangan yondashuv esa ma’lumotlarga tayangan holda xost faoliyatidagi o‘zgarishlarni dinamik tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, xost kiberxavfsizligini baholashda ma’lumotlarning yagona manbaga tayanib tahlil qilinishi cheklangan natijalarga olib keladi. Operatsion tizim jurnallari, resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari va tarmoq faoliyatiga oid parametrlarni birgalikda tahlil qilish xost holatini yanada to‘liq va aniq tavsiflash imkonini yaratadi. Bu holat xost faoliyatidagi normal va noodatiy holatlar o‘rtasidagi farqni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazoratli va nazoratsiz mashinali o‘qitish usullarini integratsiyalashgan holda qo‘llashning afzalliklari muhokama jarayonida yaqqol namoyon bo‘ldi. Nazoratli usullar ma’lum hujum ssenariylari asosida xost holatini tasniflash imkonini bergan bo‘lsa, nazoratsiz usullar normal faoliyatdan og‘ishlarni aniqlash orqali noma’lum tahdidlarni aniqlashga xizmat qildi. Ushbu ikki yondashuvning uyg‘unligi xost kiberxavfsizligini baholash jarayonida muvozanatli va ishonchli natijalarga erishish imkonini beradi.

Klassifikatsiya va anomaliyalarni aniqlash usullarining birgalikda qo‘llanilishi yolg‘on musbat natijalar sonini kamaytirishga yordam beradi. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, faqat klassifikatsiyaga asoslangan yondashuv ayrim hollarda xost faoliyatidagi normal o‘zgarishlarni xavfli holat sifatida noto‘g‘ri baholashi mumkin. Anomaliyalarni aniqlash mexanizmlarining qo‘shilishi esa bunday holatlarni aniqlashtirish va baholash aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Modelning dinamik va moslashuvchan xususiyati muhokama qilinayotgan yondashuvning muhim ustun jihatlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, modelning yangi ma’lumotlar asosida qayta o‘qitilishi xost kiberxavfsizligini baholash jarayonini uzoq muddat davomida dolzarb holda saqlab qolish imkonini beradi. Bu holat kiberxavflarning doimiy o‘zgarib boruvchi xususiyatini inobatga olgan holda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati muhokama doirasida alohida e’tiborga loyiqdir. Xost faoliyatidagi resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlarining keskin o‘zgarishi yoki tarmoq trafigidagi noodatiy faollik xavfsizlik insidentlarining dastlabki belgisi sifatida aniqlanishi mumkin. Bu esa xavfsizlik mutaxassislariga insidentlar yuzaga kelishidan oldin yoki ularning dastlabki bosqichida tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida inson omilining roli ham tahlil qilindi. Mashinali o‘qitishga asoslangan baholash modellari qaror qabul qilish jarayonini to‘liq avtomatlashtirishni emas, balki axborot xavfsizligi mutaxassislarini qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Model tomonidan taqdim etilgan baholash natijalari mutaxassislar uchun tushunarli va interpretatsiya qilinadigan shaklda ifodalanganda, qaror qabul qilish jarayonining tezligi va aniqligi oshadi. [9]

Bundan tashqari, taklif etilgan yondashuvning amaliy qo‘llanilishi muhokama qilinib, uning korporativ va davlat axborot tizimlarida, shuningdek, virtual va bulutli muhitlarda joriy

etish imkoniyatlari qayd etildi. Modelning masshtablanuvchanligi xostlar soni ortib boruvchi infratuzilmalarda ham baholash samaradorligini saqlab qolish imkonini beradi.

Shu bilan birga, muhokama natijalari ayrim cheklovlarning mavjudligini ham koʻrsatadi. Mashinali oʻqitishga asoslangan baholash modellarining samaradorligi katta hajmdagi sifatli maʼlumotlarga bevosita bogʻliq boʻlib, maʼlumotlarni yigʻish va oldindan qayta ishlash bosqichларида yoʻl qoʻyilgan xatolar yakuniy natijalarga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bu holat kelgusida modelni takomillashtirish jarayonida alohida eʼtibor talab etadi.

Muhokama shuni koʻrsatadiki, mashinali oʻqitishga asoslangan yondashuv xost darajasidagi kiberxavfsizlikni baholashda anʼanaviy himoya mexanizmlariga nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega boʻlib, ularni samarali tarzda toʻldiradi va zamonaviy kiberxavflarga moslashgan kompleks baholash tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, taklif etilgan yondashuvning ayrim cheklovlari mavjud. Xususan, baholash modelining samaradorligi yigʻiladigan maʼlumotlarning sifati va toʻliqligiga bevosita bogʻliq boʻlib, real muhitda maʼlumotlar shovqini va yetishmasligi natijalarga taʼsir koʻrsatishi mumkin. Mazkur holatlar kelgusida modelni takomillashtirish jarayonida inobatga olinishi lozim.

Xulosa. Xost darajasidagi kiberxavfsizlikni baholash masalasi zamonaviy axborot tizimlarining barqarorligi va ishonchliligini taʼminlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot mashinali oʻqitish usullariga asoslangan yondashuv xost kiberxavfsizligini baholashda samarali va amaliy jihatdan asoslangan yechim ekanligini koʻrsatdi. Tadqiqot davomida xost faoliyatini tavsiflovchi turli manbalardan olingan maʼlumotlarni kompleks tahlil qilish orqali xavf darajasini aniqlash imkoniyati mavjudligi asoslab berildi.

Olingan natijalar mashinali oʻqitishga asoslangan baholash modellarining anʼanaviy signatura va qoidalarga asoslangan himoya vositalariga nisbatan ustun jihatlarini tasdiqlaydi. Xususan, nazoratli va nazoratsiz mashinali oʻqitish usullarini birgalikda qoʻllash xost faoliyatidagi xavfli holatlarni aniqlash aniqligini oshirish, noma’lum va nol kunlik hujumlarni erta bosqichda aniqlash hamda xavfsizlik insidentlariga tezkor javob berish imkonini yaratadi. Bu holat kiberxavfsizlikni taʼminlashda reaktiv yondashuvdan proaktiv yondashuvga oʻtish uchun mustahkam asos boʻlib xizmat qiladi.

Taklif etilgan yondashuvning moslashuvchanligi, dinamik xususiyati va real vaqt rejimida qoʻllash imkoniyati uni korporativ, davlat, virtual va bulutli axborot infratuzilmalarida joriy etish uchun maqsadga muvofiq ekanligini koʻrsatadi. Modelning masshtablanuvchanligi xostlar soni ortib boruvchi muhitlarda ham baholash samaradorligini saqlab qolish imkonini beradi hamda axborot tizimlarining umumiy xavfsizlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mashinali oʻqitishga asoslangan yondashuv anʼanaviy himoya vositalarini toʻliq almashtirishni emas, balki ularni samarali tarzda toʻldirishni nazarda tutadi. Bu esa kompleks kiberhimoya tizimlarini shakllantirishda muhim metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari xost darajasidagi kiberxavfsizlikni baholashda mashinali oʻqitish usullarini qoʻllash ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan hamda istiqbolli yoʻnalish ekanligini tasdiqlaydi.

Kelgusida ushbu yondashuvni yanada takomillashtirish, qoʻshimcha maʼlumot manbalarini integratsiya qilish hamda chuqur oʻrganuvchi algoritmlardan foydalanish orqali xost kiberxavfsizligini baholash aniqligini yanada oshirish mumkin.[10] Umuman olganda,

taklif etilgan mashinali o‘qitishga asoslangan baholash modeli zamonaviy axborot tizimlarida kiberxavfsizlikni ta’minlashda muhim ilmiy va amaliy natijalar berishi kutiladi.

Kelgusida tadqiqot doirasida vaqtli qatorlar tahliliga asoslangan chuqur o‘rganuvchi modellarni joriy etish, shuningdek, real amaliy ma’lumotlar to‘plamlari asosida modelni empirik baholash rejalashtirilmoqda.

Takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida xost darajasidagi kiberxavfsizlikni baholash tizimlarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Axborot tizimlari xavfsizligi siyosati uchun takliflar:

- xost darajasidagi kiberxavfsizlik holatini baholash bo‘yicha yagona mezon va indikatorlar tizimini ishlab chiqish hamda tashkilot ichki xavfsizlik siyosatiga kiritish;

- korporativ va davlat axborot infratuzilmalarida xost monitoringini “reaktiv” yondashuvdan proaktiv baholash yondashuviga o‘tkazish (xavf darajasini oldindan prognoz qilish);

- xavfsizlik hodisalari (incident) bo‘yicha standartlashtirilgan javob ssenariylarini (SOP) ishlab chiqish va baholash modeli natijalari bilan bog‘lash.

Ma’lumotlarni yig‘ish va sifatini oshirish bo‘yicha takliflar:

- operatsion tizim jurnallari, resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari va tarmoq faoliyati ma’lumotlarini yagona markazlashgan log-bazaga jamlash (SIEM yoki log-management platformalar);

- ma’lumotlarni yig‘ishda normalizatsiya, shovqinni kamaytirish, takroriy yozuvlarni filtratsiya qilish talablarini majburiy qo‘llash (model aniqligini saqlash uchun);

- ma’lumotlar to‘plamlarida “xavfsiz holat” va “xavfli holat” namunalarining muvozanatini ta’minlash, sinflar notekisligi (class imbalance) muammosini kamaytirish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Stallings W., Brown L. Computer Security: Principles and Practice — axborot tizimlari xavfsizligi, xost va tarmoq darajasida himoya usullari.
2. Sommer R., Paxson V. Outside the Closed World — signaturaga asoslangan himoya tizimlarining cheklovlari va mashinali o‘qitishga asoslangan IDS muammolari.
3. Bishop C.M. Pattern Recognition and Machine Learning — mashinali o‘qitishning nazariy asoslari, klassifikatsiya usullari va modellar tuzilishi.
4. Mitchell T.M. Machine Learning — nazoratli va nazoratsiz mashinali o‘qitish usullari, klassifikatsiya prinsiplari.
5. Hastie T., Tibshirani R., Friedman J. The Elements of Statistical Learning — ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash, normallashtirish va tahlil usullari.
6. Buczak A.L., Guven E. A Survey of Data Mining and Machine Learning Methods for Cyber Security Intrusion Detection — kiberxavfsizlikda mashinali o‘qitish usullarining tahlili va qo‘llanilishi.
7. Chandola V., Banerjee A., Kumar V. Anomaly Detection: A Survey — anomaliyalarni aniqlash usullari va ularning kiberxavfsizlikda qo‘llanilishi.
8. Scarfone K., Mell P. NIST SP 800-94: Guide to Intrusion Detection and Prevention Systems — IDS/IDPS tizimlari, jurnallar va monitoring masalalari.
9. Behl A., Behl K. Cyberwar — kiberxavflar, inson omili va xavflarni boshqarish masalalari.
10. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning — mashinali o‘qitish va intellektual modellarning zamonaviy yondashuvlari, xavflarni baholash masalalari.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

FEATURES OF CRIMES AGAINST THE FAMILY AND THEIR PREVENTION

Utebaev Salamat Makhsetbay uglı
Assistant of Karakalpak State
University named after Berdakh

Dauletbaeva Aynur Bakhramovna
3rd year student of the Faculty of Law of Karakalpak State
University named after Berdakh

Abstract. Through this article, you can learn about family, crimes against the family, administrative prejudice, voluntary non-payment by a person obligated to provide material support by parents or children, their subject, liability for leaving a child unsupervised in foreign territory, as well as what norms are established in the Spanish Criminal Code regarding crimes against the family and how to prevent these crimes.

Keywords: family, crime, administrative offense, preclusion, sanction, material support, minor, parent, abandonment.

OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH

Utebaev Salamat Maqsetbay o‘g‘li
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti
E-mail: salamatutebaev232@gmail.com

Dauletbaeva Aynur Baxramovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola orqali siz oila, oilaga qarshi jinoyatlar, ma’muriy preyuditsiya haqida, ota-onalari tomonidan yoki farzandlari tomonidan umumiy qilib aytganda moddiy ta’minot to‘lash majburiyati yuklatilgan shaxsning o‘z ixtiyori bilan to‘lamasligi, jinoyatning subyekti, bolaning chet el hududida nazoratsiz qoldirilganligi uchun javobgarlik haqida, shuningdek, Ispaniya Jinoyat Kodeksida oilaga qarshi jinoyatlar haqida qanday normalar belgilanganligi va ushbu jinoyatlarning oldini olish haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: oila, jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik, preyuditsiya, sanksiya, moddiy ta’minot, voyaga yetmagan, ota-ona, nazoratsiz qoldirish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N55

Mustaqillik davrlaridan beri 30 yildan ortiq vaqt o’tdi. Shu kunga qadar yetib kelishimiz uchun qanchadan-qancha oqil, dono, mard va jasur insonlar xizmat qildi. Xo’sh bu dovyurak, ziyrak insonlar qayerda yetishib chiqadi? Bu maktabgacha ta’lim va umumiy o’rta ta’limdan oldin ta’lim-tarbiya oladigan joyimiz — oiladan. Oilada kichkinaligimizdan boshlab berilgan ijobiy tahsil natijasida shunday ajoyib kunlarga yetamiz. Oila-bu jamiyatimizning asosiy qismi hisoblanib, bir-biriga qarindoshlik munosabatlar bilan bog‘langan shaxslar ya’ni ota-onalar,

farzandlar va aka-uka, opa-singil singarilar guruhi bo‘lib, ular birgalikda yashaydilar, bir-birini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, yordam beradi, ma’naviy, oilaviy qadriyatlarni o‘rgatadi va milliy an’analarni kelajak avlodga yetkazadi. Oila nafaqat shaxsiy hayotda, jamiyatda ham muhim rol tutadi, uning barqarorligini ta’minlash jamiyat barqarorligini ta’minlaydi va farzandlarning barkamol shaxs bo‘lib kamol topishida asosiy rol o‘ynaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi“ning 16-moddasiga muvofiq “Nikohdan o‘tayotgan har ikki tomonning erkin va to‘liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.“-degan xalqaro qoidalar belgilab berilgan.

Konstitutsiyamizning 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.“ –, deb belgilangan [1]. Bu esa oila va oilaviy qadriyatlarining mamlakatimiz tomonidan muhofaza etilishini va konstitutsiyaviy normalarning xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirilayotganligidan dalolat beradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yilning 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga borgan vaqtida qilgan bayonotida “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo‘lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi.“ –, deb ta’kidlab o’tgan edi [2].

O’zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 96-moddasida ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berishi shart deb belgilangan. Agarda ushbu majburiyatni ixtiyoriy tarzda bajarmagan taqdirda ta’minot berish majburiyati yuklangan shaxs javobgarlikka tortiladi.

Oila va uning tinchligini xavfsizligini ta’minlash bo’yicha bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, ijtimoiy hayotda uni buzish holatlari ham uchrab turadi.

O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 47^4-moddasi “Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash“—, deb nomlanib, voyaga yetmagan shaxslarni yoxud mehnat qobiliyatiga ega bo’lmagan shaxslarni moddiy ta’minlash majburiyati yuklangan shaxslarning sud tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarori yoki sud buyrug’i bo’lishiga qaramasdan moddiy ta’minotni ikki oydan ortiq muddat mobaynida to‘lamaslik, — o‘n besh sutka muddatga ma’muriy qamoqqa olishga yoki bir yuz yigirma soatgacha haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etishga yoxud ushbu Kodeksga muvofiq ma’muriy jazolarning mazkur turlari qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi [3]. Ushbu moddaning ikkinchi qismida “birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar u ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish jarayonida aliment majburiyatlari bo‘yicha qarzdorlikni ixtiyoriy ravishda to‘lagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.“ -, deb belgilangan. Bundan shuni ko’rishimiz mumkinki, ya’ni moddiy ta’minot to’lashdan bo’yin tovlagan shaxslar javobgarligini belgilovchi qoidalar o’zida insoniylik va adolat kabi prinsiplarni aks ettiradi. Chunki, birinchidan, moddiy ta’minot to’lash majburiyati yuklangan shaxs o’z majburiyatini qonunda belgilagan muddatlarda bajarishdan

bosh tortgan hollarda ham u darhol javobgarlikka tortilmaydi va majburiyatini bajarishi uchun qo'shimcha ikki oy muddat vaqt beriladi. Ikkinchidan, u bu huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan bo'lib, ishni ma'muriy tartibda ko'rib chiqish jarayonida yuzaga kelgan qarzdorlikni o'z ixtiyori bilan to'lasa javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan.

Agar ushbu ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etib ma'muriy huquqbuzarlik qo'llanilgan vaqtdan boshlab bir yil ichida yana takroran sodir etsa mazkur noqonuniy qilmishi endi ma'muriy huquqbuzarlik sifatida kvalifikatsiya etilmaydi. U javobgarlikning eng og'ir turi hisoblangan jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi V bobi "Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar" —, deb nomlanadi. Jinoyat Kodeksining mazkur bobida voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish va ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash haqida va shu kabi jinoyat turlari va ularga qo'llaniladigan jazolar haqida ham keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 122-moddasida ota-onalar, ularning qonuniy vakillari tomonidan 18 yoshga to'lmagan ya'ni voyaga yetmagan yoxud mehnat qilish qobiliyatiga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga moddiy ta'minot berishdan bosh tortish, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi haqida belgilab berilgan [4]. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida bunday jinoyatning subyekti 18 yoshga to'lgan, aqli raso, sud tomonidan moddiy ta'minot majburiyati yuklangan shaxs hisoblanadi. Qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, ushbu qoida emansipatsiya etilgan shaxslarga ham taalluqlidir. Misol uchun, 17 yoshda oila qurgan shaxslar qonunchilik asosida to'liq muomalaga layoqatli deb topilganligi uchun, garchi 18 yoshga to'lmagan bo'lsa ham o'z farzandlarini moddiy ta'minlashga majburdirlar. Voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarga to'lanadigan moddiy ta'minot miqdorlari ham har xil. Xususan, voyaga yetmagan shaxslarga to'lanadigan aliment miqdori amaliyotda ko'pchilik holatlarda aliment to'lovchi shaxslarning oylik ish haqiga va boshqa daromadiga nisbatan ulushlar hisobida, mehnatga layoqatsiz shaxslarga bo'lsa pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Yuqoridagi o'rganishlardan kelib chiqib, mazkur jinoyatning o'ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- ✓ jinoyat subyekti moddiy ta'minot yuklatilgan shaxs bo'ladi;
- ✓ shaxsga ilgari ma'muriy preyuditsiya ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Huquqshunos olim M.H.Rustambayevning fikricha bo'yin tovlash deganda, voyaga yetmagan yoxud mehnatga qobiliyatsiz shaxsga moddiy ta'minot berish bo'yicha majburiyatlar bajarilishini rad etishni, shuningdek, ta'minot to'lovchi shaxsning ijro varaqasi bo'yicha ushlab qolinadigan mablaǵni to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida oladigan haqiqiy maoshini, har xil daromadlarini yashirishini, ish yoki yashash joyini o'zgartirishini yoxud aynan shu maqsadda mehnatdan bo'yin tovlashi kabilarni tushunishimiz lozim [5. 112].

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 47^6-moddasida bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan bolani ota, ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs yoxud hamrohlik qiluvchi shaxs tomonidan chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish, — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga

sabab bo‘ladi. Mazkur huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga o‘ttiz kunlik muddat ichida bolani O‘zbekiston Respublikasiga qaytarish majburiyatini yuklaydi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizday, agar huquqbuzar javobgarlikka tortilib bir yil ichida qaytadan sodir etgan bo‘lsa, endi Jinoyat Kodeksi 122^1-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi. Jinoyat Kodeksining 122^1-moddasida bolani chet el hududida nazoratsiz qoldirish bugungi kundagi bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi qismlarida bolani chet mamlakat hududida nazoratsiz qoldirish jinoyati retsidivist yoki o‘ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etganlik, badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazganlik yoxud jabrlanuvchining o‘lishiga sabab bo‘lganlik uchun jazo muddatlari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 123-moddada mehnatga layoqatsiz va moddiy ta’minotga muhtoj ota-onalarning voyaga yetgan, mehnatga qobiliyatli farzandlari yoxud ularning o’rnini bosuvchi shaxslar tomonidan sudning hal qiluv qaroriga muvofiq undirilishi lozim bo’lgan moddiy ta’minotni ikki oydan ortiq muddat davomida to’lamaganlik harakatlari uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ushbu jinoiy qilmishni sodir etgan shaxsga uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Aytib o’tilgan insoniylik va adolat prinsiplari mazkur moddaning ikkinchi qismida ham keltirib o’tilgan bo’lib, unga ko’ra moddiy ta’minot berish majburiyati yuklatilgan shaxs aliment majburiyatlari bo‘yicha qarzdorlikni to‘liq to‘lagan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Oilaga qarshi jinoyatlar jinoyat huquqining muhim bir sohasi sifatida bir qator huquqshunoslar mazkur jinoyatlar haqida o’z fikrlarini bildirishgan.

N. Imomov oilaga qarshi jinoyatlarni nikoh, ota-onalik, farzand tarbiyasi va oilaviy majburiyatlarga zid ravishda sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar sifatida baholaydi hamda ularning jamiyat ma’naviy poydevoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ham ta’kidlab o‘tadi [6. 36].

Huquqshunos olimlardan yana biri B. Ahmedov oilaga qarshi jinoyatlar haqida quyidagicha fikr bildiradi: oilaga qarshi jinoyatlar nikoh-oila munosabatlariga tajovuz qiladi, ularning ijtimoiy xavfliligi jamiyatning axloqiy va ma’naviy barqarorligiga zarar yetkazadi.

Oilaga qarshi jinoyatlar nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro davlatlarda ham jinoyat sifatida e’tirof etiladi. Masalan shunday davlatlardan biri Ispaniya bo‘lib, Ispaniya Jinoyat kodeksida oilaga qarshi jinoyatlar o‘ziga xos alohida bobda berilgan bo‘lib bu bob – “Delitos contra las relaciones familiares“ deb ataladi [7]. Mazkur bobning 217-233-moddalarida oilaga qarshi jinoyatlar nazarda tutilgan. 217-219-moddalarda milliy qonunchiligimizdan biroz farq qiladigan darajada ikkinchi akt yoki bekor qilingan nikohni bilib turib bajarish, tug‘ilishni yolg‘on ko‘rsatish, bolani boshqa ota-onadan yoki vakolatli organ ruxsatisiz olib ketish haqida mustahkamlangan bo‘lsa, 223-233-moddalarda shaxslarni moddiy va boshqa yordamdan mahrum qilish, ajrim yoki ajrim bo‘lganidan keyin aliment to‘lovlarini to‘xtatib qo‘yish, voyaga yetmagan yoki qarovsiz shaxsni oilaviy uy-joyni tark etishga undash, bolani uy-joyni tashlab ketishga undash, oilaviy yordamni ta’minlamaslik kabi qilmishlari uchun javobgarlik belgilangan.

Shaxsning jinoiy mayllari ko‘pincha oilada shakllanadi. Shu bois oiladagi jinoyatlarning oldini olish borasidagi maxsus chora-tadbirlar haqida so‘z yuritishdan oldin quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ta’kidlash lozim:

- oila a’zolariga oilaning salbiy ta’siriga barham berish uchun shart-sharoit yaratish;
- muayyan nizolarni hal qilish;
- oilaning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanish;
- oila institutidagi ziddiyatlarga chek qo‘yish [8. 295].

Bu chora-tadbirlar jinoyatchilikning umumiy darajasini pasaytirishga imkon yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, oila-bu ta’lim-tarbiya oladigan eng dastlabki maskanimizdir. Lekin oilaviy munosabatlarda ham ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelishi natijasida qonunga xilof qilmish hisoblangan huquqbuzarliklar yoxud jinoyatlar sodir etilishi mumkin. Voyaga yetmagan farzandiga yoxud mehnatga layoqatsiz shaxsga, moddiy ta’minotga muhtoj ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilmaslik, ta’minlamaslik, yoinki bolaga e’tiborsizlik qilib chet davlat hududida qarovsiz qoldirish ham jinoiy qilmish sanalib Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan sanksiyalar qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, Ispaniyada oilaga qarshi jinoyatlarning ham milliy qonunchiligimiz bilan bir qancha o‘xshashliklari va farqlari mavjud. Buyuk kelajak avlodni tarbiyalash uchun eng avvalo oilaviy munosabatlar mustahkam bo‘lishi, ziddiyatlar barham topgan bo‘lishi, oilada yuzaga keladigan kelishmovchiliklarning oldini olish joizdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. https://lex.uz/docs/-6445145
2. 2018-yil 19-20-yanvar. Surxondaryo viloyatidagi bayonatidan. https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan
3. O'zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida Kodeks. 22.09.1994. 47^4-moddasi. https://lex.uz/acts/-97664.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 22.09.1994. https://lex.uz/docs/-111453.
5. M.H.Rustambayev. "O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar". Maxsus qism. T. "Adolat". 2016. 112-b.
6. N.Imomov. Oila huquqi. Darslik. — T., 2016. — 36–38-b.
7. Ispaniya Jinoyat Kodeksi. https://www.boe.es/biblioteca_juridica/publicacion.php?id=PUB-DP-2024-118
8. Q.R.Abdurasulova, S.Sh.Utemuratova. Kriminologiya. Darslik. Nókis. 2017. 295-b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

ANALYSIS OF GENERAL AND SECTOR-SPECIFIC LEGAL DOCUMENTS DEFINING THE PREVENTION OF OFFENSES

Tillayev Ikrom Rustamjonovich
Independent Researcher
at the Institute of Criminological Research of the Republic of Uzbekistan
E-mail: info@iibb.uz

Abstract. This article provides a systematic analysis of general and sector-specific legal documents that define the prevention of offenses. The author scientifically demonstrates that the effectiveness of preventive activities depends, first and foremost, on correctly establishing its legal foundations and consistently implementing them in practice. The study analyzes the Constitution of the Republic of Uzbekistan, laws, Presidential decrees and resolutions, and regulatory legal acts of the Cabinet of Ministers and the Ministry of Internal Affairs, assessing their role, significance, and level of coherence in ensuring the prevention of offenses. Through analysis of the regulatory framework in the field of offense prevention, the article identifies existing problems and shortcomings - duplication of norms, inconsistencies, and the presence of legal gaps - and puts forward scientific proposals and recommendations for their elimination. Additionally, the connection between general (Constitution, international documents) and sector-specific (codes, special laws) legal documents is revealed, and the necessity of codifying the legal basis in the field of prevention is substantiated. In the author's opinion, the legal foundation of offense prevention should be improved not only in accordance with national legislation but also in harmony with international standards and principles ensuring human rights. The research results will serve to further improve legal policy in the field of prevention, strengthen cooperation between state and public institutions, and raise legal awareness and culture.

Keywords: offense prevention, legal foundations, normative legal acts, general legal documents, sector-specific laws, Constitution, codes, international conventions, legal system, codification, legal awareness, prevention policy.

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI

Tillayev Ikrom Rustamjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasini belgilab beruvchi umumiy va sohaviy-huquqiy hujjatlar tizimli tahlil qilingan. Muallif profilaktika faoliyatining samaradorligi, eng avvalo, uning huquqiy asoslarini to‘g‘ri belgilash va ularni amaliyotga izchil joriy etishga bog‘liq ekanini ilmiy asosda yoritib beradi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hamda IIVning me’yoriy-huquqiy hujjatlari tahlil qilinib, ularning huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlashdagi o‘rni, ahamiyati va o‘zaro uyg‘unlik darajasi baholangan. Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi normativ-huquqiy bazaning tahlili orqali mavjud muammo va kamchiliklar — normalarning takrorlanishi, o‘zaro nomuvofiqlik va huquqiy bo‘shliqlar mavjudligi aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Shuningdek, umumiy (Konstitutsiya, xalqaro hujjatlar) va sohaviy (kodekslar, maxsus qonunlar) huquqiy hujjatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berilgan hamda profilaktika sohasidagi huquqiy asoslarni kodekslashtirish zarurati asoslab berilgan. Muallifning fikricha, huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy poydevori faqat milliy qonunchilik bilan cheklanmasdan, xalqaro standartlar va inson huquqlarini ta’minlovchi prinsiplar bilan uyg‘unlashgan holda takomillashtirilishi lozim. Tadqiqot natijalari profilaktika sohasidagi huquqiy siyosatni yanada takomillashtirish, davlat va jamiyat institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqiy asoslar, normativ-huquqiy hujjatlar, umumiy huquqiy hujjatlar, sohaviy qonunlar, Konstitutsiya, kodekslar, xalqaro konvensiyalar, huquqiy tizim, kodekslashtirish, huquqiy ong, profilaktika siyosati.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N56

Kirish. Har qanday huquqiy faoliyatni samarali tashkil etish va amalga oshirish, avvalo, uning huquqiy asoslarini aniq va mukammal belgilab olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan huquqbuzarliklar profilaktikasida “huquqiy asos” tushunchasi normativ-huquqiy hujjatlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu hujjatlar tizimi profilaktika sohasini tartibga soluvchi normalarni, prinsiplarni va vakolatli subyektlar faoliyatini belgilaydigan qonunchilik asoslarini qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: «**Jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash** – amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta’minlashning asosiy kafolatidir»[1], – deb ta’kidlab, barcha islohotlar eng avvalo inson manfaatlariga xizmat qilish uchun qaratilganligiga alohida urg‘u berib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Qonunchilik bazasi nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat siyosatini amalga oshirish vositasi, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlovchi huquqiy kafolatlar manbai sifatida ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, huquqbuzarliklar profilaktikasiga daxldor subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning vazifa va vakolatlarini aniq belgilashda normativ asoslar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir normativ-huquqiy hujjatlar tahlili huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi sohaga oid 4 ta qonun, Prezidentimizning 4 ta farmon va 9 ta qarorlari, Hukumatimizning 11 ta qarorlari[2] huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida olib borilayotgan islohotlarning turli davrlarida qabul qilinishi, ushbu normativ-huquqiy hujjatlardagi ba’zi normalar ma’nan eskirgan va ayrimlari o‘zaro nomuvofiqligini, aksariyat normalar takrorlanish xususiyatiga ega bo‘lib qolganini va ba’zilarida huquqiy bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu esa mazkur qonun normalarini qo‘llash va ulardan foydalanishda muammo va kamchiliklarni keltirib chiqarib, faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonun hujjatlarini tizimlashtirish, aniqrog‘i kodekslashtirish zarurati yuzaga kelgan[3].

Muhokama. Ichki ishlar organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmaga aylantirish maqsadida yaxlit huquqiy tizim yaratilmoqda. O‘tgan davrda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladigan 9 qonun, Prezidentimizning 13 farmoni va 40 qarori, Vazirlar Mahkamasining 89 qarori hamda 160 dan ziyod idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, ularda belgilangan qoidalar ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi[4].

Huquqshunos Xojiyev E., o‘z tadqiqotlarida muayyan faoliyatning huquqiy asoslarini yuridik kuchiga ko‘ra qonunlar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga ajratadi[5]. Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari tahlili boshqa toifa yuridik manbalarda:[6] a) qonunlar; b) farmonlar; v) qarorlar; g) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar tarzida guruhlashtirilgan. Ayrim tadqiqotlarda: a) Konstitutsiya; b) qonunlar; v) Prezident farmon va qarorlari; g) Vazirlar Mahkamasining qarorlari; d) IIVning normativ-huquqiy hujjatlari kabilarga bo‘lib tasniflangan[7].

Yuqoridagi tasniflardan eng mukammali uchinchi tasnif (Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmon/qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, IIV hujjatlari) bo‘lib, ushbu tasnif: a) yuridik kuch iyerarxiyasini hisobga oladi; b) har bir darajadagi hujjatning amal doirasini ko‘rsatadi; v) huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amaliy va strategik qarorlarni qamrab oladi. Biroq, huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari tasnifini **xalqaro hujjatlar**ni ham qo‘shish orqali yanada kengaytirish orqali yaxlit tizim yaratish tavsiya etiladi.

Ilmiy tadqiqotlar va nazariy manbalarda keltirilgan huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid huquqiy asoslarning tasnifiga asoslangan holda ular quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lib o‘rganiladi:

umumiy huquqiy hujjatlar – inson huquqlari, jamiyat xavfsizligi va huquqiy davlat tamoyillarini tartibga soluvchi umumiy qonunlar va xalqaro normalar;

sohaviy huquqiy hujjatlar – jinoyatchilik, ma’muriy huquqbuzarliklar profilaktikasi va ijtimoiy xavf ostidagi shaxslar bilan individual ishlash sohalaridagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar;

maxsus huquqiy hujjatlar – bevosita huquqbuzarliklar profilaktikasiga bag‘ishlangan farmonlar, qarorlari, dasturlar, me’yoriy-huquqiy va sohaviy reglamentlar.

Natija. Yuqoridagilarga asoslangan holda, huquqiy asoslar profilaktik faoliyatni tizimlashtirish, unda qatnashuvchi barcha subyektlar uchun huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi omillardan biridir.

Birinchi yo‘nalish: Ushbu yo‘nalishda, avvalo, *umumiy xususiyatga ega bo‘lgan huquqiy hujjatlar* tahlil etiladi. Bunday hujjatlar jamiyatdagi huquqiy tartibot, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tamoyillari kabi umume’tirof etilgan qoidalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, huquqbuzarliklar profilaktikasining falsafiy, ijtimoiy va huquqiy yo‘nalishini belgilab beradi. Umumiy huquqiy hujjatlar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasiga bevosita bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, ularning qoidalari va me’yorlari ushbu sohada amalga oshiriladigan faoliyat uchun umumiy huquqiy asos vazifasini o‘taydi. Shu jihatdan, ular nafaqat mazkur sohani umumiy huquqiy muhitda ta’minlaydi, balki profilaktik tadbirlarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini kafolatlashda ham muhim o‘rin tutadi.

1) O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasining** 48-moddasida ko‘rsatilgan hamma uchun umumiy va teng qonunga rioya etish majburiyati huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatning barcha turlari va darajasiga taalluqlidir. Masalan, 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”[8]; 15-moddasida “Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar.”; 146-moddasida “Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin” mazmunida qoidalar belgilangan[9].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi 13, 15 va 146-moddalarda mustahkamlangan qoidalar huquqbuzarliklar profilaktikasining konstitutsiyaviy-huquqiy asosi sifatida muhim o‘rin tutadi. Bu normalar faqat deklarativ qoidalar emas, balki profilaktika sohasidagi barcha davlat va jamiyat institutlarining faoliyatini qonuniy asosda yo‘naltirib beradi.

Konstitutsiyaning mazkur normalari huquqbuzarliklar profilaktikasining: a) falsafiy (13-modda); b) yuridik va tashkiliy (15-modda); v) ijtimoiy hamkorlik (146-modda) asoslarini belgilaydi. Shu bois, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida ushbu moddalar nazariy poydevor, me'yoriy mezon, va amaliy dasturilamal vazifasini o'taydi.

2) "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi". Masalan, 3-moddasida "Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir" ; 4-moddasida "Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi"; 5-moddasida "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak"; 6-moddasida "Har bir inson qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'zining huquq subyekti sifatida tan olinishiga haqli" mazmunidagi qoidalar mustahkamlangan[10].

Yuqoridagilarga asoslangan holda ta'kidlash joizki, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da: a) to'g'ridan to'g'ri profilaktika tushunchasi emas, shu faoliyatga asos bo'luvchi qonun ustuvorligi, inson xavfsizligi, ta'lim, ish bilan ta'minlanish, ijtimoiy barqarorlik kabi asosiy prinsiplar belgilangan; b) bu normalar huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, huquqbuzarliklar profilaktikasining xalqaro-huquqiy asosini tashkil etadi.

3) *BMTning jinoyatchilikka qarshi konvensiyalari* bu xalqaro miqyosda uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, odam savdosi, terrorizm va boshqa og'ir huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga qaratilgan **normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi** bo'lib, ular jinoyatlarning oldini olish va profilaktikasida katta ahamiyatga ega.

- "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida" Konvensiya (Palermo konvensiyasi, 2000-yil);
- BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (Merakesh, 2003-yil);
- Narkotik vositalar va psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilishga qarshi kurash to'g'risidagi BMT konvensiyasi (1961, 1971, 1988-yillar — UNSSD, UNODC doirasida);
- Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida xalqaro konvensiya (1999-yil 9-dekabr, Nyu-York).

Yuqoridagi BMT konvensiyalari: a) huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan; b) davlatlarni profilaktik choralar ko'rishga, hamkorlik qilishga va tizimli siyosat yuritishga majbur qiladi; v) huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi xalqaro standartlarni belgilaydi.

4) "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi:

"Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi (1950 yil, Rimda qabul qilingan) – Yevropada inson huquqlarini ta'minlovchi asosiy xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, u huquqbuzarliklar profilaktikasining falsafiy, huquqiy va institutsional asoslarini belgilab beradi[11]. Masalan, 3-moddasida (qaytarilmas huquq): "Hech kim qiynoqqa solinmasligi yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yo tahqirlovchi muomala yo jazoga duchor etilmasligi lozim." Bu norma faqat jazo berishda emas, balki huquqbuzarliklarning oldini olishda insonparvar yondashuv talab etilishini belgilaydi.

Yuqoridagilarga asoslanib, Yevropa Konvensiyasining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ahamiyati: a) inson huquqlari ustuvorligini ta'minlash orqali profilaktikaning mohiyatini belgilaydi; b) davlat organlarining profilaktika faoliyatini qonun doirasida va

insonparvarlik asosida tashkil etishni talab qiladi; v) fuqarolarni asossiz tazyiqlardan himoya qilish va huquqiy himoya vositalaridan foydalanish huquqini kafolatlaydi; g) Yevropa inson huquqlari sudi orqali profilaktika choralari ustidan xalqaro nazoratni ta’minlaydi.

Ikkinchi yo‘nalish: Sohaviy huquqiy hujjatlar — bu muayyan sohadagi (masalan, jinoyatchilik, ma’muriy huquqbuzarliklar, ijtimoiy xavf ostidagi shaxslar bilan ishlash) munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy aktlar bo‘lib, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining muhim bo‘g‘inini tashkil etadi.

Sohaviy huquqiy hujjatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasida: a) profilaktikaning tartibga solingan, tizimli va huquqiy asosli faoliyat bo‘lishiga xizmat qiladi; b) har bir sohadagi (jinoiy, ma’muriy, ijtimoiy) xavfni aniqlash, baholash va yo‘naltirishga qaratilgan mexanizmlarni yaratadi; v) fuqarolarni xabardor qilish va huquqiy madaniyatini shakllantirish orqali jinoyatlar va huquqbuzarliklar xavfini kamaytiradi; g) davlat va jamiyat institutlarining funksional o‘zaro hamkorligini ta’minlaydi, bu esa samarali profilaktikada hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sohaviy huquqiy hujjatlar: a) kodekslar; b) qonunlar; v) qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar; g) buyruq va nizomlarga bo‘lib quyidagicha tasniflandi:

Birinchi: O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi, hamda Jinoyat-ijroiya kodeksi — huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi asosiy sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu kodekslar nafaqat huquqbuzarlik sodir etilganidan so‘ng qo‘llaniladi, balki jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olishda ham muhim huquqiy asos va vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan:

1) O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi roli: a) jinoyat tushunchasi, turlari, tarkibiy alomatlari va javobgarlik asoslarini belgilaydi; b) jinoyatlarni sodir etishga olib keluvchi holatlar va shaxslarni tavsiflash orqali ehtimoliy xavfni aniqlash imkonini yaratadi; v) javobgarlikning muqarrarligi tamoyili jinoyat sodir etish niyatidagi shaxslarga nisbatan seskantiruvchi ta’sir qilishida namoyon bo‘ladi.

2) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi huquqbuzarliklar profilaktikasidagi roli: a) jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan oqilona va qonuniy munosabat orqali jinoyatni takrorlamaslikka undaydi; b) jinoyat ishlari yuritilishi jarayonida jamoatchilikni xabardor qilish, shaffoflik orqali profilaktik ta’sir yaratadi; v) ehtimoliy jinoyatchilarni ishonchsiz dalillar bilan ta’qib qilishdan himoya qiladi, bu esa inson huquqlarini kafolatlaydi va jamiyatda ishonch muhitini yaratada namoyon bo‘ladi.

3) O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi roli: a) jinoyatga aylanishi mumkin bo‘lgan holatlarga dastlabki ta’sir choralarini joriy etadi; b) “Ogohlantirish”, “ma’muriy nazorat”, “ma’muriy qamoq” kabi choralar orqali jinoyatlarning oldini olish imkonini yaratadi; v) “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun bilan o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritilishida namoyon bo‘ladi.

4) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi roli: a) jazo ijrosi jarayonida shaxsda yana jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi; b) eks-mahkumlarni jamiyatga qayta moslashtirish orqali ularning takroriy huquqbuzarlik sodir etishining oldini oladi; v) retsidiv jinoyatchilikka qarshi profilaktik ta’sirni amalga oshirishida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi: O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida”, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”, “Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to‘g‘risida”, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunlar huquqbuzarliklar profilaktikasining mustahkam huquqiy asosini tashkil etadi. Ular nafaqat muayyan jinoyat turlari bilan kurashishni, balki jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish hamda aholi o‘rtasida huquqiy ong va madaniyatni oshirishni ham ko‘zda tutadi.

Quyida har bir qonunning huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asosi sifatidagi ahamiyati qisqacha tahlil qilinadi:

1) “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni (2014 y.) o‘ziga xos bazaviy huquqiy asos hisoblanadi. Unda: a) huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha subyektlar, ularning vakolatlari, profilaktika turlari (umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik), profilaktik tadbirlar mazmuni aniq belgilangan; b) huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy sabablarini bartaraf etishga qaratilgan davlat siyosati asoslarini belgilaydi.

2) “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni (2010 y.): a) voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda maqsadli profilaktik yondashuvni ta’minlaydi; b) bolalarni nazorat qilishda ota-ona, ta’lim muassasalari, IIO va boshqa idoralarning o‘zaro hamkorligi belgilab qo‘yilgan; v) nazoratsizlik holatlarini bartaraf etish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (2019 y.): a) gender asosidagi zo‘ravonlik va tajovuzlarga qarshi kurashish orqali ijtimoiy xavfli harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi; b) xotin-qizlarni himoya qilish, ularning huquqiy va psixologik yordam olishi profilaktikaning muhim qismi sifatida belgilangan.

3) “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni (2017 y.): a) korrupsiya – ijtimoiy xavf darajasi yuqori bo‘lgan huquqbuzarlik sifatida, uning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi; b) korrupsiyaning profilaktikasi, axloqiy standartlar, manfaatlar to‘qnashuvi, xabar berish tizimi kabi mexanizmlarni joriy etadi.

4) “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun (2018 y.): a) Ekstremistik faoliyatning barvaqt aniqlanishi va uning ildizigacha bartaraf etilishi, jumladan, yoshlar orasida radikal qarashlarning tarqalishini to‘xtatishda muhimdir; b) ekstremizmni “profilaktik tahdid” sifatida aniqlab, ijtimoiy-ma’rifiy choralarni belgilaydi.

5) “Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun (2000 y.): a) terrorizm profilaktikasi milliy xavfsizlik, huquqiy tartibot va tinchlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega; b) qonun orqali preventiv (oldini oluvchi) tadbirlar, ma’lumotlar almashinuvi, idoralararo hamkorlik belgilab qo‘yilgan.

6) “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida”gi Qonun (2019 y.): a) jazodan ozod qilingan shaxslarning qayta huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish uchun ma’muriy nazorat choralarini nazarda tutadi; b) Reintegratsiya (qayta jamiyatga moslashish) jarayonida nazorat va ijtimoiy yordam mexanizmlari joriy etilgan.

7) "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun (2014 y.): a) huquqbuzarliklar profilaktikasida faqat davlat emas, NNT, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari ishtirokini ta'minlaydi; b) davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni institutsional shaklga soladi, bu esa profilaktikaning samaradorligini oshiradi.

8) "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi Qonun (2023 y.): a) narkotik moddalarga qaramlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini ta'minlaydi; b) profilaktikada to'g'ri tashxis qo'yish, davolash, reabilitatsiya, jamiyatga moslashtirish kabi bosqichlarni qamrab oladi.

9) "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun (2016 y.): a) IIO – huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy subyektlaridan biri; b) qonun ularning profilaktik vakolatlari, majburiyatlari, hamkorlik mexanizmlari va fuqarolar bilan ishlash uslublarini belgilaydi.

Xulosa. Ushbu qonunlar huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslarini mustahkamlab, turli toifadagi xavf guruhlari bilan maqsadli ishlash, jinoyatchilikni barvaqt aniqlash va jamiyatda huquqiy ongni shakllantirish orqali umumiy jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim o'rin tutadi. Ular huquqiy tizimda kompleks yondashuvni ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. *Mirziyoyev Sh.M.* Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir: Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberaldemokratik partiyasining VIII syezdidagi ma'ruza. 2016-yil 2-noyabr//Xalq so'zi.– 2016. – 3 noyab.
2. Abdullayev B.T. Huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari // Huquqbuzarliklar profilaktikasining dolzarb muammolari: nazariya, amaliyot va qonunchilik tahlili: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2022-yil 31-mart). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 478 b.
3. Xo'jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari misolida): yurid. fan. bo'yicha fal. d-ri. ... dis. – T., 2018. – B.17,37, 42,44, 45,47.;
4. «El tinchligini ta'minlash, barqarorlikni saqlash yo'lida xodimlarimiz o'z hayotini ham ayamaydi» – Po'lat Bobojonov bilan katta intervyu// https://uza.uz/uz/posts/ichki1-ishlar-vaziri-el-tinchligini-taminlash-bar-arorlikni-s-15-08-2020.
5. Xojiyev E. Davlat boshkaruvi: Ilmiy-ommabop risola. - T., 2006. - B. 171.
6. Profilaktika inspektorlari faoliyatining huquqiy asoslari va ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorligi: O'quv-metodik qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – B.66.; Saitqulov Q.A. Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini tashkil etish: O'quv-amaliy qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B.123. Ismailov I., va boshqalar Ichki ishlar organlarining profilaktika faoliyati. Mas 'ul muharrir Sh.T.Ikramov. Darslik. IIV Akademiyasi.2015.–B.326.; Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyati: Ma'ruzalar kursi / A.S.Tursunov va boshq. – T., 2018. – B.100-113.; Xo'jaqulov S.B. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati: O'quv qo'llanma. – T., 2017. – B.107-108.
7. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: yurid. fan. d-ri. ... dis. – T., 2006. – B.48. Muxtorov J.S. Ichki ishlar idoralari profilaktika xizmatlari tomonidan jinoyatlarning oldini olishni ta'minlash: yurid. fan. nomz.

... dis. –T., 2009. – B.148.; Xo‘jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari misolida): yurid. fan. bo‘yicha fal. d-ri. ... dis. – T., 2018. – B.17,37, 42,44, 45,47.; Saitqulov Q.A. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish: yurid. fan. bo‘yicha fal. d-ri. ... dis. – T., 2020. – B.44.; Eshnazarov M.J., Huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari misolida): yurid. fan. bo‘yicha fal. d-ri. ... dis. – T., 2022. – B.56.

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://constitution.uz/uz/clause/index.
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://constitution.uz/uz/clause/index.
10. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi// https://constitution.uz/uz/pages/humanrights
11. “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Yevropa konvensiyasi //Ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalist va blogerlar uchun sohaga oid qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan huquqiy qo‘llanma. «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi, 2025 y. – 71b.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

LABOR RELATIONS AND MIGRATION PROCESSES IN UZBEKISTAN

Khoshimova Nilufar Zafarjon Qizi
Namangan State University,
Faculty of Law, 1st-year Master's student

Abstract. In the current global economic context, labor migration significantly affects labor relations in Uzbekistan. This article analyzes migration trends from 2021 to 2025, the number of migrants, currency inflows, and the social and legal impacts of migration processes. The research is based on national and international sources and aligns with state policy reforms aimed at regulating labor relations and improving employment efficiency.

Keywords: labor migration; labor relations; labor law; currency inflows; employment policy.

O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI

Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi
Namangan davlat universiteti,
yuridik fakulteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Hozirgi global iqtisodiy sharoitda mehnat migratsiyasi O'zbekistonda mehnat munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Maqola 2021–2025 yillar davridagi migratsiya tendensiyalari, migrantlar soni, valyuta tushumlari, ijtimoiy va huquqiy ta'sirlarni tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari milliy va xalqaro manbalar asosida amalga oshirilgan va davlat siyosatidagi islohotlar bilan uyg'unlashtirilgan.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi; mehnat munosabatlari; mehnat huquqi; valyuta tushumlari; bandlik siyosati.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N57

Kirish. Hozirgi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida mehnat migratsiyasi milliy mehnat bozorlariga ta'sir etuvchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Mehnat resurslarining mamlakatlar o'rtasida harakatlanishi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbatini qayta shakllantirib, mehnat munosabatlarining mazmuni va shakliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro mehnat tashkilotining so'nggi hisobotlarida ta'kidlanishicha, XXI asrda mehnat migratsiyasi mehnat bozorining mustaqil segmenti sifatida shakllanib bormoqda[1].O'zbekiston uchun mehnat migratsiyasi ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega, chunki mamlakat aholisining salmoqli qismi mehnat faoliyatini xorijda amalga oshiradi. So'nggi yillarda tashqi mehnat migratsiyasi nafaqat aholi bandligini ta'minlash vositasi, balki milliy iqtisodiyotga valyuta tushumlarini jalb qiluvchi barqaror manba sifatida ham namoyon bo'lmoqda[2]. Bu holat mehnat munosabatlarini faqat ichki bozor doirasida emas, balki transmilliy iqtisodiy munosabatlar tizimida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

2021–2025-yillar davri O'zbekistonda mehnat migratsiyasi siyosatining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, mehnat migrantlarini huquqiy himoya

qilish, ularni rasmiy mehnat shartnomalari asosida ishga joylashtirish va davlatlararo hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi[3]. Bu jarayonlar mehnat munosabatlarida migratsiya munosabatlarining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq munosabatlar bir qator murakkab muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, norasmiy mehnat munosabatlari, mehnat huquqlarining to‘liq ta’minlanmasligi va ijtimoiy kafolatlardan foydalanishdagi cheklovlar migrantlar uchun asosiy xavf omillari bo‘lib qolmoqda[4]. Mazkur holat mehnat munosabatlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.Ilmiy adabiyotlarda mehnat migratsiyasi ko‘pincha iqtisodiy foyda nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Biroq, uni mehnat munosabatlarining tarkibiy qismi sifatida kompleks o‘rganish kam uchraydi. Vaholanki, mehnat migratsiyasi mehnat shartnomalari, ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy himoya mexanizmlari va mehnat huquqining amal qilishi kabi muhim elementlar bilan chambarchas bog‘liqdir[5].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — O‘zbekistonda mehnat munosabatlarida migratsiya munosabatlarining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini so‘nggi besh yil ma’lumotlari asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish uchun nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi ko‘zda tutilgan.

Natijalar tahlili. Tadqiqot natijalari 2021–2025-yillar davrida O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi va uning mehnat munosabatlariga ta’sirini ko‘rsatadigan statistik, qonuniy va institutsional jihatlar asosida tahlil qilindi.

2021–2025-yillarda O‘zbekistondan chiqib ketgan mehnat migrantlari soni doimiy o‘sish ko‘rsatdi. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yili taxminan 1,2 million nafar fuqaro xorijda mehnat faoliyati bilan shug‘ullangan bo‘lsa, 2025 yili bu ko‘rsatkich 1,6 millionga yetdi. Mehnat migrantlari asosan Rossiya, Qozog‘iston va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarga yo‘nalgan.Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida qayd etilishicha, mehnat migrantlarining 60–65% rasmiy shartnomalar asosida ishga joylashtirilgan[1]. Bu ko‘rsatkich mehnat munosabatlari tartibini rasmiylashtirish yo‘nalishida ijobiy tendensiyani ko‘rsatadi.Mehnat migrantlari yuborgan pul mablag‘lari O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun barqaror daromad manbai hisoblanadi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yili valyuta tushumlari 6,2 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu,o‘z navbatida, aholi daromadlarini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va ichki iste’molni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qildi[2].Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, mehnat migratsiyasi:

- Mehnat bozorida ortiqcha bosimni kamaytirish;
- Mehnat standartlarini rivojlantirish va huquqiy himoyani kuchaytirish;
- Qayta integratsiya va riverting mexanizmlari orqali ishchi kuchini samarali taqsimlash;
- Xalqaro tajribalar asosida milliy siyosatni takomillashtirish imkoniyatlarini yaratish.

Shu bilan birga, tadqiqotda norasmiy mehnat munosabatlari va migrantlarning ijtimoiy himoyadan cheklangan holatlari asosiy muammolar sifatida aniqlandi[4].

O‘zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun davlat tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan:

- Xorijda ishlayotgan fuqarolar uchun yuridik himoya va konsulьtatsiya markazlari tashkil qilindi;
- Davlatlararo kelishuvlar orqali rasmiy shartnomalarni kengaytirish;

- Mehnat kodeksiga kiritilgan o‘zgarishlar orqali mehnat huquqlarini ta’minlash mexanizmi takomillashtirildi[7].

Bu chora-tadbirlar mehnat munosabatlarida migratsiyaning ijobiy ta’sirini oshirishga xizmat qilmoqda.

Muhokama. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, mehnat migratsiyasi O‘zbekistonda mehnat munosabatlarining asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda. Haqiqatan ham, migrantlar soni va ular yuborgan valyuta tushumlari mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Muhokama jarayonida aniqlandiki:

1. **Mehnat bozoriga ta’siri:** Mehnat migratsiyasi ichki bozorda ortiqcha ishchi kuchi bosimini kamaytirib, ichki mehnat standartlarini shakllantirishda muhim rolь o‘ynamoqda[2].
2. **Xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil:** O‘zbekiston tajribasi Filippin va Meksika misolidagi davlatlar bilan solishtirilganda, rasmiylashtirilgan mehnat shartnomalari va davlatlararo kelishuvlar sonida qator farqlar bor. Bu milliy siyosatni yanada samaralilashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi[6].
3. **Ijtimoiy va huquqiy ta’sir:** Mehnat migratsiyasi ijtimoiy kafolatlar va huquqiy himoyani kuchaytirishni talab qiladi. Norasmiy mehnat munosabatlari va migrantlarning ijtimoiy himoyadan cheklangan holatlari asosiy muammo sifatida saqlanmoqda.
4. **Mehnat siyosati va institutsional mexanizmlar:** O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan yuridik himoya markazlari va davlatlararo kelishuvlar, mehnat migratsiyasini rasmiylashtirish va samarali boshqarishga xizmat qilmoqda.

Muhokama natijalari shuni ko’rsatadiki, mehnat migratsiyasini faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki ijtimoiy va huquqiy nuqtai nazardan ham integratsiyalash lozim. Bu holat milliy mehnat siyosatida uning tarkibiy elementi sifatida qarashni taqozo etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Mehnat migratsiyasi O‘zbekistonda mehnat munosabatlarining asosiy tarkibiy qismiga aylandi va iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.
2. Xorijda ishlayotgan migrantlar orqali yuborilayotgan pul mablag‘lari valyuta tushumlari va aholi daromadlarini oshirishda muhim rolь o‘ynamoqda.
3. Norasmiy mehnat munosabatlari va migrantlarning ijtimoiy himoyadan cheklangan holatlari asosiy muammolar sifatida qolmoqda.
4. Davlatlararo kelishuvlar va rasmiylashtirilgan shartnomalar orqali mehnat migratsiyasini samarali boshqarish, mehnat standartlarini takomillashtirish va huquqiy himoyani kuchaytirish imkonini beradi.
5. Mehnat migratsiyasi siyosatini kompleks va uzoq muddatli yondashuv asosida rivojlantirish milliy mehnat munosabatlarini modernizatsiya qilishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. International Labour Organization. Global Estimates on International Migrant Workers. — Geneva: ILO, 2024. — P. 12–15.
2. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati va mehnat migratsiyasi tahlili. — Toshkent, 2024. — B. 45–47.

3. Kambag’allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi islohotlar. — Toshkent, 2023. — B. 18–21.
4. International Organization for Migration. Migration Situation Report: Uzbekistan. — Vienna: IOM, 2024. — P. 9–12.
5. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. — B. 214–218.
6. World Bank. World Development Report: Migrants, Refugees and Societies. — Washington, 2023. — P. 89–92.
7. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi. O’zbekistonda mehnat bozori ko’rsatkichlari. — Toshkent, 2024. — B. 30–35

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

ORGANIZING THE EDUCATIONAL TRAJECTORY FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' CREATIVE COMPETENCIES BASED ON FORESIGHT RESEARCH METHODS

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi
Lecturer at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
E-mail: nilufar11@gmail.com

Abstract. This article is intended for undergraduate students studying in pedagogical higher education institutions. It describes the pedagogical conditions, quality indicators, and information-didactic support for applying innovative organizational and didactic forms of education in the methodological development of future teachers' knowledge related to creative pedagogical competence. The methodology for improving future teachers' creative competencies based on foresight technologies is presented from an innovative approach.

Keywords: foresight, technology, innovation, center, management, monograph, intellect, transfer, center, component, creativity, competence, criterion.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola pedagogik OTMning bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ pedagogik kompetensiyaga oid bilimlar bilan metodik qurollantirishda ta'limning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari va sifat ko'rsatgichlari, axborot-didaktik ta'minoti tavsiflangan. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetensiyalarini Forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirish metodikasi, innovatsion yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: forsayt, texnika, innovatsion, markaz, menejment, monografiya, intellekt, transferi, markaz, komponent, kreativ, kompetensiya, mezon.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N58

Kirish. Jahonda forsayt texnologiyalar asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini takomillashtirish va mustaqil kasbiy rivojlanishning yangicha shakllarini o'zlashtirishi ta'lim, fan va innovatsiya istiqbolli yo'nalishlar sifatida ta'kidlanadi. Jumladan, 2030-yilgacha qabul qilingan umumjahon ta'lim Konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" g'oyasi mutaxassislarni uzluksiz malakasini oshirish va ijodiy yaratuvchanlik tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Finlyandiya: Finlyandiya o'zining forsaytlash va strategik rejalashtirish markazlari bilan mashhur. Masalan, Finlyandiya Innovatsion Fond kompaniyasi (Sitra) iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining turli

ssenariylari asosida uzoq muddatli forsaytlash ishlarini olib boradi. Germaniyada bir nechta forsaytt markazlari mavjud, masalan, Federal tadqiqot va ta'lim vazirligi (BMBF) tadqiqot va ta'lim sohasida forsaytlash, trend tahlili va ishlab chiqishda faol. Buyuk Britaniyadagi Texnologiya ta'lim, fan va innovatsiya instituti (British Technology Strategy Board) forsaytlash va innovatsiyalar markazini ishga tushirdi. Markaz texnologik tendensiyalarni forsaytlash va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. AQShda turli hukumat va sanoat forsayt markazlari mavjud. Milliy razvedka kengashi (Milliy razvedka kengashi) Jahon siyosati rivojlanishining turli ssenariylari asosida global tendensiyalarni forsayt qiladi. IBM va Microsoft kabi yirik kompaniyalar ham kelajakdagi texnologiya tadqiqotlari va ishlanmalarini rejalashtirish uchun o'zlarining forsayt markazlariga ega. Singapurdagi Singularity universiteti texnologik innovatsiyalar sohasida forsayt va tadqiqotlar bilan shug'ullanadi [1].

Talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsayt texnologiyalar asosida o'qitish, muammoli vaziyatlar yaratish uchun o'quv jarayoniga interfaol ta'lim strategiyalarini qo'llash, muammoli masalalardan moslarini tanlash, virtual laboratoriya ishlarini bajarishga oid o'quv resurslarini yaratish va amaliyotga tatbiq qilishning o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublikamizda rivojlanayotgan uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy talablarga mos rivojlanayotgan oliy ta'lim tizimi o'zining alohida o'rniga ega. Bu borada yuzaga kelayotgan muammolarning yechimini topishda, avvalo ta'lim jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda zaruriy axborot infratuzilmasini yaratish talab etiladi.

Oliy ta'limda ta'lim tizimini rivojlanishining nazariy-metodologik masalalari hamda ta'limda axborot muhitini yaratish muammolari yurtimiz olimlaridan R.X.Djurayev, A.A.Abduqodirov, U.S. Begimqulov, S.Yu. Maxmudov, M.T. Mirsoliyeva va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda oliy ta'limda masofaviy malaka oshiriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar A.D.Andersen, D.Bengston, E.Bas, K.Van der Heijdenlar tomonidan olib borilgan [2].

Oliy ta'lim tizimi ta'limni samarali tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi omillarni qayd etish mumkin: ta'lim tizimining tezkor yangilanishi bilan yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berishga yetarlicha tayyor bo'lmagan amaldagi tizim o'rtasidagi ziddiyat; metodik ta'minotning ishlab chiqilmaganligi; integrallashgan axborot-ta'lim muhitini yaratish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi hamda pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi yechimini kutayotgan bir qator muammolar manbasi bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar. Samarali prognoz – e'tirofga sazovor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, nisbatan o'xshash nisbatlarda ham tajriba, ham ijodkorlikni talab qiladi. Bu ma'lum bir sohadagi zo'r mutaxassis, olim yoki hokimiyatning fikrlari asosida prognozlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi. Intervyu ko'pincha "tuzilgan suhbatlar" deb ta'riflanadi va ijtimoiy tadqiqotlarning asosiy vositasidir. Forsaytda ular ko'pincha suhbatdoshlar oralig'ida tarqatiladigan bilimlarni to'plash uchun rasmiy maslahat vositalari sifatida ishlatiladi. Bu so'z bilan ifodalanmagan yashirin bilim yoki adabiyotlarni ko'rib

chiqishdan koʻra ekspertlar va manfaatdor tomonlar bilan munozaralar orqali osonroq topiladigan hujjatlashtirilgan bilim boʻlishi mumkin. Adabiyotlarni koʻrib chiqish (LR) skanerlash jarayonlarining asosiy qismini ifodalaydi. Yaxshi sharhlar odatda diskursiv yozish uslubidan foydalanadi va mavzular va tegishli nazariyalar atrofida tuziladi. Ba'zan sharh turli mualliflarning qarashlari va kelajak qarashlarini tushuntirishga harakat qilishi mumkin. Morfologik tahlil tegishli daraxtlar va yumshoq tizimlar yondashuvi bilan chambarchas bogʻliq, chunki u murakkab muammolarni hal qilishda va oʻzgarishlarni boshqarishda yordam beradi; rejalashtirish yoki ssenariy ishlab chiqishda foydalanish mumkin. U ma'lum bir muammoning ta'lim, fan va innovatsiya iqbolli yechimlarini xaritasini tuzadi va shunga koʻra mumkin boʻlgan kelajakni aniqlaydi: klassik ilovalar ma'lum bir maqsad uchun barcha mumkin boʻlgan texnologik yechimlarni tizimli ravishda ishlashini oʻz ichiga oladi [3].

Tegishlilik daraxtlari va mantiqiy jadvallar tadqiqot mavzusiga iyerarxik tarzda yondashiladigan usullardir. Har biri mavzuning umumiy tavsifi bilan boshlanadi va uning turli tarkibiy qismlari va elementlarini, xususan, ular oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni oʻrganish va guruhlarga boʻlib oʻrganish bilan davom etadi. Rol oʻynash/aktyorlik, xayoliy oʻzaro ta'sir va ijodkorlikni talab qiladi. Ushbu metod quyidagi savollarga javob berishga harakat qiladi: Agar men X odam boʻlganimda, Y muammosini qanday hal qilgan boʻlardim? Yoki, agar biz X davlat boʻlganimizda, Y masalasi boʻyicha bizning pozitsiyamiz qanday boʻlar edi? Skanerlash (koʻpincha "atrof-muhitni skanerlash" yoki "ufqni skanerlash" deb ataladi) koʻrib chiqilayotgan ishtirokchining texnologik, ijtimoiy-madaniy, siyosiy, ekologik va yoki iqtisodiy kontekstlarini kuzatish, tekshirish, monitoring qilish va tizimli tavsifini oʻz ichiga oladi. (Mamlakat, sanoat, firma, tashkilot va boshqalar) [4].

Ushbu nazariy va amaliy tizimlarni texnologiyani boshqarish jarayonlariga integratsiyalash orqali tashkilotlar innovatsiyalarni rivojlantirish, raqobatbardosh ustunlikka erishish va barqaror oʻsishni ta'minlash yoʻlida asosli qarorlar qabul qilish imkoniga ega boʻladilar. Bashoratni aniqlash jarayonida Rapid Foresight sessiyasi uchta asosiy proyeksiyadan iborat boʻlib, ularning uygʻunligi kelajakning toʻliq, uch oʻlchovli manzarasini shakllantiradi. Jumladan: bashoratli sessiyani tashkil etish bosqichlarining aniq ketma-ketligi, ularning izchil amalga oshirilishi ishtirokchilarga yaqin va oʻrta muddatli istiqbollarda ishonch bilan harakat qilish uchun zarur va yetarli natijalarni ta'minlaydi; moderatsiya va ishtirokchilar bilan ishlash amaliyoti aholining turli va keng qatlamlari bilan prognoz sessiyalarini samarali tashkil etish imkonini beradi; guruh ishining natijalarini yigʻish va tizimlashtirish amaliyoti esa olingan mazmunni tezkor ravishda umumlashtirilgan yakuniy natijaga aylantirishga xizmat qiladi.

Kontekstni aniqlashtirish maqsadida ushbu jarayondagi rollarga alohida e'tibor qaratiladi. Ishonchli maslahatchi qaror qabul qilish jarayonida ishonchli va asosli ma'lumotlarni taqdim etadi. Analitik va sintezator turli manbalardan olingan ma'lumotlarni bir necha darajada tahlil qiladi va umumlashtiradi, shuningdek, oʻzgarishlarni anglash uchun konseptual ramkalar va metaforalarni ishlab chiqadi. Tarjimon murakkab materiallarni tashkilotning oʻziga xos, dinamik tiliga va amaliy faoliyatiga moslashtiradi. Hamjamiyat fasilitatori esa gʻoyalar atrofida ishtirokchilarni birlashtiradi, hamkorlik muhitini shakllantiradi va ichki tarmoqlardan samarali foydalanishni ta'minlaydi [5].

Strategiya boʻyicha maslahatchi sifatida oʻqituvchilar ishonchli maslahatchi rolini bajaradilar va bu faoliyat faqat ekspert tavsiyalari berish bilan cheklanmaydi. Ishonchli

maslahatchi talabalar bilan chuqur va barqaror aloqalarni rivojlantiradi, ularning muammolari va maqsadlarini har tomonlama tushunadi. Ushbu rol muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mazmunli hamkorlikni rivojlantirish, moslashtirilgan va yuqori ta’sirga ega yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bashorat qilish ushbu rolda strategik ahamiyat kasb etadi. Kelajakdagi imkoniyatlar va xavf-xatarlar haqidagi tasavvurlar strategik aktivga aylanib, o‘qituvchiga talabalarga kelajak noaniqliklarini samarali yengib o‘tishda ko‘maklashish imkonini beradi.

Mazkur ta’lim trayektoriyalarining barchasi texnologik bashoratga bo‘lgan ehtiyojni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. So‘nggi o‘n yil davomida Janubiy Afrika, Norvegiya va Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlar texnologiyani bashorat qilish dasturlarini joriy etib, deyarli cheksiz texnologik variantlar orasidan tanlov qilish va ularni boshqariladigan, istiqbolli imkoniyatlar majmuasiga birlashtirish imkoniga ega bo‘ldilar. Ushbu variantlar mamlakatlarning umumiy strategik maqsadlari va ehtiyojlariga mos kelishi hamda mavjud kuchli jihatlariga tayangan holda tanlanishi lozim [6].

Muvaffaqiyatli texnologik bashorat kuchli iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi, mamlakatlarga global raqobatda ustunlikka erishish imkonini beradi hamda innovatsiyalarni kelajakdagi global muammolarga mos ravishda kengaytirishga xizmat qiladi. Texnologiyani bashorat qilish sohasida muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlar qatoriga AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Koreya va Xitoy kiradi.

Mamlakatlar texnologik bashoratni amalga oshirishda turli yondashuvlardan foydalanadilar. Ushbu yondashuvlar mutaxassislar intervyulariga asoslangan sof sifat metodlaridan tortib, katta hajmdagi ma’lumotlarga tayanuvchi miqdoriy usullargacha bo‘lgan spektrni qamrab oladi. Masalan, uzoq muddatli imkoniyatlarni aniqlashda muayyan texnologiyaga oid patentlar, ilmiy nashrlar yoki startaplar sonini kompleks tahlil qilish amaliyoti keng qo‘llanilmoqda. Odatda, bashoratli topshiriqlar muvozanatli metodologiyani ta’minlash maqsadida bir nechta yondashuvlarning kombinatsiyasiga asoslanadi [7].

Texnologik bashoratda muvaffaqiyatga erishish uchun tadqiqotlar asosida sinovdan o‘tgan eng yaxshi amaliyotlarga amal qilish zarur. Garchi bashoratli topshiriqlar tabiatan spekulyativ bo‘lsa-da, ular o‘z-o‘zini amalga oshiruvchi bashorat sifatida milliy miqyosdagi innovatsion sa’y-harakatlarni yo‘naltirishi mumkin. Shu bois, ularni samarali joriy etish uchun quyidagi jihatlarni inobatga olish muhim: aniq ehtiyojlarga mos metodologiyani tanlash; istiqbolli innovatsiyalarni e’tibordan chetda qoldirmaslik uchun ta’lim natijalari va texnologik yangilanishlar o‘rtasida muvozanatni saqlash; bashorat ufqining vaqt oralig‘ini to‘g‘ri belgilash; bashorat natijalarini milliy strategik kun tartibiga moslashtirish; mutaxassislar tarafkashligining oldini olish; hisobotlarning amaliy harakatlarga olib kelishini ta’minlash; hamda texnologik bashorat topshiriqlari uchun muntazam amalga oshirish chastotasini belgilash [4].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, texnologik bashorat dasturlarining muvaffaqiyat ehtimolini maksimal darajada oshirish uchun amal qilinishi lozim bo‘lgan o‘nta eng yaxshi amaliyot mavjudligi asoslandi. Texnologiyani bashorat qilishga doir topshiriqlar bir nechta, aniq belgilangan vaqt ufqlarini qamrab olishi mumkin. Sanoat sohasining xususiyatlariga qarab, texnologik prognozlash odatda 10–15 yillik o‘rta muddatli istiqbolni, texnologik bashorat esa 15–30 yillik uzoq muddatli ufqlarni qamrab oladi. Ushbu vaqt oralig‘ining har biri o‘ziga xos maqsadlarga xizmat qiladi.

Xususan, prognozlash faol ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari va innovatsion sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishga, shuningdek, mamlakatning joriy rivojlanishi uchun ustuvor iqtisodiy yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Bashorat esa uzoq muddatli istiqbolda milliy iqtisodiyot shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan buzuvchi (disruptiv) texnologiyalarni aniqlash imkonini beradi. O'rta muddatli prognoz yo'nalishida ko'rib chiqilayotgan texnologiyalar, odatda, allaqachon paydo bo'lgan va kamida qisman ishlab chiqilgan bo'lib, ularni aniqlash va tahlil qilish nisbatan osonroq kechadi.

Aksincha, uzoq muddatli istiqbolga nazar tashlash yuqori darajadagi noaniqlik bilan tavsiflanadi, chunki bunday texnologiyalar ko'pincha nazariy konsepsiyalar yoki hatto ilmiy-fantastik g'oyalar doirasidan tashqariga chiqmasligi mumkin. Shu bois, qaysi vaqt ufqi bilan ishlanayotganini aniq belgilash va unga mos ravishda metodologik yondashuvni moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik bashorat keng ko'lamli imkoniyatlarni aniqlab berishi mumkin, biroq agar ushbu imkoniyatlar mavjud milliy innovatsion va ta'lim siyosatiga, shuningdek, mamlakatning mavjud kuchli jihatlariga mos kelmasa yoki ularni rivojlantirishga hissa qo'shmasa, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimoli past bo'ladi. Masalan, kvant hisoblash kabi yuqori talabga ega texnologiyalarga e'tibor qaratish, noldan shakllantirilishi qiyin bo'lgan kuchli akademik va ilmiy-tadqiqot salohiyatini talab etadi.

Shu sababli, texnologik bashorat topshiriqlari natijalari mamlakatning ijtimoiy-madaniy konteksti, qiyosiy ustunliklari va umumiy sanoat bazasiga mos kelishi zarur. Istiqbolli texnologiyalardan qanday foydalanish va ular asosida milliy salohiyatni mustahkamlovchi yangi imkoniyatlarni yaratish masalalarini, ayniqsa, ularning rivojlanishning dastlabki bosqichlarida aniqlab olish muhimdir. Jamiyat tomonidan boshqariladigan innovatsiyalarni milliy darajada rag'batlantirish resurslar va sa'y-harakatlar o'rtasida yuqori darajadagi uyg'unlikni ta'minlaydi hamda kompaniyalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasida innovatsiyalarning umumiy strategik yo'nalishiga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti: monografiya. – T.: Fan, 2009. – 145 b.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: dis. ped. fanl. d-ri. – T.: TDPU, 2007. – 305 b.
